

DILSHOD G'AYIPOV

O'ZBEK  
ADABIYOTI  
TARIXI

83 .Ya-73

9 ta

G-28

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**G‘AYIPOV DILSHOD QADAMBAYEVICH**

# **O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI**

*(XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari)*

60230100 - Filologiya va tillarni o‘qitish (tillar  
bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha

**O‘quv qo‘llanma**



**Toshkent – 2023**

O'DK 821.512.133  
BBK 84.4(50')  
G 28

Ushbu o'quv qo'llanma Urganch davlat universiteti rektorining 2023-yil 20-apreldagi 59-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan va 12-raqam ostida ro'yxatga olingan.

**Mas'ul muharrir:** filologiya fanlari doktori, professor **Nurboy Jabborov**

**Taqrizchilar:** filologiya fanlari doktori, professor **Zeboxon Qobilova**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent **Is'haqjon Ismoilov**


**Gayipov, Dilshod**

O'zbek adabiyoti tarixi. (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari)  
Matn/O'quv qo'llanma/ Dilshod Gayipov.– Toshkent: "Firdavs-Shoh nashriyoti". 2023.–272 b.

Mazkur qo'llanmada XIX asr ikkinchi yarmi va XX asrning 30-yillariga cha bo'lgan davr o'zbek adabiyoti tarixi xususida so'z boradi. Shuningdek, o'rganilayotgan davrda yashab ijod etgan milliy adabiyotimiz vakillarining hayoti va faoliyati, adabiy merosi, ular ijodining o'zbek va jahon adabiyotshunosligida o'rganilishi, badiiy tafakkurdagi evrilishlar, adabiy tur va janrlar taraqqiyotidagi yangilanishlar ilmiy tahlilga tortilgan.

Qo'llanma filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'lim yo'nalishining 3-kurs talabalari, magistrantlar, adabiyotshunoslar, shuningdek, barcha adabiyot ixlosmandlari uchun mo'ljallangan.

ISBN 978-9943-9361-5-7



© D. Gayipov, 2023

© "Firdavs Shoh" nashriyoti, 2023

## KIRISH

O'zbek xalqi tarixida XIX asrning 2-yarmi – XX asr boshlari ulkan tarixiy voqealarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu davr jahon sivilizatsiyasi beshigi sanalgan Vatanimiz osmonini qora bulutlar qoplagan yillar bo'lgan. Ushbu yillarda, ya'ni mustamlakachilik siyosatini o'rnatgan chor Rossiyasi hukmronligi davrida yurtimizda xalqni ezishga asoslangan siyosat hukm surdi, ona-diyorimizda til, madaniyat, urf-odatlar, milliy qadriyatlar poymol etildi.

G'oyat murakkab kechgan bu davr voqealari milliy uyg'onish davri adabiyoti asosini belgilaydi. Shuningdek, chor Rossiya-si bosqini va mustamlakachilik siyosati Turkiston elining milliy adabiy-tarixiy taraqqiyotiga to'siq bo'lolmadi, aksincha, vaziyat ma'naviy ijod sohiblari tomonidan milliy uyg'onish, millatning o'zligini anglash va anglatish jarayonini yetiltirdi.

Taniqli adabiyotshunos B.Qosimov e'tirof etganlaridek, "milliy uyg'onish mintaqamizda jadidchilik shaklida namoyon bo'ldi".<sup>1</sup>

Turkistondagi mavjud sharoit, ya'ni qoloqlik va jaholat, o'lka aholisining ayanchli ahvoli, qo'hna Turonning Yevropa va jahon sivilizatsiyadan orqada qolib ketishi, Islom va milliy qadriyatlarning, millat sha'nining oyoqosti qilinishi, 1905, 1916, 1917 yil voqealari<sup>2</sup> – bularning barisi jadidlarni ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida maydonga chiqish hamda xalqni jaholat uyqusidan uyg'otish zaruriyatini tug'dirgan edi.

Albatta, sovetlar tomonidan ularning uzoqni ko'zlagan yuksak

---

<sup>1</sup> Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. (Дарслик) Т. Маънавият, 2004. 3-бет.

<sup>2</sup> Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. (Дарслик) Т. Маънавият, 2004. 3-бет.

maqsadli harakatlarini bostirish, hatto, jisman yo‘q qilish rejalari ham amalga oshirildi. Shuningdek, milliy tariximiz va adabiyotimizda jadidchilik (milliy uyg‘onish) harakatining taraqqiyot va tugatilishi davri 1905–1929-yillar deb belgilandi.

Milliy uyg‘onish davri adabiyoti XIX asrning oxiri – XX asr boshlaridagi ijtimoiy voqelikning, shu davr ilg‘or ziyoli qatlamlari (jadidlar)ning yuqori saviyadagi fikr-u qarashlari, xatti-harakatlarining badiiy ifodasi edi. Binobarin, bu davr ijodkorlarining maqsadi esa aniq: turkiy-islomiy, huquqiy merosni millat ichida keng va teng yoyish, hurfikrlilik, taraqqiyot va milliy istiqlol uchun kurash edi. Shuning uchun ham ularning ijod mahsullari millatni uyg‘otgan, uni istiqlolga yetaklagan chinakam adabiyotga aylandi. Ushbu o‘quv qo‘llanmada ana shu davr adabiyoti xususida so‘z boradi

*Muallifdan*

# XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA IJTIMOIY-SIYOSIY, MADANIY HAYOT

## Reja:

1. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat.
2. XIX asr oxiri – XX boshlarida Turkistonda madaniy hayot.
3. Turkiston davriy matbuotida mahalliy xalqlarining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvolidan yoritilishi.
4. XIX asrning oxiri – XX asr boshida jadidlar dunyoqarashiga taʼsir etgan omillar.

*XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat.* Oʻrta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi 1885-yilda Pomir posti tasdiqlanishi va Afgʻoniston chegarasi belgilanishi bilan hujjatli ravishda yakun topdi. Kaspiy dengizidan Pomirgacha boʻlgan barcha hudud chegaralab chiqildi, uning shimoli, garchi Buxoro va Xiva zohiran mustaqil koʻrinsa-da, Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylandi<sup>3</sup>. Rossiya kapitalizmi jahon kapitalizmining eng qoloq qismi edi. Nikolay II hukumatida yangi mustamlakalarga qoʻyish mumkin boʻlgan sarmoya yoʻq edi. Oʻrta Osiyoda katta armiya tutib turilar, harbiy yurishlar uzluksiz olib borilar, buning uchun katta xarajatlar talab qilinar edi. Oʻrta Osiyoda kapitalizm rivojlanishining xususiyati Rossiya sarmoyasining yarmidan koʻpi sanoatga emas, eng koʻp foyda olish kafolatlangan savdoga qoʻyilgandi. Ishlab chiqarishga sarmoya qoʻyish bu darajada samara bera olmasdi. Olingan ulkan foyda ish-

<sup>3</sup> Nazarov. Oʻzbek falsafasi. –T., 2003.

lab chiqarishni kengaytirishga sarflanmas, balki amalda to'lig'icha Rossiyaga oqib borardi. Sanoatga qo'yilgan mablag'ning 30 foizi paxtaga dastlabki ishlov berishga sarflanardi. Bu xomashyoni qayta ishlashning birgina qismini — tozalash yoki moy ishlab chiqarishni anglatardi. Keyingi ishlov Rossiyaning sanoat korxonalarida davom ettirilardi. Xomashyoning boshqa turlari — jun va teriga ishlov berishda ham ahvol shu edi, mahalliy zavodlarda ularga ishlov berishning dastlabki bosqichi bilan shug'ullanilardi. Turkiston general-gubernatorligida 600 zavod ishlab turardi, qo'l mehnati ko'p bo'lgani uchun ularni nisbatangina zavod deb atash mumkin edi. Bu korxonalarda 20 ming ishchi ishlardi, ya'ni har bir zavodga ko'pi bilan 35 kishidan to'g'ri kelardi. Mahalliy sanoat ishchilari xonavayron bo'lgan dehqonlar yoki ishsiz qolgan hunarmandlar hisobidan ortib borar edi. Rossiyadan sanoat mahsulotlari keltirilishi munosabati bilan Turkistonning kosib-hunarmandchiligi asta-sekin siqib chiqarilmoqda edi. Korxonada ish kuni 16 soat davom etardi. Ishchilar huquqini himoya qiladigan tashkilotlar yo'q edi, shikoyat bilan hech kimga murojaat etib bo'lmasdi. Podsho Rossiyasining Turkiston borasidagi barcha rejalari paxtachilikni rivojlantirish bilan bog'liq edi. Butun o'lkani ulkan paxta dalasiga aylantirish, paxta bilan Rossiyani ta'minlab qolmay, balki uni tashqi bozorga ham chiqarish mo'ljallangan edi. Farg'ona, Sirdaryo va Samarqand viloyatlari paxta yetishtiriladigan eng muhim markazlardan bo'lib qolishi lozim edi<sup>4</sup>. Keng irrigatsiya tizimini yo'lga qo'ymay paxta yetishtirib bo'lmasligini anglagan holda o'lkada tadqiqot jarayoni va sug'orish kanallarini qurish ishlari boshlandi. 1891-yilda 200 desyatina yerni sug'orish mumkin bo'lgan kanal qurildi. Mevazor bog'lari, g'o'za unib turgan dalalari, polizlari bo'lgan yangi shaharchalar paydo bo'ldi. 1911-yilda Sirdaryoda magistral kanalni bunyod etish ishlari boshlab yuborildi va 1913-yilga kelib bu ish tugallandi. Biroq Toshkent vohasida, Samarqand viloyatida va Farg'ona vodiysida dalalarni sug'orish bo'yicha loyihalarning ko'pi bajarilmay qoldi.

<sup>4</sup> Nazarov. O'zbek falsafasi. —T., 2003.

Podsho hokimiyati chiqargan farmon bo'yicha sug'oriladigan yerlarga, asosan, xristian dinidagi barcha rus fuqarolari joylashishi mumkin edi Ahamiyatiga ko'ra paxta neft va oltindan keyingi o'rinda turuvchi yuqori daromadli tovardir. Paxta yetishtiriladigan mintaqada joylashgan davlat ulkan boylikka ega hisoblanadi, chunki jahonda paxtaga ehtiyoj muntazam ortib boradi. Lekin uning serdaromadligi davlatning o'z mahsulotini qanchalik erkin tasarruf etishiga bog'liq edi. Turkistonda yetishtirilgan paxtani podsho hukumati to'lig'icha tasarruf etardi, oqibatda paxta podsho Rossiyasining boyish manbayiga va mahalliy aholini qashshoqlashuvi hamda xonavayron bo'lishi sababiga aylandi.

Turkistonda agrar xomashyo qo'mitasi sifatida asta-sekin jahon bozor xo'jaligi tizimiga tortildi. Qishloqlarda ham tovar-pul munosabatlari rivojlana boshladi. Natijada dehqonlar xonavayron bo'lib, yeridan mahrum bo'lardi, qishloqda chorakor, ya'ni ijaragir asosiy ijtimoiy kuchga aylanib bordi. Chorakor yetishtirilgan mahsulotning bor-yo'g'i chorak qismini o'ziga olib qoldirdi. Xo'jayin unga yer, mehnat qurollari, urug'lik berardi, ayni mahalda soliq va yig'im-terim xarajatlarini chorakorning hissasidan olib qoldirdi. Chorakor ishni bajarish uchun mardikor yollashi mumkin edi. Qishloqlarda shu tariqa yangi ijtimoiy zanjir: yer egasi bo'lgan boy – sudxo'r – kreditor – chorakor – mardikor shakllanadi. Chorakorlarning ko'pchiligi yeri kam yoki yersiz dehqonlardan iborat edi. Ular sudxo'r xo'jayindan qancha qarzdorligini hech qachon aniq bilmagan. Chorakordan: "Qancha qarzing bor?" – deb so'raganlarida, u doimo: "Daftar xo'jayinning qo'lida", – deb javob bergan.

Turkistonning boyligini transport tizimini rivojlantiribgina tashib ketish mumkin edi. Millionlab toy paxtani karvon yo'llaridan olib ketish qiyin edi va qimmatga tushar edi. Yuklarni arzon va oson yo'l bilan tashib ketish uchun temiryo'l talab qilindi. Turkistonda birinchi temiryo'l 1880-yil iyunda qurildi. General Skobelev Krasnovodskdan Qizilarvatga artilleriyani tashib olib borish uchun



qum orqali 70 km uzunlikda birinchi temiryo‘l qurishni buyurdi. 1881-yilda temiryo‘l Qizilarvatgacha yetib bordi va uning uzunligi 217 kmga yetdi. Bu paytda poyezdlarni otlar tortmasdi, ular bug‘ vositasida yurardi. 1885-yil may oyida temiryo‘lni Ashxobodgacha yetkazish bo‘yicha qurilish ishlari boshlandi. 1888-yil noyabrda Amudaryo ustiga ko‘prik qurildi va uning ustidan Samarqandga birinchi poyezd o‘tdi. 1898–1899-yillarda Toshkent va Andijongacha bo‘lgan oraliqda temiryo‘l qurilishi yakunlandi. 1906-yilda Orenburgdan Toshkentga qadar 2 ming kilometrdan ziyod uzunlikdagi temiryo‘l ishga tushdi. 1914-yildan 1916-yilgacha Namangan – Jalolobod – Farg‘ona – Andijon – O‘sh temiryo‘li qurib bitkazildi, bu yo‘l Rossiyaning Xitoy chegaralarigacha olib chiqardi. Endi Farg‘onadan Moskvagacha yuk tashish vaqti bir yarim oydan 4 sutkagacha qisqardi. Ayni shu paytda Samarqand – Buxoro – Qarshi – Termiz temiryo‘li qurilib, Rossiya Afg‘oniston chegaralarigacha chiqish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Temiryo‘l qurilishi ikki xil ahamiyatga ega edi. Bir tomondan, temiryo‘l paxtakor mintaqalar yaqinidan o‘tar va u yerlardan paxta, foydali qazilmalar, rangli metallarni tashib ketish oson bo‘lar edi. Turkistondan Rossiyaga paxta, sholi, mevaqoqi, paxta moyi, neft, mazut, kerosin, tuz, ipak, jun va boshqa ko‘plab narsalar tinmay tashib ketilardi. Ikkinchi tomondan, temiryo‘l harbiy ahamiyatga ham ega edi. U Krasnovodskdan Andijongacha borar, bu yo‘l orqali qo‘zg‘olonlarni bostirish uchun qo‘shinlarni bir o‘lkadan boshqasiga tezlik bilan yetkazish imkoniyati yaratilgan edi.

Turkistonda don yetishtirish keskin kamaydi, bu esa aholini oziq-ovqat mahsulotlarini Rossiyadan keltirilishiga bog‘liq qilib qo‘ydi. Kambag‘allashib borayotgan dehqonlar o‘z yerlarini sotishga majbur bo‘lishdi, bu oz yerli va yersiz dehqonlar sonining o‘ta darajada ko‘payishiga olib keldi. Turkistonning Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylanishi nafaqat dehqonlarni, shu bilan birga hunarmandlar ahvolini ham juda og‘irlashtirdi. Rossiyaga tashib ketilgan paxta gazlama, satin sifatida Turkistonga qaytarilar-

di, bu esa o'z buyumlarini O'rta Osiyogagina emas, balki qo'shni chet mamlakatlarga ham yetkazib berib turgan o'n minglab to'quvchilar sulolarini tirikchilik manbayidan mahrum qilib, mahalliy hunarmandchilik sanoatini xonavayron qilardi.

Rossiya kapitali Turkistonni o'z sanoat mollarini sotadigan monopol bozorga aylantirib, un jahon bozoriga jalb etdi, biroq Rossiya tovarlarining keltirilishi asrlar davomida mavjud bo'lgan mahalliy hunarmandchilikni siqib chiqardi. Boshqa tomondan Rossiya kapitali Turkistonning metropoliyaga qaramligini kuchaytirish uchun ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga to'sqinlik qilardi. Shunday qilib, Rossiya kapitali mustamlaka xo'jalikka yangi bozor munosabatlarini joriy etib, Turkiston xo'jaligining natural shaklini, uning biqliqligini buzdi.

Qisqa umumiy xulosalar sifatida quyidagilarni sanab o'tamiz:

– 1874-yil — Turkistonda Davlat bankining Toshkent bo'limi ochildi;

– 1881-yil — birinchi O'rta Osiyo tijorat banki ochildi;

– Samarqand – Toshkent – Andijon temiryo'l qurildi;

– aholi sudxo'rlar tomonidan talandi;

– chorakorlar qishloqlarda asosiy ishlab chiqaruvchi kuch bo'lib qoldi;

– 1884-yil — paxta navining yangi turi yaratildi;

– qishloq xo'jaligi bozorlar uchun ishlay boshladi;

– Rossiya kapitali mahalliy sanoatni cheklay boshladi.

*XIX asr oxiri – XX boshlarida Turkistonda madaniy hayot.*

Adabiy harakatchilik XVII–XIX asrlardagi kabi uch mustaqil xonlik doirasida emas, Rusiyaga mutlaq tobe Turkiston general gubernatorligi hamda yarim vassal Buxoro va Xivada uyushdi. Bu hol badiiy asarlarning mavzu-mundarijasidagina emas, til xususiyatlaridan janrlar poetikasigacha o'z izini qoldirdi. Milliy uyg'onish, millatning o'zligini anglash jarayoni mazkur davr adabiyotining ruhi va mazmunini tashkil qildi. Buni adabiyotshunoslik o'tgan asrning 20-yillaridayoq e'tirof etgan edi. Milliy uyg'onish birgi-

na adabiyot doirasida qolgani yo‘q, ijtimoiy turmushning barcha qatlamlarini qamrab oldi, hatto “bosmachilik” nomi bilan “g‘alati mashhur” bo‘lib tarixga kirgan hodisaning ham mafkurasi milliy uyg‘onishga, uning samarasi bo‘lmish mustaqillik uchun kurashga kelib bog‘lanardi. Milliy uyg‘onish mintaqamizda jadidchilik shaklida namoyon bo‘ldi. Va u 20-yillarning o‘rtalarigacha davom etdi. 1926-yildan sovetlar unga qarshi keng ko‘lamda kurash boshladilar. 1929-yildan ularni jismoniy tugatish yo‘lga qo‘yildi. Binobarin, bu harakatning yuzaga kelishi bevosita istilo va uning oqibatlarini bilan bog‘langan bo‘lib, uning shakllanish davrini 1865–1905-yillar bilan belgilamoq kerak bo‘ladi. 1905-yil voqealari, xususan, 17-oktabr Manifestidan keyin u rivojlanish bosqichiga kirdi. 1916-yilga kelib, jadidlarimiz “qora xalqni oqartirmoq va ko‘zin ochmoq chorasiga” (Avloniy) kirishdilar. Mamlakat hayotida o‘chmas iz qoddirgan 1916-yil mardikorlar qo‘zg‘olonida jadidlarimiz xalq bilan yonma-yon turdilar. Afsuski, tarix istiqlolni egallash uchun noyob bir sharoit yaratgan 1917-yilning fevraliga xalqimiz lozim darajadagi tayyorgarlik bilan yetib kela olmadi. Butun Rusiya kabi Turkistonni ham “bolshevik balosi” (Fitrat) qoplab oldi. Shunga qaramay, taraqqiyparvar fidoi ziyolilarimiz mustaqillik uchun kurashni to‘xtatmadilar va 1917-yilning 27-noyabrda Turkiston muxtoriyatini e‘lon qildilar. Turkiston (Qo‘qon) muxtoriyati uch oyga yetmay, sho‘rolar tomonidan shafqatsizlarcha yo‘q qilindi. “Millatchi” deya nom olgan millatparvarlarimizning omon qolganlari tog‘- Toshlarga qochib, kurashni davom ettirdilar va Vatan ozodligi yo‘lida shahid ketdilar. Bu jarayon 20-yillarning oxirigacha davom etdi. Binobarin, 1905–1929-yillar jadidchilik (milliy uyg‘onish) harakatining taraqqiyot va tugatilish davridir<sup>5</sup>.

Birinchi general gubernator mustaqil hukmdor bo‘lib, faqat podshoga hisob berar edi. Yangi hukmdor ishni Turkistonning

<sup>5</sup> Qosimov. Milliy uyg‘onish: Jasorat, ma‘rifat, fidoiylilik. –T., Ma‘naviyat, 2002.

sha'ni va sharafi bo'lib kelgan Samarqandni egallashdan boshladi. 1868-yilda shahar ruslar qo'liga o'tdi. Buxoro amiri Amir Muzaffar Kaufmanning og'ir shartlariga ko'nib, sulh tuzdi. Buxoro xalqi amirning taslimchilik siyosatidan qattiq norozi bo'ldi. Amirning qarshida hokimlik qilib turgan o'g'li Abdumalik to'ra (1848-1909) sulhga qarshi isyon ko'tardi. Kenagas beklari Hakimbek va o'g'li Shahrisabz begi Bobobek, Kitob begi Jo'rabek Abdumalik to'raga kelib qo'shildilar. Kenesarining o'g'li Sulton Sodiq yordamga keldi. Chelakda Abdulg'afforbek, Nurotada Nazar Nayman bosh ko'tardilar. Amir Muzaffar general Kaufmanga murojaat qildi. Rusiya qo'shini yordamida mustaqillik uchun kurashga chiqqan vatanparvar farzandlarni yo'q qilishga kirishdi. Xalq bu farzandlarning jasorati haqida she'rlar, dostonlar to'qidi. Dushmanni:

Kelibdur ahli kofir so'yi islom qasdi qatl aylab,

Umid shuldur, alar birlan ajoyib korzorim bor.

Agar chandi yarog'-u hiyla-u tadbirimiz yo'qdur,

Vale o'zbek erurmiz, ko'ngluma ming turluk orim bor –

satrlari bilan qarshilagan qarshilik shoir Xayoliy "Xudoyo, kofir elni poymoli To'rajon qilg'il", – deb Abdumalik to'raning Vatan va Millatga muhabbatini olqishlab chiqdi. Xuddi o'sha yili general K.P.Kaufman Qo'qon xoni Xudoyorxon bilan shartnoma tuzib, xonlikdan bosib olgan yerlarini qonunlashtirdi va Rusiya fuqarolarining cheksiz huquq va imtiyozlarini ta'min etdi. Istilo va yangi hokimiyatga qarshi qo'zg'olonlar boshlandi. Ayniqsa, "Oloy malikasi" nomini olgan Qurbonjon dodxoh (1811–1907) harakatlari Rusiya hukumatining Turkistondagi saltanatini larzaga soldi. Xudoyorxon ham Amir Muzaffar singari xalqning bu harakatini bostirishda Kaufmandan yordam so'radi<sup>6</sup>. Biroq unga taxtga qaytish nasib etmadi. Kaufman imkondan foydalanib, xonlikni tugatib, uning o'rnida Farg'ona viloyatini tuzish haqida ko'rsatma berdi.

XIX asrning ikkinchi yarmida ham an'anaga ko'ra Turkiston-

<sup>6</sup> Qosimov. Milliy uyg'onish: Jasorat, ma'rifat, fidoiylik. –T., Ma'naviyat, 2002.

ning shahar va qishloqlaridagi har bir mahallada masjid va uning qoshida maktablar bo'lgan. Yirik qishloq va shaharlarda bir necha mahalla uyushgan joyda madrasalar ish ko'rgan. Masalan 1890-yili Buxoroda 217 masjid, 185 madrasa bor edi. 1917-yil 26-noyabrda Qo'qon shahrida 392 masjid, 40 madrasa qayd etilgan. 1884-yili Qrimdagi Boqchasaroy shahrida Ismoilbek Gasprali "usuli jadid" ("usuli savtiya") degan yangi o'quv usuliga asos soladi. 90-yillarda bu yangi usul Turkistonga yetib keladi. 1893-yil Ismoilbek Gaspralining o'zi Buxoroga kelib, amir bilan uchrashad va yangi maktab ochishga muvaffaq bo'ladi. U bilan birga kelgan shirvonlik Majid G'anzoda esa Samarqandda 40 kun qolib, "usuli savtiya"ni o'rgatadi<sup>7</sup>. Bunday maktablar (Chor hukumatining maqsad va intilishlariga zid o'laroq) Toshkent, Andijon kabi shaharlarda ham ochila boshlaydi. A.V.Pyaskovskiy ma'lumot berishicha, 1895–1901-yillarda Toshkentda to'rtta usuli jadid maktabi bor edi. 1900-yili Andijonda ham shunday maktab ochildi. 1907-yili Turkistonda 30 jadid maktabi bo'lib, 1300 bola o'qir edi. Chor hukumati bunga qarama-qarshi holda rus-tuzem maktabiga zo'r berdi. 1884-yili Toshkentda birinchi rus-tuzem maktabi ochildi, 1891-yili Xivada, 1894-yili Buxoroda tashkil qilindi. 1892-yili o'lkaning o'zida ularning soni 21 taga yetdi. 1917-yilning boshlarida Turkistonda 170 rus-tuzem maktabi bor edi. Maktablar rus ma'murlariga mahalliy xalq orasida ruscha biladigan yordamchi xizmatchilar yetkazishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Aslini olganda, rus hukumatiga so'zamol, haqtalab xizmatchilar emas, ruscha tutilib-tutilib gapiradigan chalasavodlar, xo'jayin tomoq qirsa dik etib xizmatga turadigan itoatkorlar kerak edi. Bu maktablarning ko'proq shunga xizmat qilishi ko'zda tutilgan edi.

***Turkiston davriy matbuotida mahalliy xalqlarining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvolidan yoritilishi.*** XX asr boshlaridagi mahalliy milliy matbuotda Turkiston xalqlarining ijtimoiy-siyosiy,

<sup>7</sup> Sh.G'affarov. Istibdod davrida Turkistondagi ta'lim tizimi. – Samarqand: SamDU nashr, 2000.

qisodiy hayoti muntazam yoritilib, omma e'tibori bu voqea-hodisalarga jalb qilingan. Bu borada milliy ziyolilarimiz — jaddilar boshchiligida nashr qilingan gazeta va jurnallarning xizmatlari ahoyatda kattadir. Biz bularni bir qator mahalliy davriy nashrlar faoliyatida ko'rishimiz mumkin. Misol uchun ilk milliy nashrlarimizdan "Taraqqiy" gazetasida e'lon qilingan ma'lumotlarni va bosilgan maqolalarni keltirib o'tishimiz mumkin. Mazkur gazetada bosilgan maqola va xabarlarining mazmuni asosan ilg'or g'oyalarini tarqatish, dini islomning mustamlakachilar tomonidan kamsitilayotganiga qarshi kurashish, milliy mustaqillikka erishish yo'llarini izlashdan iborat bo'lgan. U umumiy o'qitishni milliy tilimiz va odatlarimizdan kelib chiqib olib borish kerakligini qattiq talab qilgan edi. Gazetaning ilk satrlaridanoq bu g'oyalar to'la o'z aksini topa borgan. Jumladan, uning birinchi soni va ilk sahifasi shunday satrlar bilan boshlangan: "Biz musulmonlarning hurriyatga haqlari bormu? Yo'q! Qarindoshlar, yuz martaba yo'q!.. Bu ikki yil ichida hamma xalq tortishdi, kurashdi. Musulmonlar esa uxlashdi. Peterburg, Moskva va boshqa joylardagi tortishuvlar, mehnatkashlarning haq-huquq talashganini ko'rib bizning bolalarimiz bizni vahshiylar deb atarlar"<sup>8</sup>.

Mana shu satrlarning o'ziyoq, biz o'rganganchalik xalqni inqilob emas, balki milliy mustaqillik uchun kurashga chorlovchi bir da'vat ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi. "Duma xususida" deb nomlangan maqolada gazeta Rossiya hukumatining qoloq siyosati, yangi tuzilgan Dumaning xalq ahvolini yaxshilay olmasligi haqida fikr yuritadi. Rivojlanish va yuksalishda ilgarilab ketgan Fransiya ham Angliyada davlatchilikning qonun va nizomlari mustahkamligi, ularning xalq hayotini yaxshilashga qaratilgan tomonlari yoritib beriladi: "... obodligi baland darajaga yetg'on mamlakatlarda (Fransiya, Angliya) mamlakatdorlikning — qonuni o'z ma'nig'a muvofiq bo'lmay qolg'on nizomlarini mansux qilmoq va yan-

<sup>8</sup> Абдуазизова Н.А. Миллий журналистика тарихи (Генезис ва эволюция) I Биринчи жилд, — Т.: Шарк, 2008. — Б. 139

gi nizomlarni chiqarmoq yurtning sohib fuqarolarning ixtiyorida erur. Yurt bul xususda sohib ixtiyor va iqtidor bo'lib, o'z ichidan mo'tabar va inobatlik odamlarni saylab alarni parlament, ya'ni Dumag'a yuboradurki, ul saylangan deputatlar (vakillar) parlament, ya'ni Dumaning majlislarinda jami fuqarolarga manfaat yetkurdurgon nizom va qoidalarni ittifoq bilan ixtiro aylab alarni mustahkam qilmoq uchun mamlakatning boshlig'iga manzur qilurlar. Mamlakat boshlig'iga joizdurki, ul qoidalar anga ma'qul bo'lmasa, alarni uch martag'acha rad qilg'ay". "Felyeton" rukni ostida nashr etilgan Munavvarqori Abdurashidxonovning "Bizning jaholat — jahli murakkab" sarlavhali maqolasi o'sha davrda beqiyos ahamiyatga molik bo'lgan hodisa edi. Maqolada muallif qalamga olgan salbiy illatlar — maktab va madrasalarning qoloqligi, muallimlar zamonaviy ta'lim-tarbiya usullaridan bexabarliklari barobarida, bu usullarni egallab olishga intilmayotganidan qattiq tashvish tortadi. Shu bilan birga johil muallimning kaltagi zarbidan talabaning vafot etish holati yuz bergani, shunday holatda ham ta'lim-tarbiyani isloh qilish uchun hukumat jon kuydirmayotgani va kuydirmasligini isbotlab bergan. Bunday hollar esa millatning bosqinchilar asoratida qolib ketishiga zamin hozirlashini to'la asoslab bergan: "... har millatning maktab va madrasasi o'ldug'i kabi bizning maktab va madrasalarimiz, garchi benizom va beusul bo'lsa ham, yo'q demak darajada oz emasdur. Va lekin dunyog'a nima uchun kelgonini bilmay ilm va maorifg'a aslo rag'bat qilmay jonidin shirin bolalarini ko'chama-ko'cha kezdurib bechora ma'sumni aziz umrini jaholat otashina yondiruvchi beahamiyat va bediyonat otalar ham oramizda oz emasdur. Ko'p dindoshlarimizni ko'farmizki, o'z farzandlarini aslo maktabg'a bermay orqalaridan ergashtirib ruslar eshigida o'zlari kabi xizmatchilikg'a o'rgatub, dunyo va oxiratni saodati o'lg'on ilm va maorifdin mahrum qilmoqdin hech bir ibo qilmaslar"<sup>9</sup>.

<sup>9</sup> Пидаев Т., Дўстқораев Б. "Тараққий" газетаси // Халқ сўзи. 1993. 11 июнь.

Millatning ertasini o‘ylab jon kuydirayotgan ziyolilarimizning barchasi bu jaholat millat asoratga tushishiga sharoit hozirlab berishini o‘sha davrdayoq, anglab yetib, bunday holga tushmaslik uchun qattiq kurash olib borganlar. Munavvarqorining yuqoridagi maqolasida quyidagi parcha jaholat insonni, ayniqsa, bitta millatni qay darajaga tushirib qo‘yish tasviri juda ham yuksak iqtidorning aks-sadosi, haqiqiy millatparvar xalqning nidosi edi: “...bu jaholat natijasida o‘zimiz yerlik musulmonlardan o‘ldug‘imiz holda musofir rus va yahudiyalar eshigida mardikor va xizmatchi o‘lduk. Va bu jaholat xohishidurki, millat foydasi uchun jonini qurbon qilmoqqa loyiq arslon kabi yigitlarimiz butun millatni o‘ylaridan chiqarib iste’dod va g‘ayratlarini choyxona va pivoxonalari g‘a sarf etmakedadurlar”<sup>10</sup>.

Maqola davomida Munavvarqori bu jaholatning aybdori kim, degan g‘oyani ilgari suradi. Va aytadiki, bu jaholatning aybdori bolasini o‘qitilmagan ota ham emas, chunki uning bolani o‘qitish uchun iqtisodiy tomondan qurbi yetmaydi. Buning aybdori maktab muallimlari va madrasa mudarrisilari ham emas. Mazkur yurt**da** buning aybdori hukmronlikni o‘z qo‘liga kiritgan va mustamlakachilik tarixida deyarli uchramagan bir odat — millatni asoratga ushishirish uchun uning milliy odatlari va milliy ma’naviyati, dini, ulini o‘rganishni cheklab qo‘yayotgan bosqinchilik tuzumi va shu tuzumning yurt, millatga keltirayotgan hamda keltirajak ofatlarini ko‘ra bila turib o‘zining halovatini o‘ylagan sotqin va xoin mahalliy hukmdorlar edi. “Ey vatandoshlar! Diqqat nazar ila boqing! Biz bolani maktab g‘a bermakdan maqsad: harom, makruq, namoz va ro‘za, haj, o‘z guvohlarini ham zaruriyati dunyoviya o‘lg‘on ilmi hisob, jo‘g‘rofiya, tarix, xususan, tarixi islom kabi foydalik ilmlarni bildurmoq o‘lg‘on holda johil domlallarni ta’limi falonni qoshi qaro, ko‘zi qaro, yuzi oq, so‘zi shirin deb bolalarni fasod axloqiga birinchi sabab o‘ladurg‘on manzuma kitoblar o‘lur”.<sup>1</sup>

<sup>10</sup> Пидяев Т., Дўстқораев Б. “Тараққий” газетаси // Халқ сўзи. 1993. 11 июль.



Tarixdan ma'lumki, chor Rossiyasi bosqinchilari ingliz mustamlakachilari kabi o'z iqtisodiy va siyosiy mavqeyini oshirish, mustamlakadagi mamlakat boyliklarini o'zlashtirish va odamlarni fikri bilangina cheklanmay, ular bosib olgan millatlarning ich-ichiga singib ketmoq, o'zini ular bilan o'sha yerda teng huquqli voris qilib ko'rsatmoq hamda tub aholini butkul ruslashtirmoq siyosatini ham olib bordilarki, bu mahalliy xalqlar uchun eng tahlikali holat edi. Shuning uchun ham o'sha davrda hukumat amaldorlardan biri O'rta Osiyo aholisini xuddi rus mujiklari kabi ichkilikbozlikka o'rgatish lozim, degan gapni aytib o'tgan. "Taraqqiy" gazetasining "Toshkent axbori" sarlavhasi ostida berilgan maqolaga ko'ra, aholi o'rtasida ichkilikbozlik kuchayib ketgani va bu, shubhasiz, qandaydir maqsadlarni ko'zlab yo'lga qo'yilgan bir holat ekanligini, buning boshida juda katta kuch turganini to'la his qilamiz. "Bizni Toshkentda ichkulik va pivoxo'rlik chunon bo'ldiki, bosh bekatlarimizdan boshlab dumaxona ulug'larig'acha choy o'rniga pivoste'mol qilurlar. Na ulamolarimizdin va na hukumatlarimizdin bir kishi yo'qki, yigitlarimizni ichkulik ichmoqdin man qilsalar. Davlat Dumasig'a vakil saylamoq uchun aholi tarafidin ko'zlangan ulug'prelsedatellarimiz ichkulik ichib, mast bo'lib, aholi orasida beibo kezmakdalar. Ajabo! Buningday fasod axloq qanday noinsofidurki, aholiga va nasihat qilib iymon yo'lga qaytarmak va qaytmag'oni urub so'kub tazyiq bermoq vazifalari o'lg'on ulug'larimiz o'zlarini obro'yini rus qizlari ila gostinitsa zallarida barbod etmakdalar. Allohdan qo'rqib, xalqdan uyalmaslar"<sup>11</sup>. Gazetaning shu sonida berilgan "Madrasalarga oid" sarlavhasi ostidagi maqolada ham katta hayotiy haqiqat yotadi. Unda xon va beklar zamonida ko'p

<sup>11</sup> 1 Абдуазизова Н.А. Миллий журналистика тарихи (Генезис ва эволюция). Биринчи жилд, – Т.: Шарк, 2008. – Б. 142.

2 Абдуазизова Н.А. Миллий журналистика тарихи (Генезис ва эволюция). Биринчи жилд, – Т.: Шарк, 2008. – Б. 141.

3 Абдуазизова Н.А. Миллий журналистика тарихи (Генезис ва эволюция). Биринчи жилд, – Т.: Шарк, 2008. – Б. 139.

e'zozlanib, diqqat-e'tiborda turgan madrasalar va maktablarning bagungi ayanchli ahvoli o'z ifodasini topgan. Ularni isloh qilish vazifasi bo'lgan hukumatdorlar, ulamo va qozilar bu yo'lda aslojga koyitmayotganini, millatning taraqqiyotdan keyin ketishi ularni o'ylantirmayotgani yorqin lavhalarda tasvirlangan: "Toshkent madrasalarina kelganda mundog'i madrasa va shogirdlarning ahvolidin kamlar isloh qilurlar! Ulamolalar bo'lsalar, qozilarning so'zlaridindin e'tib bir ish qilolmasliklari uchun bul janoblardan isloh umid qilmog' to'qson yoshlik bir qari ajuzadan farzand umid etmak qabildindindir".

Maqolada qozilarimizning ilm islohida bu qadar befarq qarayotganining sababi izohlanar ekan, ularning mustamlakachi hukumat tomonidan tayinlangan mansabdorlarning buyrug'iga so'zsiz bo'ysunishi va shaxsiy manfaatlarini o'ylab o'z millatiga bu qadar og'ir savdo bo'lmish – jaholat va zulmni ravo ko'rayotgani aytib o'tilgan.

Umuman, Turkistonda ijtimoiy-siyosiy kuch ikki muhim yo'nalishda mavjud edi.

Turkistonda ishchilar harakatini tashkil etgan va unga rahbarlik qilgan bolsheviklar harakati.

O'lkaning afkor xalq ommasini madaniyatli, o'qimishli qilish yo'li bilan tutqunlikdan, zulmdan ozod etish, mustaqil mamlakat tuzish bilan bog'liq bo'lgan taraqqiyparvarlar.

Turkiston matbuoti tarixini o'rganganda ana shu holatlarni e'tiborga olish zarur.

*XIX asrning oxiri – XX asr boshida jadidlar dunyoqarashiga e'tibor etgan omillar.* XIX asrning oxiri – XX asrning boshi jahon sivilizatsiyasining taraqqiyotida keskin burilishlar davri bo'ldi. Bu davrda chuqur islohotlar, birinchi va ikkinchi jahon urushi bo'lib, bilim-fan taraqqiyotida tub sifatiy o'zgarishlar ro'y berdi. Bir jamiyatning butunlay yot jamiyat ta'sirida qolishi nafaqat hayotda, balki kishilarning falsafasida ham inqilob yasadi. XIX asrning oxiri

8147/1

– XX asrning boshida Markaziy Osiyoda ham boshqa mintaqalarda bo‘lgani kabi o‘zgacha fikrlovchi, yangicha qarash vakillar shakllanib bordi. XIX asrning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyoda ijtimoiy-iqtisodiy tuzum qoloq, fuqarolarning turmush tarzi o‘ta past edi. Insonlar dunyoqarashida tasavvuf falsafasi an‘analarini tiklashga intilish kuchayib borayotgan bir vaziyatda, unga qarshi kuchlar bilan tafovutlar kelib chiqdi. “XIX asr ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotda so‘nggi va keyingi yuz yillikning boshlanish davri bo‘lib, g‘oyaviy-nazariy va mafkuraviy qarashlarning shakllanish xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Jadidlar harakati vujudga kelguniga qadar Turkistonda turli ma‘naviy-g‘oyaviy va mafkuraviy oqimlar qadimchilar, islohotchilar, bedilchilar, mashrabxonlar, shuningdek, Markaziy Osiyo, umuman turkiy xalqlarga taalluqli bo‘lgan tafakkurning turli shakllari, ijtimoiy-falsafiy mazmun va yo‘nalishga ega bo‘lgan ma‘rifiy ta‘limotlar va nazariyalar mavjud edi”<sup>12</sup>.

Demak, bu davrda nafaqat jadidlar harakati, balki boshqa g‘oyaviy ta‘limotlar ham shakllandi. Kishilarning dunyoqarashida tasavvuf falsafasi an‘analarini tiklashga intilish kuchayib borayotgandi. Bu davrda o‘rta asr musulmon mutafakkirlarining asarlarini qayta nashr etish ishlari boshlandi. Kalom falsafasi, shariat axloqiga oid klassik adabiyotlar arab-fors tilidan turkiy tillarga tarjima qilinib nashr etildi. Masjid va madrasalarda bedilxonlik, diniy ulamolar tomonidan qadimchilik harakatlari, she‘rxonliklar avj oldi. O‘rta Osiyoda ma‘rifatparvarlik harakati kishilarning ilmfan taraqqiyotiga, umuminsoniy qadriyatlarga, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma‘naviy qoloqlikni bartaraf etishga bo‘lgan intilishining natijasi edi. Jadidlar turli mamlakatlardagi taraqqiyot va islohotlar uchun olib borilgan harakatlarning tajribasini milliy asosda qayta ishlashga intildi. Mustamlakachilikka qarshi kurashning bosh g‘oyasi ana shu murakkab sharoitda shakllanib yetildi. Bu davr

<sup>12</sup> Назаров. Ўзбек фалсафаси. –Т., 2003. 55-б.

haqida shunday deyilgan: "Tarixdan shu narsa ma'lumki, har bir kichik harakat ertangi katta harakatning zamini vazifasini o'taydi. Bu kungi mag'lubiyat ertangi g'alabaning amalga oshuvida ozmi-ko'pmi rol o'ynaydi. Busiz jamiyatning rivojini tasavvur etish qiyin"<sup>13</sup>. Jadidchilik Turkistonda XIX asrning oxirida maydonga kelgan, XX asrning boshida shakllanib, qisqa muddatda o'zining cho'qqisiga ko'tarilgan. Jadidchilik 1917-yilgi bolsheviklar to'ntarishidan keyin ham sotsialistik diktatura o'rnatilgunga qadar o'z mavqe va yo'nalishini saqlab qola olgan ijtimoiy harakatdir. Ba'zi manbalarda jadidchilik oqim deb atalsa, ba'zisida harakat deb aytiladi. Jadidlik oqim emas, harakat deb ta'kidlaydi B.Qosimov<sup>14</sup>. Ijtimoiy, siyosiy, ma'rifiy harakat yaqingacha ham ataylab faqat ma'rifatchilik harakati deb kelindi. Maqsad jadidchilikning doirasini toraytirish, sotsialistik-kommunistik mafkuradan boshqarish keng xalq ongini qamrab olishi, egallashi mumkin emas, degan soxta tushunchaning asorati edi. Jadidshunos olim B.Qosimov jadidlik harakatining xarakter va muddaosini 3 turga bo'lib izohlaydi: Jamiyatning barcha qatlamlarini jalb eta oldi. Uyg'onish mafkurasi bo'lib xizmat qildi. Mustaqillik uchun kurash olib bordi. Uning g'ayrat va tashabbusi bilan dunyo ko'rgan Turkiston muxtoriyati bu yo'ldagi amaliy harakatning dastlabki natijasi edi. Maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga moslab chiqardi. Bu xarakter va yo'nalishni qator olimlar e'tirof etdi. Bugungi kunda jadidlarni olib borgan ishlari keng jamoatchilik o'rtasida har qanday xil bahslarning vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Aslida jadidlar harakati faqat Turkistonda vujudga kelmadi. Turkistonda jadidchilik XIX asrning 80-yillarida Rusiya musulmonlari, xususan, Kavkaz va Volga bo'yida yoyilgan shu nomdagi taraqqiypar-

<sup>13</sup> Тулак. XX аср ўзбек адабиёти. – Андижон, 1993. 41-бет

<sup>14</sup> Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидоийлик. –Т.: Маънавият, 2002

varlik harakatining bevosita ta'siri va samarasi sifatida dunyoga keldi. Bunda Ismoil Gaspiralining "Tarjimon" gazetasi (1883) va u asos solgan "usuli jadid" (ikkinchi nomi "usuli savtiya") maktabi (1884) muhim rol o'ynadi. Bu harakatning jadid deb atalishi haqida Abdulla Avloniy "Shul zamonda (1894–1904-yillar) yerli xalqlar orasida eskilik-yangilik (qadim-jadid) janjali boshlandi. Gazit o'qig'uvchilarni mullalar "jadidchi" nom bilan atar edi"<sup>15</sup>, – degan fikrni keltiradi. Jadidlikning poydevori, tamal toshi usuli jadid maktablarining tashkil qilinishi edi. Hamonki, maqsad jamiyatni yangilash ekan, uni yangi avlodgina qilishi mumkin edi. Buning uchun esa zamon talabiga mos yoshlarni tarbiyalash masalasi jadid allomalarining oldiga qo'yilgan bosh masala bo'ldi. 1900–1925-yillar "jadidchilik" tushunchasining paydo bo'lishi o'z davrining eng peshqadam, tashabbuslar davridir <sup>16</sup>.

Yangi ziyolilarning qarashlarida, eng avvalo, aholining barcha ijtimoiy qatlamlari orasida hukm surgan savodsizlikni tugatish, eski ta'lim tizimini isloh qilish, qoloq, eski va behuda odatlarga chek qo'yish singari maqsadlar ilgari surildi.

Turkiston jadidlarining tarixiga nazar tashlar ekanmiz, turli adabiyotlarda ularga zamonasining muhitiga qarab o'z ta'rifini berishgan. Masalan, jadidlarning faoliyati haqida Fayzulla Xo'jayev birinchilardan bo'lib harakatni ikki yo'nalishda bo'lganini ko'rsatib bergan: "Shunday qilib, sentabr revolyutsiyasi boshlanguncha Oktabr va uning oqibatlarini tufayli vujudga kelgan jadidlar tashkilotlarining tabaqalanishi uzil-kesil rasmiylashdi, bu harakat bir-biridan butunlay boshqa bo'lgan ikki qismga bo'lindi: Uning birinchi qismi Buxoro kommunistik partiyasiga kirib, o'z taqdirini

---

<sup>15</sup> Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидоийлик. –Т., Маънавият, 2002. Б-61.

<sup>16</sup> Қосимов.Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидоийлик. –Т., Маънавият, 2002. Б-10.

Oktabr revolyutsiyasi va jahon kommunistik harakatining taqdiri bilan, jahon sotsial revolyutsiyasi uchun kurash bilan qo'shdi va birlashtirdi. Jadidlarning Oktabrgacha bo'lgan qismi esa fevralgachagi pozitsiyalarda qolib o'zining millatchilik ideologiyasini tark etmadi"<sup>17</sup>. Turkistonda o'z faoliyatini olib borgan jadidlar hududiy qatlamiga ko'ra ham farqlangan. Masalan, Turkiston jadidlari, Buxoro jadidlari va Xiva jadidlariga ajratib tahlil qilsak, bularning asosiy maqsadlari ozodlik pozitsiyasiga yo'g'rilgan bo'lsa-da, ichki tuzilishida ayrim farqlarni ham ko'rish mumkin. "Turkiston jadidlari ham Buxoro jadidlari singari tabaqalanish yo'lidan bordi. Turkiston jadidlarining katta qismi revolyutsiyani tushunmadi va uning ilgari milliy burjua ideologiyasida qolaverdi". Bundan ko'rinib turibdiki, jadidlarning faoliyati revolyutsiyadan oldingi va revolyutsiyadan keyingi bosqichlarga ajralgan. Masalan, Farg'ona vodiysidagi milliy harakatlar, Yosh buxoroliklar, Yosh xivaliklar, Toshkentdagi ziyolilarning faoliyatlaridagi o'zaro birlik va o'ziga xoslik holatlarini ham ko'rishimiz mumkin. Samarqandda vujudga kelgan ma'rifatparvarlik harakati ijtimoiy rivojlanishi natijasida jadidlikning siyosiy bosqichiga ko'tarildi. O'z davrining ko'zga ko'ringan ijtimoiy-siyosiy oqimi sifatida jadidlik milliy o'z-o'zini anglashning o'sishiga va milliy-ozodlik mafkurasining shakllanishi va taraqqiyotiga juda katta xizmat qildi.<sup>18</sup> Fikrimizning xulosasida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilikning asosiy bosh maqsadi jamiyat taraqqiyoti uchun lozim bo'lgan barcha sohalarida innovatsion g'oyalarni joriy qilish edi. Bu bilan jadidlar xalqning yashash tarzini o'zgartirishni, ularning ma'naviy ongini rivojlantirishni asosiy maqsadlaridan biriga aylantirgan. Jadidlar Turkistonda milliy

<sup>17</sup> Хўжаев. Танланган асарлар: уч томлик. –Т.: Фан, 1976. 1-том.

<sup>18</sup> Ўзбекистон тарихи: Янги нигоҳ. Жадидлар ҳаракатидан миллий мустақилликка қадар. Давра суҳбати материаллари. 1998 йил 9 октябрь. –Т.: Элдинур нашриёт уйи, 1998.

rivojlanishning boshida jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotini ta'minlash g'oyasini olib chiqdi. Ular siyosiy faoliyatida mustaqillik g'oyalari bilan yo'g'rilgan maqsadni ilgari surdi. Bu harakatni biz jadidlarning Chor Rossiyasining tajovuziga qarshi qaratilgan kurashida ko'rishimiz mumkin. Jadidlar milliy rivojlanish bilan qaramlikka qarshi kurashmoq lozimligini angladi. Bu g'oyalar jadidlar siyosiy faoliyatining asosini tashkil etdi. Shuning uchun jadidlar mazlum xalqni ozodlik kurashiga chorladi.

Savol va topshiriqlar:

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda sodir bo'lgan madaniy o'zgarishlar haqida nimalarni bilasiz?

Turkistonda ochilgan dastlabki jadid maktablari haqida ma'lumot bering.

Turkistonda chiqa boshlagan matbuot nashrlari haqida gapiring.

O'rganilayotgan davrda o'lka adabiyotida qanday yangi janrlar paydo bo'ldi?

Toshkent ma'muriy-madaniy markaz bo'lganligi uchun madaniy hayotdagi qaysi sohada, ayniqsa, yuksalish bo'ldi?

XIX asr o'rtalaridagi Markaziy Osiyoda tarixiy-siyosiy sharoit oqibatlarini haqida gapiring.

“Millat” atamasini birinchi kim qo'llagan?

Krasnovodsk – Toshkent temir yo'li qachon qurilgan?

“Renessans ” atamasiga izoh bering.

“Jadidchilik” atamasini izohlang.

Kimning qaysi asarida fon Kaufman va uning kirdikorlari dahshatli ko'rsatib berilgan?

Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining ilk bosqichi haqida ma'lumot bering.

## XORAZM ADABIY MUHITI VA DAVRDA ADABIY-ESTETIK QARASHLAR

### **Reja:**

Xiva adabiy muhiti va adabiy-estetik qarashlar tadriji.

Komil Xorazmiy va o'zbek adabiyoti.

"Elga shoh-u ishqqa qul" Feruzning Xiva adabiy muhitida tutgan o'mi.

Ahmad Tabibiy faoliyati. Tazkiranavislik.

*Xorazm adabiy muhiti va adabiy-estetik qarashlar tadriji.* Xorazm adabiy muhitida bu davrdagi ko'tarinkilik XIX asrda Munis boshlab bergan qizg'in ijodiy jarayonning davomi edi. Bu jarayon keyingi ellik yilda Ogahiy (1809-1874), Feruz (1844-1910) va Avaz (1884-1919) nomi bilan bog'liq bo'lib, mazkur adabiy muhit har jihatdan yuksaldi, o'ziga xos adabiy markaz sifatida shuhrat topdi. Bu davr adabiy muhitida badiiy ijodkorlikning quyidagi o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular tarixiy sharoit va yangi adabiy estetik qarashlar taqozosi bilan izohlanadi:

1. Xorazm adabiy muhitida she'riyat yetakchi mavqega ega bo'lib, u an'anaviy lirikaning barcha janrlarida davom etdi. Muhabbat va sadoqatni, insonning boy ma'naviy-ruhiy dunyosini badiiy kashf etish g'oyasi ustuvor bo'lib qoldi. Shu bilan birga, XIX asr oxiridan boshlab milliy uyg'onish, o'zlikni anglash, ma'rifatparvarlik g'oyalarining kuchayishi an'anaviy lirikani ijtimoiy-siyosiy mazmun bilan boyitdi, g'azal, muxammas kabi yetakchi janrlar mundarijasiga publitsistik, axloqiy, orifona motivlar qo'shildi, boshqa janrlar ham mazmun va shakl jihatdan takomillashib, ularda realistik tendensiya kuchaya bordi, an'anaviy lirik obrazlar safi zamonaviy qahramonlar hisobiga kengaydi.

2. Xattotlik mustaqil san'at darajasiga ko'tarilib, o'tmish va zamonaviy ijod namunalarini, xususan, qo'lyozma manbalarni



o'ziga xos uslubda ko'chirish keng yo'lga qo'yildi, shu yo'l bilan qator bayoz, devon va turli majmualar sayqal topdi va saqlab qolindi. She'riyat namunalarining janrlar bo'yicha qo'lyozmalari maydonga keldi. "Bayozi g'azaliyot", "Bayozi muxammasot", "Bayozi musaddasot" shular jumlasidandir. Muhammad Yoqub Xeva'iy, Mulla Otajon oxun, Muhammad Yoqub Xarrot, Komil Devoniy, Chokar, Rog'ib, Niyoziy va boshqalar mohir xattotlar ham edilar.

3. Madaniy adabiy-hayotda tarixnavislikning o'rni alohida ko'zga tashlanadi. Bayoniyning "Shajarai Xorazmshohiy", "Xorazm tarixi", Jumaniyoz Xeva'iyning "Tarixi gulshan" tarixiy asarlarida XVIII-XIX asrlardagi adabiy muhit, qator adabiyot va san'at namoyandalari ijodi haqida qimmatli ma'lumotlar bayon etilgan. Ayniqsa, Feruz davri adabiy hayotiga oid ma'lumotlar faktlarga boyligi va noyobligi bilan e'tiborga molik.

4. Badiiy tarjimachilik an'anasining davom etganligi ham bu davr adabiy muhitining muhim belgisidir. Ogahiy asos solgan bu maktab vakillari Mirzo, Niyoziy, Tabibiy, Rojiy tomonidan fors va arab tillaridan "Ra'no va Zebo", "Soqiynoma", "Vomiq va Azro", "Ajoyib ul-osor", "Ravzat us-safo" asarlari o'zbek tiliga tarjima etildi.

5. Adabiy muhitning yana bir o'ziga xosligi XX asr boshida, Qo'qon adabiy muhitida bo'lganidek, tazkirachilik an'anasining rivoj topganidir. Ahmadjon Tabibiy (1868-1910) tashabbuskor bo'lgan bu xayrli ish uning ikkita tazkirasida – "Majmuat ush shuaro'i Feruzshohiy" va "Muxammasoti majmuat ush-shuaro'iy Feruzshohiy"da namoyon bo'ldi. Adabiyotshunos B.Valixo'jayev ta'kidlaganidek, "Tabibiyning o'zbek tilida she'r bilan yozgan birinchi tazkisasi XX asrning boshlarida Xivada to'plangan adabiy muhitning mahsuli sifatida maydonga keldi"<sup>19</sup>. Bu an'ana Tabibiy zamondoshlari Laffasiyning "Tazkirai shuaro", Bobojon Tarroh

<sup>19</sup> Валихожаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи (X-XIX асрлар). – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. –Б. 189.

Xodimning “Xorazm navozandalari”, shuningdek, Feruz shajarasi-ga mansub shoirlar ijodining namunalaridan iborat “Haft shuaro” tazkira va majmualari bilan yanada takomillashdi. Muhimi shundaki, bu manbalarda shu davrda yashab ijod etgan ellikka yaqin shoirlar, jumladan, Niyoziy haqida ham qimmatli ma’lumotlar bor.

Xivada Komil Xorazmiy (1825-1899), Muhammadrasul Mirzo (1840-1922), Muhammad Rahimxon Feruz (1844-1910), Ahmad Tabibiy (1869-1911), Muhammad Yusuf Bayoniy (1840-1923), Ilyos Mulla Muhammad o’g’li So’fi (1860-1916), Mutrib Xonaxarobiy (1870-1925), Muhammad Yusuf Chokar (1872-1951), Avaz O’tar o’g’li (1884-1919), Abdurazzoq Faqiriy (1884-1925), Safo Mug’anniy (1882-1938), Komiljon Devoniy (1887-1938), Muhammad Rahim Rog’ib (1918-yil vafot etgan) kabi ko’plab shoirlar yashab ijod etdilar. Adabiy harakat ko’proq ma’rifatparvar podshoh, «Feruz» taxallusi bilan she’rlar yozgan Muhammad Rahimxon II atrofida rivoj topdi.

**Komil Xorazmiy va adabiy muhit.** Komil zamonasidayoq shoir sifatida katta e’tibor va e’tirofga sazovor bo’ldi. Masalan, taniqli shoir Rojiiy uni o’ziga ustoz biladi, nomini Ogahiy bilan yonma-yon qo’yadi:

*So’z kamolidin Rojiiy ogoh ersa tong yo’qkim,*

*Bor anisi damsozi Ogahiy bila Komil.*

Shunga yaqin satrlarni XX asr shoirlaridan Partavda ham uchratish mumkin. U 30 yoshlarida Ogahiydek shoirning e’tiboriga tushdi va nomi «Gulshani davlat» asariga kiritildi. «Navras fikr va toza tab shuarodin fazl va hunar ahli arosinda mumtoz Pahlavonniyozkim, fozillar guruhi ichra taxallusi Komildur»,– deb tanishtiradi o’quvchiga uni Ogahiy. 1880-1881-yillarda esa Shayx Sulaymon Buxoriy «Lug’ati chig’atoyi va turki usmoniy» («Chig’atoycha va usmoniy turkcha lug’at») da ayrim so’zlarga izoh berish uchun Komil she’rlaridan ham foydalanadi. Komil Xorazmiy o’z she’rla-

rini to‘plab, devon qilgan. XIX asrning oxiri XX asr boshida tuzilgan bir qator bayoz (to‘plam, antologiya)larda ham she‘rlari uchraydi. Devoni shoir hayotligidayoq nashr qilingan. Birinchi nashri 1880-1881-yillarga to‘g‘ri keladi. Xivada toshbosmada (litografiya) bosilgan edi. Ikkinchi marotaba yana Xivada 1895-yili bosildi. Bu nashr oldingiga nisbatan to‘liqroq. Kitob uchinchi marotaba 1909-yilda Toshkentda nashr etilgan. Ayrim she‘rlari «Turkiston viloyatining gazetisi»da bosilgan. Uchala nashr ham Komil she‘rlarini to‘la qamrab olmaydi. Komil ijtimoiy lirikasida jamiyatdagi, ayniqsa, shoir faoliyat yuritishga majbur bo‘lgan saroy muhitidagi ilm-hunar ahliga, sof qalbli insonlarga nohaq munosabat, ularni ta‘qib va tahqir etish hollari zo‘r iztirob bilan tasvirlanadi. Zotan, Komilning o‘zi ham el-yurt tinchligi, adolat tantanasi uchun olib borgan fidokorona ishlari uchun xon atrofidagi qora kuchlar, ba‘zi hollarda esa xonning o‘zi tomonidan ham ruhiy azoblarga solingan edi. Komil o‘ziga nisbatan bunday nohaq munosabatdan iztirobga tushib, xonga haqiqiy ahvolni bayon etuvchi «Aylama» radifli g‘azal bilan murojaat etadi. Xon Komilga g‘ayirlik qiluvchi saroy a‘yonlari hiylasiga uchib, Komil she‘rini Matmurod devonbegrining yugurdaklaridan bo‘lmish Ibrohim Sulton ismli shoirga yetkazadi. U o‘z navbatida xuddi Komil she‘rining vazni, qofiyasi, radifi, hatto besh baytdan iborat hajmini ham saqlagan holda she‘riy javob yozadi va javobni Matmurod Komilga yetkazadi. Bu sofdil shoir uchun dard ustiga chipqon bo‘ladi. Zotan Ibrohim Sultonning javob she‘rida Komil odobsizlik, hasadgo‘ylik, yurtga zarar keltirganlik va boshqalarda ayblangan edi. «Mirzaboshi (Komil demoqchi) ul abyotni mutolaasidin bir qad uchub, ul abyotni xon hazratlarig‘a berganidin ko‘b nodim-u pushaymon bo‘ldi», – deb yozadi Bayoniy. Shundan so‘ng Komil saroydagi sofdil odamlarning halol ishlarini xonga qing‘ir ko‘zguda ko‘rsatuvchilarni hajv qilishning boshqacha, umumlashma timsollar yaratish yo‘lini tanlaydi.

Shoirning «Fuzalo» va «Juhalo» radifli keskin gʻazallari shu tariqa dunyoga keldi. Birinchi sheʼrda Komil:

*Yutubon bu zamonda qon fuzalo,  
Kulfat oʻqigʻadur nishon fuzalo.  
Juhalogʻa qilib mulozimligʻ,  
Topmadilar yemakka non fuzalo,*

ikkinchi sheʼrda esa:

*Noʻsh etib rishva mayin, yetmay ulus dodigʻa,*

*Bilmadilar dame oyini adolat juhalo,* – der ekan, bu uning ahli ilm, ahli hunar, pokdomon kishilarga kun bermay, ularga tavqi laʼnat urmoqchi boʻlgan saroydagi qora kuchlarga ochiqdan ochiq javobi edi. U oʻzi mansub boʻlgan fuzalo bilan Matmurod, Ibrohim Sultonlar mansub boʻlgan juhalo oʻrtasidagi yer bilan osmoncha tafovutni baralla koʻrsatib berdi. Komilning ana shu yoʻnalishda Nodirabegimning «Ehtiyoj» radifli gʻazali taʼsirida bitilgan «Taʼma» va «Roʻza» radifli sheʼrlari ham ijtimoiy lirikaning nodir namunalari jumlasiga kiradi.

**“Elga shoh-u ishqqa qul” Feruzning Xiva adabiy muhitida tugʻgan oʻrni.** Adabiy harakat koʻproq maʼrifatparvar podshoh, «Feruz» taxallusi bilan sheʼrlar yozgan Muhammad Rahimxon II atrofida rivoj topdi. Muhammad Rahimxon Soniy – Feruz (1844-1910) saroyda adabiy muhit maydonga keltirdi. 1864-yili 20 yoshida taxtga chiqib, salkam 47 yil hukmronlik qilgan bu xon, uni yaqindan bilgan koʻpchilik tadqiqotchilar fikricha, Oʻrta Osiyo xonlari orasida eng aqllisi, eng ziyolisi edi. U «usuli jadid»ga yoʻl berdi, ruslar kelmasdan ancha ilgari Xivaga toshbosma olib keldi. Uning topshirigʻi bilan Ahmad Tabibiy (1869-1911) «Majmuat ush-shuaroyi Feruzshohiy» («Feruzshoh shoirlari antologiyasi»)ni tuzadi. 30 shoirning sheʼridan namuna beradi. Ular orasida Komil Xorazmiy (1825-1899), Muhammadrasul Mirzo (1840-1922), Avaz Oʻtar (1884-1919) kabi xilma-xil koʻlam va qudratdagi shoirlar bor edi. Shoir va tarixchi Bayoniy shoh va shoir Feruz zamonida koʻplab madrasalar qurilganini, matbaachilik yoʻlga qoʻyilganini,

kitobxonlik avj olganini, xonning o'zi bularning barchasiga boshqosh bo'lganini yozadi. Bayoniyning «Shajarayi Xorazmshohi-y»sidan:

«Xon hazratlari haftada ikki kun: juma va dushanba oqshomlarida ulamo bilan suhbat tuzib, kitobxonliq etdurur erdilar. Andog'kim, Yusuf hoji oxund va Ismoilxo'ja oxund va Xudoybergan oxund va olim-u ulum ma'qul va manqulda Mullo Muhammadrasul va faqiri haqir majlisi humoyunlarig'a haftada ikki marotaba hozir bo'lub, kitobxonliq etar erduk. Goho domla Muhammadrasul bila ikkovimiz kirib, suhbat humoyunlarida kitobxonliq bo'lur erdi va sipohiyalar va to'ralarni ham kitobxonliq etarga targ'ib etar erdilar. Bas, hamma kitobxon bo'ldilar». Shoirlikning havosi ham, maqomi ham baland edi. Xonning atrofidagi amaldorlaridan, aka-uka qarindoshlarigacha she'r yozar edilar. Bayoniy ularni nomma-nom keltirgan. Masalan, Otajon to'raning «Komron», tug'ishgan ukasi To'ramurod to'ra (1855-1908)ning «Murodiy» taxallusi bilan she'rlar yozganini ma'lum qiladi.

Feruz tashabbusi bilan Xorazm tarjima maktabi maydonga keldi. Mutaxassislarning aniqlashicha, XIX asrning o'rtalarida Xivada saksondan ko'proq kishi tarjimonlik bilan muntazam shug'ullangan. 120 asar tarjima qilingan. Ayrimlari 2-5 marta o'zbekchaga o'girilgan. Aksariyati fors-tojik tilidan o'girilgan. Bu asarlar janrlariga ko'ra ham xilma-xil edi. Ular orasida badiiy didaktik asarlar, ishqiy-sarguzasht qissalar katta o'rin egallagan edi. Tarjimonlar orasida esa Ogahiy, Komil, Bayoniy, Tabibiy kabi ma'lum va mashhur nomlar bilan bir qatorda Muhammadrasul Mirzo, B. Sanoiy, Rojiy, Tolibxo'ja nomlarini keltirish mumkin. Boy an'anaga ega musiqa rivoj topdi. Tanbur notasi kashf qilindi (Komil). She'r va musiqa hamkorligi kuchaydi. Feruz Xorazm shashmaqomini taraqqiy toptirishda katta xizmat qildi. Xonning amri bilan shoir Ahmad Tabibiy tomonidan 1908-yili yaratilgan «Majmuat ush-shuaro» («Shoiralar to'plami») she'riy (masnaviy yo'lida) bo'lib, 1638 sahifadan iborat edi. Qo'qon xoni Amir Umarxon-

ning 1821-yilda tuzdirgan «Majmuai shoiron»ini esga tushiruvchi bu kitob «Majmuat ush-shuaroyi Feruzshohiy» nomi bilan tanildi. Undagi matnlarning aksariyati o‘zbek tilida edi.

Xivadagi ikkinchi tazkira XX asrning 20-yillarida tuzildi. Uning muallifi Hojimoreod Laffasiy (1880-1945) bo‘lib, «Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimai hollari» asarida xorazmlik 51 shoir haqida ma‘lumot beradi.

**Ahmad Tabibiy faoliyati. Asarlari. Tazkiranavislik.** Ahmad Tabibiy qisqa umri davomida salmoqli adabiy meros qoldirdi. Uning besh devoni bor. «Tuhfat us-sulton», «Munis ul-ushshoq», «Hayrat ul-oshiqin» devonlari o‘zbek tilidagi she‘rlaridan, «Mir‘ot ul-ishq», «Mazhar ul-ishtiyiq» devonlari esa fors-tojik tilidagi she‘rlaridan tashkil topgan. Bundan tashqari, shoir katta hajmdagi «Vomiq va Azro» dostoni muallifi. Tazkiranavis sifatida «Majmuat ush-shuaroyi Feruzshohiy»ning tuzuvchisi. Tarjimon sifatida Fuzuliyning «Haft jom» asarini fors tilidan tarjima qildi. Nihoyat, u yosh iste‘dodlarning sevimli ustoz edi. U yoshlik chog‘laridayoq she‘rlari bilan nazm muxlislari e‘tiborini qozondi. Zullisonayn shoir sifatida o‘zbek va fors-tojik tillarida salmoqli she‘riy meros qoldirdi. Ta‘kidlash kerakki, u bu ishlarga xon rag‘bati, hatto topshirig‘i bilan kirishgan edi. Shoir «Munis ul-ushshoq» devoni «Debocha»sida quyidagilarni yozadi: «Bu faqir qo‘lida jam‘ bo‘lg‘on kitobning soni besh devondur. Alarning uchtasi turkiy va ikkitasi tojikchadir. Birinchisini adolatli shohg‘a hadya qilish sababidin «Tuhfat us-sulton» deb atadim, ikkinchi devong‘a oshiqlar unsiyati sababidin «Munis ul-ushshoq» («Oshiqlar do‘sti») nomi berildi. Uchinchisig‘a faqat ishq holatlaridan gapirilgan vajhdan «Mir‘ot ul-ishq» («Ishq oynasi»), deb nom qo‘ydim. To‘rtinchi devong‘a oshiqlar o‘qib hayron bo‘lsinlar deb, «Hayrat ul-oshiqin» deb ism berildi. Beshinchisi bedillar ishtiyiqi jilvagohi bo‘lg‘oni sababidin «Mazhar ul-ishtiyiq» («Ishtiyiq izhori») deb ataldi». Yuqorida zikr qilingan besh devonning birinchisi Dushanbedagi akademik A.A.Semyonov uy muzeyida, qolgan to‘rttasi O‘zbekiston Respub-

likasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida saqlanadi. Ma‘lumotlarga qaraganda, mazkur besh devon shoir umrining so‘nggi besh yilida tartib qilingan. Tabiiy Alisher Navoiy va Fuzuliy ijodiga alohida ixlos bilan qaradi. Umuman, unda an‘anaviylik kuchli. U saroyda xonning e‘tiborida bo‘lishiga qaramay, hamisha nimadandir ko‘ngli to‘lmaydi, hayotdan qoniqmaydi, dilgir yashaydi. Ishqiy she‘rlarida ham ijtimoiy ohanglar yangrab turadi. «Sharx jafosi», «majruh, afgor jism», «falak»ning «kaj» (teskari)ligi, «berahm»ligi tez-tez tilga olinadi. «Falak» radifli she‘rida «nodonni aziz va mukarram aylab», «dono kishilarni asru xor etgan» falakdan shikoyat qiladi. Ikkinchi bir she‘rida esa zamonasining ijtimoiy manzarasini shunday chizadi:

Olamga boqsang, hosili boshtin oyoq kulfat erur,  
Bir rohatining keynida behaddu son mehnat erur.  
Bir oshiqikim, lahzaye topsa visoli dilbarin,  
Doim hamul bechorag‘a so‘ngra g‘ami furqat erur.  
Yo‘qtur jahong‘a e‘timod ushbu jihatdin, ey qo‘ngul,  
Kim inqilob etmak anga davron aro odat erur.

Bas, shunday ekan, yagona yo‘l qoladi: imkon qadar insonlarga yaxshilik qilmoq, naf yetkazmoq. Yolg‘iz shu yo‘l bilangina kishilar boshiga berahm davron tomonidan otilayotgan jabr-u jafo toshlari zahrini kamaytirish mumkin. Shoir davron manzarasi tasvirida yana buyuk ustozi Navoiyning odamiylik haqidagi hikmatlariga ergashadi: *Ikki jahonning komini gar istar ersang, ey ko‘ngul, Kelganча qo‘ldan xalqg‘a yetkur, base, takror naf.* Tabiiy she‘riyatining mazmun-mohiyatini, ruhini tushunib olishda zamondoshi, rus sharqshunosi A.N.Samoylovichning shoir haqidagi xotiralari alohida ahamiyatga ega. Taniqli turkshunos 1909-yili Xivaga kelgan, 1638 sahifalik «Majmuat ush-shuaro»ni erinmay o‘qib chiqqan va uning tuzuvchisi bilan uzoq suhbatlar qurgan edi. So‘ng esa, majmua haqida kattagina taqriz e‘lon qildi. Olim XX asr boshidagi an‘anaviy she‘riyatimiz namunalarini kuzatar ekan, unda yangi adabiyotga xos xususiyatlar paydo bo‘layotganini nozik his qiladi

va buni Tabibiy misolida shunday tushuntiradi: «Shoir, aytishiga qaraganda, erkin fikrli qarashlari sababli madrasadagi musulmon fanlarining to‘la kursini o‘zlashtirishdan voz kechgan, – deb yoza-di u Ahmad Tabibiy haqida. U Xivaga xivaliklarning mustamlakachilar – ruslar, nemislar bilan, tatarlar bilan bevosita aloqalari tufayli va undan tashqari yangi yo‘nalishdagi tatarcha, usmoncha kitoblar, jurnallar va gazetalar orqali kirib kelayotgan yevropa-cha ilm mazasidan jindak tatigan. Hukmdorining topshirig‘i bilan dori-darmon uchun Mashhadga borib, o‘sha yerda malaka oshirib qaytgan Ahmad Tabib musulmoncha usulda tabiblik qiladi. Va, chamasi, bu xivalik leyb-medik o‘z «ilm»i ustidan pinhona ku-ladi. Kuzatishimcha, «Majmua» muharririning o‘z jonajon O‘rta Osiyo adabiyotining benihoyat uzoq va mutlaqo yakrang asrini kechirayotgan hozirgi qiyofasiga ham munosabati xuddi shunday. Va yosh Xivaning adabiyot sohasida yakka-yolg‘iz bo‘lmagan bu vakili, garchi hozir afltunchasiga bo‘lsa-da, usmonli, turkiy-qo-zon, turkiy-kavkazcha eng yangi asarlarga, tarjima va originallar-ga, shubhasiz, moyil. Shoirning menga o‘z qalamkash birodarlarini «bularning hammasi uchun Mir Alisher Navoiy o‘rnakdir, lekin hech biri uning iste‘dodiga ega emas»,– deb ta‘riflaganidagi dil-gir-nafratchan yuz ifodasi shundoq esimda». Shundan bo‘lsa ker-ak, Ahmad Tabibiy ijodida ma‘rifat mavzusi, ma‘rifatparvarlik g‘oyasi muhim o‘rin egallaydi. Shoir hayotni tubdan yaxshilovchi, jamiyatni, mamlakatni qoloqlikdan, zulmatdan qutqaruvchi, xalqni farovon hayotga yetaklovchi yo‘l – ma‘rifat deb bildi. Shoirning fikricha, ilm-ma‘rifat johilni, g‘ofilni jaholat uyqusidan uyg‘otadi, uning hayotiga fayz bag‘ishlaydi. Tabibiy ilmni targ‘ib qilar ekan, uni egallash uchun qunt bilan mehnat qilish zarurligini ta‘kidlaydi:

Kimdakim ahli jahondin bor ilm-u ma‘rifat,

Qilg‘usidur oni barxurdor ilm-u ma‘rifat...

G‘aflatu jahl uyqusig‘a g‘arq bo‘lgon shaxsni



Fayz birla ul qilur bedor ilmu ma'rifat.  
Ey birodar, olim-u orif bo'lurg'a jahd qil,  
To yeturgay qo'nglunga anvor ilmu ma'rifat.  
Ilm birla ma'rifat ta'limini tark etmagil,  
Hosil et borincha jon, takror ilmu ma'rifat.

Yuqorida aytganimizdek, Ahmad Tabibiy she'riyatiga Fuzuliyning ta'siri katta bo'lgan. Birgina Tabibiy emas, umuman, Xorazm adabiy muhitida ulug' ozarbayjon shoiri Muhammad Fuzuliyning ta'sir doirasi – nufuzi katta. Munis, Ogahiy, Rojij, Komil, Feruzlar Fuzuliy g'azallariga muxammaslar, tazminlar bitdilar. 1908-yili Ahmad Tabibiy Fuzuliyning falsafiy-didaktik dostoni «Haft jom» («Yeti jom»)ni fors tilidan tarjima qildi. Bundan tashqari, Fuzuliyning ushbu dostoni ta'sirida «Yeti ravza» («Yeti bog'») nomli axloqiy-ta'limiy doston yaratdi. Ushbu doston 7 ravza va 14 hikoyadan tashkil topgan. Doston o'zbek mumtoz adabiyotining doston janridagi go'zal yodgorliklaridan biri sifatida qadrlidir.

### **Savol va topshiriqlar:**

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda sodir bo'lgan madaniy o'zgarishlar haqida nimalarni bilasiz?

Turkistonda ochilgan dastlabki jadid maktablari haqida ma'lumot bering.

Turkistonda chiqa boshlagan dastlabki matbuotlarni sanab bering.

O'rganilayotgan davrda o'lka adabiyotida qanday yangi janrlar paydo bo'ldi?

Xiva adabiy muhiti vakillaridan kimlarni bilasiz?

Xorazm tarjima maktabi kimning tashabbusi bilan maydonga keldi?

Feruzning Xiva adabiy muhitiga qo'shgan hissasi nimalardan iborat?

# KOMIL XORAZMIY FAOLIYATI VA ADABIY MEROSI. SHOIR LIRIKASINING BADIY XUSUSIYATLARI

## Reja:

Komil Xorazmiy faoliyatining o'rganilishi.

Ogahiy va Komil Xorazmiyning ustoz-shogirdlik munosabatlari xususida.

Komil Xorazmiy g'azalnavisligining adabiy-estetik omillari.

Komil Xorazmiy she'riyatining mavzu ko'lami xususida ba'zi mulohazalar

Komil Xorazmiy lirikasida o'ziga xosliklar.

Komil Xorazmiy ijodida ba'zi badiiy san'atlarning qo'llanilishi.

***Komil Xorazmiy faoliyatining o'rganilishi.*** Mamlakatimiz istiqlolning yorqin yo'llariga chiqib, o'zining taraqqiyotga qadam qo'ygan davrida, shu nurlı manzildan turib yaqin o'tmishga boqsak, mustabid sho'rolar davrida qatag'on etilgan qanchadan qancha shoir va xattot, sozanda va xonanda, maqomot ilmi allomalarini ko'ramiz. Chunonchi, o'sha davr adabiyotshunosligida komfirqaning mafkuraviy ta'qibi ostida ba'zi tarixiy shaxslar, yozuvchi va shoirlar "ilg'or rus madaniyatining yetuk targ'ibotchisi", rus mustamlakachilarini olqishlab kutib olgan "qahramon" sifatida talqin etildi. Jumladan, general Kaufman tomonidan Xiva xonligining bosib olinishi fojialari paytida mustamlakachilarga xayrixoh bo'lgan Matniyoz – Muhammad Niyoz devonbegi qiyofasini Pahlavon Niyoz Muhammad Komil Xorazmiy shaxsiga almashtirib, buzib yozildi, chalkashtirildi. Aslida Komil Xorazmiy 1825-yili Xivada Abdulla Muftiy oilasida dunyoga keldi. Bu to'g'rida mashhur xattot, maqomshunos olim Muhammad Yoqub Xarrotning o'g'li Muhammad Yusuf Xarrot Chokar Mulla Bekjon Rahmon o'g'li bilan



birga yozgan “Xorazm musiqiy tarixchasi” (Toshkent, “Yozuvchi”, 1998) kitobida bunday deydi: “Mashhur musiqashunos Abdusattor mahramning do‘g‘g‘on singlisi Avazjonni Abdullo Muftiy Nurboy Juk o‘g‘lina nikoh qilib berganlar. Abdullo Muftiyning mazkur Avazjon xotunidan bir o‘g‘il dunyoga galib Pahlavon deb odlag‘anlar. Pahlavon Niyoz tahsil ibtidosini Xorazmning eski maktab va madrasalarida tahsil qilg‘ondan so‘ngra, Seyid Muhammadxon zamonida o‘zining bobosi Xo‘jash mahramning savdogarlari qatorida yurib tijorat ishlari bilan mashg‘ul bo‘ladur. Biroz so‘ngralari qatorida ishini tark etib, Seyid Muhammadxonning supohsolarinda yuvonlik (ya‘ni otboqarlik) xizmatiga kiradur”<sup>20</sup>. Shoir Chokar xotiralaridan ayonki, yosh Pahlavon Niyoz hayot maktabini o‘tadi. U qayerda bo‘lmasin kitobxonlik qildi, g‘azallar yozdi, qo‘liga soz oldi va maqom qo‘shiqlarini kuyladi.

Tez orada Xorazm vohasiga toza fikrlovchi shoir, sozanda, tengsiz xattot sifatida tanildi. Bundan xabar topgan Seyid Muhammadxon uni saroyga taklif qilib, xususiy devoni etib tayinladi. Taxminan 1858-yillarda saroy hayotiga kirib kelgan yosh shoir va xattot Pahlavon Niyoz Muhammad Komil Xorazmiy atrofida shoir Munshiy, Ogahiy, Rojjiy Muhammad Yusuf mahzum, Xoliq Muhammad Yoqub xo‘ja, Bayoniy Muhammad Yusufbek kabi iqtidorli shoir va xattotlar bor edi. Chokarning yozishicha, Komil Xorazmiy o‘zining yuksak iqtidori, ishchanligi tufayli 1873-yilgacha mirzaboshi bo‘lgan. Keyin 1880-yilgacha devonbegilik rutbasiga yetishgan. Demak, Komil Xorazmiyning asli ismi Pahlavon Niyoz bo‘lib, “Komil” uning adabiy taxallusidir. Bu to‘g‘rida Ogahiy “Gulshani davlat” kitobida: “Navras fikr va toza tab’ shuarodin, fazl va hunar ahli orasinda mumtoz Pahlavon Niyozkim, fozillar guruhi ichra taxallusi Komildir”, – deb yozadi<sup>21</sup>. Xo‘sh, asli ismi Pahlavon Niyoz, taxallusi Komil, musiqiy manbalarda ism-sharifi sho‘rolar davrida o‘zgartirilib, boshqa bir shaxs – “Matniy-

<sup>20</sup> Yunusov M. Komil Xorazmiy. Toshkent, 1960.

<sup>21</sup> Qosimov B. Milliy uyg‘onish. —Ma‘naviyati. T.: 2002.

oz”, ya’ni Muhammad Niyoz devonbegi shaxsiga nisbat berilib, nega o’zgartirib ko’rsatildi ekan?! Bunday holatni deyarli barcha adabiy manbalarda uchramiz. Quyidagi parcha filologiya fanlari doktori A.Hayitmetov va filologiya fanlari nomzodi V.Mo’minova nashrga tayyorlagan Komil Xorazmiy “Devon”i birinchi sahifasidan: “O’zbek adabiyoti tarixida demokratik tendensiyalar asosida ijod qilib, chuqur iz qoldirgan ajoyib so‘z san’atkorlaridan biri Pahlavon Niyoz Muhammad Komildir. “Pahlavon” uning laqabi, “Komil” esa adabiy taxallusidir. Zamondoshlari uning ismini Muhammad Niyoz shaklida ham qo‘llab, uni ixchamlashtirib “Matniyoz” deb ham yuritganlar. U madrasa mudarrisi Abdulla Oxund oilasida 1825-yilda Xivada tavallud topdi”. Komil Xorazmiyning asli ismi Pahlavon ekan, uni “laqab” deb yozishga hech kimning haqqi yo‘q. Yana, zamondoshlari uni “Muhammad Niyoz” shaklida “Matniyoz” deb yuritganlar deyiladi. Axir, Komil Xorazmiyning ismi “Niyoz Muhammad”-ku! Hech qachon zamondoshlari uni “Matniyoz” deb atagan emaslar. Chunki Xorazm lahjasida Niyoz Muhammadni “Niyozmat” deydilar. Muhammad Niyozni esa “Matniyoz” deb ataydilar. Professor G‘ulom Karimovning “O‘zbek adabiyoti tarixi” (19-asrning ikkinchi yarmidan 20-asr boshlarigacha) darsligining uchinchi kitobida bu shoir haqida shunday deb yozilgan:

“Komil Xorazmiy 1825-yilda Xiva shahrida ziyoli oilasida dunyoga keldi. Uning otasi Oxund Xiva madrasalarida mudarrislik qilar edi. Shoirning ismi Niyoz Muhammad bo‘lib, ba’zi manbalarda, xususan, musiqaga oid adabiyotlarda u Pahlavon Niyoz Muhammad deb yuritiladi. “Pahlavon” so‘zi unga yoshlik vaqtida suyub berilgan nom bo‘lib, bu nom keyinchalik ham saqlanib qolgan. Tarixiy kitoblarda esa shoirning nomi Matniyoz shaklida uchraydi. Komil yoki Komil Xorazmiy shoirning adabiy taxallusi bo‘lib, kamolotga erishgan kishi ma’nosini anglatadi”. Muallif “Pahlavon”ni suyib berilgan nom deb tushirib qoldirib, shoirning ismi Niyoz Muhammad demoqda. Agar shoirning ismi Niyoz Mu-

hammad bo‘lgan taqdirda ham u “Niyozmat” deb yozilishi kerak edi, faqat “Matniyoz” deb emas. Pahlavon Niyoz Muhammad<sup>22</sup> Komil Xorazmiy nomini “Matniyoz” deb yozishdan o‘sha davr adabiyotshunoslarning ko‘zlagan maqsadi bo‘lgan. Agarda shoir Komil Xorazmiy “Matniyoz” deb yozib, ruslarga xayrixoh, rus madaniyatini kuylagan, bosqinchi general Kaufman qo‘shinlarini quchoq ochib kutib olgan shaxs deb tasvirlansa, mustabid sho‘rolar davri mafkurasini buni olqishlagan. Shu boisdan o‘sha davr adabiy jarayonida ko‘p shoir va yozuvchilar peshonasiga “ruslashtirish” tamg‘asini bosib, ular shaxsini bo‘yab ko‘rsatganlar. Xo‘sh, Pahlavon Niyoz Muhammad Komil Xorazmiy shaxsiga niqob etib kiygizilgan “Matniyoz” kim o‘zi? “Matniyoz”, ya‘ni Muhammad Niyoz devonbegi Sayid Nazar oqsoqolning o‘g‘li bo‘lib, Xiva saroyida mansabdor va obro‘li a‘yonlardan hisoblangan. Muhammad Niyoz Amirul-umar Sayid Mahmud to‘raning noibi sifatida Hazoraspda devonbegilik qilgan. 1873-yili Xiva xonligining bosib olinishi voqealarini aks ettirgan barcha rus manbalarida Matniyoz – Muhammad Niyoz devonbegi maqtalgan. Urushning dastlabki kunlarida Hazorasp qal‘asi himoyasiga ikki mingga yaqin navkar Amir to‘ra bilan Muhammad Rizo to‘ra boshchiligida yuborilgan. Ular sarkarda Muhammad Niyoz devonbegi boshchiligida rus qo‘shinlariga qaqshatqich zarba berishlari zarur edi. Biroq ular Amudaryodan kechib o‘tgan bosqinchilarga Hazorasp darvozalari ni ochib, qal‘adagi oziq-ovqat omborlari, o‘q-yarog‘, porox saqlanayotgan omborlarni ochiq tashlab, Xivaga qochganlar. Ularning asosiy maqsadi taxtni egallash edi. O‘sha paytda Xivada general Veryovkin to‘plari zarbasidan qadimiy obidalar portlayotgan edi. Bundan ko‘rinib turibdiki, Matniyoz devonbegi kabi bir guruh amaldorlar mustamlakachilarga xayrixoh bo‘lganlari bois rus tadqiqotchilari ularni eng dono, eng aqlli, sulhparvarlar partiyasiga mansub kishilar, deb ko‘klarga ko‘tarib ismlarini kitoblariga muhr-

<sup>22</sup> «O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati» gazetasining 2011 yil 39-sonidan olin-di.

laganlar. Sho'rolar davri adabiyotshunoslari Matniyoz, ya'ni Muhammad Niyoz devonbegini shoir Komil Xorazmiy deb o'ylab, rus zobitlari va sharqshunoslari asarlaridan ko'plab misollar keltirganlar. Ayniqsa, "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligida muallif rus sharqshunosi F.I.Lobosevichning "1873-yilgi Xiva yurishining bayoni" asaridan: "Keksa Sayid Amiru-l-umar, xuddi uning yaqin do'sti devonbegi Matniyoz singari, xalq muhabbati va hurmatiga sazovor edi. Ularning ikkovi ham Xivada sulhparvarlar partiyasining tarafdorlaridan edi", degan iqtibosni keltiradi. Ogahiy asarlari olti jildligi birinchi jildidagi so'zboshisida professor G'.Karimov va dotsent S.Dolimov: "Tarixiy manbalarda "Matniyoz", muzika tarixiga oid asarlarda "Pahlavon Niyoz Muhammad" nomi bilan yuritiladigan bu shaxs shoir Komil Xorazmiydir (1825-1899)", – deb yozib jiddiy xatoga yo'l qo'rganlar. Birinchidan, bu davrda Komil Xorazmiy mirzaboshi edi. U urush tugaganidan keyingina, 1873-yil 12-avgustida Muhammad Murod devonbегining o'rniga tayinlangan. Shuning o'ziyoq – Komil Xorazmiyning Matniyoz devonbegi emasligini tasdiqlaydi. Ikkinchidan, Mak-Gaxan "Oksusdagi harbiy harakatlar va Xivaning taslim bo'lishi" asarida Matniyoz devonbegi haqida: "Matniyoz Sayid Amiru-l-umar singari sulhparvarlar partiyasiga mansub kishidir. U past bo'yli, dumaloq ko'zli, siyrak soqol, ko'rimsiz bir kishi edi. U aftidan ruslarga juda xayrixohlik bilan qarar edi. Xiva xonligiga oid eng ishonchli ma'lumotlarni general Kaufmanga yetkazib turgan ham o'sha edi", – deb yozadi. Komil Xorazmiy esa baland bo'yli, kelishgan qaddi-qomatli, sersoqol, ko'zlari sergak va ma'noli, o'ta malohatli kishi bo'lgan. Matniyoz devonbegi beqaror shaxs ekani xususida tarixiy manbalarda batafsil bayon qilingan. Bayoniy "Shajarayi Xorazmshohiy" asarida: "Kaufmanning yonig'a Muhammad Niyoz devonbegi goh-goh borib, musohibat etib ketar edi... Muhammad Niyoz devonbegi viloyatning tamomi holati va mahsulotidin

va tamomi arkoni davlat va a'yoni hashamatning ahvolutlaridin Kaufmang'a ogohliq berdi<sup>23</sup>.

Mundin bir necha kun o'tgandan so'ng, Kaufman Muhammad Murod devonbegi bilan Rahmatullo yasovulboshini sibir etib Qozonlig'a yubordi va yana rusiya askarining kofayi masorifi (kontributsiyasi) uchun Xorazm aholilaridin ikki milyun bila ikki yuz ming manot tazminot olmoqg'a qaror berdilar", – deb yozadi. Mana, yigirma yildirki, qadriyatlarimiz qayta tiklanayotir. Milliy madaniyat, ilm-u irfon, go'zal urf-odatlarimiz, muqaddas marosim va bayramlar elimizga qaytarib berildi. Bu borada hali qilinadigan ishlar ham bor. Jumladan, shoir, xattot, tarjimon, sozanda, maqomot ilmi allomasi Pahlavon Niyoz Muhammad Komil Xorazmiy hayoti va ijodi batafsil o'rganilishi zarurligi ham dolzarb masalalardan biridir. Chunki keyingi davrda nashrdan chiqqan kitoblarda ham uni "Matniyoz", deb yozish davom etmoqda. Masalan, xorazmlik olimlar D.Rahim va Sh.Matrasul "Feruz. Shoh va shoir qismati" (1991) kitobining "Komil – ijodkor va davlat arbobi" sahifasida F.I.Lobosevich va Mak-Gaxanning Matniyoz devonbegi haqidagi fikrlarini misol etib keltirib, Komil Xorazmiyni Matniyoz devonbegiga nisbat berganlar. 2004-yili nashrdan chiqqan "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" (maxsus muharrir Sh.Yusupov, mas'ul muharrir N.Jabborov) kitobida ham "F.I.Lobosevich va Mak-Gaxanlar o'z asarlarida Komil Xorazmiy faoliyatiga maxsus to'xtalganlar", – deb shoir shaxsiyatiga noto'g'ri baho berilgan, "Matniyoz" – Muhammad Niyoz devonbegi bu Komil Xorazmiy edi, deb ta'riflangan. Darslikda qator xato va nuqsonlarga yo'l qo'yilgan. Masalan, jahon kutubxonalarida noyob qo'lyozmalari saqlanayotgan mashhur xattot Muhammad Sharif Tarroh devonni "Muhammad sharif arro devon" deb, shuningdek, Sayid Amirul umar "Sayid Amirqul umar", deb xato yozilgan. Shoir vafot etgan sanani esa Laffasiy yozgan ma'lumotga qarab, 72 yoshida 1897-yilda dunyodan o'tgan deyiladi. Vaholanki, Chokar bu to'g'rida juda aniq ma'lumot bergan: "Pahlavon Mirzaboshi... Muhammad Rahimxon zamoni hij. 1317-yil shabon oyining 27-kuni ozonida va-

---

<sup>23</sup> M. Yu. Bayoniy. *Shajarai Xorazmshohiy*. Meros. T. Kamalak; 1991. 200-b

fot bo'ldi..."<sup>24</sup>. Pahlavon Niyoz Muhammad Komil Xorazmiydan o'lmas meros qoldi. Qo'limizda shoirning 1881-yili nashr etilgan birinchi devoni bor. Bu devon ikkinchi bor 1895- yili Xivada, uchinchi marta 1909- yili Toshkentda to'laroq nashr etilgan. Undan tashqari tarjima asarlari, "Tanbur chizig'i" kitobi, turli bayozlarda g'azal va muxammaslari mavjud.

Komil Xorazmiy aruz vaznining barcha janrlarida ijod qildi. G'azaliyot olamiga o'lmas muhabbat tuyg'ulari tarovatini olib kirdi, avlodlarni doimo komil inson bo'lib yetishishga, ma'rifatga, ezgulikka chorladi. Binobarin, Komil Xorazmiy siymosi, uning ma'naviy merosi ham qaytadan yangicha nigoh bilan haqqoniy yoritilib, qayta baholanishi lozim.<sup>25</sup>

***Ogahiy va Komil Xorazmiyning ustoz-shogirdlik munosabatlari xususida.*** XIX asr Xorazm adabiy muhitida Muhammad Rizo Ogahiy (1809-1874) va Komil Xorazmiyning (1825-1899) beqiyos o'rni bor. Darhaqiqat, bu ikki ulug' siymo ijodiy merosisiz XIX asr o'zbek adabiyotini tasavvur etish qiyin.

Ogahiy va Komil hayot yo'li hamda ijodiyotini kuzatsak, ular o'rtasidagi ustoz-shogirdlik munosabatlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu, birinchidan, Ogahiyga izdoshlik Komil she'riyatida ko'zga tashlansa, ikkinchidan, tarjimachilikda ham namoyon bo'ladi. Ana shu ikki jihat Komil Xorazmiy bevosita zamondoshi Ogahiy ijodidan bahramand bo'lganligini ko'rsatadi.

O'zbek adabiyotining bu ikki yirik vakili o'rtasidagi o'xshashlik ularning hayot yo'llarida ham kuzatiladi. Ogahiy davlat arbobi mirob sifatida faoliyat yuritgan. Komil Xorazmiy mirzaboshi, devonbegilik lavozimlarini egallagan. Har ikkalasi ham ma'lum ma'noda Muhammad Rahimxon soniy Feruzga ustozlik qilgan. Ogahiy miroblik ishlari bilan yurib, otdan yiqilib, xastalanadi. Komil Xorazmiy esa umrining so'nggi yillarida ko'zi ojizlanib qoladi. Ko'rinadiki, bu ikki ulug' siymo ijodi va hayoti yo'lida unchayin o'xshashlik bor.

<sup>24</sup> M. Yu. Bayoniy. Shajarai Xorazmshohiy. Meros. T. Kamalak; 1991. 200-b

<sup>25</sup> «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining 2011 yil 39-sonidan olindi.



Ogahiy Komil Xorazmiy iqtidoriga “Gulshani davlat” asarida yuksak baho bergan: “Navrasfikru tozatab’ shuarodin fazlu hunar ahli arosinda mumtoz Pahlavon Niyozboykim, fozillar guruhi ichra taxallusi Komildur”<sup>26</sup>. Darhaqiqat, Ogahiy Komil Xorazmiy hali 30 yoshga to’lgan payti uning badiiy iqtidorini anglagan va yuksak baholagan edi. Komil Xorazmiy esa Ogahiy va uning she’riyati xususida o‘z davri ijtimoiy muammolaridan kelib chiqib, quyidagi misralarni yozgan:

*Ulki ogohlarning ogahidur,  
Fahmu donish sipehrining mahidur,*

*So‘zi ortiqdurur guhardin ham,  
Fazlu donishda olam ichra alam,*

*So‘zni har necha qizsa bozori,  
Bordur olamda bir xaridori.*

*Ming balog‘at bila so‘z aylab ado,  
Qilur ani jugan bilan savdo.*

*Ul dog‘i ushr, yo zakotdurur,  
Anga in‘omu bazl ot durur.*

*Mani bechora-u g‘arib-u haqir,  
Ki so‘zum ichra zarra yo‘q ta’sir.*

*So‘z desam kim anga quloq solur,  
Kim ani yoki bir ko‘nag‘a olur...<sup>27</sup>*

Komil, darhaqiqat, Ogahiyini “ogohlarning ogahi, fahmu donish osmonining oyi”, – deb atagan edi. Uning so‘zlari gavhardan ham

---

<sup>26</sup> Огаҳий. Гулшани давлат. – Тошкент: “Мумтоз сўз”, 2019. 35-бет.

<sup>27</sup> Комил Хоразмий. Танланган шеърлар. – Тошкент: Давлат бадий адабиёт нашриёти, 1961, 27-бет

a'lo, o'zi fazl-u donish olamida bayroqdor, deya ulug'lagan. Komil shundan so'ng ijtimoiy muammoga o'tib, so'zning qadri, afsuski, e'tiborsiz ekanligiga urg'u bergan. Ulug' shoir Ogahiyning so'zi jugan (jo'xori) birla baholanar ekan, mening so'zimga somon bersalar ham yomon emas, deydi. Bu o'rinda Ogahiyning bemisl iqtidoriga hurmat bo'lsa, ikkinchidan, davr muammosi, uchinchidan, Komilning kamtarligi ham bo'y ko'rsatadi:

*So'zimga hech kishi jugan bermas,  
Bersalar ham samon – yomon ermas.*

Yuqorida tahlilga tortilgan masnaviy parchasi orqali Komil Xorazmiyning adabiyotshunos, jamiyatshunos sifatidagi qirrasini namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, Komil Xorazmiy devonining nisbatan mukammalroq nusxasiga 3680 bayt she'ri jamlangan. Ularda Navoiy, Mu'nis, Ogahiy she'riyatidan bahramandlik yaqqol ko'rinib turadi. Komilning bir qancha g'azallari borki, ularda Ogahiy she'riyatiga o'xshashlik bor. Bu g'azallarning qofiya, radifi, hatto ishlatilgan qofiya san'atida ham yaqinlik seziladi. Ogahiy yozadi:

*Ey joni g'amgin mujdakim, bu kecha jononing kelur,  
G'uncha dahan-u gulbadan sarvi xiromoning kelur.*

*Mehr-u vafo rasmin tuzub, javr-u jafu tavrini buzub,  
Shirin tabassum ko'rguzub, la'li durafshoning kelur.*<sup>28</sup>

Komil Xorazmiy esa bu g'azalga shunday o'xshatma qiladi:

*Xushnud bo'lg'il, ey ko'ngul, gul yuzli jononing kelur,  
Shirin labu pista dahan, gulbargi xandoning kelur.*

*Bayzo jabin-u gul uzor, xurshid rux, mehr iqtidor,  
Qotilvash-u shirin shior, oshubi davroning kelur.*<sup>29</sup>

<sup>28</sup> Огаҳий. Таъвизу-л-ошиқин. – Тошкент: "Мумтоз сўз", 2014, 115-бет (Бундан кейинги Огаҳий шеърятидан мисоллар шу китобдан олинади ва қавс ичида саҳифаси кўрсатилади).

<sup>29</sup> Комил. Девон. -Тошкент: Давлат бадий адабиёт нашриёти, 1975, 63-бет (Бундан кейинги Комил шеърятидан мисоллар шу китобдан олинади ва қавс ичида саҳифаси кўрсатилади).

Keyingi baytlarda ikkala shoir gʻazallarining mazmunida ham oʻxshashlik kuzatiladi. Baʼzi baytlarda bir xil qofiyalardan foydalangan. Keyinchalik, “Kelur” radifli gʻazalning goʻzal namunalari Feruz va boshqa shoirlar ijodida ham yaratilgan.

Ogahiy va Komil fikriy olamidagi oʻxshashlik “Xat” radifli gʻazallarida ham koʻrinadi. Toʻgʻri, ushbu gʻazallar qofiyasida yaqinlik yoʻq, lekin mazmunida oʻxshashliklar koʻzga tashlanadi. Jumladan, Komilda:

*Jonfizo labinggʻa to chiqdi, ey sumanbar, xat,  
Mashq-u muhr uchun boʻldi husn eligʻa ul sarxat...*

*Gar koʻray desang har dam Xizr ila Masihoni,  
Yuzida tamosho qil lab bila muanbar xat. (84-bet)*

Komil gʻazaliga asos boʻlgan Ogahiy gʻazalidan quyidagi baytlarni keltirish mumkin:

*Boʻldi laʼl jonbaxshing uzra to namoyon xat,  
Ey pari, Xizr yangligʻ topti jovidon xat...*

*Jon fido labing uzra aylamish makon, ey shoʻx,  
Aylagan kabi maskan Xizr obihayvon xat. (78-bet)*

Ushbu gʻazallarning maqtaʼsida yana ham oʻxshashlik seziladi. Komil Ogahiyning “Xat” radifli gʻazalidan nihoyatda taʼsirlangani ifoda va mazmunda namoyon boʻladi. Ogahiy yozadi:

*Ogahiy abad umri mujdasidin ortiqdur,  
Vaʼdai visol aylab gar yuborsa jonon xat. (78-bet)*

Komil Xorazmiy gʻazalining maqtaʼsi esa quyidagicha:

*Boʻlgʻusidurur ozod dahr umidu bimidin,  
Gar yuborsa Komilgʻa bandalikka dilbar xat. (84-bet)*

Ogahiy va Komil sheʼriyatidagi “Tama” radifli gʻazallarda ham gʻoyaviy yaqinlik bor. Har ikkala shoir ijtimoiy va ishqiy mavzuni bir gʻazal qatiga singdirgan. Farqi shundaki, Ogahiyda yordan tama qilish koʻproq, Komil gʻazallarida oz. Ushbu gʻazallarda tama – il-lat sifatida keltirilgan oʻrinlar Komil sheʼrida koʻp, Ogahiyda oz.

G'azallarning maqta'sida esa g'oyaviy o'xshashlik ko'proq. Ogahiy yozadi:

*Tilasang yaxshi ot, ey Ogahiy, tarki tama et –*

*Ki, jahon ichra qilur kimsani badnom tama. (170-bet)*

Komil g'azalining maqta'si esa quyidagicha:

*Olam ichra gar bo'lay desang azizu arjumand,*

*Aylama Komil kibi juz zulli subhondan tama. (88-bet)*

Qosh-u ko'z, kokil, yuz ta'rifidagi g'azallarda ham o'xshashlik e'tiborni tortadi. Har ikkala ijodkor yor husn-u jamolining ta'rifini shunday ta'riflaydiki, ular takroriylikda betakrorlik yarata oladilar. Ogahiyning mashhur "Qosh-u ko'zing" radifli g'azali matla'si bunday:

*Vah, ne balodur bilmadim, ey dilrabo, qosh-u ko'zing –*

*Kim bir nazarda soldi o't jonim aro qosh-u ko'zing. (197-bet)*

Komil esa tubandagicha o'xshatma qiladi:

*Jon ofati erkandur, ey mahvash sanam, qosh-u ko'zing,*

*Soldi boshimg'a yuz tuman javru sitam, qosh-u ko'zing. (202-bet)*

Yana shunday o'xshashlik "Ey to'ti" radifli g'azallarida ham ko'zga tashlanadi. To'ti timsoli ba'zi baytlarda o'z o'rnida kelsa, ayrim o'rinlarda ma'shuqa ishqida nolon oshiq misolida gavdalanadi. Ogahiy esa yana o'z aqidalariga sodiq qolib, davr muammolarini ham g'azaliga singdirib o'tadi. "Ki, joh ahli jahonda behunardur aksar, ey to'ti" deyish bilan mansabdorlarni tanqid etadi. Komil esa bu g'azalida zamon illatlariga diqqat qaratmaydi. G'azallar o'rtasidagi o'xshashlik quyidagi baytlarda yaqqol ko'rinadi.

Ogahiy yozadi:

*Chu shakarrez qilding har nafas shirin kalomingni,*

*Bori qushlar guruhi ichra bo'lding sarvar, ey to'ti. (278-bet)*

Komil yozadi:

*Magar, bir nuktadon ishq kalomin aylading takror?*

*Ki bo'lding borcha qushlar ichra favqu sarvar, ey to'ti. (164-bet)*

Ikkala shoir g'azaliyotidagi hamohanglikni yana o'nlab she'rlar misolida isbotlash mumkin. Jumladan, Ogahiyning "Bir soat", "Arzimas", "Erur", "Libos", "Na haz", "Ey hofiz", "Sham", "Kokuling", "Kelgil" va boshqa radifli g'azallarini keltirish o'rinli. To'g'ri, ayrimlarida qofiyalarida muvofiqlik bo'lmasa-da, g'oyaviy yo'nalishda yaqinlik bor.

Ma'lumki, Ogahiy mutakarrir qofiyaning go'zal namunalarini yaratgan edi. G'azal baytlarining ikkinchi misralarida esa qofiya o'rnida bir so'zni ketma-ket uch, to'rt marta takrorlab go'zal she'rlar yaratish Ogahiydan so'ng juda kuchaydi. Ayniqsa, Feruz davri adabiy muhitida bunday g'azal bitmagan ijodkorni topish qiyin. Komil Xorazmiyning ham uchta g'azali Ogahiy boshlagan ana shu an'ana asosida yozilgan. Jumladan:

*Qilma arsh o'lsa yering, oting buroq,  
Tumtaroq-u tumtaroq-u tumtaroq. (95-bet)*

Yoki:

*Loladek ishqingda ko'nglum, ey nigor,  
Dog'dor-u dog'dor-u dog'dor. (64-bet)*

Yoki:

*Mango qilma, ey mohi olijanob,  
Itob-u itob-u itob-u itob. (30-bet)*

Darhaqiqat, Komil Xorazmiy badiiy mahoratining rivojlanishida Ogahiyning ta'siri juda katta bo'lgan.

Ogahiydan ta'sirlanish Komil Xorazmiy muxammaslarida ham ko'zga tashlanadi. Komil Ogahiyning uchta g'azaliga muxammas bog'lagan. Bular "Arzimas", "Til", "Aylansun" radifli g'azallarga bog'langan muxammaslardir. Ma'lumki, "Arzimas" radifli g'azal Navoiy, Ogahiy, Komil she'riyatida uchraydi. Ogahiy va Komil Navoiy g'azaliga tatabbu' yozganlar. Ogahiyning shu radifli g'azaliga Komil muxammasi esa pandnoma ruhdagi go'zal asardir. Bu haqda adabiyotshunos M.Salayeva shunday yozgan edi: "Komilning bu muxammasi ham Navoiy va Ogahiyning g'azallariga bog'lagan boshqa muxammasi kabi hayotning past-u balandi,

yaxshilik va yomonlik, ochko'zlik, tamagirlik bilan qone'lik va olihimmatlilik, aysh -ishrat, qayg'u va g'am hayotda yonma-yon yurishi haqida shoir mushohadalarini ifodalaydi va shunday vaziyatlarda haqiqiy inson o'zini qanday tutishi, nimaga qarshi bo'lib, nimaga tarafdor bo'lishini qalban va fikran chuqur anglashiga ko'maklashish maqsadiga qaratilgan, falsafiy-didaktik xarakterdagi asarlardandir"<sup>30</sup>.

Ogahiyning oshiqona mavzudagi go'zal g'azali bor. Darhaqiqat, bu g'azal betakror o'xshatishlarga, topilmalarga boy asar hisoblanadi. Komil Ogahiyning bu g'azalidan benihoya ta'sirlangan va go'zal muxammas yaratgan. Muxammas shunday boshlanadi:

*Ayon qil surating, husn ahli naqqoshingdin aylansin,  
Og'iz och, g'uncha bu la'li guharpoishingdin aylansun.  
Tara zulfungni, sunbul zulfi chirmoshingdin aylansun,  
Yuzung ochkim, quyosh sadqang bo'lub, boshingdin aylansin,  
Yangi oy yuz tavozi' ko'rguzub, qoshingdin aylansun. (191-bet)*

Yuqoridagi birinchi bandeda ma'shuqaning surati, og'zi, zulfi, yuzi, qoshi, keyingi bandlarda ko'zi, bir boqishi mahorat bilan tasvirlangan. Komil Xorazmiy Ogahiy mushohadalarini davom ettirgan, ustozga munosib shogird bo'lgan ijodkor edi. Quyidagi bandeda Ogahiy o'n sakkizga yetgan ma'shuqaning husnini mahorat bilan tasvirlaydi. Komil Xorazmiy esa ma'shuqa tarifini uch yoshidun boshlab tasvirlar ekan, yangi chiqqan oy ham uyatga qolganini kutilmagan tarzda bayon etadi:

*Uyatlig' erdi uch yoshingda yongi oy hilolingdin,  
Chamanda sarv po dar gil bo'lib navras niholingdin,  
Jahonni noumed etma ruhi farxunda folingdin,  
Chu o'n sakkizga yetti yoshing, ol burqa' jamolingdin,  
Ki o'n sakkiz ming olam o'n sakkiz yoshingdin aylansun.*

Muxammasning so'nggi bandeda esa Komil ma'shuqaning visolli jomini tilab tadbir aylagani, u toshyurakning ko'ngliga mingdan

<sup>30</sup> Салаева М. Навоий ва Хоразм шоирлари. - Урганч: "Мураббий", 1993, 11-бет

bir ham ta'sir qilmagani, yor bazmi visolini Haq Ogahiyga taqdir etib bitganini, chunki uning oh-u yoshi ul oy qalbiga yetib borgani-ni mahorat bilan uyg'unlashtira olgan:

*Tilab jomi visoling, aylagay Komil base tadbir,  
Muassir bo'lmadi ul sangdil ko'nligiga mingdin bir.  
Magar bazmi visolin haq sango qilmishdurur taqdir,  
Ul oy ko'nlig'a qildi Ogahiy ohu yoshing ta'sir,  
Bori jonu hayotim oh ila yoshingdin aylansun. (192-bet)*

Xullas, Komil Xorazmiy Ogahiyning she'riyatdagi go'zal an'alarini davom ettirdi. Bu g'azallarga tatabbu'lar yozishda, Ogahiy qo'llagan timsollardan foydalanishda ko'rinadi. Shuningdek, Komil Xorazmiy Ogahiy g'azallariga muxammaslar bog'lar ekan, ustozga munosib so'z aytishga harakat qilgan va buni ud-dalagan.

Komil Ogahiyning tarjimachilik borasidagi ishlarini ham munosib davom ettirgan. Mahmud Farohiyning "Mahbub ul-qulub", Faxriddin Ali Safiyning "Latoyifu-t-tavoyif" asarini "Latoyifu-z-zaroyif" nomi bilan o'zbekchaga tarjima qilgan. Bir so'z bilan aytganda, Komil Xorazmiy Ogahiyning adabiy an'alarini munosib davom qildirgan iste'dodli ijodkor edi.

***Komil Xorazmiy g'azalnavisligining adabiy-estetik omil-lari.*** Shoirning bizga qoldirgan adabiy merosining asosiy qismi g'azallar, muxammas, musaddas, musabba, murabba', muammo, ruboiy, qasida va masnaviylardan iborat bo'lib, bular orasida aso-siy o'rinni g'azallar tashkil qiladi. Komil Xorazmiy she'riyati garchi an'anaviy ishq-muhabbat, may-mahbub, ma'rifatparvarlik, do'stlik, ijtimoiy muhit, tinch-totuv yashash, g'oyalarini targ'ib qilsa-da, ammo uning ijodining asosiy qismini ishqiy lirika tashkil qiladi. Yor yuzining malohati quyosh hamda oydanda ortiq, so'z-in-g fasohati esa gavhar va durdanda a'lo ekanligini shoir quyidagi misralarda ifodalaydi: *Yuzung sipehri malohat uzra quyoshdin ah-san, qamardan anvar,*

*So'zuing buxori balog'at ichra guhardin ashraf, durardin aqdan*

Oshiq mutlaqo asir bo'lgach, Laylini sevgan Majnun singari ishq tuzog'iga tushadi, Yusuf kabi g'am o'tiga bandi bo'ladi, Masih anfosi bo'lib ma'shuqaning kalomida tajalli etishni va Iskandar oyinasi kabi yorning qarshisida paydo aylamoqni ixtiyor etadi: Mudom Layli yo'lingda Majnun, mudomi Yusuf g'amingda masjun, Masihi la'ling kalomi gavhar, zamiring oyinayi Iskandar. Shoir yana bir ishqiy manzumasida yorini quyoshga mengzaydi va uning hajrida dili, joni beqaror ekanligidan kuyunadi:

Ul quyosh meni vahkim, asru zor etib ketti,  
Zarradek dil-u jonim beqaror etib ketti.

Lirik qahramonimiz mahbusining tengsiz go'zalligi-yu nafosati, noz-u karashmalaridan tashqari uning(sevgilisining) ishq boida sitangar, makkora va bemuruvvat ekanligini quyidagi misralarda berib o'tadi:

*Ohkim, bir sarvi gulruxsora oshiq bo'lmisham,  
Bemuruvvat qotili, xunxora oshiq bo'lmisham.  
Oldi jonim noz-u istig'novu yolg'on va'dasi,  
Bir sitangar zolim-u makkora oshiq bo'lmisham,*

Komil she'riyati yetuk so'z san'atkorlari bo'lmish Navoiy, Fuzuliy, Ogahiy, Munis kabi shoirlar ijodidan ozuqlandi, ulardan ilhom oldi.

Ularning g'azallariga muxammaslar bog'lab, asarlarida kuylangan vatanparvarlik, adolatparvarlik, g'oyalaridan ijodiy foydalandi. Navoiyning do'stga sadoqatli bo'lish, bevafo do'stlik iztiroblari tarannum etgan "Bo'lmangiz" radifli g'azaliga Komilning bog'lagan muxammasi:

*Zinhor el ihtiloji birla hurrām bo'lmangiz,  
Mehnatni har dam fuzul-u rohati kam bo'lmangiz,  
Men kabi bori nadomatdin qadi ham bo'lmangiz,  
Do'stlar, odam eliga yor-u hamdam bo'lmangiz,  
Yor ila hamdam demaykim, oshno ham bo'lmangiz.*

Shoirning ushbu misralarini tahlil qilarkanmiz, Navoiy g'azali bilan nafaqat mavzu, balki ohang jihatdan ham munosib uyg'unlikni ko'rishimiz mumkin.



Do'stlik mavzusida so'z yuritar ekanmiz, Komilning "Ahhbob" (Do'stlar) radifli g'azalida esa umrning o'tkinchiligi, do'stlarni g'animat bilib ularni qadrlamoq kerakligi tarannum etiladi:

Tugunlar bir-birovning suhbatini muhtanam, ahhbob,

Ki, barcha bo'lg'umiz navbat bilan bir-bir adam, ahhbob<sup>31</sup>

Komilning ushbu misralaridagi ma'no va mazmun beixtiyor shoh va shoir Bobur ijodini esga soladi. Bobur o'zining quyidagi ruboiysida do'stlar va yaqinlar salomatligining o'zi davlat ekanligi, dunyoning o'tkinchiligi, do'stlar diydorining g'animatligini juda ta'sirli yo'sinda aks ettiradi.

Ahhbob, yig'ilmoqni farog'at tutungiz,

Jamiyatingiz borini davlat tutungiz.

Chun gardishi charx budurur, Tengri uchun,

Bir-birni necha kun g'animat tutungiz.

Komil Xorazmiy she'riyati bilan yaqindan tanishganimizda uning g'azallarining aksariyatida tarixiy shaxslar obrazi, ya'ni: Majnun, Farhod, Layli, Shirin, Iskandar, Bahrom, Sulaymon, Vomiq, Uzro, Jamshid, Yaqub, Iso Masih kabilar bilan Yusuf obrazining badiiy talqinini ham uchratamiz. Talmeh san'atining yuksak namunasi bo'lgan ushbu obrazlarni she'riyatda ifodalash uchun albatta, muallifdan chuqur bilim talab etiladi. Komil nafaqat Navoiy ijodining bilimdoni, balki Qur'oni Karim va Hadis bilimlaridan ham xabardor ekanligini shoirning quyidagi misralarida ko'rishimiz mumkin:

Necha Shirin-u Layli kokiling ag'lolig'a mag'lul,

Zanaxdoning chahi ichra base Yusuf erur masjun.

Layli-yu Shirinlar husning oldida soching halqasi bilan mashg'uldir, go'zallik timsoli bo'lgan Yusuf ham dudog'-u husningga bog'langan, ya'ni tobedir deya ma'shuqa go'zalligini haddi a'losiga qo'yib tasvirleydi lirik qahramon. Ma'lumki, Yusuf siymosi Sharq, jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotida ham keng uchraydigan badiiy obrazlardan biri bo'lib, uning talqini nasriy

<sup>31</sup> Yunusov M. «Komil Xorazmiy» -T.: 1960

asarlardan boshlanib lirikada ham yetakchi mavzulardan biri hisoblanadi. Albatta, bu timsol an'anasi uchun dastlabki poydevor Qur'oni Karim hisoblanadi: «Shunday qilib, Yusufni yerga (Misrga) joylashtirdik va gaplar (tushlar) ta'vilini bildirishimiz uchun shunday qildik. Alloh (O'z) ishida g'olibdir, lekin odamlarning aksariyati buni bilmaydilar. (Yusuf) voyaga yetgach, unga hukm va ilm ato etdik. Chiroyli ish qiluvchilarni shu tarzda mukofotlaymiz». (Yusuf surasi) Turkiy o'zbek adabiyotida Yusuf mavzusiga bag'ishlangan asarlar talaygina bo'lib: Durbek "Yusuf va Zulayho" dostoni, A. Jomiy asari, Rabg'uziy qissasi, Navoiy tarixini hamda mumtoz she'riyatdagi Yusuf obrazining ko'plab poetik manzarasini misol qilishimiz mumkin. Yusufning ishq, hijron, tuhmat, uzolat, kibr, zalolat kabi qiyinchiliklar oldida matonati va saboti uni adabiyotda, xususan, she'riyatda oshiq timsoliga aylantirdi. Komilning "Labing uzra xat ermas..." deb boshlanuvchi g'azalining maqtasida:

*"Netong giryon esa o'z kulbasida Komil, ey Yusuf,*

*Hamisha sensiz ul Yaqub erur, baytul-hazandur bu",* – deya vor ishqida ko'z yosh to'kkan kulbasini Yusuf hajrida g'am - g'usm chekkan Ya'qub a. h.ning g'am uyiga (baytul hazan) ga qiyonlaydi. Shoirning yana boshqa g'azalida esa Yaqubning hijroni va Kanon ahlining mahzunligi shunday tasvirlanadi:

*Ro'zi shab zindoni g'amda yig'laram Yaqubdek,*

*Bo'lg'ali man xastasidin ul mahi Kan'on malul.*

Umr o'tkinchiligiga ishora qilayotgan shoir "Hilol etmang, ey do'stlar..." deb boshlanuvchi g'azalida dunyo nafsiga berilmaslik, hayotning foniyligi, yoshlik ketidan qarilik kelishi, subh ortidan shomning "iqbol" topishi, jahonda barqaror qolmaslik, ya'ni shohmi yo gadomi tarki dunyo qilishi, yaxshilikning yomonlik ustidagi g'alabasi go'yoki Yusufning zindondagi uqubati, so'ngra Misrda izzat topishi quyidagi baytda ifoda topadi:

*Jahon past-u balandidan muvashshah qilma xotirin,*

*Qilur Yusuf erin gah Misr izzat taxti, gah zindon.*

***Komil Xorazmiy she'riyatining mavzu ko'lami xususida ba'zi mulohazalar.*** Ogahiy Komil Xorazmiyning iste'dodiga shunday baho bergan edi: "Navrasfirk-u tozatab shuarodin fazl-u hunar arosinda mumtoz Pahlavon Niyozboykim, fozillar guruhi ichra taxallusi Komildur"<sup>32</sup>.

Komil Xorazmiy iste'dodli shoir, tarjimon, musiqashunos, davlat arbobi sifatida mashhurdir. Uning devoni mumtoz adabiyotimizda an'ana bo'lgan alifbo tartibida bo'lib, unda – g'azal, mustazod, muxammas, murabba', musaddas, musamman, tarji'band, masnaviy shaklida yozilgan she'rlar mavjud.

Komil ijodining mavzu ko'lami xilma-xil va rang-barangdir. Shoir she'riyatida ishqi, falsafiy, ma'rifiy, orifona va boshqa mavzular yetakchilik qiladi. Komilning oshiqona mavzudagi she'rlarida ishqi haqiqiy va ishqi majoziy zo'r mahorat bilan qalamga olingan. Shoir yozadi:

*Sensizin, ey dilrabo, jannatda g'ilmon bo'lmasin,  
Demayin g'ilmonki, bal jismim aro jon bo'lmasin.*

*Bo'lmasa vasling muyassar, ey paripaykar, mango,  
To'bi-yu kavsar bila firdavsi rizvon bo'lmasin. (2.18)*

Komilning yuqoridagi go'zal misralarida Alloh ishqi qalamga olingan bo'lib, bu o'rinda shoir menga Yaratganning vasli muyassar bo'lmasa, jannat bog'lari-yu, buloqlari kerak emas, deya o'zining oshiqlik tamoyillarini qalamga oladi. Shoir ijodida bunday she'rlarni ko'plab uchratish mumkin.

Taniqli adabiyotshunos N. Jabborov Alisher Navoiy haqida to'xtalar ekan: "O'zi mansub bo'lgan ulug' elga mehr qo'yish, elulus baxtini o'z baxti, g'amini o'z g'ami deb bilish shaxs kamolotining muhim shartlaridandir"<sup>33</sup>, deb yozgan edi. Bu fikrlarni Komil Xorazmiy hayoti va ijodida ham tatbiq qilsa bo'ladi. Shoir yozadi:

<sup>32</sup> Огаҳий Гулшани давлат. – Тошкент: "Мумтоз сўз", 2019. – Б. 35.

<sup>33</sup> Nurboy Jabbarov "Maoniy ahlining sohibqironi" monografiya. Toshkent, "Adabiyot", 2021. 54-bet

*Tut o'zni past-u kichik barcha xalqdin, Komil,  
Azim ofat erur nixvat-u anoniyat.(2.9)*

Bu o'rinda Komil insonlarni kamtarlikka, xalq uchun jonfido bo'lishga chaqiradi.

Ma'lumki, hayot o'zining murakkabliklari, ziddiyatlari bilan shoir qalbini ezgan, u qilgan mehnatlari evaziga yomonlik ko'rgan. Buni uning quyidagi bayti tasdiqlaydi:

*Kima bir xizmat etsam, aylagay o'rniga yuz tuhmat,  
Asalg'a, zahr-u gul o'rniga, sanchar xor har soat.(2.12)*

Komil ziddiyatli tuyg'ular girdobida ham ko'ngul oynasini toza saqlab, hayot zarbalarini mardonavor yenga bilgan va soqiyga, ya'ni may quyuvchiga murojaat qilar ekan, meni hamisha ilohiy ishqdan sarmast qil, deydi:

*Jahon past-u balandi, soqiyo, qoh qildi ko'nglimni,  
Mani masti mudom et, qo'ymayin hushyor har soat.(2.12)*

Komil boshqa bir o'rinda o'zi tug'ilib kamol topgan elga muhabbatini shoirona chizgilarda shunday ifodalaydi:

*Vatanda sokin o'lub sayr et olami bolo,  
Safarin aylamagil ixtiyor g'urbat aro.*

*Tob emdi Xeva ila Pahlavoni Komil esang,  
Dema – Buxori sharif-u Mazor g'urbat aro.(2.8)*

Shoir chin insoniy fazilatlar sohibi bo'lish, ma'rifatga, kamolotga erishish uchun hayot bizga berilgan ulug' ne'mat ekanligini ta'kidlaydi. Bu ne'matni undagi ashyolarga muhabbat qo'yish bilan zavol toptirmaslikka, mol-dunyoga, boylikka ko'ngil bog'lamaslikka undaydi. Insonni kamolotga yetaklovchi vosita ilm ekanligini uqtiradi:

*Emas kishiga bu dunyoda mulk-u mol kamol,  
Husuli ilm-u hunar keldi bezavol kamol.(2.8)*

Yana bir o'rinda shoir kamolotga erishishning maqsadi va ma'nisiga to'xtaladi:

*Kamol ma'nisi tahsili ilmi holdurur,  
Na hosil aylaguchi mahzi qiyl-u qol kamol.(2.8)*

Darhaqiqat, shoir nazdida kamolot hatto soʻzga shuhrat, qushga bamisoli parvoz qilishga imkon beradi. Komil Xorazmiy asarlarida “Donish ahli” atamasi koʻp va xoʻb qoʻllanilgan. Quyidagi misralarda bu toifaga mansub kishilarga munosabatini yaqqol ifodalagan:

*Johilekim donish ahli suhbatidan qochqusi,  
Kofiredurkim topar ahli musulmondin xalos.*

Xullas, Komil Xorazmiy sheʼriyatida qalamga olinmagan mavzularni topish mushkuldir. U oʻzidan oldin oʻtgan ulugʻ ijodkorlar kabi barcha mavzu doirasidagi fikrlarini ishq mavzusi asosida beradi. Umumbashariy gʻoyalarni yuksak mahorat bilan qalamga oladi va badiiy iqtidorini yetuk ijodkor ekanligini koʻrsatadi.

Sharq sheʼriyatining ulugʻ ijodkorlaridan biri Alisher Navoiy chinakam maʼnoda turkiy sheʼriyat quyoshi edi. Uning boy adabiy merosi keyingi davr ijodkorlari uchun namuna, ilhom manbayi boʻldi. Shoir sheʼrlariga bogʻlangan tatabbuʻlar, payravlar fikrimizning isbotidir. Alisher Navoiy sheʼriyati Xorazm adabiy muhiti vakillarini ham oʻziga rom etdi. Ular orasida Navoiy gazallariga tatabbuʻ bitmagan, muxammas bogʻlamagan ijodkor yoʻq hisobi. Komil Xorazmiy ham ana shunday ijodkorlardan biridir. U Alisher Navoiyni sheʼriyatda oʻziga ustoz deb bildi. Navoiyning koʻplab gʻazallariga naziralar bogʻladi, tatabbuʻlar bitdi. Bu xususda adabiyotshunoslikda qisman fikrlar bildirilgan. Jumladan, M. Yunusov, Gʻ. Karimov, A. Hayitmetov va boshqalar oʻz tadqiqotlarida toʻxtalganlar. Yana bir adabiyotshunos M. Salayeva oʻzining “Navoiy va Xorazm shoirlari” asarida: “Navoiy lirikasining Komil sheʼriyatiga taʼsirini, avvalo, Komil Xorazmiyning oʻz gʻazaliyotida ifoda etilgan estetik qarashlari bilan Navoiy qarashlari hamohangligida koʻrish mumkin”,<sup>34</sup>– degan edi. Darhaqiqat, Komil sheʼriyatida A. Navoiy ijodi taʼsiri yaqqol seziladi. Komil tomonidan bitilgan

<sup>34</sup> Salayeva M. Navoiy va Xorazm shoirlari. – Urganch: Murabbiy, 1993. – B. 62

”Ne tong, Komil Navoiy yanglig‘o‘lsa so‘z aro sarmast“ misrasi ham isbotlaydi.

Alisher Navoiyning ”Navodir un-nihoya“ devonida “Bo‘lmangiz” radifli go‘zal g‘azal bor. Bu g‘azal falsafiy-didaktik ruhda yozilgan bo‘lib, shunday boshlanadi:

*Do‘stlar, olam eliga yor-u hamdam bo‘lmangiz,  
Yor ila hamdam demangkim, oshno ham bo‘lmangiz*<sup>35</sup>.

Hazrat Alisher Navoiyning ushbu g‘azaliga Komil Xorazmiy muxammas bog‘lar ekan, ulug‘ ustozning purma‘no fikrlariga monand misralar bita olgan va o‘zining iste‘dodini namoyon etgan. Komil ijodidagi misralarga hamohang tarzda shunday yozadi:

*Zinhor el ixtiloti birla xurram bo‘lmangiz,  
Mehnati har dam fuzun-u rohati kam bo‘lmangiz,  
Men kabi bori nadomatdin qadi xam bo‘lmangiz*<sup>36</sup>...

Biz Komil Xorazmiyning hayot yo‘liga nazar tashlab ham uning nihoyatda elparvar, yurtparvar davlat arbobi bo‘lganligini bilimiz. Uning bu yuksak insoniy fazilati ijodiga ham ko‘chgan. Shoir muxammasda ham xalq dardi bilan yonib yashaydi. U zinhor elning kelishmovchiligidan shod bo‘lmaslikni uqtiradi. Elning mehnati g‘amli, rohati kam bo‘lmasligini, o‘zi kabi nadomat yukidan qaddi egilmasligini istaydi. Komil Alisher Navoiyning olam eliga yor-u hamdam, nafaqat yor-u hamdam, hatto oshno ham bo‘lmanglar, degan ibratomuz fikrini g‘oyaviy jihatdan rivojlantira olgan. Shu o‘rinda, ”Olam eli“ birikmasi xususida to‘xtalmoq joiz. Savol tug‘iladi, Navoiy nima uchun olam eli bilan yor-u hamdam bo‘lmaslikka da‘vat qiladi? Nahotki, bu dunyo ahli do‘st, hamdam, oshno bo‘lishga arzimasa? Shuni alohida ta‘kidlash o‘rinliki, olam eli deganda, bu olamga muhabbat qo‘yganlar nazarda tutilmoqda. Taniqli adabiyotshunos N.Jabborov yozadi: ”Tasavvufda tarki

<sup>35</sup> Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. Ikkinchi tom. Navodir un-nihoya. – T.: Fan, 1987. – B. 187

<sup>36</sup> Komil Xorazmiy. Tanlangan asarlar. (Rahmat Majidiy nashrga tayyorlagan). T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1961. – B. 24

dunyo yo‘q. Tasavvuf ta‘limotida ham, uning zaminida vujudga kelgan tasavvuf adabiyotida ham dunyoni emas, dunyoga bo‘lgan muhabbatni tark etishga da‘vat qilinadi. Bu esa jamiyat hayotini haqsizlik va jinoyatdan, qabohat va jaholatdan asrashda alohida ahamiyatga ega<sup>37</sup>. Darhaqiqat, N.Jabborov fikrlarini ”Olam ahli“ ifodasiga tatbiq qilish o‘rinlidir. Muxammasning ikkinchi bandi quyidagicha:

*Olam ahlidin vafo osorini qilmang gumon,  
Naqd umrim sarf etib, qildim alarni imtihon,  
Uzlat istab ahli olamdin qoching boricha jon,  
Oshnolig‘ aylabon o‘z joningizg‘a har zamon,  
Boisi yuz ming balo-u mehnat-u g‘am bo‘lmangiz<sup>38</sup>.*

Komil birinchi baddagi fikrlarini davom ettirarkan, olam ahlidan vafo kutmaslikni, umrini sarflab, ularni imtihon qilganligini yozadi. Albatta, olam ahlidan uzlatga qochishni uqtiradi. Keyin yana Navoiy fikrlariga navbat keladi. U ham ahli olamga oshnolik qilib, o‘z joniga yuz ming balo, mehnat, g‘am bo‘lmaslik haqida yozadi. Shu o‘rinda bir jihatga e‘tibor qaratmoq joiz. Shoir nima uchun uzlatga qochishga chorladi? ... G‘azzoliy fikricha, uzlat mu-tafakkir insonlar uchun zaruriy ehtiyojdir. Inson bot-bot yolg‘iz bo‘lishni, o‘z-o‘zi bilan yakka qolib, fikr daryosiga cho‘mishni, dunyo tashvishlaridan vaqtincha forig‘ bo‘lgani holda, tafakkuriy idrokka berilishni xohlaydi<sup>39</sup>. Darhaqiqat, Komil Xorazmiy nazdi-da inson uzlatga qochsa, o‘zlikni anglaydi.

Muxammasning keyingi bandida yor tasviri ham qalamga olinadi. Bu yor ham olam ahlidan:

*Ruhparvar lablaridin istabon no‘shi hayot,  
Urdim o‘z joning‘a o‘z ilkim bila nishi mamot,*

<sup>37</sup> Jabborov N. Maoniy ahlining sohibqironi. – T.: Adabiyot, 2021. – B. 72

<sup>38</sup> Komil Xorazmiy. Tanlangan asarlar. (Rahmat Majidiy nashrga tayyorlagan). – T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1961. – B. 24

<sup>39</sup> Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. Birinchi kitob. Toshkent Yozuvchi, 1996. – B. 98

*Va'dasida yo'qturur hargiz vafo birla sabot,  
Yeb parivashlar firibin, so'ngra topmay iltifot,  
Men kabi devona-u rasvoi olam bo'lmangiz.*<sup>40</sup>

Alisher Navoiy do'stlarga murojaat etib, parivashlar firibini yeb, iltifot topmasdan, mehr ko'rmasdan, men kabi devona, rasvoyi olam bo'lmanglar, deya fikr aytgan bo'lsa, Komil bu go'zallarning jonparvar lablaridan hayot suvini ichishni istaganini, oqibatda, o'z joniga o'z qo'li bilan o'lim nishini urganligini, ularning va'dasida vafo bilan sabot yo'qligidan fig'on chekadi. Shuni e'tirof etish joizki, ruhparvar lablardan hayot istab, o'z joniga o'lim nishini urganligi tasviri berilgan o'rinlarni shoirning mahorati mahsuli deyish maqsadga muvofiqdir.

Keyingi bandeda ham yor mavzusi davom ettirilib, "Yordin gar marhamat yetsin va gar ranj-u alam, Oshiqi sodiq tutar oni hamisha mug'tanam" misralari Komil Xorazmiy Ogahiy tomonidan qo'llangan "Oshiqi sodiq" badiiy topilmasidan foydalanganini, Ogahiy qarashlariga hamohang misralar yozganini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy g'azalining begona baytida xarobot ahliga murojaat etadi. Ma'lumki, xarobot – xarob bo'lgan joy, tasavvufiy ma'noda, piri komil huzuri sifatida tushuniladi. Navoiy xarobot ahliga, ya'ni piri komil huzuridagi muridlarga murojaat etib, insonda vafo qilish imkoni yo'q ekanligi, mastlikda dev bo'lishni, zinhor odam bo'lmang, deya o'ziga xos fikr aytadi. Navoiy ulug' shoir, mutasavvuf, mutafakkir ijodkor. U xarobot ahlini ilohiy ishq bilan mast bo'lishga chorlaydi. Komil Xorazmiy esa xarobot ahli, alam ahliidan barcha jabhada ustun ekanligini ularning yomon sifatleri orqali ko'rsatib beradi:

*Ohkim, har kimga mol-u jonimi qildim fido,  
Qildilar yaxshilig'img'a ming yamonlig' borho,  
Ahli olamdin vafo aylab tama, chekmang jafo,*

<sup>40</sup> Komil Xorazmiy. Tanlangan asarlar. (Rahmat Majidiy nashrga tayyorlagan). – T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1961. – B. 24



*Ey xarobot ahli, yo‘q insonda imkoni vafo,  
Mastlig‘din dev o‘lung, zinhor odam bo‘lmangiz*<sup>41</sup>.

Shoirlar oxirgi badda vasl ahliga murojaat qilishadi. Vasl ahli visolga yetganlardir. Garchi Komil ayriliqda alil bo‘ldi, hajr o‘tig‘a tushib xalildek bo‘ldi, shunday bo‘lsa-da, yor vasliga dalil topa oldi. Navoiy bo‘lsa, ayriliqda xor-u zalil bo‘ldi. Ey ahli vasl, shuni bilinglarki, endi navbat sizga yetdi, sira baxtiyor bo‘lmanglar, deydi Navoiy. Muxammasning oxirgi bandi quyidagicha:

*Tangri Komil bo‘ldi furqatdin alil, ey ahli vasl,  
Hajr otig‘a tushtu andoqkim xalil, ey ahli vasl,  
Lek topdi yor vasliga dalil, ey ahli vasl,  
Gar Navoiy hajr aro bo‘ldi zalil, ey ahli vasl,  
Emdi navbat sizgadur, muncha muazzam bo‘lmangiz*<sup>42</sup>.

Xullas, Navoiy g‘azaliga bog‘langan bu muxammas falsafiy-didaktik she‘riyatning go‘zal namunasi. Bunda shoirlarning olam, ahli olam, xususan, bevafo mahbublar, fitnachi parivashlar xususidagi qarashlari o‘z aksini topgan. Dunyoga mehr qo‘ygan, o‘zligini unutgan ahli olamni ikkala ijodkor xarobot ahliga qarama-qarshi qo‘yadi. Xarobot ahli – pirga qo‘l berganlar o‘zlarining go‘zal fazilatlari bilan ahli olamdan ustun ekanligi muxammasda o‘z ifodasini topgan. Shoirlar olam aholidan shikoyat qilar ekan, najot visolda ekanligini badiiy topilma sifatida keltiradilar. “...topti yor vasliga dalil”, deyish bilan najot vaslda ekanligiga ishora qilishadi ulug‘ ijodkorlar. Darhaqiqat, Alisher Navoiy va Komil Xorazmiy badiiy mahorati yuksak shoirlardir. Yuqoridagi muxammas har ikkala ijodkorning fikriy olami, mahorat qirralari bir-biriga yaqinligidan dalolatdir.

Xiva xonligi Rusiya imperiyasining vassaliga aylantirilgan

<sup>41</sup> Komil Xorazmiy. Tanlangan asarlar. (Rahmat Majidiy nashrga tayyorlagan). – T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1961. – B. 24

<sup>42</sup> Komil Xorazmiy. Tanlangan asarlar. (Rahmat Majidiy nashrga tayyorlagan). – T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1961. – B. 24

1873-yildan boshlab rus olimlari tadqiqotlarida Komil xususida fikr yuritilganligi kuzatiladi. Sankt-Peterburgda chop etilgan «1873-yilgi Xiva yurishi» sarlavhali ruscha rasmiy manbada, F.I. Lobojevichning o'sha yil voqealariga taalluqli «1873-yilgi Xiva yurishining bayoni» («Opisaniye Xivinskogo poxoda 1873 g.») nomli kitobida u haqida ma'lumotlar bor. Makgaxanning ingliz tilidan tarjima qilinib, 1875-yilda Moskvada chop etilgan «Voyennye deystviya na Oksuse i padeniye Xivы» («Oksusdagi harbiy harakatlardan va Xivaning taslim bo'lishi») kitobida ham Komil faoliyatiga maxsus to'xtalangan. «Turkiston viloyatining gazetasi» muharriri N.Ostroumovning u haqdagi qaydlari XIX asrning 80-90-yillarida bitilgan. O'zbek xalqi madaniy merosiga nigilistik qarashlar to'la hukmron bo'lgan sho'ro tuzumining dastlabki o'n yilliklaridayoq Moskvada nashr etilgan ikki kitobda Komilning musiqa sohasidagi ishlari xususida qiziqarli mulohazalar bayon etilgan edi. XIX asr manbalarining aksariyatida, jumladan, Ogahiyning «Gulshani davlat», Muhammad Yusuf Bayoniyning «Shajarayi Xorazmshohiy», Ahmad Tabibiyning «Majmuat ush-shuaro» kabi asarlarida Komilning otashzabon shoir va tadbirkor davlat arbobi sifatidagi faoliyati yuqori baholangan. Sho'ro davrida Komil she'riy merosi dastlab 1945-yili O. Sharafiddinovning «O'zbek adabiyoti tarixi» xrestomatiyasi, oradan ikki yil o'tgach «O'zbek poeziyasi antropologiyasi» orqali keng o'quvchilar ommasiga yetkazildi. Adabiyotshunos Mahmudali Yunusovning Komil ijodiga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyasi ham shu yili yoqlandi, 1958-yili kitob holida nashr etildi. 50-yillardan boshlab Komil hayoti va ijodi maktab va oliy o'quv yurtlari dastur, darslik va qo'llanmalariga kiritildi. Jumladan, G'.Karimovning oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari uchun tuzgan darsliklarida Komil hayoti va ijodiga alohida o'rin ajratildi.<sup>43</sup>

1980-yili bosilib chiqqan «O'zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik»ning 5-tomida ham «Muhammadniyoz Komil» deb ataluvchi

<sup>43</sup> Yunusov M. Komil Xorazmiy. Toshkent, 1960.

maxsus qism bo'lib, u A. Hayitmetov qalamiga mansub. Bundan tashqari, olimning Komil hayoti va ijodining turli jihatlariga bag'ishlangan bir necha maqolalari e'lon qilingan. XIX asrning 80-yillari boshida Xivada litografiya ishga tushirilgan chog'danoq Komil asarlari chop etila boshladi. Shoir devonlari to'ldirilgan, qayta ko'rilgan holda besh marta, Toshkentda esa 1909-yilga kelib «Devoni Mavlono Komilmaatavorixi shohoni Xorazm» nomi bilan nashr qilindi. Sho'rolar davrida bu ish ancha kechikib amalga oshirildi, ya'ni 1961-yili uning «Tanlangan asarlar»i, 1975-yili «Devon»i nashrdan chiqdi.

**Komil Xorazmiy lirikasida o'ziga xosliklar.** XIX asr Xiva xonligi siyosiy hayotida ahamiyatli mavqega ega bo'lgan ijodkorning lirik merosi o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. U o'z zamonasidayoq shoir sifatida kata e'tibor va e'tirofga sazovor bo'lgan, iste'dodli shogirdlarni tarbiyalab, jamiyat uchun ulkan ishlarni amalga oshirgan. Komil Xorazmiy o'z she'rlarini to'plab, devon tuzgan. XIX asrning oxiri XX asr boshida tuzilgan bir qator bayoz (to'plam, antologiya)larda ham shoirning she'rlari uchraydi. Devoni shoir hayotligidayoq nashr qilingan. Birinchi nashri 1880-1881-yillarga to'g'ri keladi. Devon Xivada toshbosma (litografiya) usulida bosilgan edi. Ikkinchi marotaba yana Xivada 1895-yili bosildi. Bu nashr oldingiga nisbatan to'liqroq. Kitob uchinchi marotaba 1909-yilda Toshkentda nashr etilgan. Ayrim she'rlari "Turkiston viloyatining gazetisi"da bosilgan.

Uchala nashr ham Komil she'rlarini to'la qamrab olmaydi. Mazkur devonning 1975-yil, shoirning 150 yilligi munosabati bilan nashr qilingan variantida 1ta bahri taviil, 3ta muammo, 4ta ruboiy, 1ta qasida, musabba', musaddas, muxammas, murabba', mustazod va g'azallari jamlangan. "Devon"dan o'rin olgan barcha she'rlar o'zining g'oyasi, badiiyligi va shakliy xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Shunday she'rlaridan biri "Mango qilma, ey mohi olijanob" matla'li g'azalidir. Bu g'azal o'zida jamlangan badiiy go'zallik, she'riy san'atlarning mohirona tanlanishi bilan

boshqa gʻazallardan tafovut kasb etadi. Quyida bu xususiyatlarni koʻrib oʻtish mumkin.

Mango qilma, ey mohi olijanob,  
Itob-u itob-u itob-u itob.

Oʻn bir baytdan iborat ushbu gʻazal aruzning mutaqoribi musammani maqsur (Baʼzi oʻrinlarda mutaqoribi musammani mahzuf hum uchrab turadi.) vaznida yozilgan. Gʻazalning badiiyligini taʼminlovchi oʻziga xos xususiyatlardan biri, uning musiqiyligi va mazmunining kuchayishini belgilagan takrir sanʼatidan mohirona foydalanilganligidir. Yaʼni gʻazaldagi har bir baytning ikkinchi misrasi bir soʻzning takroridan tashkil topadi. Masalan, birinchi bayt quyidagi misra bilan yakunlangan: “Itob-u itob-u itob-u itob”. Bu esa gʻazalga oʻzgacha ohang bera olgan. Takrir sanʼati oʻzbek mumtoz lirikasida oʻziga xos ahamiyatga ega. U sheʼrning badiiy malohatiga yangicha ruh olib kiradi, oʻqishlilikni taʼminlaydi. Badiiy sanʼatlarni chuqur tahlilga olgan adabiyotshunos olimlar bu sanʼatga quyidagicha taʼrif beradi: “Takrir “takrorlash” maʼnosini ifodalovchi lafziy sanʼat boʻlib, sheʼrda u yoki bu soʻzni takror qoʻllashni nazarda tutadi. Takrorlash vositasida soʻz maʼnosini, uning mohiyatini taʼkidlab koʻrsatish ushbu sanʼatning asosiy xususiyati sanaladi”. “Takror uslub bilan bogʻliq unsur sifatida matn zahirida yotgan asosiy gʻoya-muddaoni alohida taʼkidlash va tasvirga emotsional tus berishga xizmat qiladi”. Mazkur badiiy sanʼat biz tahlil qilayotgan gʻazalda ham oʻzini toʻla namoyon eta olgan.

Gʻazalning birinchi baytida “itob”, ikkinchi baytida “kabob”, uchinchi baytida “shitob”, toʻrtinchi baytida “niqob”, beshinchi baytida “kitob”, oltinchi baytida “rubob”, yettinchi baytida “hubob”, sakkizinchi baytida “xarob”, toʻqqizinchi baytida “rikob”, oʻninchi baytida “kilob”, oʻn birinchi baytida “sharob” soʻzlarining har bir baytda toʻrt marta takrorlanishidan uning goʻzal namunasi yuzaga kelgan. “Mango qilma, ey...” gʻazali muayyan radifga ega emas, shu bois izchillik va mantiqiylikni, eng asosiysi shakliy butunlikni yuzaga keltirishda qofiya asosiy vosita boʻlib

xizmat qiladi. Takrirga olingan soʻzlar esa qofiyani yuzaga keltirgan. Gʻazalning mazmuniga keladigan boʻlsak, unda majoziy ishqdandan ilohiy ishqqa tomon oʻsib borilishini koʻrish mumkin. Yaʼni majoziy ishq vositasida ilohiylikka nisbatan muhabbat kuylanadi. Biroq shuni ham unutmaslik kerakki, Komil maʼrifatparvar shoir. Maʼrifatparvarlik adabiyoti esa badiiy adabiyotga yana bir timsolni, yaʼni maʼrifatli inson obrazini olib kirgan. Bunda asosiy gʻoya gumanizm bilan ham bogʻliq, deyish mumkin. Gʻazalning tom mazmunini baytlararo tahlil qilish orqali yanada yaqqol angʻlay olish mumkin. Gʻazalning matlaʼsidan ushbu sheʼr maʼshuqaga murojaat bilan boshlanishini koʻrish mumkin, yaʼni bunda oshiq koʻnglini asir etgan dilbarga iltijolar qilib, uni koʻp taʼnalarga qoldirmasligini, chunki uning ahvoli shusiz ham achinarli, qalbi yor ishq oʻtida kabob boʻlar darajaga yetganligini aytadi.

*Chu kelding, ketarman debon qilma koʻb,  
Shitob-u shitob-u shitob-u shitob.*

Keltirilgan baytlarda oshiqning yuqoridagi munojoti davom qildirilib, maʼshuqa visoliga musharraf boʻlish orzusi roʻyobga chiqish arafasida, uning yana tark etishga shitob aylashi va jamoliga boqqan oshiqdan chehrasini yashirib, niqob ostiga olmasligi kerakligi aytilgan. Bunda oʻz bandasiga marhamat koʻrsatgan Olohning undan hech qachon ketmasligi, yaʼni gunohkor bandasidan voz kechmasligi haqidagi iltijosi ham aks etgan.

*Yuzung musʼhafi sharhi oʻlgʻay necha –  
Kitob-u kitob-u kitob-u kitob.*

Mazkur misralardan shuni bilish mumkinki, shoirning gʻazalida kuylanayotgan ishq, aslida, ishq ilohiydir. Chunki mumtoz adabiyotda anʼana tusiga kirgan “Yuz musʼhafi” jumlasiga muqaddas Qurʼoni Karimga ishoradir. Shoirlar bu jumla orqali Oloh goʻzalligining chegarasi yoʻqligini va uni faqat muqaddas kitoblardagina vasf qilish mumkin ekanligini aytishgan. Shoir Komil ham shu anʼanaga murojaat qilgan holda yor goʻzalligi taʼrifini keltiradi. Gʻazal xulosasi haqida toʻxtalib, shuni aytish mumkinki, sheʼr

ustozlar an'anasiga amal qilingan holda, qalb mavjining betakror ifodasi yanglig' yaralgan. Bunda esa, albatta, badiiyat bilimdoni bo'lgan shoir Komilning mahorati to'la aks eta olgan.

**Komil Xorazmiy ijodida ba'zi badiiy san'atlarning qo'llanilishi.** Muhammadniyoz Komil Xorazmiy g'azallari mumtoz she'riyatda shoirning salohiyati ko'lamini belgilovchi asosiy lirik janr hisoblangan. Har bir ijodkorning maqomi uning g'azalchilikdagi mahorati bilan belgilangan. Jumladan, devon tuzish an'anasida ham g'azal alohida o'rin egallaydi.

O'tmishda g'azal yozmagan ijodkorning devon tartib berishi mumkin bo'lmagan. O'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri bo'lgan Komil Xorazmiy ijodining mavzu ko'lami xilma-xildir. Biz unda hayotning murakkabliklari, dunyoni anglay olmasdan, undagi nohaqliklardan faryod chekuvchi, na'ra qilguvchi otashin yurak sadosini, odamlar orasida uchraydigan nafs illatlari: ochko'zlik, baxillik, hasadgo'ylik, laganbardorlik kabilar qoralanib, kishilarni kamtarin, saxovatli bo'lishga, insof va vijdonni uyg'otishga qaratilgan tuyg'ular tasviriga guvoh bo'lamiz. Xulosa o'rinda aytgand, ezgulik bilan yovuzlik o'rtasidagi kurash shoir ijodining asosiy mazmunini tashkil etadi. Inson qalbining o'lmas, abadiy samarasi muhabbat, intim lirika Komil Xorazmiy ijodida ham salmoqli o'rin olgan. Bunda u chinakam insoniy tuyg'ularni betakror va go'zal tarzda yetkaza olga.

Komil Xorazmiy o'z ijodida talmeh san'atining yorqin namunalaridan foydalangan:

*Shohlar otlansa doim yurti obodon bo'lur,  
Bor dalil ushbu so'zimg'a qilsang istidlol suv.  
Iltifoti bahridin bir qatra Komil ichmadi,  
Ochg'oli otlandi to sultoni Jam iqbol suv.*

«Suv» radifli yuqoridagi g'azalda shoir afsonaviy shoh Jamshidday iqbolli sultonning ariq ochishga otlanishi tufayli odatda qurib yotadigan ekinzorlar obi hayotga limmo-lim bo'lganini ifodalaydi. Shoir hukmdor tomonidan yangi ariqning ochilishini aks

ettirish asnosida dehqonchilik va sug'orishga tegishli jo'ngina bu tadbirning kishilar turmushini yaxshilashdagi ulkan ahamiyatini his etadi va unga katta baho beradi.

*Niholi bebari sarkashdurur avomunnos,  
Ne sud topmasa ma'nig'a ittisol kamol.  
Ko'rub g'azalda Bayoniy musaddasin Komil,  
Dediki: «Bergay anga hayyi loyazol kamol».*

Yuqorida keltirilgan «Kamol» radifli g'azalda shoir qush qanoti bilan parvoz etgani kabi inson ham faqat kamolot tufayligina yuksalishi mumkin ekanligini juda ta'sirchan yo'sinda aks ettiradi va talmeh sifatida Bayoniy (Bayoniy – O'zbek shoiri, tarixchi, musiqashunos, xattot va tarjimon. Xivadagi Sherg'ozixon madrasasida tahsil ko'rgan) keltirib o'tadi<sup>44</sup>.

*Kimki husn shohig'a begunah – gunahkor ul,  
Anga zulf erur zanjir. choh erur zanaxdonlar.*

*Husni ko'zgusi bordur mazhari jamolullo,  
Man'i ishqim etmanglar, ey guruhi nodonlar.*

*Komilo, shahanshohing nazmi gavhar afshonin,  
Ko'rsa banda bo'lg'aylar Fazli-yu Umarxonlar.*

Yuqoridagi misralarda Fazliy Namangoniy va Amir Umarxonlarni talmeh sifatida ko'rishimiz mumkin.

*Vatanda sokin o'lub sayr et olami bolo,  
Safarni aylamag'il ixtiyor g'urbat aro.  
Tob emdi Xeva ila Pahlavoni Komil esang,  
Dema – Buxori sharif-u Mazor g'urbat aro*

Ushbu «G'urbat aro» radifli g'azalda mutafakkir shoir, faylasuf olim, kuragi yerga tegmagan pahlavon, mohir po'stindo'z va telpakdo'z usta Pahlavon Maxmud ismi va Buxoro shahri talmeh sifatida qo'llanilgan.

<sup>44</sup> “Ma'naviyat yulduzlari” (Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti,) T 1999.

*Maqsad yuzin hamisha anga ko'rguzur jahon,  
Har kimki chashmi nuri xiraddin tihi erur.  
Komil, ne tong, gar ogah esa so'z kamolidin,  
Doim anisi Rojiiy ila Ogahiy erur...*

Komil Xorazmiy bu yerda talmeh san'atidan mohirona foydalanган. Talmeh sifatida Rojiiy va Ogahiy ismlarini keltirib o'tgan. Rojiiy (taxallusi; asl ism-sharifi Idrisxo'ja Mahdum Buxoriy Nabii-xo'ja o'g'li) – shoir va xattot. Buxoro madrasalarida ta'lim olgan. Yoshligidan she'rlar yozgan, xattotlik bilan shug'ullangan, qo'lyozma asarlarni kitobat qilgan. O'z davrida yashab ijod etgan shoir va xattotlar haqida ma'lumot beruvchi xattotlikka oid «Risolai xushnavison» asarini yaratgan. Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li – Ogahiy XIX asr Xorazm adabiy muhitining yirik siymolaridan biri bo'lib, Navoiydan keyin eng “ko'p va xo'b” she'r aytgan shoirlardandir.

*Mahul o'lma mazallat tiyra chohi ichra goldim deb,  
Aziz bo'lmaqg'a Yusuf, Misr aro, zindon erur bois  
Ne tong Komil Navoiy yanglig' o'lsa so'z aro sarmast,  
Bu sarxushliqg'a jomi suhbatl sultsn erur bois.*

Ushbu baytda talmehning go'zal namunasi ko'rishimiz mumkin. Yusuf, Misr, Navoiy kabi tarixiy ulamo va tarixiy joylarning uchrashi shoir g'oyasini chuqurroq anglash imkonini beradi. Zero, Komil Xorazmiy o'z ijodida an'anaviy va ilohiy ishq orqali ma'rifatparvarlik, ezgulik, tinch-osuda umr kechirish kabi g'oyalarni ilgari suradi. Ammo shoir ijodida ma'rifatparvarlik g'oyalari yetakchi o'rinni egalladi. Bir so'z bilan aytganda, Komil Xorazmiy o'zbek mumtoz adabiyotining eng yaxshi an'alarini davom ettirgan holda, zamonaviy ilg'or adabiyot rivojiga katta hissa qo'shdi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Komil Xorazmiy hayoti va ijodi kimlar tomonidan o'rganilgan?
2. Komilning davlat arbobi sifatidagi o'rni haqida gapiring.



3. Marifatparvarlik yoʻnalishidagi sheʼrlarining yaratilish tarixi qanday boʻlgan?

4. "Iki shoʻx" radifli gʻazalining yaratilish tarixi haqida gapir- ing.

5. Toshkent haqida yana kimlar qanday asar yaratganlar?

6. Komil Xorazmiyning musiqa borasida amalga oshirdan ish- larini kim davom ettirdi?

7. "Ravshan etgandek sipehr ayvonini shamʼi nujum" deganda shoir nimani nazarda tutadi?

8. "Latoyif-ut tavoyif" asarining muallifi kim va bu asarni Komil qaysi tildan qanday nom bilan tarjima qilgan?

9. Mumtoz kim va uning Komil bilan qanday aloqasi bor?

10. Komil qanday janrdagi asarlarni tarjima qilgan?

## SHOH VA SHOIR – FERUZ ADABIY MEROSI VA XORAZM ADABIY MUHITI

### Reja:

Feruz adabiy merosi va uning oʻrganilishi.

Shoirning tarjimayi holi. Feruz –shoh va shoir.

Feruz – adabiyot va sanʼat homiysi.

Feruz va Xorazm adabiy muhiti.

Feruz lirikasi.

Feruzning ijodiy merosi.

*Feruz adabiy merosi va uning oʻrganilishi.* Sayyid Muham- mad Rahimxoni soniy – Feruz oʻzbek adabiyoti, sanʼati va tar- ixida muhim oʻrin tutgan, hayotligidayoq oʻz ijodi bilan eʼtibor qozongan shoir va davlat arbobidir. U Xiva xonlari tarixida eng uzoq davr – 47 yil mamlakatni idora etib, elning obodonchili- gi uchun kurashdi, mamlakat ichidagi oʻzaro urushlarning oldini olishga harakat qildi. U oʻz saroyida 40 ga yaqin shoir, sozanda,

tarixchi, xattot va tarjimonlarni to'plab ularga homiylik qildi.

Shoh va shoir Muhammad Rahimxon Feruzdan bizgacha «Devoni Feruz» devoni va «G'azaliyoti Feruz» majmuasi va bir qancha she'rlari yetib kelgan. Shu bilan bir qatorda Chokar, Devoniy, Tabibiy, Xodim kabi kotiblar tomonidan ko'chirilgan bayozlarda ham uning asarlari uchraydi.

Shoir ijodining o'rganilishi o'z davridanoq boshlangan. Jumladan, Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiyning «Shohidi iqbol», Muhammad Yusuf Bayoniyning «Xorazm tarixi», «Shajarai Xorazmshohiy», Muhammad Ali Laffasiyning «Xiva shoir va tarixchilarining tarjimayi hollari», Bobo Tarroh Azizovning «Xorazm navozandalari» asarlarida Feruz hayoti va ijodi haqida keng ma'lumot beriladi. Shuningdek, Feruz hayoti, ijodi, ijtimoiy faoliyati haqida 60-70-yillarda G'.Karimov, M.Yunusov tadqiqlarida, Y.Yusupov Ayyomiyning «Xorazm shoirlari» va «O't chaqna-gan satrlari» kitoblarida, keyinroq, V.Abdullayev, B.Valixo'jayev, N.Jumayev, I.Adizova kabi adabiyotshunoslarning tadqiqotlarida qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Feruz hayoti va ijodini jiddiy o'rganish istiqloldan keyin boshlandi. Davlatyor Rahim va Shixnazar Matrasul qalamiga mansub bo'lgan «Feruz shoh va shoir qismati» (1-kitob) deb nomlangan kitob Feruz haqida, bevosita u bilan aloqador bo'lgan hodisalar, shaxslar, u kishining yaqinlari, farzandlari, nabiralari – shajara vakillari, yana shoir Feruzning tabiati, fe'li, odatlari haqida keng ma'lumot beruvchi ilk yaratilgan asardir.

1994-yilda Feruz tavalludining 150 yilligi munosabati bilan shoir haqida ilmiy, badiiy asarlar yaratildi, asarlari qaytadan nashr etildi. Chunonchi, shoirning 1994-yilda «Elga shoh-u ishqqa qul» nomli devoni, «Ne bo'ldi yorim kelmadi» she'rlar guldastasi nashr qilindi.

1995-yil Gulsara Ismoilova «Feruz davri Xorazm adabiy muhi-ti» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. 1995-yil-da iqtidorli olim Nusratilla Jumaxo'ja «Feruz – madaniyat va

san'at homiysi" asarini yaratdi. Xuddi shu yili Davlatyor Rahim, Shixnazar Matrasul, Nusratulla Jumaxo'jalarning hammualliflikdagi "Feruz: Shoh va shoir qismati" kitobining ikkinchi qismi nashrdan chiqdi.

Bulardan tashqari, E.Zohidovning "Xorazm fojiasi" qissasi, K.Avazning «Saqili navo» dostoni, S. Avazning "Temirg'oz to'ra" haqidagi qissalarida ham Xiva xoni Sayyid Muhammad Rahimxon Bahodirxon soniy Feruz haqida tarixiy-badiiy lavha yaratildi.

Bularning ba'risi Feruzning hayoti va ijodi ham badiiy, ham ilmiy jihatdan keng targ'ib va tashviq qilinganidan, qilinayotganidan dalolatdir. Zero, shoh va shoir Feruzning hayot yo'li, ijodiy faoliyati bunga loyiq. Zamondoshi Laffasiyning quyidagi misralari ham fikrimizni asoslaydi:

*Feruzkim, shahanshoi dono erur,  
Fazilatda suhandon erur.  
Yozib necha turlik abyotlar,  
Bitib necha xil ash'orlar.  
Shohi odil xisravidin panoh,  
Falak taxt mehr-u afsar anjum safo.  
Quyoshdek safosi jahongirdur,  
Ki vasfida ojiz ichra tahrirdur<sup>45</sup>.*

**Shoirning tarjimai holi. Feruz –shoh va shoir.** Muhammad Rahimxon Feruz 1844-yilning bahorida, «Navro'z» ayyomida Xiva shahrida shoh xonadonida dunyoga keldi. Uning otasi Sayyid Muhammad Xiva hukmdori edi. Shoirning asl ismi Bobojon, Feruz uning adabiy taxallusidir. Bobosi Muhammmad Rahimxon (1806-1825-yillarda xonlik qilgan) sharafiga uni Muhammad Rahimxon soniy deb ataganlar. O'z davrining e'tiborli kotiblaridan Bobojon Tarrox Azizov – Xodimning «Xorazm navozandalari» nomli qo'lyozma asarida bo'lajak shoirning tug'ilishi bilan bog'liq shunday ma'lumotlar bor: "Bobojon to'ra Xeva shahrining

<sup>45</sup> Кўчирма М.Раҳим, Д.Шихназарнинг "Феруз: Шоҳ ва шоир қисмати" китобидан олинди.

ichkari qal'asidagi Hasanmurod Qushbegi qo'lidagi podshohlikning ko'hna Ark degan joyda tug'ilgan. Buning sababi shuki, Xorazm tartibiga ko'ra, qaysi bir podshohning yoki podshohzodaning xotuni bola tug'ishi zarur bo'lsa, ko'hna Arkka kelib bola tug'ishi shart bo'lgan. Shuning uchun ham Muhammad Rahimxon Bobojonbekning otasi podshozoda bo'lg'oni uchun farzandining tug'ilgan joyi Ko'hna Ark deb aytuldi".

Bobojon to'ra dastlabki boshlang'ich ta'limni saroy muallimlaridan oldi. Shuningdek, madrasada o'z tahsilini davom ettirdi. Muhammad Rizo Ogahiy yosh Bobojon to'raga she'riyat ilmidan, tarix va mantiqdan chuqur saboq berdi. Shuning uchun unda tarix va she'riyatga bo'lgan qiziqish baland edi. U yoshligidan kitobga ixlos qo'ydi, aksar vaqtini kitob o'qishga bag'ishladi. Bu haqda Ogahiy quyidagilarni yozadi: *"Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon yigitlik ayyomi va aysh-u tarab hangomida hech bir lavqu lu'bg'a moyil bo'lmay, aksar avqot besh vaqt namoz lavozimining adosi, faroyizu sunan shug'lining intihosidan so'ng kitobxonliqqa, ma'nidonliq ishig'a mashg'ul bo'lib, har turluk kitobni mutolaa qilur erdi va o'zga mashg'ulotdin ani a'lo va afzal bilur edi, bayt:*

Shabob ayyomida bu ulug' odat,

Valilik rutbasindin alomat.

*Xususan, har kitob mazmunikim, mavoiza va nasoyixg'a mushtamil bo'lsa, oni bag'oyat sevar erdi va oni o'zga kitoblardin ilgari tutar erdi".*

Ayniqsa, yosh shahzodaning vazmin holda Qur'oni Karimni qiroat bilan o'qishi saroy ahlini hayratga solar va "bo'lajaq bola boshidin" degan iborani yosh Bobojonga nisbatan qo'llashar edi.

1863-yilda Xivaga qariyb 9 yil xonlik qilgan Sayyid Muhammadxon "Qorason" kasalligi bilan vafot etadi. Otasining vafotidan keyin Bobojon to'ra madrasadagi o'qishini bir chekkaga qo'yib, davlatni idora qilish ishlariga boshchilik qiladi, Xivaga xon bo'ladi. Muhammad Rahimxon taxtga o'tirgach, odamlar yosh xondan o'zgacha marhamat va osoyishtalik tilar edi. Yurtga tanilgan Oga-

hiy, Komil, Bayoniy, Mirzo kabi shoirlar Muhammad sha'niga yangi asarlar bitdilar. Yosh saltanat sohibini qutlash, bu voqeaga bag'ishlab tarix hamda qasida bitish Muhammad Rizo Ogahiy zimmasiga tushdi. Muhammad Yusufbek Bayoniy "Shajarai Xorazmshohiy" asarida katta mamnuniyat bilan bu voqea manzarasini shunday chizadi: "Vaqtekim, Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon soniy sariri saltanatda qaror tutdilar, shuaro va fuzalo hayli juluslari uchun tarixlar-u, qasidalar-u, masnaviylar aytib, in'omi iyuhona va otomi xuravonalaridin sarshor bo'ldilar, ul jumladin Ogahiy bu tarixni aytib erdi:

Bu so'zlarnikim, men bayon ayladim,  
Necha bayt birla ayon ayladim.  
Bularga qayu shahki qilsa amal,  
Oning mulkiga yetmas aslo xalal.  
Hukumat binosi bo'lur ustuvor,  
Oning xonadonida tutg'ay qaror.  
Shaho, olam ichra bugun shohsen,  
Burundin bu so'zlarga ogohsen.  
Umidim budurkim, amal qilg'asen,  
Amal aylamakda jadal qilg'asen"<sup>1</sup>.

Ko'rinadiki, 92 baytli mazkur «Ma'vizatnoma»da shoir Ogahiy yosh xonga davlatni adolat bilan boshqarishi haqida nasihatlar qiladi. Xon uchun zarur bo'lgan fazilatlar haqida gapirar ekan, saltanatni parokandalikka olib boruvchi illatlardan ogohlantiradi. Ustozning bu o'g'itlari Feruz uchun umri davomida dastur bo'ldi. Qasida "Ogohnoma", "Qasidai Navro'z" nomlari bilan ham yuritiladi.

Feruzning Xorazm xoni sifatida faoliyati Vatanimiz tarixining eng ziddiyatli va murakkab davriga to'g'ri keldi. Markaziy Osiyo Rusiya istibdodi girdobiga tushgan bu davrda u davlatni nihoyatda tadbirkorlik bilan boshqarishga harakat qildi. Bunga ustoz Ogahiyning ma'vizalari-yu dono siyosatdon Komil Xorazmiylarning ko'rsatmalari yordam berdi.

*Feruz va Xorazm adabiy muhiti.* Feruz bu davrdagi yurtning vassallik iskanjasida bo'lishiga qaramay, el obodonchiligi-yu ilm-fan ravnaqi, madaniy taraqqiyot masalalariga e'tiborni kuchaytirdi. Xorazmda tarjima maktabi vujudga keldi. Kaykovusning "Qobusnoma", Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston" asarlarini "turk tavoyifining avomi ham bu pandlardin bahra olsin" deb Ogahiyga tarjima qilishni amr etdi va unga o'zi rahnamo bo'ldi.

Muhammad Rahimxon Bayoniy ta'kid etganidek, "ko'b yerlarni obod etdi, ko'b masjidlar va madrasalar va qorixonalar bino" qildi.

Feruz xuddi otasi Sayid Muhammadxon singari har haftaning ikki kunida saroyda shoirlar bilan mushoiralar, kitobxonlik kechalari o'tkazishni odat qiladi. U Ogahiy, Bayoniy, Komil, Mirzo kabi shoirlarga ergashib g'azallar mashq eta boshlaydi. Uning nozikta'b g'azallarini ko'rgan Komil unga Feruz, ya'ni «baxtli», «tole'li», «g'olib» degan ma'nolarini anglatuvchi taxallusni taklif qiladi.

Feruz madrasada o'qib yurgan paytlarida adabiyotga havas qo'ydi. Fors tilini o'rgana boshladi. Ammo otasi vafotidan so'ng barcha davlat ishlari zimmasiga tushganligi bois arab tilini o'rgana olmadi. Shunday bo'lsa-da, u adabiyot, til, handasa, tarix, jug'rofiya ilmi bo'yicha yaxshigina ilmga ega edi. Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston», Firdavsiyning «Shohnoma» asarlari bo'yicha adabiy mushohadalarda Feruz mazkur asarlar yuzasidan savol berib o'tirganlarni imtihon qilardi. Ana shunday paytlarda birorta g'azal o'qishda xatolikka yo'l qo'yilsa yoki so'zni noto'g'ri talaffuz qilinsa, Feruz u kishini to'xtatib, xatolarini to'g'rilar, u yoki bu so'zning ma'nosini aytib berib, hech xafa qilmasdan kamchiligini yo'qotishga yordam berardi. Ba'zan buning uchun jazo ham qo'llar, bu bilan adabiyot va san'atni nozik his qilish mas'uliyatini angdirar edi. Ko'rinadiki, Feruz talabchan muxlis hamdir. Ma'lumotlarga ko'ra, Feruz tilga katta qiziqish bilan qaragan. U turk, fors-tojik, tatar, ozarbayjon tillarini puxta bilgan va shu tillarda ham ijod etgan.

Feruz o'z zamonasida ajabtovur sozanda va bastakor bo'lganligi uning keng iste'dod egasi ekanligidan dalolat beradi. U shoir va san'atkor Komil Xorazmiyning tashviqi bilan eng qadimiy «Shashmaqom» kuylarini to'liq o'rgandi va «Navo», «Segoh», «Dugoh» maqomlariga bog'lab kuylar ham yaratdi. Feruz yaratgan kuylar tez orada Xorazm san'atkorlari orasida tarqalib ketadi. Feruz o'zining bir muxammasida Xorazm maqomlarini birma-bir sanab, ularning go'zallik timsoli ekanligini ta'kidlagani bejiz emas:

Soz aylagil subh-u maso goh «Rost» chertib, goh «Navo»,  
«Dugoh»- u «Segoh»- u «Sabo» har birisidur g'amzudo.

Rahm etmayin ul dilrabo aylar edi noz-u ado,

Hijroni ichra barho tortar eding ranj-u ano.

Bu dam tutub rasmi vafo sho'xi singamkoring kelur.

Hatto sulton san'atkor Feruz saroydagi san'atkorlari ishtirokida o'tgan maqomxonlik kechalarida tanbur olib, nag'ma-navozlikni boshlab berganligini shoir zamondoshi Xodim o'z asarida ta'kidlaydi va yana "ma'lumotlarga qaraganda, sozandalik, go'yandalik shahodatnomasini shaxsan o'zi topshirgan, yuqorida ta'kidlaganimizdek, xalq maqomlarini buzib ijro etganlarni jazolash haqida maxsus farmon ham qabul qilgan:

“Farmoni oliy

Bizkim, Xorazm mamlakatining Oliy hoqoni Muhammad Rahimxon soniy quyidagi farmoni oliyga imzo chekdik: Xorazm maqomlari xalqning daxlsiz mulki deb e'lon qilinsin. Ushbu farmoni oliyga shak keltirgan va maqomlarni kamsitgan, yoinki uni buzib ijro etgan kimsalar qattiq jazolansin! Muhammad Rahim soniy 1299-yil jumod-ul avval (1882)<sup>46</sup>

Feruz joylarda madrasa va masjidlar qurilishiga, ya'ni maorif sohasiga ham alohida e'tibor bergan. U mahalliy fuqaro bolalaridan ilmi kishilar tayyorlash maqsadida o'z saroyida maktab ochdi. 1884-yilda ochilgan bu maktabda rus o'qituvchisi va Mirzo

<sup>46</sup> Кўчирма Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти дарслик китобидан олинди. 76-бет.

Rahmonquli qori kabi talantli ustozlar yoshlarga bilim beradilar. 1887-yilda bu maktabda 11 o'quvchi ta'lim olib, shulardan 6 tasi Feruz hisobidan o'qidi. Bundan tashqari, Feruz Farmoniga muvofiq 1904-yilning 10- noyabrida Urganchda birinchi yangi usul maktabi ochildi. Unda Husayn Qumayev degan Turkiyadan kelgan o'qituvchi yoshlarga ta'lim-tarbiya bera boshladi. Husayn Qumayev 1906-1907-yilda ilg'or ma'rifatparvar kishilarning orzularini hisobga olib, Urganchda qizlar maktabini barpo qildi. Bu muhim voqeadan xursand bo'lgan Feruz Urganchga borib, H.Qumayev ishlari bilan tanishib, uni qo'llab, bosh-oyoq sarmo qiygizdi va xazina hisobidan maktabga yordam berib turishga qaror qildi. Qizlarga H.Qumayevning turmush o'rtog'i Komila Qumayeva ta'lim berdi.

1909-yilga kelib Feruz qo'l ostidagi madrasalar soni 130 taga, masjidlar 1636 taga, maktablar 1500 taga yetdi, undagi talabalar 45000 dan ortib ketdi. Shuningdek, Feruz Komil Xorazmiy taklifi va tashviqoti bilan rus-tuzem maktabi ochadi, bundan maqsad mahalliy millat bolalariga rus tilini o'rgatib, mahalliy tarjimonlar tayyorlash ko'zda tutilgan. Feruz mazkur maktabni batamom o'z homiyligiga oldi. Rus-tuzem maktabida rus tili, riyoziyot, tarix, jo'g'rofiya, tabiat kabi fanlardan tashqari mahalliy savod (ona tili) va islom fani asoslari ham o'qitildi. Pushkin, Tolstoy, Krilovning she'r, hikoya, masallaridan tashqari, Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Mashrab, So'fi Olloyor kabi klassik shoirlaridan saboq berildi. Ko'rinadiki, Feruz vohada san'at, maorif va madaniyat rivojiga rahnamo va taraqqiyparvar inson bo'lgan.

Bulardan tashqari, Feruz shaxsi bilan bog'liq bo'lgan eng muhim voqealardan yana biri 1980-yilda Xivada birinchi ambulatoriya punkti ochildi, bu yerda Rusiyadan taklif etilgan vrach va feldsherlar ishladi. Bu ham xalq tashvishi yo'lidagi qilingan ezgu ishlardan biri edi.

Feruzning matbaachilikdagi va adabiy meros tarkibidagi xizmatlari beqiyosdir. U O'rta Osiyoda birinchi bo'lib tipolitografi-



ya ishlarini yo'lga qo'ydi. Bu ishga katta qiziqish bilan yondashdi. Eng avvalo, mazkur bosmaxonada Feruz ko'rsatmasiga binoan Navoiyning «Xamsa»sidan «Hayrat ul-abror», «Chor devon» asarlari nashr etildi. 1879-yilda Shermuhammad Munisning «Munis ul-ushshoq» devoni (669 sahifa), Komil Xorazmiyning 5ta devoni, Ogahiyning «Ta'viz ul-oshiqin» (530 sahifa), 1897-yilda Feruzning «Devoni Feruz» g'azallar majmuasi, 1909-yildan Ahmad Tabibiyning «Majmuatush-shuaro» asari nashr qilindi. Ko'rinadiki, qisqa vaqt ichida Xiva adabiy muhitida ishtirok etib kelayotgan 30 dan ortiq shoir, tarjimonning asarlari Xiva toshbosmasida nashr etildi. Bu esa ijodkorlar asarlarini keng targ'ibot etish uchun yetarli sharoit edi.

Muhammad Rahimxon Feruz Xivada madaniy-ma'rifiy ishlarni rivojlantirdi. Jumladan, yangi fan-texnika yutuqlari, ya'ni kinoapparat, fotoapparat, teleskop va grammafonlarning kirib kelishiga bosh-qosh bo'ldi. Xiva adabiy muhitiga Muhammad Rahimxon qanday ravnaq bag'ishlaganini Bayoniy "Shajarai Xorazmshohiy"da shunday tasvirlaydi: «Xon hazratlari she'rga ko'p zavq paydo qilib erdilar. O'zlari ham burundan Feruz taxallusi bila mutaxallis bo'lib, she'r aytur erdilar. Har kishining she'r aytmoqg'a sahl qobiliyatlari bo'lsa, nav'i she'rlarni aytib dargohi oliyg'a olib bora berdilar. Shoirlarning adadlari kam – besh-qirgq'a bordi».

Ma'lum bo'ldiki, Feruz tevarak-atrofdagi talantli shoirlarni Xivaga to'plagan va ularga rahnamolik qilgan. Natijada o'ziga xos madaniy-adabiy muhit barpo bo'lgan. Mana shu shoirlar bilan bo'lgan she'riyat oqshomlarida Feruzning o'zi boshlovchilik vazifasini bajar-gan va yangi yozgan g'azallarini o'qib, mushoirani boshlab bergan. So'ngra boshqa shoirlarga ana shu yangi yozilgan g'azalga payrov tariqasida g'azallar bitish topshirilgan. Ana shu bir oqshom ichida 50-60 ta g'azallar yod olib kelinadi. Bu g'azallarning ko'pchiligi Oga-hiy, Komil Xorazmiy, Bayoniy, Mirzo, Tabibiy, Chokar, Rojjiy, Ko-myob kabi shoirlarning g'azallari bo'lib, saroy adabiy muhitida o'nlab qo'lyozma bayozlar, majmua bayozlar yuzaga kelgan.

Feruz har bir shoir ijodiga alohida e'tibor bilan qaragan. Jumladan, bir kuni Ogahiyga qarata shunday deydi: «Ey, Ogahiy, siz ko'p yillardan buyon ijod qilasiz. Ularning ko'pchiligi bayozlarga kirgan, ba'zilari esa tarqoq holda. Shoirlarning ishlari boqiydur va ularni hatto tuhmat degan balo ham yenga olmaydi. Shuning uchun barcha yozgan she'rlaringizni bir joyga to'plab, ularga raqam tartib beringda, bir devon shaklida kitob qiling». Bu taklifdan g'oyat xursand bo'lgan Ogahiy o'z kulbasiga kelib jiddiy ijodiy mehnatga kirishadi va uzoq mehnatdan keyin shoirning «Ta'viz ul-oshiqin» («Oshiqlar tumori») devoni dunyoga keladi. Demak, mazkur devonning yuzaga kelishida Feruzning xizmati katta.

Bundan tashqari, Ahmad Tabibiye dek yirik, sermahsul adibning yetishib chiqishi va «Majmuat-ush-shuaro»dek nodir madaniy boylukning yaratilishida ham Feruzning xizmati bor. Mazkur tazkira asar Feruz zamonasidagi 33 shoirning hayoti va ijodi haqida ma'lumot berishi bilan birga Feruzni faqat hukmdor sifatida emas, adabiyot ixlosmandlarining homiysi yanglig' tanitdi.

Feruzning avlod-ajdodlari orasida 20 dan ortig'i adabiyot va she'riyat muhibidir. Bularning ayrimlari haqida ma'lumot keltiramiz: **Komyob**– Sayid Hamid to'ra ibn Sayid Muhammadxon Komyob 1861-yil 2-sentyabrda Xivada ko'hna Arkda tug'iladi. Yoshligida Arabmuhammadxon qo'lida tahsil oladi. Otadan yosh qolgan Sayid Hamid to'ra tarbiyasiga akasi Muhammad Rahimxon alohida e'tibor berdi. Komil, Bayoniy kabi shoirlar ko'magida adabiyotga ixlos qo'ydi, arab, fors, tojik tillarini puxta o'rgandi, tarjimaga mehr qo'ydi. Komyobning «Devon»i, «Tavorix ul-havonin» («Xonlar tarixi»), «Muntahab ul - vaqoye» («Voqealar to'plami») nomli qo'lyozma asarlari, «To'raxonim» (bizgacha yetib kelmagan) asarlari o'ziga xos ahamiyat kasb etdi.

**Murodiy** – To'ramurod to'ra, Feruzning inisi bo'lib, 1854-yilda ko'hna Arkda tug'ilgan. Yoshligidan badiiy adabiyotga mehri baland bo'lgan. U ham forsiy, arabiy tillarni mukammal egallab, Murodiy taxallusi bilan g'azal, muxammas, qasidalar bitadi va

ularni jamlab «Devoni Murodiy» deb nomlangan majmua tuzadi. Bundan xursand bo'lgan Feruz inisining bu ishini yuqori baholab, «Devoni Murodiy»ni «Haft shahzoda» (Yetti shahzoda) nomli katta bir kitobga kiritadi. Demakki, Murodiy zamonasining yetuk shoirlaridan bo'lgan.

**Oqil** – Otabek to'ra Feruzning opasi Chinnijon bika zurriyodi bo'lib, Oqil taxallusi bilan ijod qilgan. 1874-yilda Xevaning ko'hna Arkida tavallud topgan. Laffasiyning ma'lumotiga ko'ra, Oqil yoshligidan damqisma kasalligiga duchor bo'lib, o'zini parhez qilib olib yurgan. Ammo yoshligidan adabiyotga qiziqqan va she'rlar mashq qilgan, yana tanbur, g'ichchak, doira chalishni ustasi bo'lgan. Bir yil hokim bo'ldi, bu qisqa davr ichida xalqparvarligi bilan xalq mehrini qozongan. U davlat ishlaridan ko'ra, badiiy ijodni ustun ko'radi va umrining ko'p qismini ijodga bag'ishlaydi. Keyinroq g'azal, ruboiy, muxammaslarini yig'ib «Devoni Oqil»ni tuzgan. Ammo devon hozirgacha saqlanmagan. Shoir she'rlari 1923-yilda Xivada nashr etilgan «O'zbekcha inqilobiy she'rlar yug'urumi»dan, «Xorazm maqollari» kitobidan o'rin olgan.

**G'oziy** – Sayid G'oziy to'ra Feruzning inisi Kamronning farzandi bo'lib, G'oziy taxallusi bilan ijod qilgan. U 1847-yilda Xivaning o'rta mavzusida Sayidboy masjidi yonida tug'ilgan. Shoirning otasi Otajon to'ra Kamron taxallusi bilan she'r yozgan. G'oziy ham adabiyotga bo'lgan qiziqishi shakllanib, 20 yoshidan she'rlar yoza boshlagan. «Devoni G'oziy» degan she'riy majmua ham tartib bergan.

**Asad** – Sayid Asad to'ra shoir G'oziyning inisi bo'lib, 1860-yilda tug'ilgan. U ham akasi kabi avval eski maktabda, so'ngra madrasada ta'lim olgan. 20 yoshidan boshlab badiiy ijod bilan shug'ullangan va «Devoni Asad» nomli bir devon tuzgan.

**Sodiq** – Rahmonquli to'ra Feruzning inisi To'ramurod to'raning o'g'li bo'lib, 1860-yilda tug'ilgan. U Sodiq taxallusi bilan she'rlar yozib, forsiy va arabiy tillarni mukammal egalladi. Feruzga payrov qilib g'azal va muxammaslar ham bitgan. Sodiq ancha xushxat

bo'lib, xatti kufiy kabi xat turlarini yaxshi bilgan. Sodiqning bir devon tartib berganligi haqida ma'lumotlar bor, ammo u haligacha topilgan emas.

**Sultoniy** – Nosir to'ra Feruzning o'g'li Muhammaddiyor to'ra farzandi. Feruz nabirasini juda yaxshi ko'rgan bo'lib, uning tarbiyasiga alohida e'tibor bergan. 16 yoshida nevarasini shoir qilib yetishtiradi. Bayoniy unga ustozlik qilgan. U «Devoni Sultoniy» nomli devon tuzgan.

**Sa'diy** – Sa'dulla to'ra ibn Sayid Abdulla to'ra Feruzning nabirasi bo'lib tug'ilgan yili noma'lum, tug'ma mayib bo'lgan. Feruz Sa'diyga alohida mehribonlik qilib, uni madrasada o'qitadi. U 20 yoshga yetganda yaxshi shoir bo'lib yetishdi. U mayib bo'lsa ham, yaxshigina rassom edi. Uning mo'yqalamiga mansub sur'atlar o'sha davrda Feruz saroyiga osib qo'yilgan.

Ko'rinadiki, Feruz avlodiga mansub shoirlar adabiyot, fan uchun xizmat qilib, boy adabiy meros qoldirganlar.

**Feruz lirikasi.** Feruz barcha zamondosh shoirlarning ijodiga rahnamolik qilgan, biroq o'zining she'rlari tarqoq holda yetib kelgan va uning jamlanmasi 2534 misrani tashkil qiladi. Unda 98 g'azal, 7 muxammas, 2 musaddas, 4 masnaviy, 7 ruboiy bor.

Feruz she'riyatining bosh mavzusi – ishq. Mahbuba ishq bilan o'rtanish, unga fidoyilik, sadoqat, visolga intilish tuyg'ulariga oshno oshiq hamda oshiq orzulagan ma'shuqa obrazi shoir g'azallarining markazida turadi. Oshiq shoh o'z ma'shuqasi oldida bamisli qul:

*Agarchi baxti Feruz ila davron shohiman, lekin  
Sening, ey husn amiri, bandai bee'tiboringman.*

yoki

*Garchi erurman, tole'i Feruz ila olamg'a shoh,  
Lek ul parilar sarvari ol(d)idadurman qul bu kun.*

Bu misralar shoh va oshiq Zahiriddin Boburning "Sen gulsen-u men haqir bulbuldurmen" misrali mashhur ruboiysini yodga soladi: Feruzning lirik qahramoni kamtarin bir oshiq. Ishaq kuyiga

mubtalo bo'lgan bu darveshona xokisor oshiq shoh muhabbatning "bandai bee'tiborig'a", "parilar sarvari"ning quliga aylanadi. U ayriliq haqida hatto o'ylashni xohlamaydi, visoldan umidvor, yor vafosiga ishonch va undan quvonch tuyg'ulari-la shunday bir navo qiladi:

*Shod o'lg'il, ey mahzun ko'ngil, bu kecha dildoring kelur,  
Shirin takallum, gulbadan, la'li shakarboring kelur.*

Feruz mumtoz so'z san'atimizning behzodlaridan. Shoir qalb tug'yonlarini jo'shqin zavq-u shavq bilan kuylaydiki, baytlardagi urg'u bermoqchi bo'lgan fikr **takrir** san'ati bilan quyilib keladi:

*Oftoboso jamoling ko'rgach o'ldum, ey nigor,  
Beqaror-u beqaror-u beqaror-u beqaror.  
Tig'i ishq'i hanjari yuzingdin o'ldum subxu shom.  
Dilfigor-u dilfigor-u dilfigor-u dilfigor.  
Ohu nolam ayladi ishqingni oxir dahr aro  
Oshkor-u oshkor-u oshkor-u oshkor.*

*Javru zulming bo'lg'ondurman hazing'a dam-badam,  
Beshumor-u beshumor-u beshumor-u beshumor.  
Oy kibi farrux jamoling ko'rgali yo'lingda ko'z  
Intizor-u intizor-u intizor-u intizor,  
Noz ila sursang samanding sakrotib yo'q sen kibi  
Shahsuvor-u shahsuvor-u shahsuvor-u shahsuvor.  
Vaslinga yo'l topsa har kim bo'lg'ay ul Feruzdek  
Baxtiyor-u baxtiyor-u baxtiyor-u baxtiyor.*

Feruz ijodi yakrang emas, turli ranglarda jilolanadi. U g'azal, ruboiy, muxammas, musaddas, masnaviy kabi janrlarda barakali ijod qildi. Shoir qaysi janrda yozmasin, ishq mavzusining badiiy talqinini o'ziga xos tarzda janr qurilishiga mos holda tarannum etadi. Chunonchi, to'rt misrali ruboiylarida lirik qahramonning mahbuba ishq'i bilan o'rtanishi, unga fidoiylik, sadoqat, visolga intiqilik tuyg'ularini bari jamlanadi:

*Ey sho'x, tarahhum aylakim, zoringman,  
Jon-u dil-u din ila girftoringman.*

Gar vaslingga aylasang baho jon naqdin,  
Yuz jon esa ham, berib xaridoringman.  
yoki musaddaslaridagi holatni qarang:  
Toki ul sho'x g'ami ishqig'a duchor o'ldum,  
Dam-badam dardi balo xayli bila yor o'ldum,  
Kokili domig'a nobasti giriftor o'ldum,  
Talabi vaslida Feruz kibi zor o'ldum,  
Vahki, ul mehrliqo noz-u adosini ko'rung,  
Jonima har nafas ozor-u jafosini ko'rung.

Bu yerda muhabbatning mahzun kechinmalari, yuqoridagi "vi-solga intiq qalb"ning ruhiy ahvoli namoyon bo'ladi.

Uning masnaviyolari yanada dilbar. Feruzning lirik qahramoni bunday ruhiy ahvoldan tushkunlikka tushmaydi, o'z ma'shuqasiga salomnomalar yo'llayveradi:

*Bulardin so'ngra, ey sarvi gulandom,  
Sanga bo'lsin salomim subh ila shom.  
Salom, ey dilraboyi hur timsol!  
Salom, ey maxluqoyi farrux iqbol!  
Salom, ey dilrabo, pokiza anvar!  
Salom, ey guluzori sarv raftor!  
Salom, ey gavhari koni sabohat!  
Salom, ey durri daryoi saodat!  
Salom, ey xo'blig' bo'stonida vard!  
Salom, ey husn iqlimi aro dard!*

Qarang, salomnoma qanday maroqli! Bundagi ohang, takrorlar qatori badiiy libos bo'lib, she'ring musiqiyiligini, badiiy barkamolligini ta'minlagan. Ko'rinadiki, Muhammad Rahimxoni Feruz o'z zamonida odil mamlakat rahbarigina emas, yetuk she'riyat peshvolaridan biri bo'ldi. Shuning uchun ham u xalq ardog'idagi adibga aylandi. Zero, shoirning o'zi buni Allohdan iltijo qilib so'ragan edi:

*Qil baxt ila tole'imni Feruz,  
Har bir kunim ayla iydi navro'z.*

**Feruz oilasida she'riyat muhiti.** Xiva taxtiga o'tirgan Bobojon tura – Muxammad Raximxon Feruz otasidan keyin ham obodonchilik, taraqqiyparvarlik ishlarini amalga oshirish davom etgirdi. U mamlakatning ichki ahvolini yaxshilash, aholining farovonligini oshirish, ta'lim sohasini yuksaltirish yo'lida ko'plab tadbirlarni amalga oshirishga harakat qilgan<sup>47</sup>. Talabalarning ilm olishi uchun imkon yaratish maqsadida mamlakat ichkarisida ham talaygina ishlar qilinib, madrasa va masjidlar qurilishi rivojlantirilgan. Bu borada Feruzning shaxsiy tashabbuslari e'tiborga loyiq. 1871-yilda xon rahbarligida madrasa qurdiriladi. Keyinchalik xonning bunday shaxsiy tashabbusidan ibrat olgan katta mablag'ga ega bo'lgan boy va amaldorlar ham o'z nomlariga madrasalar barpo qildirganlar. Matniyoz devonbegi, Qozikalon, Islomxo'ja, Matpanoboy, Dust a'lam, Yusuf yasovulboshi madrasalari ana shular jumlasidandir. Muxammad Rahimxon davrlarida Komil boshchiligida ellikka yaqin xattotlar yetishib chiqqan. Nodir kitob nusxalarini ko'paytirish, ularni saqlash, kitob nashri-matbaachilikka e'tibor qaratilib, toshbosma usulida kitob chop etish maqsadida "Podshohi zamon tipolitografiyasi"ni tashkil qilingan. Kitoblar xon tomonidan ajratilgan mablag' hisobidan chop ettirilgan. Ular asosan, davlat arboblari, shoirlarga tarqatilgan, shuningdek, saroy kutubxonasida saqlangan. Ayrim nashrlarning nusxalari XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Peterburgdagi Imperatorlik kutubxonasiga ham olib ketilgan. Umuman aytganda, xonning bevosita sa'y-harakatlari natijasida xonlikda kitob nashri, kutubxonachilik rivojlangan.

<sup>47</sup> Раҳим Д., Матрасул Ш. Феруз-Шоҳ ва шоир қисмати. -Тошкент: Гафур Гулом номидаги Ишриёт-матбаа бирлашмаси, 1991.-Б. 100. ^  
Қаранг: Раҳим Д., Матрасул Ш. Феруз-шоҳ ва шоир қисмати. - Тошкент: Гафур Гулом номидаги Ишриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. -Б. 54; Ҳасанов С. Хоразм маърифати олам кўзгуси. - Тошкент: Уқитувчи, 1996. -Б. 257. ^  
Юнусов М. Сахий қаламлар. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1975. -Б. 94. \*  
Қаранг: Раҳим Д., Матрасул Ш. Феруз-шоҳ ва шоир қисмати. - Тошкент: Гафур Гулом номидаги Ишриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. -Б. 104. ^  
Юнусов М. Сахий қаламлар. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1975. -Б. 95

Shuningdek, kitobxonlik, kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish ham xonning diqqat markazida bo'lgan. Uning bu borada amalga oshirilgan tadbirlari haqida Bayoniy tomonidan "Shajarai xorazmshohiy"da bergan quyidagi ma'lumotlar e'tiborga loyiq: "Xon hazratlari qal'ada ikki kun: juma va dushanba oqshomlarida ulamo bilan suhbat tuzib, kitobxonliq etadur erdilar. Yusuf xoji oxund va Ismoilxo'ja oxund va Xudoybergan oxund va olim-ulum ma'kul va mankulda Mullo Muxammad Rasul va faqiri haqir majlisi qumoyunlarig'a haftada ikki martaba hozir bo'lub, kitobxonliq etar erduk. Gohi domla Muhammad Rasul bila ikkovimiz kirib, suhbatlari humoyunlarida kitobxonliq bo'lur erdi va sipohiyalar va to'ralarni ham kitobxonliq etarga targ'ib etardilar. Bas, hamma kitobxon bo'ldilar...". Xon iste'dodli shoir, musiqachi yoki boshqa sohada alohida iqtidori bo'lgan kishilarni o'z atrofiga jamlashga harakat qilgan. Maxsus kishilar orqali ularni toptirib, saroyga oldirib kelgan va ijod bilan shug'ullanishlari uchun sharoit yaratib bergan. Biror sohani o'rganishga intilishi bo'lgan yoshlarga ustoz brikitirib, ularning tarbiyasini kuzatib borgan. Muntazam o'tkazilib turadigan kechalarda ko'pincha yangi shoir yoki iste'dodi bo'lgan kishilar kashf qilingan. Hukmdor bunday kishilarning bilimi va iste'dodini qadrlagan. Ular qaysi sohada bo'lmasin, Muhammad Rahimxonning o'zi shaxsan imtihon qilib ko'rgan<sup>48</sup>. "Feruz" nomli kitobdagi Muhammad Rahimxonning kun tartibiga doir bir ma'lumot e'tiborli. Mualliflarning keltirishicha, xon erta turib, namoz o'qigandan so'ng bir soat kitob o'qish bilan mashg'ul bo'lgan. Haftada ikki bor bo'ladigan kitobxonlikka hozirlik ko'rish uchun bu'zida biror g'azal ham bitgan. Nonushta paytida oila a'zolari bilan birga bo'lgan. Xon ayrim paytlari nonushtaga mudarris, ulamo, shayxulislomni taklif qilgan. Nonushtadan keyin davlat va hukumat ishlari bilan bog'liq suhbatlar bo'lgan. Ularda ko'pincha Ibrohimxo'ja, Amir to'ra, Ya'qub mehtar, Xudoyor qushbegi, Is-

<sup>48</sup> Басийий Муҳаммад Юсуф. Шажаран хоразмшохий. - Тошкент; Адабиёт ва санъат, 1994, - Б. 95. Юқорида кўрсатилган китоб. -Б. 19-20



moilxo‘ja naqib, Matmurod devonbegi, Raxmatullo yasovulboshi singari amaldorlar ishtirok etganlar. Ba‘zan Ogahiy, Komil, Bayoniy kabi shuaro ham ular safida bo‘lganlar. Nonushtadan keyin kechki ovqatga qadar xon davlat ishlari bilan mashg‘ul bo‘lgan. Kechki ovqatdan so‘ng; “...Norbo‘ta dasturxonchining ishorasi bilan xizmatkorlar dasturxonni yig‘ishtira boshlaydilar. Feruz Tolib mahzunga tongda yangi g‘azal bitganini aytadi va axdi shuaroni saroyga taklif etishni buyuradi. Birin-ketin Ogahiy, Bayoniy, Tabibiy, Mirzo, Xodim kabi shoirlar, Sa‘diy, Sul-toniy, Komyob, Farrzos, Murodiy singari Feruz shajarasiga mansub aka-uka ijodkorlar o‘z o‘rinlariga kelib o‘tiradilar...”<sup>49</sup>.

Shundan keyin shoh-shoir o‘zining yangi yozgan she‘rini o‘qib beradi. Uning ruxsati bilan ishtirokchilar o‘qilgan she‘rga javob tarzida g‘azal bitishga harakat qiladilar. Bunday anjumanlar, albat-ta, shunchaki she‘rxonlik bilan kifoyalani-magan. Ularda xon oila a‘zolarining ijod mahsuli yuzasidan ham fikr-mulohazalar bildirilgan va ular tomonidan aytilgan har bir bayt, undagi mazmun va badiiyat uyg‘unligiga yig‘ilganlar tomonidan alohida e‘tibor qaratilgan. Shubhasiz, bunday vaziyatlarda Feruzning fikr-mulohazalari birinchi o‘rinda turgan. Xon anjum-lardan tashqari paytlarda ham o‘z yaqinlarining ijodiga qiziqqan, ularning tarbiyasi va ta‘lim olishi uchun maxsus kishilarni tayinlagan. Yosh ijodkorlarning taxallus tanlashi, she‘rlarini devon holiga keltirish va nashr ettirishga bosh-qosh bo‘lgan. Bu singari harakatlarini inisi Sayid Homid to‘ra Komyob quyidagicha e‘tirof etgan; “Va mening shoirliqg‘a ishqim ko‘bligini ul hazratin a‘lo xoni Muhammad Rahim Bahodirxoni Soniy doma davlata eshitibdurlar va menga xat mashq qildurmoq uchun devonlaridin bir ustoz qilib erdilar, onga oytibdurlarkim, Sayid Homid to‘rang g‘azal mashq qilur er-mish, oning oyg‘on g‘azallaridin kelturgil deb. Men ul hazratning o‘zlari oyg‘on g‘azallaridin birin hamul vaqtda muxammas qilib

<sup>49</sup> Раҳим Д., Матрасул Ш., Жумахўжа Н. Феруз. - Тошкент, Ўзбекистон, 1993. - Б.8

erdim, oni ul bila ul hazratning xizmatlarig'a yubordim. Ul hazrat oni ko'rub, zehning yaxshi erkon deb, <sup>50</sup>torubdurlarkim, oytg'on g'azallarini keltur deb. Men oytg'on g'azallarimni berib yibordim. Ondin so'ngra o'zum ham salom bergali xizmatlarig'a bordim. Kirsam, mening g'azallarimni mushohada qilib o'lturub erkonlar, menga nazarlari tushub, iltifot yuzidin kulub, dedilarkim: "Yaxshi shoir bo'lg'udek zehning bor erkon, o'ltur!" – deb mehribonlig' qildilar"<sup>50</sup>. Hukmdor oilasi a'zolari orasida iste'dodning shakllanishida Feruz bilan bir qatorda sulolaning boshqa vakillari tashabbusi ham muhim ahamiyat kasb etgan. Xususan, shunday tadbirlardan biri to'g'risida Bayoniy quyidagicha yozadi: "To'ramurod to'rakim, xon hazratlarining birodarlari erdilar... Ul hazrat muhibi ulamo va muhibi aqrabo erdilarkim, tez-tez tamomi xesh-u aqraboni jam' qilib, ittihodu yakranglik tariqidin bir zarra munharif bo'lmay kamoli muhabbat va muvaddat bila musohibat so'rguzur erdilar. Bizlar tamomi oqo-ini bila da'vatlari mujibicha majlislariga hozir bo'lur erduk. Xoxdaplari bu erdikim, bizlarni bir lahza hazratlaridin judo qilmag'aylar va o'zlarin Murodiy taxallusi bila mutaxallis etib, she'r ham oytur erdilar"<sup>51</sup>.

Bayoniy yana Sultoniya haqida: "Haftada ikki navbat ulamo bila muhabbat tuzub, kitobxonliq etar erdilar. Ul majlisi oliyda dahonining durji benihoyatidin benihoyat gavhari shahvor nisor etar erdilarki, lamma g'oyat xayratdain lol va shikasta maqol bo'lur erdilar"<sup>52</sup>,

deydi. Ana shunday muhitda tarbiya topgan xon oilasiga mansub ijodkorlarning devon, tarixiy va tarjima asarlari yetib kelgan. Lekin ularning asarlari yuzasidan keng kitobxonlar ommasi yetarlicha tasavvurga ega emas.

<sup>50</sup> Юкорида кўрсатилган асар. - Б. 11.

<sup>51</sup> Комёб. Девон. ЎзР ФАШИ кўлёмалар хазинаси. 1005-рақамли кўлёмма. Дебоча

<sup>52</sup> Баёний Муқаммад Юсуф. Шажараи хоразмшоҳий. - Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. - Б. 93.

<sup>53</sup> Ҳафт шаҳзода. ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи кўлёмалар фонди 36-рақамли босма китоб. 16 а-варақ.

**Feruz ijodiy merosi.** Tabibiy “Majmuat ush-shuaroi Feruzshohiy” tazkirasida Feruzning shoirlik iqtidoriga yuksak baho beradi. Tazkiranavisning shoh va shoirni “hasabda ilm-u fan sohibi”, “gʻazal ichra gavharfishon”, “soʻzda moʻjizbayon” singari taʼriflar bilan vasf etgani ham buni tasdiqlaydi. Feruz ijodiy merosi bizgacha ancha parokanda holda yetib kelgan. U boshqa shoirlarni devon tuzishga undagani holda oʻz sheʼrlarini toʻplab nashr ettirmagan. Shoir ijodiy merosining umumiy hajmi 2534 misradan – 98 gʻazal, 7 muxammas, 2 musaddas, 4 masnaviy, 7 ruboiydan iborat. Lekin bu raqamlar nisbiy ekanini taʼkidlash kerak. Shoir gʻazal, masnaviy, muxammas va ruboiy kabi janrlarda samarali ijod qildi. Ular orasida gʻazal salmoqli oʻrinni tashkil etadi. Mumtoz lirikada gʻazal unda qoʻllangan qofiyaning xususiyatiga koʻra: 1) husni matlaʼ (a-a, a-a, b-a, v-a), 2) qitʼa gʻazal (b-a, v-a, g-a), musajjaʼ gʻazal (barcha baytlari ichki qofiya asosiga qurilgan); 3) zebqofiya (a-a, a-a, a a, a-a), zulqofiyatayn (a-a, b-b, v-v) kabi turlarga boʻlinishi maʼlum. Bundan tashqari, ushbu lirik janrning oddiy gʻazal, muvashshah gʻazal, tazmin gʻazal singari turlari ham xoslanadi. Gʻazalning Feruz lirikasida uchraydigan turlari shoirning buyuk salafllari lirik merosini va ularning mahorati sirlarini chuqur oʻrganganidan hamda ushbu janr takomiliga munosib hissa qoʻsha olganidan dalolat beradi. Shoirning “Ekan” radifli gʻazali husni matlaʼ usulida qofiyalangan. Gʻazalning dastlabki ikki bayti tahlili ijodkorning sheʼriyat nazariyasini puxta bilishdan tashqari, ijod jarayoniga tatbiq eta olgani isbotidir:

*Orazing davrida har yon zulfi anbarmu ekan?!*

*Yoʻqsa ganj ustida yotgʻon ikki ajdarmu ekat?!*

*Yuzlaring may tobidin qilgʻon araqlarmu ayon?!*

*Mohi anvar davrida bir necha axtarmu ekan?*

Feruz lirikasida oddiy hamda muvashshah gʻazalning ham oʻziga xos namunalari uchraydi. Shoir ijod qilgan davrda muvashshahchilik oʻziga xos adabiy taomilga aylangan va hatto “...oʻzbek adabiyotida, ayniqsa, XIX asrning II yarmida shoirlik va nazmchilik

hunari muvashshahchilikdagi mahorat bilan o'lgan edi". Ma'lumki, muvashshah g'azalda kishi ismi ikki xil usulda hosil bo'ladi: 1) toq misralarning birinchi harflari orqali; 2) qofiyadosh misralarning ilk harflari vositasida. Feruz ijodidagi muvashshahlar, asosan, birinchi turga mansub: Yuzungdur, ey parivash, husn burjining to'lin mohi

Iki qoshing hiloli iyd yanglig' borcha dilxohi.

Ushbu g'azal baytlaridagi toq misralarning birinchi harflaridan "Yusufjon" ismi kelib chiqadi. Mumtoz she'riyatdagi muvashshahlar, an'ana bo'yicha, er kishilar ismiga bitilgan. Lekin muvashshah kimning ismiga bog'langan bo'lsa uning mazmuni aynan shu nom egasiga tegishli, deb o'ylash to'g'ri emas. Muvashshahda ismi yashiringan kishilar, odatda, shoirning adabiy davrasi vakili, yaqin do'sti, qarindoshi bo'ladi. Feruzning muvashshah g'azallari orasida ayol ismiga bag'ishlanganlari ham uchraydiki, bu hol shoirning mavjud an'ana negizida yangilik qilishga intilganini ko'rsatadi. Jumladan, ijodkorning Furqating *Soldi dil-u jon ichra o't, Kufri zulfing din-u iymon ichra o't*, – matla'li g'azali Fanojon ismiga muvashshah qilingan. Feruz lirik merosida musajja' g'azalning ham nodir namunalari bor. Baytlari ichki qofiyaga asoslangan ushbu turdagi g'azallarda misralar teng to'rtga bo'linadi. Avvalgi uch bo'lak mustaqil qofiyalanib, to'rtinchi bo'lak she'rdagi asosiy qofiyaga ohangdosh tugallanadi. Feruz devonida bu turdagi ikki g'azal mavjud bo'lib, ularning matla'lari musajja' emas, oddiy usulda bitilgan. Bobur "Muxtasar"da: "...musajja' g'azallarining matla'ida saj' kamroq rioyat qilibturlar. Agar rioyat qilinsa yaxshiroq bo'lg'usidur", – degani kabi Feruz matla'da sajga rioya qilmagan: *Shod o'lg'il, ey mahzun ko'ngul, bu kecha dildoring kelur, Shirin takallum, gulbadan, la'li shakarboring kelur. Soz ayla aysh ashobini, ochgil tarab abvobini, Ruxsori olamtobini ochib sevar yoring kelur.* Ushbu g'azalda qo'llangan saj' usuli g'azal ohangdorligini kuchaytirib, unga ayricha joziba va latofat bag'ishlagan. Arab she'rshunosligida she'rda shakl va mazmun munosabati an-

cha mukammal va tizimli o'rganilgan. B.Y.Shidfarning yozishicha, arab olimi Qudama she'riy asardagi shakl va mazmunga xos to'rtta bir-biriga bog'liq tarkibiy unsurlarning o'zaro munosabatini poetik uyg'unlikning asosi deb qaragan. Bular: so'z va ma'no; so'z va vazn; ma'no va vazn; ma'no va qofiya.<sup>54</sup> Bu unsurlarning o'zaro munosabatlari esa baytda so'z, vazn, ma'no va qofiyaning to'la uyg'un bo'lishini talab etadi .

Feruz g'azallarida baytlar poetik fikr, tuyg'u va shakl jihatdan o'zaro mutanosib ekani jihatidan mumtoz she'riyatning barcha talablariga javob beradi. Feruz masnaviyda ham mahorat bilan ijod qildi. Shoir devoni nashridan bu janrga oid to'rt she'r o'rin olgan bo'lib, ularning umumiy hajmi 706 misrani tashkil etadi. Professor Nusratullo Jumaxo'janing fikricha: "Ular kichik hajmli asarlar bo'lib, epik ko'lam kasb etmagan. Lekin masnaviylar uslubining yengil va ravonligi Feruz epik ko'lamdagi yirik asarlar ham yaratish qobiliyatiga ega bo'lganligini ko'rsatadi". Shoir masnaviylarining har to'rttalasi ham diniy-tasavvufiy mazmunda. Shunga ko'ra, ular shoirning dunyoqarashini, e'tiqodini aniqlashda muhim o'rin tutadi. Masnaviylaridan birida mana bunday yozadi:

*Dahr eliga garchi podshoman,  
Ehsonig'a mustahiq gadoman.  
Ko'btur manga rahmatingdin umid,  
Qilma mani – notavonni navmid.  
Qil baxt ila tole'imni Feruz,  
Har bir kunim ayla iydi Navro'z.*

Masnaviyda shoir zamona ahliga podshoh bo'lsa ham, o'zini Yaratganning ehsoniga mustahiq gado hisoblaydi. Uning rahmatidan umidi ko'p ekanini aytib, noumid etmasligini o'tinadi. Baxt-u toleini Feruz, har bir kunini iydi Navro'z aylamog'ini iltijo qiladi. Feruz – so'nggi baytda bir vaqtning o'zida shoir taxallusi hamda

<sup>54</sup> Shayxzoda M. Asarlar. Olti tomlik. Beshinchi tom. –Toshkent: Adabiyot va san'at, 1972. –B. 91-92. 28Bobur. Muxtasar (Nashrga tayyorlovchi Saidbek Hasan). – Toshkent: Fan, 1971. – B.127

lugʻaviy maʼnosida teng qoʻllanib, iyhom sanʼatini hosil qilgan. Umuman, masnaviylar Feruzning hayotiy haqiqatni badiiy-falsafiy umumlashmaga aylantira olganini koʻrsatadi. Birinchi bobning “Musammatlar va kichik sheʼriy janrlar poetikasi” deb nomlangan ikkinchi faslida musammatlarning Feruz ijodidagi oʻrni ilmiy baholangan. “Musammat” arabcha “طمس” simt” soʻzidan olingan boʻlib, lugʻaviy maʼnosi “shoda”, “tizilgan marjon” demakdir. Istilohiy maʼnoda esa har bandi toʻrt misradan oʻn misragacha boʻlgan sheʼriy shaklni anglatadi. Oʻzbek mumtoz sheʼriyatida musammatning murabbaʼ, muxammas, musaddas, musabbaʼ, musamman, mutassaʼ, muashshar kabi turlari mavjud.

Kaykovusning “Qobusnoma”sida shoirlarning zarur usullardan biri sifatida zikr etilgan ushbu janr namunalari ikki turga boʻlinadi: 1) mustaqil (tabʼi xud) musammatlar; 2) gʻazal asosida yaratilgan musammatlar<sup>55</sup>. Bu janridagi sheʼrlarda shoir taxallusi, odatda, yakunlovchi badda qoʻllanadi. Feruz ushbu sheʼriy janrning muxammas va musaddas shakllarida ijod qilgan. Shulardan muxammaslar 6 ta boʻlib, 4 tasi shoirning oʻz ijodiga mansub: 1 tasi shoirning oʻz gʻazaliga, qolgan 2 tasi Ogahiy gʻazallariga bogʻlangan taxmislardir. Musaddaslar – 2 ta. Adabiyot tarixida qodkorlarning oʻz gʻazallariga muxammas bogʻlashi hodisasiga koʻplab misollar keltirish mumkin. Bu hol, birinchidan, taxmis bogʻlangan gʻazalning muallif uchun qadrli ekanini anglatga, ikkinchidan, shoirning gʻazalga sigʻmagan fikrlarini muxammasda toʻliqroq ifodalash istagi bilan izohlanishi mumkin. Feruzning “Ohista-ohista” radifli oʻz gʻazaliga bitilgan muxammasi dastlabki bundi quyidagicha:

<sup>55</sup> Shidfar B.Ya. Obraznaya sistema arabskoy klassicheskoy literatura (VI-VIII vv.) – Moskva: Nauka, 1974. S.162. 30 Jumaxoʻja N. Milliy mustakillik mafkurasi va adabiy meros (XVII-XIX asrlar oʻzbek sheʼriyati asosida): Filol. fan d-ri... diss. - Toshkent, 1999. – B. 61-62. 31 Al-Qomus. Arabcha-oʻzbekcha qomusiy lugʻat. II jild. – Toshkent. Gʻafur gʻulom nomidagi NMIU, 2017. –B. 118. Kaykovus. Qobusnoma (Forschadan Muhammad Rizo Ogahiy tarjimai). Toshkent: Istiqolol, 1994. – B.175

*Chehib hijronda ranji begaron ohista-ohista,  
Yutar erdim labi fikrida qon ohista-ohista,  
Bu holimdin topib bu kun nishon ohista-ohista,  
Manga rahm aylab ul shirin zabon ohista-ohista,  
Yetushti boshim uzra nogahon ohista-ohista.*

Muxammas voqeabandlik asosiga qurilgani bilan ushbu janrga doir boshqa asarlardan farq qiladi. Mumtoz she'riyatimizda g'azallarning voqeaband bo'lishi kuzatilgan, lekin muxammas janri misolida bu hol juda kam uchraydi. Shoirning ustози Muhammad Rizo Ogahiy ham muxammas bog'lagani ushbu g'azalning nechog'liq mukammal ekani tasdig'idir.

Feruz muxammaslariga tegishli yana bir jihat tarje' bilan bog'liq. Muxammasda tarje' ikki xil: agar ikki misra takrorlanib kelsa, bayt tarje'i; bir misra takrorlansa, misra tarje'i bo'lishi ma'lum. Feruz muxammaslari orasida misra tarje'i kuzatiladi. Tarje' misra muxammasning birinchi bandiga qofiyadosh bo'lgan beshinchi misra bo'lib, har bandda takrorlanib keladi. Masalan, Feruzning mana bu muxammasida "Oromijon nigorim, sarviravon nigorim" misrasi tarje' bo'lib kelgan:

*Ko'rmak tilab yuzungni, ey sho'x gul'uzorim,  
Qonlar to'kar damodam bu chashmi ashkborim,  
Quchmoq tilab belingni hech qolmadi qarorim,  
Yo'lungda tufroq o'ldi bu jismi xoksorim,  
Oromijon nigorim, sarviravon nigorim.*

Ushbu tarje' misra she'rda shoirning ifodalamoqchi bo'lgan fikrini alohida ta'kidlash va bandlararo mazmunan bog'liqlikni hamda kompozitsion yaxlitlikni ta'minlash uchun xizmat qilgan. Feruz musammatlariga mansub yana bir she'riy shakl, bu – musaddas. Shoir devoni tarkibidan musaddas janriga mansub 2 she'r o'rin olgan. Musaddas shoir tomonidan mustaqil ijod etilishi yoki g'azal asosida yaratilishi mumkinligi e'tiborga olinsa, Feruz musaddaslari mustaqil yaratilgani bilan xarakterlanadi. Shoir musaddaslarining bittasida tarje' misra, ikkinchisida tarje' bayt mavjudli-

gi xarakterlidir<sup>56</sup>. Jumladan, shoirning “Subhkim, ul sarvi gulrux sayri gulzor ayladi” deb boshlanuvchi musaddasida tarje’ misra qo‘llangan:

*Subhkim, ul sarvi gulrux sayri gulzor ayladi,  
Sarvu gulga qaddu ruxsorin namudor ayladi,  
Sarv qaddig'a egib bosh qulluq izhor ayladi,  
Rashk tig'i jon ila ko'ngulni afgor ayladi,  
Do'stlar, ul dilrabo ishq'i mani zor ayladi.*

“Do'stlar, ul dilrabo ishq'i mani zor ayladi” misrasi har band oxirida takrorlanib keladi. Ushbu tarje’ misra, birinchidan, bandlararo mazmuni bir-biriga bog‘lashga xizmat qilayotgan bo‘lsa, ikkinchidan, fikrni kuchaytirib, so‘zning ta’sir quvvatini oshirgan.

Feruz ijodida kichik she’riy janrlardan faqat ruboiy namunalarini uchratish mumkin. Shoir devoni nashrida 7 ta ruboiy bo‘lib, ularning deyarli barchasi ishqiy mavzuda bitilgan. Ulardan 2 tasi taronai ruboiydir. “Yo Rab” radifi bilan kelgan bu ruboiy ruboiy taronaning betakror namunasi ekani bilan alohida ajralib turadi:

*Ro'zi sanga barcha kom bo'lsun, yo Rab!*

*Iqbol-u may mudom bo'lsun, yo Rab!*

*Ham davlati mustadom bo'lsun, yo Rab!*

*Ham ishrati bardavom bo'lsun, yo Rab!*

Ushbu taronai ruboiyda “kom – mudom – mustadom – bardavom” so‘zlari qofiyalanib kelgan va o‘ziga xos ohangdorlikni ta’minlagan. Ruboiyning yana bir o‘ziga xosligi uning munajot-ruboiy ekanidir. Umuman, Feruz ruboiylari uning kichik janrlarda ham mahorat ko‘rsatganini tasdiqlaydi.

**Shoir she’riyatining mavzuiy tasnifi: ishqiy va ijtimoiy lirika.** Shoirning mavzu jihatdan rang-barang she’rlarini: ishqiy, ijtimoiy va diniy-ma’rifiy mavzularga bo‘lib o‘rganish mumkin. Feruz ishqni o‘ziga xos obrazlar orqali, ohorli uslubda vashf etdi, sof tuyg‘ulari va kechinmalarini betakror ifodaladi. Salafllari asarlar-

<sup>56</sup> Nosirov O., Jamolov S., Ziyovuddinov M. O‘zbek klassik she’riyati janrlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1979. – B. 114-116.



idagi obraz va tasvirlarni takrorlamadi. Koʻhna tuygʻu hisoblangan ishqni yangi ohanglarda, yangicha poetik talqinlar orqali tarannum etdi:

*Azmi guliston ayla zulfunga berib ziynat,  
Rashk oʻtiga sunbulning paykarini soʻzon qil.*

“Qil” radifli gʻazal oʻzbek adabiyotida oʻziga xos anʼanaga ega boʻlib, Amiriy, Uvaysiy, Fazliy, Ado, Hotif, Nola, Xijlat, Feruz, Furqat, Muqimiy, Haziniy, Kamiy, Hamza, Sidqiy Xondayliqiy kabi shoirlar ijodida uchraydi. Gʻoya va kechinmalari tasviri uchun shoir bu radifni tanlar ekan, mazkur shoirlar bilan ijodiy musobaqaga kirishadi:

*Koʻzunga chekib surma, yuzunga urub gʻoza,  
Lola birla nargisni ul ikovga hayron qil.*

Ushbu gʻazalda Feruz nafaqat Xorazm adabiy muhiti ijodkorlari asarlaridan, Qoʻqon adabiy maktabi shoir-u adiblari anʼanalaridan ham chuqur xabardor boʻlgani yaqqol namoyon boʻlgan. Shoh va shoir Feruz lirikasida Navoiyga izdoshlik ikki yoʻnalishda kechgani kuzatiladi: 1) ulugʻ shoir sheʼrlariga tatabbu qilish; 2) lirik asarni poetik takomilga yetkazish. Shoir tatabbuda ham mahoratini koʻrsata olgan. “Mening” radifli gʻazalining matlaʼi quyidagicha:

*Keldi ochib gul yuzin bazmimga jononim mening,  
Koʻz-u qoshiga fido boʻlsun dil-u jonim mening.*

Tatabbuga asos boʻlgan Alisher Navoiy gʻazalining boshlanmasi esa quyidagicha:

*Xastadur jonim mening, to bordi jononim mening,  
Boʻlmasun gar borsa jononim mening, jonim mening.*

Feruz buyuk salafi gʻazalining vazni (ramali musammani mahzuf) va radifini (mening), matlaʼda hatto qofiyani (jononim, jonim) ham saqlagan. Ikki gʻazalning boshqa baytlarida qofiyalar muayyan darajada farq qiladi. Navoiy gʻazalida: xiromonim, qonim, uryonim, hayronim, pinhonim, imkonim. Feruz gʻazalida: xiromonim, xandonim, tobonim, suxandonim, giryonim, afgʻonim. Ayon boʻlganidek, ikkinchi baytning ilk misrasida ham qofiya

aynan takrorlanadi. Keyingi baytlarda Feruz yangi qofiyalar tanlaydiki, shoir g'azalining o'ziga xos poetik mazmuni ham shuni taqozo etgan, deyish mumkin. Tabiiyki, ikki shoir g'azali mazmuni bir-birini takrorlamaydi. Shoir his-tuyg'ularini, ishqqa munohabatini oshiq va ma'shuqa obrazlari orqali ifodalaydi. Ma'shuqa tengsiz go'zal sifatida talqin qilinadi. Shuning uchun unga nisbatan "yor", "mahliqo", "mahvash", "hur", "pari", "parivash", "nozani", "gul", "jonon" kabi an'anaviy sifatlar qo'llanadi. Oshiqning nochor holi, doimo visoldan umidvorligi "parvona", "gado", "devona", "bulbul" obrazlari vositasida aks ettiriladi. Raqib – ishqiy lirikada oshiq va ma'shuqa bilan yonma-yon yuruvchi obraz. "Ag'yor", "o'zga rahbon", "begona" tarzida sifatlangan bu obraz shoir she'rlarida yetakchi o'rin tutadi. Raqib – oshiq g'am-u anduhining asosiy sababchisi. Ma'shuqaning e'tibori ag'yorda ekani oshiq bag'rini o'rtashi shundan.

*Ko'zumni ayla ravshan mehr yanglig' orazingdinkim,*

*Bo'lubtur tiyra, asru torta-torta intizoringman.*

Baytda lirik oshiqona kayfiyatni tasvirlashda tashbeh (mehr yanglig' oraz), tazod (tiyra – ravshan) san'atlaridan ustalik bilan foydalanilgan. Natijada fikrning ta'sirchan, tasvirning jozibali va nam'atkorona bo'lishiga erishilgan. Umuman, ishq mavzusini shoir yuksak mahorat bilan badiiy talqin etadi. Oshiq, ma'shuqa va raqib obrazlarini o'ziga xos tasvirlashga harakat qiladi, ular vositasida katta ahamiyatga ega fikrlarni ifodalashga erishadi. An'anaviy mavzu talqiniga yangicha ruh bag'ishlaydi. Feruz she'riyatida ijtimoiy mavzu ham yetakchi o'rinni egallaydi. Shoir butun Turkiston, jumladan, Xorazm Chor Rossiyasi mustamlakasi iskanjasida qolgan bir zamonda yashab ijod qildi. Binobarin, shoir ijodda ijtimoiy mavzuni chetlab o'tishi mumkin emas edi. To'g'ri, Feruz she'riyatida mustamlakaga ochiqdan ochiq qarshi yozilgan she'rlar uchramaydi. U vassal darajasiga tushirilgan bo'lsa ham, alohida xonlik hukmdori edi. Shu bois mustamlakachilar bilan qaysidir darajada murosaga borishga majbur edi. Shoir lirikasida bu mavzu,

asosan, ishqiy she'rlari tarkibida tagmatnda ifodalangan. Mana bu satrlar ushbu fikrni tasdiqlaydi:

*Yetar har dam sitamlar jonima ul charxi gardondin,  
Ko'ngulni asray olmasman tun-u kun oh-u afg'ondin.*

Aslida, charxning zolimligi mavzusining badiiy talqini mumtoz she'riyatda o'ziga xos an'ana bo'lgani ma'lum. Feruz g'azalida esa ana shu an'anaviy istiora zamirida shoirning istibdod iskanjasida qolgan mamlakat, mustamlaka zulmi ostida yashashga mahkum etilgan ona xalqi qismatiga qayg'urish ma'nolarini anglatgani ayni haqiqatdir.

Shoirning "Paydo" radifli g'azali hamd-g'azal hisoblana-  
di. Shoir Alloh taoloning zotini tafakkur bilan anglash mumkin emasligini quyidagicha ifodalaydi: Zihi bordur zuhuringga azal birla abad paydo, Tafakkur aylabon zoting, qila olmas xirad paydo. Feruz she'rlari ichida hamd-g'azallardan tashqari na't-g'azallar ham yuksak badiiyat bilan ijod qilingan. Shoirning na't g'azallari an'ana negizida poetik yangilik qilishga erishgani isbotidir.

*Bo'lsun salom behad anga subh ila maso— Kim,  
dedi vafsinu oni Furqon aro Xudo.*

Subh ila maso – kun-u tun ma'nosini ifodalaydi. Furqon – Qur'oni karimning yana bir nomlanishi. Bu nomda ushbu muqaddas ilohiy kitobning haq bilan botilni ajratishi o'z aksini topgan. Demak, payg'ambarimizning vafsi Qur'onda zikr etilganini ta'kidlagan shoir unga kun-u tun salom yo'llash zarurligini aytadi. Diniy-ma'rifiy mavzudagi turkum she'rlarida shoirning olam va odam, hayotning mazmuni, iymon mohiyati, insonning ma'naviy olami haqidagi teran qarashlari badiiy talqin etilgan. Jumladan, shoir masnaviylaridan birida mana bunday yozadi:

*Kim, asr-u zaif-u zordurman,  
Osiyu gunohkor erurman.  
Dashti havas ichra qolmisham zor,  
Hirs ilkiga bo'lmisham giriftor.  
Yodingdin o'lub mudom g'ofil,*

*Ko'nglumda tuman xayoli botil.  
Boshdin-oyog'im erur zalolat,  
Toatda ishimdurur kasolat.*

Lirik qahramon o'zini osi-yu gunohkor his etadi. Shoir buyuk Xoliq oldida tazarru qilar ekan, istioralardan mahorat bilan foydalanadi. "Dashti havas", "hirs ilki" – bu istioralar ifoda etilayotgan fikrning ta'sirchanligini yanada oshiradi. Feruz boshdin-oyog'i zalolat, toatda ishi kasolat ekanini yozar ekan, buni ayni haqiqat deb qabul qilmaslik kerak, nazarimizda. Professor N.Jabborovning turqat she'rlari tahlili misolida aytilgan quyidagi fikrlari bu kabi natijalar zahirida ifodalangan haqiqatni chuqurroq tushunishga yordam beradi: "Ma'lumki, haqiqat ahli hech qachon "Men kamolot timsoliman, gunohlardan pokman", demaydi. "Gunohkorman, osiyman, badkirdorman", deydi. O'zini malomat qiladi. Shu orqali nafsni yengadi, poklanadi. Nafs qutqusidan xalos bo'lish – kamolotning bosh sharti". Feruz – mutafakkir shoir. Uning diniy-tasavvufiy ilmlarni chuqur egallaganiga shubha yo'q. Shoir sifatida u she'riyatning nazariy asoslarini ham teran biladi. Badiiy san'atlarini qo'llashdagi mahorati, she'riy shakl va mazmundagi mukammal uyg'unlik, fikrning mantiqiy izchilligi kabi xususiyatlar shundan iboratdir.

Ijodkor lirikasida badiiy san'atlar ikki usulda qo'llangan:

1. She'ni boshdan-oxir bir san'at asosiga qurish.

2. Bir she'rda bir qancha badiiy san'atlardan mahorat bilan foydalanish. Tabiiyki, ushbu tasnif shartlidir. Chunki shoirning ayrim lirik she'rlari, asosan, bir badiiy san'at asosida yaratilgani holda ularda parallel ravishda boshqa ko'plab badiiy san'atlar ham qo'llanadi. She'ni boshdan-oxir bir san'at asosiga qurish. Feruz devonida boshdan-oxir bir badiiy san'atga asoslangan g'azallar bir nechta ekani shoirning ushbu she'riy usuldan unumli va mahorat bilan foydalanganini ko'rsatadi. Jumladan, ijodkorning:

*Oftoboso jamoling ko'rgach o'ldum, ey, nigor,*

*Beqaror-u beqaror-u beqaror-u beqaror* – matla'li g'azali takrir san'ati negiziga qurilgan. Bu san'atning "...ma'noning takriri, ya'ni ani muqarraru muhaqqaq qilmoq yangliq nukta uchun lafzni takrorlamoq" ekani e'tiborga olinsa, Feruz ham takrirdan ayni maqsadda foydalangani ayon bo'ladi. Jumladan, mazkur g'azalning keyingi baytida shoir mana bunday yozadi:

*Tig'i ishq i xanjari nozingdin o'ldum subhu shom<sup>57</sup>*

*Dilfigor-u dilfigor-u dilfigor-u dilfigor.*

Ushbu baytda "dilfigor" so'zining to'rt marta takrorlanishi lirik qahramon ruhiyatini, uning iztirobli kechinmalarini ta'sirchan ifodalashga xizmat qilgan. Aslida, ushbu baytda boshqa badiiy san'atlar, masalan, istiora (tig'i ishq, xanjari noz), tazod (subhshom) kabi san'atlar imkoniyatidan ham ustalik bilan foydalanilgan.

"Chiroyli dalillash" ma'nosini anglatuvchi husni ta'lil san'ati Sharq she'riyatida har bir shoir ijodida o'ziga xos tarzda qo'llanadi, chuqur ma'noli fikrni go'zal badiiy shaklda ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Feruz ushbu san'atdan keng foydalangan:

*Sayri bog' etsang agar, ey sarvqaddu gulbadan,*

*Sarv ayoqingg'a qo'yar bosh, chok etar gul pirohan.*

Ya'ni sarvqad, gulbadan yor bog' sayriga chiqar bo'lsa, uning go'zalligiga mahliyo bo'lgan, tan bergan sarv oyog'iga bosh uradi, gul esa, uning husn-u malohatiga hasad qilganidan yoqasini yirtadi. Birgina "Yor go'zallikda tengsiz" degan fikrni dalillash uchun shoir husni ta'lil san'ati barobarida tashxis (sarvning yor oyog'iga bosh qo'yishi, gulning yoqasini yirtishi), tanosub (bog', sarv gul) san'atlaridan ham mahorat bilan foydalanadi. Badiiyatning mukammal namunasini yaratadi. Feruz she'riyati faqat maz-

<sup>57</sup> Jabborov N. Furqatning xorijdagi hayoti va ijodiy merosi: manbalari, matniy tadqiqi, poetikasi. Filol. fan. d-ri... diss. – Toshkent, 2004. –B.73 35 Husayniy A. Badoyi'u-s-sanoyi'. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1981. – B. 172

mun jihatidangina emas, badiiy tasvir vositalarining xilma-xilligi va qo'llanish mahorati bilan ham alohida ajralib turadi:

*Gulshan ichra sarv yoxud ul qadi mavzunmudur?*

*Nargis erkanmu va yo ul chashmi purafsunmudur?*

Yorning qaddi sarvga, ko'zi nargisga qiyoslanishi mumtoz she'riyat an'anasi. Lekin ana shu an'anaviy tashbehni tajohuli orif san'ati vositasida ohorli ifodalay olgani shoirning mahoratiga dalildir. Ushbu baytda, tashbeh va tajohuli orifdan tashqari, gulshan, sarv, nargis so'zlari hosil qilgan tanosub ham baytga badiiy ziynat bag'ishlagan.

Feruz ijodida ko'pincha bir g'azalda muayyan badiiy san'at yetukchilik qilishi holati kuzatiladi. Bu hol shoir g'azallaridagi badiiy tasvirning o'ziga xosligini ko'rsatadi.

#### **Savol va topshiriqlar:**

Muhammad Rahimxon Feruz hayoti va faoliyati haqida ma'lumot beruvchi manbalarni bilasizmi?

Ulug' hukmdor va ijodkor hayoti va faoliyati borasida kimlar ilmiy izlanishlar olib borgan?

Feruz mamlakatning yuksalishi uchun qanday ishlar olib borgan?

Muhammad Rahimxon Feruz hukmronlik qilgan davr xususida ummalarni bilasiz?

Musiqashunos sifatida ijodkor qanday ishlarni amalga oshirgan?

Muhammad Rahimxon Feruz ilm-fanning rivoji uchun qanday farmonlar berdi?

Feruz ijodida qanday mavzu va g'oyalar yetakchi?

Feruz g'azallaridan yod oling.

Ijodkorning ruboiylarini o'qing va mazmunini tushuntirib bering.

## AHMAD TABIBIY HAYOTI VA FAOLIYATI, ADABIY MEROSI

### Reja:

Tabibiy hayoti va ijodi.

Shoirning ma'rifatparvarlik g'oyalari ilgari surilgan she'riyati.

Tabibiy lirikasida ishq mavzusi.

Tabibiy-mumtoz an'analar davomchisi.

Shoir devonlari.

*Ahmad Tabibiy hayoti va ijodi (1869-1911).* Tabibiydek sermahsul ijodkorning ijodiga bo'lgan e'tibor o'z davridan boshlangan. Zamondoshi Muhammad Yusuf Bayoniyning "Shajarai Xorazmshohiy" asarida, rus turkshunosi A.N.Samaylovichning tadqiqotlarida<sup>58</sup> Ahmad Tabibiy shaxsi va ijodiga oid ma'lumotlar bor. Muhammadamin o'g'li Hasan murodqori Laffasiyning "Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimai hollari" nomli tazkisasi esa shoirning tarjimai holi bilan bog'liq ko'p qiziqarli ma'lumot va lavhalarining mavjudligi bilan diqqatga sazovordir.

Shoir hayoti va ijodini ilmiy jihatdan o'rganish 1945-yildan boshlandi. Bu yilda tuzilgan O.Sharafiddinovning "O'zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi" va Rahmat Majjidiyning "O'zbek adabiyoti" kitobida shoir haqida qisqacha ma'lumot va she'rlaridan parchalar berilgan. Keyinchalik M.Yunusov<sup>59</sup>, V.Mirzayev<sup>60</sup>, G'.Karimov<sup>61</sup>, Y.Yunusov<sup>62</sup>ning kitoblarida ham Tabibiyning adabiy faoliyatiga oid ma'lumotlar berilgan. Umuman, Xorazm adabiy muhiti bilan bog'liq manbalarda shoir bilan bog'liq tafsilotlar albatta berilgan.

<sup>58</sup> А.Н.Самойлович. Мажмуатуш-шуарои пайрови Феруз. Китобда: Записки Восточного общества. 1909 том. XIX с 0199-0200

<sup>59</sup> Юнусов М. Комил Хоразмий. Т., 1960. 37-38 бетлар.

<sup>60</sup> Мирзаев В. Аваз Ўтар ўғли. Т., 1961. 14-бет

<sup>61</sup> Каримов ғ. Ўзбек адабиёти тарихи. Т., 1955 67-бет

<sup>62</sup> Ю.Юнусов. Аваз Тошкент, 1955 9-11-бетлар

1968-yil F.G'anixo'jayev Tabibiy ijodini chuqur o'rganib "Tabibiy hayoti va ijodi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Shu yili "Tanlangan asarlar", 1978-yilda "Ahmad Tabibiy" nomli shoir haqidagi ilmiy monografiyasini nashr ettirdi.

Shoirning ismi Ahmad, Tabibiy uning taxallusidir. Ahmad tabibiy 1869-yilda Xivada tug'ildi. Uning otasi Ali Muhammad asli afg'onistonlik bo'lib, Xivaning ko'zga ko'ringan tabibi sanalgan, keyinchalik attorlik bilan ham shug'ullangan. Muhammad Rahimxon soniyning qaynisi Otajon To'ra xizmatida bo'lgan.

Ali Muhammad o'g'li Ahmadni yoshlikdan maktab va madrasada o'qitib, fors tilini o'rgatdi. Ahmad o'zining g'ayrati orqasidan tez fursatda savodli bo'lib yetishdi. Otasiga shogird tushib, tabiblik ilmidan ham xabar topdi. U tib ilmiga juda qiziqqanligidan zamonasining mashhur tabibi, shoir Bayoniyning akasi Yaxshimurodbek huzurida uzoq vaqt ishlab, undan ilm o'rgandi. Xalq o'rtasida shuhrati ortib bordi. Laffasiyning ta'rificha, "Ahmad past bo'yli, oqtiq yuzli, shirin tilli, noziktabiati, xushmuomala bir kishi edi". Ko'pincha Avaz bilan birga bo'lar edi. U shaxmatga g'oyat usta, bundan tashqari, musiqa san'atini ham yaxshi egallagan edi. Muhammad Rahim II Ahmadni saroyga taklif qiladi. Xorazm adabiy muhitiga rahnamolik qilayotgan Muhammad Rahimxon soniy – Feruzni Ahmad Tabibiyga bo'lgan e'tibori kuchayadi va uni saroyga taklif qilish voqeasi ham g'ayritabiiy ro'y beradi. Ma'lumki, Feruz har juma kunini adabiyot, she'riyat kuni qilib belgilagan. Shu kunda u hamma nazm ahlini yig'ib adabiy mushoira o'tkazar va iste'dodlarni rag'batlantirar edi. Shunday davralardan birida davra ahllaridan biri «Falon joyda Ali ismli bir tabibning Ahmad degan navqiron o'g'li bor. U ham she'riyat shinavandasi, hatto durustgina baytlar bitmish» deb qoladi. Shu zahotiyiq Feruz uni saroyga chaqirtiradi. Qarasaki, endi mo'ylablari sabza urgan, jussalari kichkinagina bir bola. Unga ishonmaygina, ixlossizgina bir bayt aytib, shunga hamohang bayt tuzishni buyuradi. Shu paytning o'zida Ahmad ketma-ket 7 bayt tuzib, yaxshigina g'azal bitadi.



Uning bu iste'dodini ko'rgan shoh va shoir Feruz uni darhol saroyga taklif qiladi. Saroydagi ma'lum ma'nodagi adabiy muhit uning ijodiy barkamolida o'ziga xos ahamiyat kasb etdi. Ko'p shoirlar, fuzalolar bilan tanishdi, ulardan o'rgandi. Shu jumladan, Tabibiy Avaz O'tar bilan yaqin munosabatda bo'ladi. Ular shaxs sifatida ham, shoir sifatida ham yaqin munosabatda bo'lganlar. Avaz O'tar Tabibiyini o'ziga ustoz deb bilgan. Quyidagi bayt bundan dalolat berib turadi:

Ne g'am emdi, Avaz nazm ilmida bo'lsang Tabibiydek,  
Ki derlar, ko'rgan el nazmingni ustozingga sallamno.  
Bayoniyning ham unga ixlosi baland edi:  
Tabibiyki dur shoiri muhtaram,  
Netay oning atvorin aylab raqam.  
Maorifda o'zni tutar ko'p arif,  
Majolisda dog'i harifu tarif.

Bayoniyning yuqoridagi ta'rif va tavsifi Tabibiy o'z davrining o'qimishli, taraqqiyparvar, fozil kishilaridan bo'lganligini ko'rsatadi.

1908-yilda rus olimi A.N.Samaylovich Xivaga qilgan ilmiy sayohatida Tabibiy bilan ko'rishib, u bilan suhbatda bo'ladi va Tabibiy haqida dastlabki yozma ma'lumotni berar ekan, uni ma'rifatparvarligini e'tirof etadi.

O'z zamonasining talantli shoiri, madaniy-adabiy hayot tarafdori Tabibiy umrining oxirgi yillarida beorom hayot kechirdi. Laffasiy o'z tazkirasida "Feruzning vafotidan keyin hech bir fuzalo amaldor va sipohiylar bilan aloqa qilmagan"ligini aytadi va uning vafoti yillari haqida shunday ma'lumotlar beradi: "Ahmadjon Tabibiy Feruz – Muhammad Rahimxon vafotidan keyin ancha muddatlar o'tmasdan jigar xastaligiga muhtalo bo'lib qirq ikki yoshida, 1328-hijriy, 1910-yil oktabr oyinda falaki zolim jafokordin shikvalar qilib, ko'ngul maqsudig'a yetisha olmasdan bil dunyodin ko'z yumib, oxirat safari qilib jannat bo'stonida manzil qiladur".

Demak, shoir Tabibiy 1910-yilda 42 yoshida o'z yurtida vafot etgan.

*Shoirning ma'rifatparvarlik g'oyalari ilgari surilgan she'riyati.* Biz Tabibiyning katta adabiy merosiga egamiz. Tabibiy o'z nazmi bilan nazm ahli va xalq e'tiborini qozondi. U qisqa umri davomida beshta devon yaratdi. Bular o'zbek tilidagi «Tuhfat us-sulton», «Munis ul-ushshoq» va «Hayrat ul-oshiqin» devonlari hamda fors-tojik tilidagi «Mir'ot ul- ishq», «Mahzar ul-ishtiyiq» nomli devonlardir. Tabibiy Sharq xalqlari uchun tanish bo'lgan «Vomiq va Uzro»ning o'zbekcha she'riy variantini yaratdi. Taniqli o'zbek shoiri Muhammad Fuzuliyning «Haft jom» nomli asarini o'zbek tiliga tarjima qildi. Bundan tashqari «Yetti ravza» nomli asarini, Xorazm shoirlari haqida ma'lumot beruvchi «Majmuat ush-shuaro» tazkirasini yaratdi.

U juda qashshoqlikda umr kechirdi. Shu boisdan muhtojlik to'g'risidagi fikrlar uning asarlarida ko'p uchraydi. Masalan, shoir bir po'stinga muhtojlikdan she'r yozishga majbur bo'lgan edi:

Adamdin to kelib qildim, bu qishloqxonani maskan,  
Kiyarga topmadim umrim o'tib, men benavo po'stin.  
Sovuqdin gah qochib kirsam ichiga qaltirab qaqshab  
Tanimga parvarish qilgay edi misli ano po'stin.

Tabibiy umrining oxirgi yillarini oddiy xalq qatorida qiyinchilik bilan o'tkazdi. Qator Sharq shoirlari singari Tabibiy ham falakdan norozi bo'ladi. Uni juda ko'p masalalarda ayblaydi, xususan, Tabibiyning falakka bergan ta'rifini o'qiyimiz :

*"Falak zoliki andoq bordurur bir turfa ayyora*

*Ki, har kim juft anga bo'lsa, qilur albatta avvora",* –deydi. Falak ko'hna bo'lganligi uchun uni zol deyishadi. Ammo Tabibiy zol (kampir) deyish bilan uning nafaqat ko'hna va qariligi, balki uning xalq qissa va ertaklarida uchraydigan makkor va jodugar kampirlar singari ekanligini ham ta'kidlamochi bo'ladilar.

G'azalda makkor falakning qator salbiy xususiyatlari ochilib boradi. U rahmsiz, beshafqat, jallod, chunki yaxshi-yomon demasdan, ayamadan hammaning bo'yniga qilich soladi. Shohni ham, gadoni ham ayab o'tirmaydi:

*Demak, yaxshi-yomon tokim gado-u shoh, chegarda eng*

Bu yanglig' ko'rmadi hech kimsa jallodi sitam qora.

Shoir o'zi yomon ko'rgan salbiy xarakterda ta'riflashi lozim bo'lgan falakni qoralash uchun eng ohorli belgi va sifatlarni topadi. Xalqimizda azaldan yomon odamning yuzi qora deyish, yomonlarning yuziga qora surtish, Andijonda esa bir so'z bilan oddiy qilib, yomon yoki muttaham atalishi mumkin bo'lgan odamni «yuzi qora» deyish odati bor. Qolaversa, Alisher Navoiy ham nimani yomon deb bilsa, o'sha narsani qora rangda tasvirlaydi. Bunga misollar ko'p. Hammamiz ham yomonlashni «qoralash» deb ataymiz. Aynan mana shu ma'noda Tabibiy falakni qora rangda tasvirlaydi:

*Nechuk umid etarsan mehribonlik rasmin andog'kim,  
Nazar shakliga qilsang xolidur oq-u yuzi qora.*

Yuzda xol ham bo'lishi oddiy hol. Falakning ham xoli bor. Xol yuzning rangidan yaqqol ajralib turishi kerak, degan tushunchaga borgan shoir falakning qora yuzida oq xoli yoki xollari borligini bildirish bilan, birinchidan, yuzining qoraligini tag'in bir karra tasdiqlamoqchi bo'ldi. Ikkinchidan, shoir falak deganda, to'g'ri ma'noda osmonni ifoda etmoqchiki, tundan osmon gumbazi, qoramtir rangda, yulduzlar esa oq rangda namoyon bo'ladilar.

Shoir dilozorlikni, achchiqsuxanlikni yomon ko'radi va o'quvchilarga ham shirin so'zli bo'lish lozimligini, "zaharli" til bilan so'zlovchilarni do'st-yorlari ham, Xudo ham yoqtirmasligini quyidagi shaklda bayon etadi:

*Haqoyish ko'ngliga achchiq so'zing nishin yetkurmakim,  
Qabuli marham etmas hech bir vajah ila bu yora.*

Shoirning boshqa bir qator g'azallari ham tarbiyaviy xarakterdadir. Avvalgi g'azalning asosiy g'oyasi boshqa bir g'azalda mantiqan davom ettiriladi.

Dilozorlik Tabibiyning nazdida eng yomon illatlardan biridir. Shoir dilozorni odam degisi kelmaydi. Chunki ular eng muqaddas dargoh – odamning, mo'minning qalbiga ozor beradi:

*Agar odam ersang og'ritma odam ko'nglini zinhor,  
Ki ahli ma'rifat nazdida Ka'ba qalbi mo'mindur.*

**Tabibiy lirikasida ishq mavzusi.** Tabibiy lirikasida yor jamoli ushbu iztirobi, hijron azobi, goho umid va visol onlari kabi tuyg'ular umumlashmasi an'anaviy holda ifodalanadi. U mumtoz shoirlarimiz Jomiy, Navoiy, Bedil, Fuzuliy kabilarning ijodidan ilhomlanadi, ularga ergashib g'azallar yozadi. Chunonchi, Navoiyning

*Ey nasimi subh ahvolim diloromimg'a ayt,*

*Zulfi sunbul, yuzi gul, sarvi gulandomimg'a ayt*

bayti bilan boshlanuvchi g'azalining vazni, qofiyasi, radifi va umumiy ruhiyatiga monand hamohang misralar bitadi:

*Ey sabo, jonu dilim dardini jononimg'a ayt,*

*Tiyra shom o'lg'anlig'imni mohitabonimg'a ayt.*

Mumtozlar o'gitidan sug'orilgan Tabibiy lirikasi yurakni to'liqlantiruvchi ishqni, uning harorati va hayajonini dildan his qiladi:

*Men kabi yo'qdir jahonda bir asir-u notavon,*

*Kim sarig' yuz uzra qon yoshim erur doim ravon,*

*Ko'rsa halim yig'lag'usi begumon pir-u juvon,*

*Xotirimda ul sanam ishqni g'ami ozoridur.*

Tabibiy devonlarida ishqiy g'azallar qatorida ijtimoiy g'azallar ham talaygina. Uning ishqiy she'rlarida ham ijtimoiy ohang va davr sadolari yangraydi. U o'z davridagi hayotdan ko'ngli to'lmaydi, "charxning jafolari"dan kuyunadi va o'z zamonasining ijtimoiy manzarasini shunday chizadi:

*Olamga boqsang, hosili boshdin-oyoq kulfat erur*

*Bir rohatining keynida behaddu son mehnat erur.*

Tabibiy ma'rifatparvarlik g'oyasini ham ilgari suradi. Xalqni farovonlikka yetaklovchi, zulmatdan qutqaruvchi ma'rifat deb bilgan shoir ilm "g'aflat-u jahl uyqusiga g'arq bo'lg'on shaxsni" "fayz" bilan hayotini bezaydi deya ilmni targ'ib qiladi.

Tabibiy umrining so'nggi yillarida "Vomiy va Azro" dostonini yaratdi. Doston 386 bet, 81 bobni tashkil qiladi. Dostonning bosh mavzusi – sevgi.

Sabo mamlakatining adolatli shohi Nosir farzand ko‘rib, ismini Vomiq qo‘yadi. Vomiq Maobid ismli murabbiyning qo‘lida ta‘lim oladi va ulg‘aygach o‘zi uchun qurilgan Shahrisabzda tahsilni davom ettiradi. Jobilso shahri podshohining qizi Azro sayr paytida kanizaklari bilan Shahrisabzga kelganida mutolaa qilib o‘tirgan Vomiqni ko‘rib sevib qoladi va o‘z suratini chizdirib, uni Shahrisabzga yuboradi. Rasm otasining qo‘liga tushadi. U o‘g‘lidan buni sir tutadi. Otasining vafotidan keyin Vomiq rasmni ko‘rib qoladi va u ham Azroga oshiq bo‘lib qoladi. Xullas, anchayin sinovlar, to‘siqlardan keyin ular bir-biriga yetishishadi. Vomiq Jabilsoga shoh bo‘ladi, o‘g‘il ko‘radi, uning otini Nosiri soniy deb qo‘yadi.

Dostonning o‘ziga xosligi shundaki, asarda birgina Vomiq va Azrongina emas, Osaf va Shakarduxt, Naim va Havrolarning ham ishq yo‘lidagi hajr iztiroblari-yu visol nashidalari tasvirlangan.

Mazkur ishq dostoni o‘zbek adabiyotining nodir asarlaridan biri hisoblanadi.

**Tabibiy – mumtoz an‘analar davomchisi.** Ahmad Tabibiy XIX asr oxiri, XX asr boshi o‘zbek adabiy harakatining peshqadam vakillaridan biri. Tabibiy shoir, tarjimon, xattot, dostonnavis, tazkiranavis, tabib sifatida tanilgan bo‘lsa-da, uning shoir sifatidagi iqtidori yuksak bo‘lgan. Zero, u mumtoz adabiy an‘analarni munosib davom ettirgan, an‘anaga muvofiq forsigo‘y va turkigo‘y salaflariga o‘xshatmalar yozgan. U go‘zal va betakror lirik badiiyat namunalari bitish barobarida zamondosh shoirlar she‘rlariga o‘xshatmalar yozish orqali o‘zining she‘riy iqtidorini namoyon etdi. Bu fikrni uning turkiy tildagi “Tuhfat us-sulton”, “Munis ul-ushshoq”, “Hayrat ul-ushshoq”<sup>1</sup> devonlari, fors-tojik tilida tuzilgan “Mir‘ot ul-ishq” va “Mahzar ul-ishtiyiq” devonlari ham tasdiqlaydi. Bundan tashqari, shoirning Xorazm shoirlari tazkirasini tuzgani (she‘riy usulda), “Vomiq va Azro” dostonining o‘zbekcha variantini (she‘riy usulda) yozganligi, ozarbayjonlik shoir Muhammad Fuzuliyning “Haft jom” asarini forsiydan o‘zbekchaga tarji-

ma qilib, shu tarjima ta'sirida o'zining "Yetti ravza" nomli asarini (usarning asosiy qismi she'riy usulda) yozganligi ham Tabibiyning shoirlik salohiyati naqadar baland bo'lganini ko'rsatadi.

Adabiyotshunosligimiz tarixida Fathulla G'anixo'jayev Ahmad Tabibiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan tadqiqot yaratgan<sup>63</sup>. Ushbu tadqiqotida olim Tabibiyning hayot yo'li, asarlari, ularning manbalari, shoir ijodining janrlar ko'lami, mavzu mundariyasi, adabiy ta'sir kabi masalalar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Ayniqsa, olimning Tabibiy asarlari mavjud 20 ga yaqin qo'lyozma va toshbosma manbalar borligini aniqlagani, shoir lirik asarlaridan ayrimlarini tabdil qilib, nashr ettirgani (15 ta g'azal, 11 banddan iborat bir murabba, 7 banddan iborat bir muxammas, 2 ta Navoiy g'azaliga, bitta Lutfiy g'azaliga, bitta Fuzuliy g'azaliga, bitta Munus g'azaliga, bitta Ogahiy g'azaliga, bitta Komil g'azaliga, bitta Avaz g'azaliga bog'langan muxammaslar, 5 banddan iborat bir musaddas, 7 banddan iborat bir musamman, 4 banddan iborat bir muashshar, 18 ta ruboiy, 2 ta to'rt misrali qit'a) e'tiborlidir<sup>64</sup>. Biroq bu boradagi ishlar hali yakuniga yetgani yo'q.

So'nggi olib borilayotgan ilmiy izlanishlar bu yo'nalishdagi ilmiy ishlarni davom ettirishni taqozo etadi. Mazkur ehtiyoj quyidagilar bilan izohlanadi: Birinchidan, beshta devon tartib bergan shoir asarlaridan nashrga tayyorlangan namunalarning soni ellikta (lirik asar)ga yetmaydi. Nashr etilgan 30 ga yaqin she'r namuna tarzida berilgan;

ikkinchidan, Ahmad Tabibiy hayoti va ijodiga doir manbalar to'liq to'plangani yo'q. Shoirning biografiyasiga doir ayrim ma'lumotlar umumlashtirilib, ularga aniqlik kiritilishi kerak;

uchinchidan, Tabibiy ijodi namunalari uchraydigan manbalar (to'plam va bayozlar) to'liq o'rganilib, jamlanmagan;

to'rtinchidan, shoirning turkiy devonlaridan biri – "Tuhfat us-sulton"ning taqdiri noma'lum.

<sup>63</sup> G'anixo'jayev 1978, 80

<sup>64</sup> G'anixo'jayev 1978, 232

Bu borada adabiyotshunos olim F.G'anixo'jayevning quyidagi ma'lumotlari e'tiborli: "Tabibiyning birinchi devoni "Tuhfat us-sulton" Dushanbedagi A.S.Semyonov uy-muzeyida, qolgan to'rt devonining bir necha qo'lyozma va toshbosma nusxalari O'zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. "Tuhfat us-sulton"ning so'z borayotgan yagona nusxasi 1328(1910)-yilda kotib Muhammad Yoqub Devon ibn Usta Qurboniyoz Xorazmiy tomonidan ko'chirilgan. Asar 464 sahifadan iborat. Shoirning "Munis ul-ushshoq" (Oshiqlar do'sti) nomli ikkinchi devoni o'zbek tilida yozilgan bo'lib, 1327(1909)-yilda kotib Bobojon Tarro ibn Abdulaziz Maxsum tomonidan ko'chirilgan. Asar 382 sahifadan iborat. Shu qo'lyozmaning to'la holdagi nusxasi 1328 (1910)-yilda Xivada toshbosmada bosilgan. Tabibiyning uchinchi devoni "Mir'ot ul-ishq" (Ishq oynasi) esa fors-tojik tilida tuzilgan.

U 1327(1909)-yilda kotib Mulla Ibrohim ibn Domla Qalandarhoji tomonidan ko'chirilgan. Asar 204 sahifadan iborat. Qo'lyozmaning bu nusxasi ham Xivada toshbosmada bosilgan. Shoirning "Hayrat ul-oshiqin" (Oshiqlarning hayratlanishi) nomli devoni o'zbek tilida yozilgan. Uni 1326 (1908)-yilda kotib Bobojon Tarro ibn Abdulaziz Maxsum ko'chirgan. Qo'lyozma 490 sahifadan iborat. Tabibiyning "Mazhar ul-ishtiyiq" ("Ishtiyiq makoni") nomli so'nggi devoni fors-tojik tilida yozilgan bo'lib, u 1327(1909)-yilda kotib Mulla Ibrohim ibn Domla Qalandarhoji tomonidan ko'chirilgan. Asar 550 sahifadan iborat. Qo'lyozmaning bu nusxasi ham Xivada toshbosmada bosilgan. Tabibiyning butun adabiy merosi, jumladan, uning devonlari shoir umrining so'nggi yillari, ya'ni 1906-1910-yillar mobaynida ko'chirilib chop etilgan. Bunga qadar Tabibiyning lirik asarlari o'sha davrda tuzilgan turli bayozlarga kiritilgan. Bulardan tashqari, faqat Tabibiy g'azallarini o'z ichiga olgan alohida to'plamlar ham mavjud edi. Masalan, 1906-yilda kotib Muhammad Yoqub Devon tomonidan tuzilgan qo'lyozma to'plamda Tabibiyning 173 ta o'zbekcha va tojikcha g'azali bor.

Shuningdek, 1907-yilda Muhammad Sharif Devon Tabibiyning o'zbekcha g'azallaridan yana uchta to'plam tuzgan. Ularga shoirning 480 she'ri kiritilgan<sup>65</sup>.

So'nggi olib borgan kuzatuvlarimiz natijasida shu narsa aniq bo'ldiki, shoirning "Tuhfat us-sulton" devoni O'zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida uchramadi. Biroq "Tuhfat us-sulton" devoni haqidagi F.G'anixo'jayevning "Tuhfat us-sulton"ning so'z borayotgan yagona nusxasi 1328 (1910)-yilda kotib Muhammad Yoqub Devon ibn Usta Qurbonniyoz Xorazmiy tomonidan ko'chirilgan. Asar 464 sahifadan iborat" tarzidagi mulohazasi biroz taajjubli. (Chunki bu devon haqida keltirgan ma'lumotning manbasini F. G'anixo'jayev ko'rsatib o'tmagan. Umuman olganda, shoir asarlari manbalari nafaqat yurtimizda, balki boshqa respublikalar fondlarida ham saqlanayotgani, avvalo, bu manbalarni jamlab, so'ng ular yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borish vazifasini kun tartibiga qo'yimoqda.

O'zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida №8949 inventar raqam ostida saqlanayotgan toshbosma manbada Ahmad Tabibiyning ikkita turkiy devoni jamlangan. Bular "Munis ul-ushshoq" va "Hayrat ul-oshiqin" devonlaridir. Ushbu manbada toshbosmaning qachon va qayerda bosilgani haqida hech qanday ma'lumot berilmagan. Ushbu toshbosma manba shoir qalamiga mansub maxsus debocha "Debochayi Tabibiy" bilan boshlanadi. Ya'ni "Debochayi Tabibiy" deb sarlavha qo'yilib, so'ng "Bismillohir-Rahmonir-Rahim" yozilib, kattagina debocha keltiriladi. Debocha matni 11 sahifani tashkil etadi. Debocha matni o'rtacha bir sahifada 23 satrni tashkil etadi. Ushbu debocha nasriy usulda yozilgan bo'lib: "*Hamdi bag'oyat va sanoyi benihoyat ul mutakallimi kalomi ofarin va qoyili kitobi Furqoni mubiyn dargohig'a loyiq va sazovor va borganig'a tuhfa va nisordurkim mumkinot nazmin adami tab'idin*

<sup>65</sup> G'anixo'jayev 1978, 14



qudrat aruzi kamoli bila vujud devonig'a keltirdi, inson vujudi majmuasi g'azaliyotig'a borchas masnuotdin ziyodaroq badoe va sanoe izhor etib tilin anvoi suhanni sanjida qilmoqg'a loyiq erkanin bildurdi nazm qodirikim hama jahon yaratib, onda har nav'ins jon yaratib, borchadin ashraf aylab insonni, bildurub oncha roz pinhonni, ko'nglin etti ulumg'a loyiq tilini qildi nuqtaga notiq, toki hamdig'a bo'lsun ul zokir, borchas ahvolig'a bo'lub shokir, budurur qudrat Xudoyi Karimki erur vasf ongo sami'un aliyim harnekim borduroshkor-u nihon borchasikeldionisun'i O'g'on shohidi sun'i keldi masnuot mazhar ilmi jumla ma'lumot jalla jalaluhu va amma navaluhu bisyor salavot amta'si beshumor tahiyyat madoyasi ul nubuvvat sariri amirining janobinig'a iysor va ul risolat haylining dilpazirishoni arsh maobig'a hadyai takror alat takrordurkim "Ana afsahu..." gulistonining bulbuli fasihul bayonidur va "Ana malihu.." shakkaristonining tutiyi shirin maqoli va malihlisonidur bo'vujud muncha fasohat va balog'at va muncha mu'allo daraja va rajha va martabatbila ham "Al faqru faxri" hadisig'a notiq "Maarafnaka haqqo ma'rifatika" mazmunig'a shoyiq erdi "Ya ayyuhar rasulu ballig' ma unzila ilayka..." karimasi mazmunining xitobi mustatobi mojibincha kutubi osmoni va suhufi Rabboniyning mazomini aynaqa va ma'niyi daqiqasinkim xotiri xurshid mazohiri ancha muttaleb va muttaleb erdi..." deb boshlanadi<sup>66</sup>. Debocha nasriy va nazmiy usulda bitilgan. Debochadagi ilk nazmiy asar quyidagi she'r bilan boshlanadi:

**Nazm:**

Rasulikum edi guftori afsah,  
 Oning har lazzati ming jondin amlah.  
 Hama hayli rasulning podishohi,  
 Bo'lub makshuf asrori ilohiy.  
 Boshida garchi erdi toji "Lav lak..."  
 Tilida erdi lekin "Ma'arafnok".  
 Kelib husni mah avji hidoyat,

<sup>66</sup> Tabiiy 1968, 1-2

*Dog'i shahanshoi mulki risolat.*  
*Guvohi nuri husni "Va-z-zuho" dur,*  
*Sochi "Va-l-layl" ta'rifi bajodur.*  
*"Fauhiya" sharbatidin la'lishirin,*  
*Ko'zi "Mazog'a-l-basar"ga keldi tazyin.*

**Shoir devonlari.** Ahmad Tabibiy o'zbek adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo'shgan sermahsul ijodkorlardan. Zero, u o'zida boy adabiy meros qoldirdi. Tabibiy besh she'riy devon yaratib, mumtoz adabiy an'anani davom ettirdi. Jumladan, uning "Tuhfat us-sulton", "Munis ul-ushshoq", "Hayrat ul-oshiqin" devonlari turkiy tildagi lirik asarlardan tarkib topgan bo'lsa, "Mir'ot ul-ishq" va "Mahzar ul-ishtiyoq" devonlarida shoirning fors-tojik tilidagi she'riy asarlari jamlangan. Bundan tashqari, shoir "Vomiq va Azro" dostonining o'zbekcha she'riy variantini yozdi. Ozarbayjon shoiri Muhammad Fuzuliyning "Haft jom" asarini forsiydan o'zbekchaga tarjima qildi. Shu tarjimasi ta'sirida o'zining "Yetti ravza" nomli asarini yozib, Xorazm shoirlari tazkirasini tuzdi.<sup>67</sup> Adabiyotimiz tarixida atoqli adabiyotshunos F.G'anixov jayev Ahmad Tabibiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan tadqiqotida shoirning hayot yo'li, asarlari, ularning manbalari, shoir ijodining janrlar ko'lami, mavzu mundariyasi, adabiy ta'sir kabi masalalar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Ayniqsa, olimning Tabibiy asarlari mavjud 20 dan ortiq qo'lyozma va toshbosma manbalarni aniqlagani, ularni sinchiklab o'rgangani e'tiborlidir. Biroq keyingi olib borilgan tadqiqotlar bu boradagi ishlar davom ettirilishi kerakligini taqozo etmoqda.

Jumladan, Tabibiy ijodiga doir yuqoridagi tadqiqot sobiq tuzum davrida amalga oshirilgani, shoir shaxsiyati va asarlari tahlilidagi talqinlar metodologik jihatdan qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Bundan tashqari, adabiyotshunos S.Matkarimovanning aniqlashi-cha, shoirning "xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi do'stlikni targ'ib qiluvchi, mehr-muhabbat, o'zaro ishonch va sadoqatni" madh

<sup>67</sup> Tabibiy 1978, 3

etuvchi “Nozir va Manzur” dostoni ham mavjud.<sup>68</sup> Shuningdek, Tabibiyning mamlakatimiz hamda boshqa xorijiy fondlarda saqlanayotgan asarlari manbalarini aniqlash, shoir devonlari va boshqa turkumdagi asarlarining qiyosiy-matniy tadqiqini amalga oshirish kabilarni e’tiborga olsak, bu borada qilinishi kerak bo’lgan vazifalar talaygina ekani ayon bo’ladi.

### **Savol va topshiriqlar:**

Tabibiy yashagan muhit haqidagi tasavvurlaringizni to’ldiruvchi manbalar qaysilar?

Avaz va Tabibiyning yashash sharoitlari va dunyoqarashlari jihatidan taqqoslang.

Shoirning ma’rifatparvarlik g’oyalari ilgari surilgan g’azallari-dan yod oling va tahlil qiling.

Ahmad Tabibiy shaxsiyati, ijodiy merosi haqida ma’lumot bergan rus turkshunosi kim edi?

Ahmad Tabibiy hayoti va ijodi haqida kimlar ma’lumot berishgan?

M. Yunusovning qaysi asarida Ahmad Tabibiy haqida aytib o’tilgan?

Ahmad Tabibiyning otasi kim bo’lgan?

Nega Ahmad “Tabibiy ” taxallusini tanlagan?

Ahmad Tabibiy she’rlarini sanab o’ting.

Kimlar “Majmuat ush- shuaro ” asarlarini yozishgan?

Tabibiy devonlarini ayting.

Shoir hayotni tubdan yaxshilovchi, jamiyatni, mamlakatni qoloqlikdan, zulmatdan qutqaruvchi, xalqni farovon hayotga yetaklovchi yo’l deb nimani aytgan?

10. Shoir tarjimalarini aytib bering.

---

<sup>68</sup> Matkarimova, Salomat. 2007. *Tabibiy - tazkiranavis*. Filol.fan.nomz. dis... Toshkent.

## AVAZ O'TAR VA XORAZM ADABIY MUHITI. SHOIRNING MA'RIFATPARVARLIK LIRIKASI

### Reja:

Avaz O'tar hayoti va faoliyati.

Shoir she'riyatida ma'rifatparvarlik va ijtimoiy turmush manzaralarining tasviri.

Avaz O'tar ijodida milliy uyg'onish g'oylari talqini.

*Avaz O'tar hayoti va faoliyati.* Ikki asr chegarasida, XIX arning so'nggi choragi XX asrning birinchi choragida yashab ijod etgan Xorazm adabiy-falsafiy muhitining taniqli namoyandalaridan biri ma'rifatparvar shoir Avaz O'tar o'g'lidir. U 1884-yil yozining adog'ida poytaxt Xiva shahrida tavallud topadi. Shoirning otasi Polvonniyoz O'tar Gadoyniyoz o'g'li xalq orasida "usta" nomi bilan mashhur bo'lib, sartaroshlik faoliyati bilan shug'ullangan. Garchi oddiy bir kasb bo'lib ko'rinsa-da, sartaroshlik O'rta Osiyo mintaqasida anchayin hurmat-e'tiborga loyiq, qadrlanadigan soha hisoblanardi. Avvalo, sartarosh ahli ko'pchilik bilan muloqotda bo'lib, zamonaning eng so'nggi yangiliklaridan boxabar, turfa hangomalarni yaxshi biluvchi aksar odamijon insonlar bo'lishgan. Qolaversa, eng muhim ishlardan biri, fuqaro farzandlarining "qo'lini halolash", ya'ni xatna marosimlarini amalga oshirishni xalq ana shunday tan olingan sartaroshlarga ishonib topshirganki, bu jihatdan ham ular hurmat-e'tiborga loyiq zotlar hisoblanishgan.

Mutaxassislar Polvonniyoz O'tar Gadoyniyoz o'g'li shunchaki oddiy sartarosh emas, balki saroy sartaroshi bo'lganligini, zamonasining mashhur shoir va san'atkorlaridan Ogahiy, Komil, Bayoniy kabilar bilan qalin do'st bo'lganligini yozishadi. Shunday ziyolilar davrasida yurgan inson o'z farzandining munosib ta'lim-tarbiya olishiga alohida ahamiyat berishi tabiiy edi. Shu tariqa Avaz boshlang'ich maktabga borib, tez orada xat-savod chiqaradi. Eski

maktabni tugatgach, tahsilni Xivadagi Madamin Inoq madrasasida davom ettirganligi aytiladi. Avazning adabiyotga havasi juda erta uygʻonib, otasining shoir doʻstlari taʼsrida dastlabki sheʼrlarini mashq qila boshlaganligi maʼlum. Madrasada oʻqib yurgan davrida Sharq adabiyoti mumtoz vakillaridan Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, Alisher Navoiylarning ijodi bilan yaqindan tanishdi ularga ergashib oʻz ijodiyotini takomiliga yetkaza boradi. Shoir hayotini maxsus oʻrgangan tadqiqotchilar uning 18 yoshlarida shoir sifatida xalq oʻrtasida tanilganligini qayd etishadi. Shu tariqa yosh shoir qalamiga mansub sheʼrlar sozanda va xonandalar tomonidan kuyga solinib aytila boshlanadi. Adabiyotlarda shoirning ustozlari Bayoniy, Tabibiy, zamondoshi Jumaniyoz Xivaqiy, doʻsti Hasanmurod Qori – Laffasiy va boshqalar uning isteʼdodiga yuksak baho berganliklari qayd etiladi.

Muhammad Rahimxoni soniy (Feruz) ham shoh, ham shoir boʻlganligi bois ijod ahliga ixlosi balandligi bilan ajralib turganligi va isteʼdod egalarini saroyda jamlab, ularga har tomonlama sharoit yaratib berishga katta eʼtibor qaratganligi tarixdan maʼlum. Ana shunday marhamatdan Avaz ham benasib qolmaydi. Yosh shoirning yuksak isteʼdodidan xabar topgan hukmdor uni saroyga taklif qilib Tabibiyni unga ustoz etib tayinlaganligi manba va adabiyotlarda oʻz tasdigʻini topgan. Mutaxassislar taʼbiri bilan aytganda, Tabibiy juda koʻp ilm ahliga gʻamxoʻrlik qilganidek Avazga ham axloq, ilm va sheʼriyat bobida koʻp narsa oʻrgatadi. Shuning uchun shoir turli davrlarda yozilgan sheʼrlarida Tabibiyni oʻziga ustoz bilib zoʻr hurmat bilan tilga oladi. Quyidagi misralarda u nazm ilmida ustoz Tabibiyydek boʻlish orzusi ekanligini, sheʼrlaridan bahramand boʻlgan el ustozingga tasanno deyishlari eng katta sharaf ekanligini uqtiradi.

*Ne gʻam emdi, Avaz, nazm ilmida boʻlsang Tabibiyydek,  
Ki derlar, koʻrgan el nazmingni ustodinga sallomno.*

Ilmiy adabiyotlarda qayd qilinganidek, Avaz kamolotga yetgan bir paytda sil kasaliga chalinadi va davolanish uchun Kavkazga

(1905-1906) boradi. Avaz O'tar Kavkazga borayotib Bokuda bir oz muddat to'xtaydi. Bokuda shoir ozarbayjon demokratlari bilan uchrashib do'stlashadi va ular bilan keyin ham ijodiy aloqada bo'ladi. Kavkaz safari Avaz ijodida alohida ahamiyatga ega bo'ldi. U safar davomida Rusiya va Kavkaz xalqlari hayoti, madaniyati, adabiyoti va boshqalar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi, ozarbayjon xalqining ilm-fan, madaniyat yangiliklari bilan qiziqdi. U rus, ozarbayjon, tatar tillarida chiqadigan gazetalarni muntazam ravishda kuzatib bordi. Toshkent va Samarqandda chop etilgan matbuot bilan bevosita aloqada bo'lib, yozgan g'azallaridan ba'zilarini ularda nashr ham ettirdi.

XX asr boshlarida ko'zga tashlanayotgan milliy uyg'onish, istiqlol g'oyalari Avaz O'tar ijodiga kuchli ta'sir ko'rsatganligi shubhasiz. Garchi jadidchilik g'oyalari ruhida oshkora faoliyat olib bormagan bo'lsa-da, uning ma'rifatga yo'g'rilgan she'rlarida ilgari surilgan fikrlar jadidchilik g'oyalari bilan hamohanglik kasb etishini kuzatish mumkin. Shoir ijodida shu davrda bo'y ko'rsatgan erkparvarlik, ozodlik, ma'rifatparvarlik g'oyalari, turmush illatlariga qarshi qaratilgan hajvlar shunga dalolat qiladi. Bu davrda shoir ilm-ma'rifatga da'vat etuvchi she'rlari bilan bir qatorda yuksak insoniy fazilatlarini, chinakam insoniy muhabbatni tarannum etuvchi lirik she'rlar, qit'alar, ruboiylar ham yozganligi mutaxassislar tomonidan e'tirof etiladi.

Avaz O'tar qisqa umr ko'rishiga qaramasdan, barakali ijod etdi va avlodlarga o'zidan salmoqli nazmiy meros qoldirdi. Sil kasali asorati bilan shoir, afsuski, 1919-yili 36 yoshida vafot etadi. Tadqiqotchilar shoir ijodi juda ham rang-barang bo'lib, qamrovi nihoyatda keng ekanligini, u mumtoz adabiyotimizdagi g'azal, muxammas, mustazod, musamman, murabba, mulamma, tarjeband, soqiynoma, ruboiy, qit'a, fard kabi janrlarda ijod qilganligini e'tirof etishadi.

Ma'rifatparvarlik g'oyalarini keng targ'ib etish Avaz O'tar ijodiga xos xarakterli xususiyatlardan biri hisoblanadi. Bu davrga

kelib bir paytlar butun dunyoni ilm-ma'rifat va ko'plab kashfiyotlar bilan lol qoldirgan islom sharqi mamlakatlari, ayniqsa, O'rta Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar qoloqlikka yuz tutgan edi. Bu qoloqlik ko'plab sabab va omillar bilan izohlanadi. Lekin asosiyalaridan biri Yevropadagi Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida Buyuk ipak yo'li o'z ahamiyatini yo'qotib, mintaqa hududlari xalqaro savdo va madaniy yutuqlar almashinuvidan chetda qolib ketganligi bilan bog'liq edi. Boz ustiga kechagina dunyoviy va aniq fanlar o'qitilishiga katta o'rin ajratgan madrasalar, endilikda adabiyot va sxolastikadan nariga o'tolmay qolgan edi. To'g'ri, islom sharqi madrasalari uchun diniy fanlar o'qitilishi shart ekanligi isbot talab qilmaydigan hodisa. Lekin dunyoviy va aniq fanlarga urg'u bermasdan zamon bilan bo'ylashish imkondan tashqari ekanligi hukmron sulola vakillari va ulamolarni bu paytga kelib ko'pam qiziqitirmay qo'ygan edi desak, bu ham adolatdan bo'ladi. Oqibatda qoloqlik shu darajada sharmandali tus oladiki, Buxoroning mang'it amirlaridan biri Rusiya qo'shinlari qarorgohiga elchi yuborib, safarda olib yurib, shahvoniy ehtiyojni qondirsa bo'ladigan sun'iy ayol ularda borligini eshitganligi va umrining asosiy qismi harbiy yurishlarda o'tuvchi amir uchun shunday sun'iy ayoldan bittasini tuhfa etishlarini so'ratishgacha borib yetadi.

Bularning bari ilm-ma'rifatdan uzoqlashish, jaholatning avj olishi bilan bevosita bog'liq edi. Jahondagi o'zgarish va taraqqiyotdan qisman bo'lsa-da xabardor bo'lgan ijodkor ziyolining bu masalaga shunchaki tomoshabin bo'lib, qo'l qovushtirib turishi mumkin emasdi. Ilm-ma'rifatga oshnolikka, xorijiy tillarni o'rganishga da'vat uning "Til", "Maktab" singari turkum she'rlarida yaqqol ko'rinadi.

*Har tilni biluv emdi bani odama jondur,*

*Til vositai robitai olamiyondur.*

*G'ayri tilini sa'y qiling bilgali, yoshlar,*

*Kim ilm-u hunarlar rivoji andin ayondur.*

*Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,*

*Bilmakka ani g'ayrat eting, foydali kondur.  
Ilm-u fan uyiga yuboringlar bolangizni,  
Onda o'quganlar bori yaktoyi jahondur.  
Zor o'lmasun onlar dog'i til bilmay Avazdek,  
Til bilmaganidin ani bag'ri to'la qondur.*

Ilm-fanga oid zamonaviy ma'lumotlar rus va yevropa tillarida bitilgan bo'lib, ularni o'rganish uchun o'sha kezlarda ham shu tillarni bilish talab etilardi. Mahmudxo'ja Behbudiy singari aksariyat dunyodan xabardor mutafakkirlar, ayniqsa, yangi davrda aholi farzandlarini til o'rganishga da'vat etib kelganligi shundan. Bu hali-hanuz davom etib kelayotgan va o'z dolzarbligini sira yo'qotmaydigan mangu mavzu ekanligi eng yangi davrda ham o'zini namoyon etayotganligiga guvoh bo'lib turibmiz. Avaz O'tarning bu boradagi kuyunchakligini tushunish mumkin. Uning talqinida xorijiy tillarni egallash jahon bilan tillashuv, muloqot vositasidir. Xorijiy tillarni ona tilidek erkin bilishga undar ekan, shoir ota-onalarni farzandlarini ilm-fan uyiga yuborishga da'vat etib, unda o'qiganlar jahonda ilg'or shaxslar bo'lib yetishishini bashorat qiladi hamda o'zining til bilmasligidan o'kinib, shundan bag'ri mudom qon ekanligini, yosh avlod ham shunday kuyga tushib qolmasligi lozimligini ta'sirchan misralar orqali nazmda ifoda etadi.

Shoir qoloqlikdan, jaholatdan qutilishning birdan bir chorasi zamonaviy ta'lim, maktab-maorif ekanligiga qattiq ishonadi. Bunga nafaqat ishonadi, balki ilg'or matbuot orqali bilganidan tashqari, zaruriy sayohati davomida bunday maktablar qanday natija berishi mumkinligini o'z ko'zi bilan ko'rib, guvohi ham bo'lgan. Shoirming "Maktab" deb ataluvchi she'ri ushbu fikrni to'la tasdiqlaydi.

*Ko'ngullarning sururi, dag'i ko'zlar nuridur farzand,  
Alarning umrini albatta obod etgusi maktab.  
Ota birla onaga farz o'qutmoq bizni majburiy,  
Ki bizni yaxshilik qilmoqda mu'tod etgusi maktab.*



*Qayu millatga bizdek gar nasimi inqiroz yetsa,  
Anga albatta mustahkamlik ijod etgusi maktab.  
Bu ne navmidlikdur, maktab ochsaq, oqibat bizni  
Arusi kom ila maqsudga domod etgusi maktab.*

*Avaz, himmatni qil oliy ocharga emdi maktabkim,  
Baloyi jahl-u nodonlikni barbod etgusi maktab.*

Shoir o'z millati jaholat botqog'iga botib tanazzulga yuz tutganligini e'tirof etar ekan, jon-u dil bilan maktab ochishga bel bog'lashga da'vat etadi. Bu paytda maktablar xususiy bo'lgan, ularni ochish va yuritishni davlat o'z zimmasiga olmagan. Shunday ekan, shoirning bu da'vati qalbi ziyodan xoli bo'lmagan millat boylari, kayvonilariga qaratilganligini anglash qiyin emas. Zero, oddiy xalq istagan taqdirda ham bu murakkab vazifaning uddasidan chiqa olmasdi. Shoir ko'ngillar sururi va ko'zlarning nuri farzand ekanligini ta'kidlab, maktab shaksiz ularning umrini obod etishini uqtiradi. Qaysiki bir millatga xuddi bizdagi kabi inqiroz shamoli yetsa, maktab albatta unga mustahkamlik bino etishiga shoirning ishonchi komil. She'r oxirida shoir o'ziga da'vat etib, oliy maktab ochish yo'lida himmat kamarini bog'lashni aytar ekan, maktab tufayli johillik va nodonlik barham topishini uqtiradi. Bu asli o'z timsolida shoirning millat akobirlariga da'vati edi hamda bu da'vat, ayniqsa, Xorazm misolida izsiz ketmaganligini keyingi voqealar rivoji tasdiqlaganligiga tarix guvohlik berib turibdi.

Avaz O'tar bir qator asarlarida ijtimoiy tengsizlikni va uning keskinlashib borayotganligini haqqoniy tasvirlab, ijtimoiy ruhda gi she'rlarida o'zining ozodlik, baxtli hayot haqidagi qarashlarini bayon qilganligi, "Hurriyat", "Sipohiylarga", "Xalq", "Topar ekan qachon?", "Fidoyi xalqim", "Ulamolarga" kabi qator asarlarida ijodkorning kelajak xususidagi fikrlari o'z aksini topganligi soha mutaxassislari tomonidan qayd etiladi.

Avaz O'tar zulm va istibdodga qarshi qalam bilan kurashgan otashin shoir sifatida talqin etiladi. Albatta, bunday qarashlar nis-

biy biryoqlamalikdan xoli emas, deb o'ylaymiz. Aslida Avaz O'tar o'z davri va yashagan muhitining farzandi edi. U mavjud tuzumni tubdan o'zgartirish orzusidagi inqilobchi edi desak, ijodkorga tuhmat qilgan bo'lamiz. Uning adabiy-falsafiy merosi o'zining rang-barangligi, janrlar xilma-xilligi, ijtimoiy muammolarning xalq qalbiga yetib boradigan sodda va ravon uslubda nazmga solinishi, umuman, ijodiyotining xalqqa yaqinligi va manzurligi bilan ajralib turadi. Jaholat va nodonlikka qarshi ilm-ma'rifatga da'vat ruhida yozilgan she'rlari esa ijodkorning dunyo ko'rganligi, biqiq muhit qobig'ida qolib ketmaganligi va ilg'or fikrli inson bo'lganligidan dalolat beradi.

***Shoir she'riyatida ma'rifatparvarlik va ijtimoiy turmush manzaralarining tasviri.*** Shoir ijodi juda ham rang-barang bo'lib, qamrovi nihoyatda keng edi. U mumtoz adabiyotimizdagi g'azal, muxammas, mustazod, musamman, murabba, mulamma, tarjeband, soqiynoma, ruboiy, qit'a, fard kabi turlarida ijod qildi. Avaz O'tar nihoyatda qisqa umr ko'rdi. U 1919-yilda 36 yoshda vafot etdi. Uning bu qisqa umri ham mashaqqatlar, fojialar bilan o'tdi.

Avaz O'tardan bizga boy poetik meros qoldi. U hayotlik vaqtidayoq she'rlarini bir joyga jamlab devon tartib qildi va ularni "Sadoat ul-iqbol" ("Baxtli iqbol") deb nomladi. Shoir tuzgan devonlarini 1908-yilda xattot mulla Boltaniyoz Qurbonniyoz o'g'liga berib ko'chirtirgan. Shoirning bu devonlari O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda. Bundan keyin ham Avazning she'rlari to'planib, ular devon holiga keltirilgan. Uning g'azallari Xivada litografiya usulida ham o'zi hayot vaqtidayoq chop etilgan edi. Avaz ijodidan namunalar Xorazmda ko'chirilgan turli xil bayoz va tazkiralardan munosib o'rin oldi. Shoirning asarlari "Oyna", "Vaqt", "Mullo Nasriddin" kabi vaqtli matbuot sahifalarida chop etilgan. Inson va hayotni, sevgi va sadoqatni o'z ijodining asosi qilib olgan Avaz sevgini sadoqatsiz, mehrni oqibatsiz tasavvur qilolmaydi.

Bu esa uning lirikasining yetakchi g'oyaviy asosini tashkil qiladi. Avaz O'tarning Fuzuliy, Munis, Ogahiy, Komil, Feruz va boshqa shoirlarning g'azallariga bog'langan taxmislari haqida ham shu xildagi fikrlarni aytish mumkin. Shoir ozarbayjon adabiyotining buyuk siymosi Muhammad Fuzuliyning hur muhabbat va shaxs erkinligi masalasiga bog'ishlangan "Yozmishlar" radiffi g'azaliga go'zal muxammas bog'laydi. Muxammasda shoir insonlarning baxtli bo'lishlari ijtimoiy tuzum bilan ham mustahkam bog'liq degan xulosaga keladi.

Ma'rifatparvarlik g'oyalarini keng targ'ib etish Avaz O'tar ijodiga xos xususiyatlardan biridir. Bu uning "Til", "Maktab", "Xalq", "Fidoiy xalqim", "Topar ekan qachon?" degan she'rlarida yaqqol ko'rinadi:

*Har tilni biluv emdi bani odama jondur,  
Til vositayi robitayi olamiyondur.*

*G'ayri tilni sa'y qiling bilgali yoshlar,  
Kim ilm-u hunarlar bilingki ondin ayondur.*

*Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,  
Bilmakka oni g'ayrat eting, foydaga kondur.*

Bu g'azal bugun yozilgandek, davr kun tartibiga qo'ygan buyuk ishlar haqida fikr yuritayotgandek bizga xizmat qiladi.

Avaz O'tarning hajviy asarlarida esa chor chinovniklari va mahalliy amaldorlar, davlat orttirish yo'lida aldanchilik, riyokorlik qiluvchi boylar, sudxo'rlar va shularga o'xshash razil shaxslarning qilmishlari fosh etilgan.

Avaz O'tar bir qator asarlarida ijtimoiy tengsizlikni va uning kekinlashib borayotganligini haqqoniy tasvirlab, falakni "g'addor" zamonani esa "kaj" deb ataydi. Shoir ijtimoiy ruhdagi she'rlarida o'zining ozodlik, baxtli hayot haqidagi qarashlarini bayon qilgan. "Hurriyat", "Sipohiy'larga", "Xalq", "Topar ekan qachon?"

“Fidoyi xalqim”, “Ulamolarga” kabi qator asarlarida Avaz O‘tarning kelajak xususidagi fikrlari o‘z aksini topgan.

Avaz O‘tar ijtimoiy she‘riyati zamirida zulm va zo‘ravonlik hisobiga to‘plangan boyliklarga nafrat, ikki tomonlama zulm ostida qolgan mehnatkash xalq hayotiga achinish tuyg‘usi yotadi. Shoir o‘sha jamiyatda yashab turgan kishilar o‘rtasidagi tafovutlarni, qarama-qarshiliklarni ro‘y-rost ochib tashlaydi.

Chor Rusiyasining birinchi jahon urushiga qo‘shilishi xorazmliklar boshiga ham yangidan yangi kulfatlarni yog‘dirdi. Mehnatkash xalq ahvoli battar og‘irlashdi, soliqlarning ko‘pligidan xalqning tinkasi quridi. Avaz O‘tar och-yalang‘och ahvolga tushib qolgan xalq hayotini ko‘rib qattiq achinadi:

*Yo‘q jahon mulkida bizdek ojiz-u bechora xalq,  
Zulm tig‘i birla bo‘lg‘an bag‘ri yuz ming pora xalq...  
Ey Avaz, bo‘lmas muningdek barho ovvora xalq.*

Avaz O‘tar o‘z ijodining dastlabki davrlarida xalqning azob-uqubatda yashaganligini ko‘rib zorlangan va ozodlikka chiqish yo‘llarini tushunib yetmagan bo‘lsa, endi ikki tomonlama zulm va qoloqlikdan qutulish mumkin ekanligini angladi. Uning ijodida ozodlik, erkin-farovon hayot haqidagi fikrlar birinchi o‘ringa chiqdi. Xivada 1917-yil aprel oyida xalq ozodlik uchun chorizm siyosatiga qarshi kurashga otlandi. Avaz O‘tar bu voqealarga bag‘ishlab o‘zining “Hurriyat” she‘rini yozdi:

*Siyosat mahv bo‘ldi, yashasun olamda hurriyat,  
Bori el ittifoq ila jahonni aylasun jannat...*

Shoir she‘rda hurriyat natijasida xalq boshiga tushgan kulfatni, adolatsizlikni kuyinib kuylaydi. Isfandiyorxon hurriyat natijasida “sodiq fuqarolarima idorai mashrutiya berdim. Olar o‘zlari tilaguncha mamlakatni idora qilsun, ham fuqarolarning maslahati bilan uylov qilib hukumat ishlarini xalq tilagan odil odamlarni tayin qilsunlar”, – deb farmon chiqaradi. Lekin chorizm bunga qarshi general Mirbadalov qo‘shinlarini Xivaga yubordi va ular Idorai

mashrutaga saylangan vakillarni mahv qildilar, qo'zg'olon ko'tar-gan xalqdan qattiq o'ch oldilar. Bunda Avaz xalq manfaatlarini hi-moya qilib she'rlar yozdi. Elning orzu-umidlarini hamma narsadan yuqori qo'ydi. Xalq saodati uchun kurashishni baxt va ezgulik deb bildi. Bu ezgu ish uchun jonini qurbon qilishga ham tayyor edi:

*Fidoi xalqim o'lsun tanda jonim,  
Bo'lub qurbon anga ruhi ravonim,*

*Gar o'lsam darbadar mazlumlar uchun,  
Buddur maqsadi qalbi notavonim.*

Mani solsa fano yo'liga davron,  
Yurur ustimdan avlodi zamonim.

Na yaxshi o'ylakim ma'qul-u manzur,  
Avaz, xalqim uchun to'kulsa qonim.

Avaz O'tar o'zining butun ijodiy kuchini xalqiga xizmat qil-ishga bag'ishladi. Shoir kishilarga baxt-saodat, ozodlik haqida yonib kuyladi. Shu boisdan bo'lsa kerak, o'zining devoniga ramziy ma'noda "Saodat ul-iqbol" deb nom qo'ydi. U vafotidan sal ilgari yozgan she'rlaridan birida:

*"Xush o'l, ko'nglum, kelar bir qun baxt bog'idagi ra'no,  
Ko'kargay mavj urub, qirlarda lola bo'lgusi paydo.*

Mani yod etgay avlodim, mozorimni o'rab guldin,  
Ishonchim shundadir bo'lg'ay mozorim bir ziyoratgoh.

Qabih onlarda erkin kuyladim, do'stlar, birodarlar,  
Ezilgan elga, bo'lg'ay bu zamon iqbol yorug' dargoh.

Avaz, o'lgan bilan jisming, qolurki o'chmagay noming,  
Va komu istaginshga g'ov bo'lolmas bo'lsa-da Dorol!" – deb yozganida tamoman haq gapni aytgan edi. Shoirning bu istagi va

yoniq orzulari bizning davrimizda ro'yobga chiqdi. Hozir Avaz O'tar o'zining ikkinchi umrini yashamoqda. Uning nomiga maktab, muassasa, jamoa va davlat xo'jaliklari, ko'cha va xiyobonlar qo'yilgan. Shoir yubileylari o'tkazilib, kitoblari qayta-qayta nashr etilmoqda, g'azallari sozanda va go'yandalar tomonidan ashula qilib aytilmoqda, adabiy merosi olimlarimiz tomonidan o'rganilmoqda, ijodi maktab va oliy o'quv yurtlarida o'qitilmoqda.

*Avaz O'tar ijodida milliy uyg'onish g'oyalari talqini.* Avaz O'tar o'zbek adabiyotidagi sermahsul va serqirra ijodkorlardan biridir. Shoirning ijodiy merosi ham hajm jihatidan, ham mavzu qamrovi, g'oyaviy yo'nalishi jihatidan e'tirof etishga arzigulik. Afsuski, Avaz O'tar ijodiy merosini to'laligicha tabdil etish, nashr etish adabiyotshunosligimiz oldidagi kechiktirib bo'lmas vazifalardanidir.

Taniqli adabiyotshunos A.Hayitmetov: "Avaz O'tar o'g'lining she'riy merosi Alisher Navoiyning lirik merosi hajmiga yaqin bo'lib, o'zbek adabiyoti tarixida Navoiydan keyin lirika sohasida bunchalik sermahsul ijodkor kam"<sup>69</sup>, – degan edi. Olim Avaz O'tar ijodiy merosi va uning nashrlari haqidagi fikrlarni davom ettirar ekan, quyidagilarni yozgan edi: "Hozirgi keng kitobxonlar ommasiga ma'lum she'rlar shoir ijodining beshdan bir qismidir. Demak, Avaz ijodini o'rganish hali oldinda"<sup>70</sup>. Darhaqiqat, manbashunosligimiz oldida Avaz she'riy merosini to'lig'icha nashr etish ishlari turibdi.

Avaz O'tar ijodida milliy uyg'onish g'oyalari ham asosiy o'rinini egallaydi. Ma'lumki, adabiyotimiz tarixida 1865-1929-yillarni o'z ichiga olgan "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" deb ataladigan bosqich bor. Avaz O'tar ana shu adabiyotning yetuk namoyondalaridan biri hisoblanadi. Bu adabiyot vakillarining dastlabki avlodi ma'rifatparvar sifatida maydonga chiqqan bo'lsa, ikkinchi

<sup>69</sup> Хайитметов А. Аваз лирикасида жанр ранг-баранглиги //Адабий меросимиз уфқлари. – Т.: 1997. Б. 42.

<sup>70</sup> Хайитметов А.Кўрсатилган асар. – Б. 42.

avlodi esa, jadidchilikning yetuk namoyandalari bo'la oldilar. Shoir Avaz O'tarning o'nlagan g'azallari, ko'plab qit'alari borki, biz ularni milliy uyg'onish adabiyoti namunalari deb ayta olamiz. Bu she'rlarning ba'zilarida ma'rifatparvarlik ulug'lansa, ayrimlarida erk-ozodlik, hurriyat g'oyalari qalamga olingan. Shuningdek, Faloniy turkumidagi qit'alarida ijtimoiy muammolar ayovsiz tanqid ostiga olinadi.

Tarixiy ma'lumotlar shuni isbotlaydiki, Avaz O'tar dadil, qo'rqmas, fidoiy shaxs bo'lgan. Shoirning bu kabi fazilatlaridan kelib chiqib, uni Muhammadsharif So'fizoda, Mirmuhsin va Mirmulla Shermuhammedov va boshqa ijodkorlarga qiyoslash mumkin. Ular ham milliy uyg'onish davri adabiyotida yuqoridagi kabi xislatlarga egaligi bilan ajralib turadi.

Avaz O'tarning "Maktab" radifli g'azali jadid adabiyotiga xos bo'lgan chaqiriq, da'vat ohanglari asosiga qurilgan. Bunda shoir maktab vayron millatni obod, yoshlar ko'nglini shod etishini ko'tarinki ruhda bayon etadi:

Ochinglar, millati vayronni obod etgusi maktab,  
O'qusin yoshlarimiz, ko'nglini shod etgusi maktab,  
Dil-u jon birla el maktab ocharga ijtihod etsin.  
Nedinkim, bizni g'am qaydidan ozod etgusi maktab<sup>71</sup>.

Shoir keyingi misralarda farzand ko'ngillarning sururi, ko'zlarining nuri ekanligiga urg'u qaratadi. Ularning umrini obod etadigan ham maktabligini qalamga oladi. Avazning jasorati va haqiqiy ahvolni anglay olishi ham g'azal misralarida aks etgan. Shoir o'z millatiga inqiroz nasimi yetganligini anglay olgan va undan chiqish yo'li maktab ekanligiga urg'u qaratgan.

Shoirning "Eyki, muncha zulm ila millatni aylarsan xarob", deb boshlanuvchi g'azali xalq boshiga kulfat yog'dirgan zolimlarga qaratilgan. Avaz ularning kirdikorlarini fosh etarkan, albatta, zolimlar buning "mukofoti"ni ham olishini bashorat qiladi:

<sup>71</sup> Avaz Ўтар. Девон. – Т.: 1976. 38-бет. Бундан кейинги шеъррий парчалар ушбу китобдан олинади ва қавс ичида саҳифаси кўрсатилади.

Eyki, muncha zulm ila millatni aylarsan xarob,  
“Loyuhibbuz zolimin!” – deb tangri qilg‘onda xitob.

Dam-badam bedod-u jabr-u zo‘rliqlar aylabon,

Solma mazlum elni ko‘nglig‘a muningdek iztirob.

Mungakim zulm aylagung bordur mukofoti zamon,

Oqibat bir kun anga mas‘ul bo‘lib bergung javob. (41-bet)

Shoirning “Etdingiz” radifli g‘azalini ham yuqoridagi she‘rning mantiqiy davomi deyish mumkin. Bu g‘azal ham aynan “Eyki” undalmasi bilan boshlanadi. Oldingi g‘azaldan farqli ravishda Avaz bu safar “millatni yer bilan yakson etganlar”ni ochiq-oydin bayon etadi. Ular qozi, mufti, a‘lam va boshqalar ekanligini yozadi:

*Eyki, sizlar to taassub birla davron etdingiz,*

*Millati mazluma ahvolin parishon etdingiz.*

*Biringiz qozi, biringiz a‘lam-u mufti bo‘lub,*

*Bu ne oyin erdikim, sizlar namoyon etdingiz.*

*Bu falokatlar uchun mas‘ul o‘lursiz oqibat,*

*Zulm-u istibdod ila millatni vayron etdingiz...*

*Bir kuni so‘rg‘ay Avazdek uyg‘onib ahli zamon:*

*Ne uchun millatni siz yer birla yakson etdingiz (63-bet)*

Avaz yuqoridagi g‘azalda tanqid ostiga olinganlarga o‘zini qatnashma-qarshi qo‘yadi. O‘zining joni xalqqa fido, ruhi ravoni qurbon bo‘lishini orzu qiladi. Mazlumlar uchun o‘lishni, avlodlar uning ustidan yurishini maqsad etadi. G‘azal so‘ngida xalqi uchun qoni to‘kilishini istaydi:

*Na yaxshi o‘ylakim, ma‘qul-u manzur,*

*Avaz, xalqim uchun to‘kulsa qonim (129-bet).*

Shoirning milliy uyg‘onishga da‘vat ruhida yozilgan she‘rlarida hayotsevarlik, elparvarlik, jasoratli bo‘lish g‘oyalari yaqqol ko‘rinib turadi. Lirik qahramonning millatparvarlik bilan yo‘g‘rilgan komi, ya‘ni maqsadiga hatto Doro ham qarshi chiqolmasligi bayon etiladi:

*Xush ul, ko‘nglum, kelar bir kun baxt bog‘idagi ra‘no,*

*Ko‘kargay mavj urub, qirlarda lola bo‘lg‘usi paydo...*



*Avaz, o'lgan bilan jisming, qolurki o'chmagay noming,  
Va komu istagingga g'ov bo'lolmas bo'lsa-da Doro. (153-bet)*

Shoirning xalqparvarlik ruhida yozilgan she'rlarida ham Fuzuliy ta'siri seziladi. Fikrlar ifodasida o'g'uz lahjasiga xos so'zlar uchraydi:

*Ey olami vojun aro orom suranlar!  
Sizlardek dahi bormudur ahkom suranlar?!  
Inson kabi johil bo'lami nom suranlar,  
Doim so'rasizmi daxi, kom suranlar?! (168-bet)*

Avaz yuqoridagi g'azalda davr-u davron, orom surganlarni tasvirlasa, "Yo'q bo'ling tezdan ko'zimdan, xalqaro sharmandalar" deb boshlanadigan she'rida el-yurt boshiga kulfat solganlarni "haromizodalar" deb ataydi. Bu kabi ifodalarda shoirning keskin nafрати behuda emasligi ko'rinadi. Avaz har qanday sharoitda, muhitda ham xalqparvarligini namoyon qiladi.

Shoirning ba'zi she'rlarida hurriyat, ozodlik ochiqdan ochiq maqtaladi. Millat taraqqiyisi hurriyatga bog'liqligi ro'y-rost ifodalanadi:

*Siyosat mahv o'ldi, yashasin olamda hurriyat,  
Bor-u el ittifoq ila jahonni aylasun jannat.  
Ketib zulm-u sitamning zulmati bo'lmish jahon ravshan,  
Adolat oftobi mamlakatga ko'rguzub tal'at (206-bet).*

Avaz O'tarning "Xalq" radifli g'azali eng mashhur she'rlaridan hisoblanadi. Shoir ana shu davrdagi xalq ahvolidan kelib chiqib, ezilgan, g'afolatga botgan xalqning portretini yarata olgan. Avaz O'tar faqat xalq ahvolini tasvirini bermasdan, undan chiqish yo'llarini ham ko'rsatgan.

Shoirning "Faloniy" turkumi qit'alarida ham milliy uyg'onish g'oyalari yaqqol ko'zga tashlanadi. Ma'lumki, Avaz O'tar adabiyotimiz tarixida Alisher Navoiydan keyin eng ko'p qit'a yozgan shoirlardan hisoblanadi. Shoir qit'alarining aksariyati ijtimoiy muammolarga bag'ishlangan.

*Faloni behayolig' birla bo'lmish shuhrai ofoq,  
Hayo ahlig'a lozim aylamak emdi hazar andin.*

*Oni osorini tangri jahondin aylagay ma'dum,*

*Alarg'a ushbu fe'li qilmasun tokim asar andin. (385-bet)*

Avaz O'tar behayollik bilan dunyoga mashhur bo'lgan faloniydan hayo ahli hazar qilishini bayon etar ekan, yuksak insoniy fazilatlarni ardoqlashga da'vat etadi.

Shoir quyidagi qit'ada esa mol-dunyo yig'ib abgor bo'lgan falonlar haqida yozadi. Ular afsonaviy dunyoparastlar Faridun, Qorunlar qismatidan xulosa chiqarishlari lozimligini uqtiradi.

*Faloni siflakim garduni dunning gardishi birla,*

*Yig'ibdur bir zamon ichra jahon molin Faridundek,*

*Musulmonlarni boshig'a solib yuz ofat-u g'avg'o,*

*Qilur bo'htonlar aylab g'ussa birla bag'rini xundek.*

*Xasosat lofini hech kim onga beshak ura olmas,*

*Nako'tar erdi oni bu nafas yer yutsa Qorundek. (384-bet)*

Avaz O'tarning milliy uyg'onish g'oyalari aks etgan she'rlari tahlilini yana davom qildirish mumkin. Uning hali tabdilini kutib yotgan she'rlari orasida ham bunday ijod namunalari uchrashi tabiiy. Agar shoir asarlari to'la nashri amalga oshirilsa, Avazning diniy-tasavvufiy mazmundagi she'riyati ham yuzaga chiqqan bo'lar edi.

Avaz O'tarning milliy uyg'onish targ'ib etilgan she'rlarida maktab, hurriyat, ozodlik vosita vazifasini bajargan. Shoir yuqoridagilar millat taraqqiyotini ta'minlashiga e'tibor qaratadi. Shuningdek, Avaz nazdida xalqning abgorligiga sabab bo'lgan "sharmandalar", "haromizodalar", "orom suranlar" bor. Ularning halokati millat ravnaqiga xizmat qilishi shoir tomonidan avj pardalarda kuylangan.

Eng muhimi, Avaz O'tar milliy uyg'onish g'oyalari aks etgan she'rlarida millat uchun qoni to'kilishini orzu qiladi. Uning xalqparvarlikka yo'g'rilgan maqsadlaridan hech kim qaytara olmasligini baralla aytadi. Bu esa barcha davrlardagi yo'ldan adashganlarga, xalqni unutganlarga mayoqdir.

### **Savol va topshiriqlar:**

Avaz O'tar hayoti bilan bog'liq tarixiy faktlarni sanab bering.

Feruz va A.O'tar munosabati haqida nimalarni bilasiz?

“Maktab” radifli g'azalining g'oyaviy mazmunini izohlang.

Shoir qaysi she'rlari orqali kelajak xususida ham o'z fikrlarini qayd etib o'tgan?

Taniqli adabiyotshunos A.Hayitmetovning Avaz O'tar ijodiga munosabati haqida nimalarni bilasiz?

Shoirning ma'rifatparvarlik ruhida yaratilgan she'rlaridan yod oling.

## **MUHAMMAD YUSUF BAYONIYNING HAYOTI VA FAOLIYATI. XORAZM ADABIY MUHITIDA SHOIR ADABIY MEROSINING O'RGANILISHI**

### **Reja:**

Bayoniy faoliyati va ijodining o'rganilishi.

Shoirning hayot yo'li.

Shoirning adabiy merosi.

Bayoniy – serqirra va sermahsul ijodkor.

Shoir she'rlaridan namunalar.

***Bayoniy faoliyati va ijodining o'rganilishi.*** Shoir va tarixchi olim, tarjimon va xattot, tibbiyot ilmining bilimdoni, qomusiy bilim egasi Muhammad Yusuf Bayoniy XIX asrning II yarmida Xorazm adabiy, ijtimoiy-madaniy muhitida shakllangan va kamol topgan siymodir.

Shoir ijodini o'rganishda asosiy birlamchi manbalari uning asarlari, bir she'riy devoni, “Shajarai Xorazmshohiy” va “Xorazm tarixi” kitoblaridir. Ijod namunalari kitobat qilingan bayoz-majmualarda, 1905-1923-yillardagi ijodiy namunalari esa o'sha davr vaqtli matbuotlarida ham uchraydi. Shuningdek, Xiva adabiy

muhitiga oid manbalar – Muhammad Rizo Ogahiyning “Shohid ul- iqbol”, Ahmad Tabibiyning “Majmuat ush-shuaro Feruzshohiy”, Hasanmurod Laffasiyning “Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimai holi” kabi asarlarida u haqida ma’lumotlar uchraydi. Ogahiy, Tabibiy va Laffasiylar shoir haqida ma’lumotlar berar ekan, uni shaxs va shoir sifatida yuksak baholaydilar.

XIX asrning II yarmi XX asr boshlari Xorazm adabiy muhiti, uning namoyandalari ijodi haqida yaratilgan deyarli barcha ilmiy tadqiqotlarda hamda bu davrdagi Xorazm tarixini yorituvchi tarixiy-ilmiy asarlarda shoirning hayoti va ijodi bilan bog’liq fikr va mulohazalar bor. Shuningdek, akademik Y.M. Yo’ldoshevning 1960-yilda “Fan” nashriyotida chop etilgan “Xeva davlat hujjatlari” nomli kitobida Bayoniyning saroydagi xizmati va musiqaga go’yligiga oid ma’lumotlar berilgan. O’tgan asrning 60-yillarida Bayoniy ijodiga bo’lgan e’tibor yanada jonlandi. Arxivnavis olim Q.Munirovning “Munis, Ogahiy va Bayoniylarning tarixiy asarlari” risolasi e’lon qilindi. Mazkur risolada “Shajarai Xorazmshohiy”ning O’rta Osiyo tarixini o’rganishdagi ahamiyati ma’lum darajada yoritiladi. 1962-yilda esa S.G’aniyeva va H.Muxtorova Bayoniy ijodini ommalashtirish ishlarini yo’lga qo’yadilar, uning she’rlarini yig’ib, kitob shakliga keltirib, “G’azallar” nomi bilan e’lon qiladilar. 1967-yildagi Y.Yusupovning “Xorazm shoirlari” kitobi, 1976-yil adabiyotshunos J.Jumaboyevaning “O’zbek tili va adabiyoti” jurnalida chop etilgan “Bayoniy ijodining ayrim xususiyatlari” maqolasi ham shoirning hayoti va ijodi haqida ma’lum tasavvurlarni beradi. Ammo shoir ijodini jiddiy va keng ko’lamda o’rganish 90-yillardan boshlandi. Bu davrda Bayoniy hayoti va ijodini o’rganish, nashr etish qizg’in va samarali olib borildi. Bu xayrli ishning boshida adabiyotshunos Iqboloy Adizova turdi. I Adizova 1990-yili Bayoniyning hayoti va ijodiy faoliyati haqida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. 1994-yilda Iqboloy Adizova su’y-harakatlari bilan “Shajarai Xorazmshohiy”ning qisqartirilgan ixcham nashri e’lon qilindi. 1995-yilda ea ushbu muallifning

N.Jumaxo'ja bilan hammualliflikdagi "So'z din baqoliroq yodgor yo'qdir" risolasi bosilib chiqdi.

Ko'rinadiki, Bayoniy hayoti va ijodini tadqiq qilish mustaqillik yillari yangi bosqichga ko'tarildi.

***Shoirning hayot yo'li.*** Muhammad Yusufbek Xiva qal'asining orqa tarafidagi Qiyot qishlog'ida 1840-yilda dunyoga keldi. Uning otasi Bobojonbek Olloberdi to'ra 1804-1806-yillarda xonlik qilgan Eltuzar xonning nevarasidir. Demak, Bayoniy Eltuzarxonning chevarasi bo'lgan. U xonlar avlodidan bo'lishiga qaramay, xonlik saroyida biron-bir baland martabada bo'lmagan.

Muhammad Yusuf yoshligida yuksak tarbiya va yuqori tahsil oldi. Arab, fors, usmonli turk, ozarbayjon tillarini chuqur o'rgandi, she'rga, ilmga va musiqaga ayricha muhabbat qo'ydi. Albatta, bunda oilaviy muhitning ta'siri katta edi. Uning otasi Bobojonbek she'riyat, tarix, musiqa ilmlaridan yaxshigina xabardor bo'lgan, hatto o'z zamonining mashhur shoir va tarixchilaridan Munis, Ogahiyalar nazariga tushgan edi. Ular bilan qadrdonlashib, bordi-keldi qilishgan. Bunday shoirlarning tashrifi va suhbat yosh Muhammad Yusufga ayricha ta'sir qilishi tabiiy edi. Bunday uchrashuvlar uning she'riyatga havasini yolqinlantirdi, ishtiyoqini oshirdi. Muhammad Yusufbek eski maktabni bitirgach, tabiblik ilmi ga havasmand bo'lib, bu sohada ham muayyan ma'lumotga ega bo'ldi. Bayoniy yaxshi tabib, yaxshi xattot va yaxshi musiqashunos maqomini oladi. U olti yarim maqom sozini to'liq bilgan. Hatto Xiva shoir va ulamolari Yusufbekning uyiga borib «soz qildirayli» deb tong otguncha mushoira qilib, soz chalib o'tirganlar. Bayoniy xonadonida tanbur, g'ijjak, doira, bulomon, dutor kabi musiqa asboblari to'liq bo'lib, ularni o'zi yaxshi chertgan, lekin qo'shiq ayta olmagan. Uyi doimo mehmonlar bilan gavjum bo'lgan. Manbalarda keltirilishicha, Bayoniy uzun bo'yli, chiroyli, sariq soqolli kambag'al odam bo'lgan. Kiyimlari ozoda bo'lib, so'zlagan vaqtda ovozi goho yo'g'on, goho nozik chiqqan. Xalq orasida hozirgacha "Ovozi Yusufbek ovozigaga o'xshar ekan" degan ibora yuradi. Bob-

ojon Tarroh - Xodimning xotirlashicha, Bayoniy xushovoz, saxiy odam bo'lgan ekan. U haqida Tabibiy mana bunday yozgan edi:

*Bayoniyki bor shoiri xush bayon,  
So'z ichra qilur, dur-u gavhar ayon...  
Bayoniyki, mashhur shoir edi,  
Dema shoir oni, sohir edi.*

Ta'riflanganidek, Bayoniy "sohir" ijodkor bo'lib yetishdi va bu bilan xalqning, ijodkor zamondoshlarining, hatto Xiva xonining e'tiboriga tushdi. Bu vaqtda Xiva hukmfarmosi Muhammad Rahim II Feruz edi. Shoh va shoir Feruzning istagi va taklifi bilan Bayoniy umrining katta qismi saroyda o'tdi. Ammo saroyda u biror yuqori lavozimda bo'lmagan. M. Yo'ldoshev uni "Xeva xoni saroyida devon bo'lib ishlagan" ligini e'tirof etadi. Shoir 1915-1916-yillarda saroyni tark etib, qolgan umrini ijodga bag'ishlaydi. Feruzdan keyin taxtga o'tirgan Asfandiyorxon va uning a'yonlari qurshab olgan chirkin muhit shoirning g'azab va nafratini qo'zg'adi. Bunday iqlimda Bayoniy uzoq yashay olmaydi va saroydan chiqib ketadi.

Bayoniy umrining oxirgi yillarida ilm-ma'rifat va maorif yo'lida anchayin katta ishlar qiladi. Shogirdlariga arab, fors tillaridan, mantiq, tarix, she'riyat qonun-qoidalaridan saboq beradi. 1920-1921-yillarda esa Xiva maorif bo'limida sho'ba mudiri vazifasida xizmat qiladi.

Bayoniy 1923-yilda 83 yoshida o'zi tug'ilib o'sgan Xiva shahrida vafot etdi.

***Shoirning adabiy merosi.*** Muhammad Yusuf Bayoniy iste'dodli shoir, muarrix, mutarjim, mug'anniy, musiqa va tib ilmining bilimdoni sifatida o'zidan katta adabiy meros qoldirdi.

Shoir sifatida bir she'riy devoni bizgacha yetib kelgan. Mazkur devon 1860-1905-yillar oralig'idagi she'rlarni o'z ichiga oladi.

Bayoniyning qo'lyozma devonining bir necha nusxalari mavjud bo'lib, devondan uning g'azallari, muxammaslari, ruboiy, qasidlari o'rin olgan.

Shoir ijodiyotida lirika asosiy o'rinni egallaydi. Shu bilan bir

qatorda, o'z zamonasining ilg'or kishisi sifatida, hayotda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga bee'tibor bo'la olmaydi, adl-insofni targ'ib qilish, xalqparvarlik motivi uning she'riyatida yaqqol seziladi. Shoir she'rlarida falakdan norozi bo'lish kayfiyati ustuvor. Shu jihatdan shoir xon va uning laganbardor, insofsiz amaldorlarining qilmishlarini o'ziga xos uslubda kinoya va satirik yo'nalishda keskin ochib beradi. Jumladan, «Qarg'a» radifli g'azalida quyidagicha misralar bor:

*Qushlardan o'zini go'yo aylab shumor qarg'a,  
Parvoz urar havoni aylab favvor qarg'a,  
Andinkim, o'zga qushlar bosmoqg'a or eturlar,  
Zavq-u surur ila yer benangu or qarg'a.*

Ko'rinadiki, shoir ichidagi gaplarni, kesatiqni, kinoyali fikrlarni ko'chma ma'noda qarg'a tilida ifodalab bergan. Qarg'a obrazi orqali surati odam, siyrati tubanlikka yo'g'rilgan kimsalarni qattiq qoralaydi. Hayotda eng suyumsiz, ko'ngil xushlamas jonivor – bu qarg'a. Bayoniy hayotda uchraydigan qarg'asifat kimsalarning surati va siyratini qush timsoli orqali chizib beradi. E'tibor qilinsa, boshqa qushlar yaqin bormaydigan, ta'bi tortmaydigan joylarda qarg'a «viqor» bilan yuradi, boshqalar iste'mol qilmaydigan narsalarni ular «zavq» va «surur» bilan, beorlarcha yeydi. Dehqonlar ekinlarini payhon qiluvchi, ishlariga zarar yetkazuvchi ham qarg'a. Demak, u shuning uchun ham hech kimga yoqmaydi. Shoir bu sifatlarni ro'yi-rost ifodalashi orqali o'z davrining tekinox'r, o'g'risifat, badnafs kishilarini ayovsiz tanqid qilgan. Shoir ustalik bilan yozilgan bu kesatiq va kinoyalar kimga tegishli ekanini xalq bemalol bilib olgan.

Shoirning so'z qo'llashidagi ustamonligi she'r ta'sirchanligini oshirgan. O'zining g'oyaviy maqsadini oshirishda shumor, favor, zavq-u surur, benangu or, xiromon, hazar, beviqor, humor, qofiyadosh so'zlarni qo'llash orqali aniq bir shaxsni, atrofdoshlarining basharalarini oshkora ochib tashlaydi.

Razolat va yovuzlik hukmron bo'lgan davrda shoir hech bir

ro'shnolik ko'rmadi. Adolatsiz, tengsiz va ziddiyatga to'la bu hayotning jabrlaridan iztirob chekdi:

*Qaysi g'am bahrini qa'rig'a Bayoniy tushmadi?!*

*Qaysi mehnat bori oni zoru giryon etmadi?!*

Shoirning g'azallarida ishq va ishqiy kechinmalar ham o'ziga xos usulda ifodalangan. Shoir she'riyatida oshiq iztiroblari, quvonchi va ba'zan yordan shikoyati o'z tajassumini topadi. Quyidagi misralarga e'tibor bering. G'azal vaslga zor o'rtangan oshiqning ishqiy kechinma izhoridan boshlanadi:

*Ey, pari, gulistonni sayr etib, tomosha qil,*

*Pardani olib yuzdin husning olam aro qil.*

Yuzlaringga bulbulni aylab oshiqi nolon,

Qomatingni sarviga qumrilarni shaydo qil.

yoki tubandagi baytda mahbuba timsolini quyma satrlarda quyidagicha e'tirof etadi:

*Yuzing gul, sochlaring sunbul, qadding sarvi xiromondek,*

*Ko'zing fatton, qoshingdur, yo bu yoyning o'qi mujgondir.*

Shoir yorni ta'riflashda an'anaviy tasviriy ibora va ifodalarga keng o'rin beradi, hamda badiiy tasviriy vositalardan ustalik bilan foydalanib, yor husnini, uning shakl-u shamoyilini o'ziga xos chizgilarda chizib beradi.

Bayoniy she'riyatining yetakchi obrazlaridan biri mahbuba bo'lib, u turli lavhalarda namoyon bo'ladi. Ba'zan, u "ma'shuqasiz dunyo ko'ziga qorong'u bo'lgan" oshiqqa hijron azobini solsa,

*Sensiz manga qorong'u ravshan jahon emasmu,*

*Bu olami anosir zindoni jon emasmu..?*

ba'zan, yoriga "lutf" aylab, uning ko'nglini shod qiladi:

*Hajr aro bemoringiz holi xarobin so'rgali*

*Lutf ila kelgan mening bandanavozim sizmusiz?*

Ma'lumki, Feruz tashabbusi va rahnamoligida Xorazmda tarjima maktabi maydonga keldi. Bu borada Ogahiy, Komil Xorazmiy, Tabibiy kabi salaflar qatoridan Bayoniy ham munosib o'rin



egalladi. Jumladan, u Mavlono Darvesh Ahmad tomonidan hijriy 1092-(milodiy 1681) yil arab tilida yozilgan umumiy tarixga oid “Sahoif ul-axbor” (Xabarlardan sahifalar, 1-2 jildlar) kitobini, Ali Muhammad al Xiraviy Kamoliddin Binoiyning masnaviyda yozilgan tarixiy-badiiy xarakterdagi «Shayboniynoma»sini, Abu Ja’far Jarir at-Taboriyning arab tilida yozilgan umumiy tarixga oid nasriy asari «Tarixi Taboriy»ni yuksak mahorat bilan o‘zbek tiliga tarjima qiladi. Shuningdek, Atoulloh ibn Fazlulloh Husayniyning “Ravzat ul-ahbob” asarining o‘zbekcha tarjimasini tahrir qildi.

Mana bunday to‘rtta yirik tarjima asarlarini paydo bo‘lishida Xiva xoni Feruzning roli katta, chunki ularning aksari xonning amri va rahnamoligida dunyoga kelgan. Shu bilan bog‘liq bir voqea. Xiva xoni Feruz Hiloliy, Oqupa va ko‘hna Urganch safarlaridan poytaxtga qaytishi “Xiva aholilari” uchun bayramday bo‘ldi, butun xivaliklar “xon istiqboliga” chiqdilar va ular qatorida Bayoniy ham bor edi. Bayoniy xon uchun ikkita sovg‘a tayyorlaydi, biri podshoh Feruz buyrug‘ini ado etib, “Tarixi Taboriy” tarjimasini tamomlaydi, ikkinchisi safardan qaytish sharafiga g‘azal bitadi. Bu haqda shoirning o‘zi shunday deydi: *“Faqirg‘a kitobi “Tarixi Taboriy”ni forsiy tilidin turk tiliga tarjima etmak xizmatin buyurib erdilar. Bu sababdin rikobi humoyunda keta olmay amri oliylari bila qolib erdim. Man ham istiqbollari’g‘a chiqib duo qildim. Chun g‘oyat shon-shavkat-u shikvayi hashmat bila kelib shaharga kirib kelib taxti davlatda qaror tutdilar, muning so‘ngg‘i kuni bir g‘azalnikim tahniyati (qutlash) qudumlari uchun bitib erdim, hazratlariga ul g‘azalni berildi. Ul g‘azal budur:*

*Safardin qaytibon musrat bila shohi jahon keldi.  
Hamono elni jonsiz tanlarga toza jon keldi...*

*Adolatni shior aylab, fasod ahlini xor aylab,  
Karamlar oshkor aylab shahi getisiton keldi...*

Ertasiga Bayoniy “qayu shohkim, shohlar shohi” bo‘lgan Feruz hazratlariga qasida bitadi va unga topshiradi. Qasidada shunday satrlar bor:

*Erur ismi shohi Muhammad Rahim,  
Bahodir abulfathi sohibqiron.  
Raiyat zamonida emin bo'lib,  
Erur barcha el lutfidin shodmon.*

**Bayoniy – serqirra va sermahsul ijodkor.** U Xorazm shajaraviy tarixnavisligi davomchisi, yanada aniqrogʻi, Xorazm tarixi va adabiyotchiligiga oid voqealiklarning xotiranavisi. Tarjima asarlari bilan birga Abulgʻozi Bahodirxon, Munis, Ogahiylar anʼanasini davom ettirdi. “Xorazm tarixi”, “Shajarai Xorazmshohiy” kabi asarlari orqali voha tarixi toʻgʻrisida qimmatli maʼlumotlar yozib qoldirdi. “Shajarai Xorazmshohiy”ning ikki nusxasi mavjud boʻlib, ularning biri 1913-yilda koʻchirilgan, hajmi 517 varaq, ikkinchisi, 1914-yilda koʻchirilgan boʻlib, 508 varaqdan tashkil togan. Mazkur asarda Abdulgʻozixon qalamga olgan davrdan tortib Munis va Ogahiylar bitgan davr, shuningdek, 1873-yildan 1914- yilgacha boʻlgan davrning tarixiy voqealari atroflicha yoritilgan. U xonlar tarixini bitdi. Asar tarixiy jihatdangina emas, balki badiiy jihatdan ham ahamiyatlidir. Chunki asar juda sodda, xalqona tilda bitilgan, yozishda muallif tushunilishi qiyin boʻlgan soʻzlardan qochadi.

Mazkur asar tarixiy jihatdan juda qimmatlidir, u Xorazm xonligi tarixini, umuman, Oʻzbekiston tarixining bir boʻlagini oʻrganishda katta ahamiyatga ega boʻlgan manba boʻlib xizmat qiladi. Muallif bu asarda Xorazm xonligini Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi voqealariga mufassal toʻxtalgan edi. Shaharlardagi talon-tarajliklar, aholining qirgʻinga uchraganligi, xalqning moddiy va maʼnaviy jihatdan toptalganligi, Chor generallarining vahshiyona siyosati – bularning hammasi Bayoniy tomonidan chuqur taassuf bilan tasvirlanadi. Bularidan tashqari, asarda yerga boʻlgan egalik va soliq bilan bogʻliq masalalar ham keng bayon etilgan.

Maʼlumki, Xiva xonligida Muhammad Rahimxon Feruz davrida mamlakat ravnaqi, ilm-fan, maorif va madaniyat ishlariga katta eʼtibor berilgan. Xonning oʻzi tez-tez Xivadagi “Arab Muhammadxon”, “Muhammadaminxon” kabi madrasalarda boʻlib, bu

yerdagi o'qish-o'qitish ishlarini nazorat qilib borar, mullavachchalarga xazina hisobidan moddiy yordam qilib turar edi. Bayoniy bular haqida "Shajarai Xorazmshohiy"da batafsil ma'lumotlar bergan: "Ma'lum bo'lsinkum, xon hazratlari Muhammad Rahimxon bag'oyat mushtifiq-u fuqaro va bag'oyat xayrdo'st kishi edilar. Ko'p madrasalar va masjidlar bino qildilar. Ul hazrat ulamoni ko'p do'st tutar edilar va she'riyati g'orroning (yorqin, jo'shqin) rivojiga sayr etar edilar va bag'oyat raiyatparvar shafqatgustar va odil-u bozil kishi edilar va namozi panjogonani (besh vaqt namozni) qazo etgan emasdurlar".

Ko'rinadiki, muallif mazkur asarda Xorazmning ijtimoiy hayoti bilan bir qatorda adabiy-madaniy hayotini ham keng tafsil etadi.

Bayoniyning ikkinchi tarixiy asari "Tarixi Xorazm" deb nomlanib, muallif dastlabki boblarda oldingi asardagi ba'zi voqealarni boshqacha uslubda bayon etgan. Uning hajmi 16 bobdan iborat bo'lgan. Ammo bizgacha uning 8 bobi yetib kelgan. Bayoniy bu asarini Xorazm inqilobidan keyin yozgan. Muallif bu "kengchilik zamonda" endi xonlardan qo'rqmay, ularga xushomad qilmasdan ayta olmagan gaplarini bemalol yozganligini eslatgan.

Shunday qilib, Muhammad Yusuf Bayoniy o'zining hayot-baxsh she'rlari, jahonshumul tarixiy asarlari bilan o'zbek adabiyotshunosligi va o'zbek tarixshunosligiga ulkan hissa qo'shdi. Bu bilan Bayoniy XIX asr oxiri XX asr boshlari o'zbek adabiyotining yetuk namoyondasi sifatida o'ziga xos munosib iz qoldirdi.

Bayoniy o'z zamonasining atoqli xattotlaridan va musiqashunoslaridan biri ham bo'lgan. U suls, kufiy, rayhoni, shikasta va boshqa xil xatlarni yaxshi bilgan va o'z zamonasining talantli shoir va tarixnavis olimi bo'lib yetishgan. Bayoniyning yuksak mahorati haqida **Tabibiy** bunday deb yozadi:

*"Bayoniyki bor shoiri xush bayon,  
So'z ichra qilur durri gavhar ayon.  
Bu ham asli bu xonadondin erur,  
So'zi ruhu el jismiga jon erur.*

*Muhammad Yusufbek nomi aning,  
Husul aylamak ilm komi aning”.*

**Shoir she’rlaridan namunalar.** Bayoniy o‘zidan boy yozma meros qoldirdi. Bayoniyning mazmundor va ajoyib g‘azallarini o‘z ichiga olgan devonining bir necha nusxasi qo‘lyozma holida saqlanmoqda. Bu devonlardan uning g‘azallari, muxammaslari, ruboiylari, qasidalari o‘rin olgan.

### **Savol va topshiriqlar:**

Siz bilgan tazkirachilikka oid asarlarda Bayoniy haqida qanday ma’lumotlar uchraydi?

“Bayoniy – tarixchi” mavzusida gapirib bering.

Shoir lirikasida ishq mavzusi qay darajada deb o‘ylaysiz?

Bayoniy qaysi janrlarda ijod qilgan?

Tabibiy Bayoniy haqida qanday fikrlar bildirgan?

Quyidagi shoir qalamiga mansub she’rlarni mustaqil o‘qing va namunalar yod oling.

## **G‘AZALLAR**

Jahon suv yuzida erur chun hubob,  
Bas andin nechuk bo‘lgumiz bahrayob.

Binosi bo‘lub to‘rt ziddin aning,  
Erur ishlari davr aro inqilob.

Bu zidlar tabaddul ayon aylabon,  
Fitan joyi bo‘lmish jahoni xarob.

Birovni chu xushlikda ko‘rdi falak,  
Hasad birla urg‘usi otashg‘a ob.

Yetar javri birdek gar o'lsun gado,  
Var o'lsun shahanshoi molik riqob.

Aning xushliqi barqdek tezrav,  
G'ami ham o'tar misli zilli sahob.

Na iqbolidin shod o'lub hush eli,  
Sururi uchun qildilar fathi bob.

Na idboridin tanglik tortibon,  
G'ami ranjidan etdilar iztirob.

Chu ahvol mundog' esa, soqiyo,  
Karam aylabon ol yuzingdin niqob.

Damadam labolab qilib jomni,  
Izin uzmayin tut mayi la'li nob.

Bayoniy bo'lub mast davron g'amin  
Unutsin yuzungni ko'rub behijob.

\* \* \*

Ey birodar, dahridin ko'ngling mukaddar bo'lmasun,  
Har dam onda ozdin ko'p sho'r ila shar bo'lmasun.

Bo'lg'il ogah g'aflatu, buxl-u hasad, ujbu riyo,  
Kiynu, shirku, shak bori ko'nglingda yaksar bo'lmasun.

Tushmagil aslo qanoat izzatidin, gar desang  
Yuzlarim yuz nav' zillat birla asfar bo'lmasun.

Foqa ahli bil — fano iqliming sultonidur,  
To banogah ul saning nazdingda ahgar bo'lmasun.

Faqrdrur faxri nabi bas charx o'zin arz etsa ham,  
Ko'nglung aslo moyili mulki Skandar bo'lmasun.

Dahr ayshi tarkin et tokim ko'ngul mir'otida,  
Rangi zangi javr davri zulm gustar bo'lmasun.

Matlabing dildordin bo'lsa tamannoyi visol,  
Yodining g'ayri zamiring ichra muzmar bo'lmasun.

Bo'lmasa dardi firoq o'tiga sabr-u toqating,  
Hech bu yo'lda sanga juz ishq rahbar bo'lmasun.

Chun Bayoniyga berur jilva maroyoi jamol,  
Nega matlubi alardin husni dilbar bo'lmasun.

\* \* \*

Chun bahor ayyomi keldi, to'ldi guldin dasht-u tog',  
Fikrati guldin ko'ngullar qildi mayli gashti bog'.

Dahri dunning ishrati marg'ub emasdur yorsiz,  
Aysh-u ishrat yorsiz dahr ichradur dog'o'zra dog'.

Ul tag'oful peshaning ersa tag'oful peshasi,  
Nega bo'lmasur junun rog'ida sinam rog', rog'.

Boshda mehr aylab ayon, so'ngra bu ne badmehrlik,  
Bosh-ayoqingg'a ko'yorman, netdi sunsang bir ayog'.

Gah qilursan necha nayranglar bila o'timni tez,  
Gah to'karsan nozi istig'nodin ul o'timg'a yog'.

Davr javridur manga bu ohkim bir yetmadi,  
Baxti nofarjomdin kelgan mehanlardin farog'.

Go'shanda munzavi bo'lmak tilarman koshki,  
Olam ahlidin manga jo bo'lsa andog' bir qirog'.

Kim zamona ilkiga olsa falak g'arbolini,  
Xoki g'abroni elab ham topmagay mendin so'rog'.

Ey Bayoniy, kim vafosizlardin ummidi vafo  
Qilsa haqqidur jafodudi bila yoqmaq dimog'.

\* \* \*

Yozg'ali qaddingni ta'rifini, ey zebo sanam,  
Loyiq uldur qilg'aman shohi sanubardin qalam.

Qomating zebo alifdekdurkim aning ollida,  
Shoxi gulni bori xijlat ayladi qaddini xam.

Yoki bosh chekdi latofat bog'ida bir toza gul,  
Kim yaratdi oni rahmatdin xudoyi zulkaram.

Chun soching tavsifi tahririg'a surdim xomalar,  
Bo'ldi har satri anga bir band zanjiri qadam.

Yetdi chun qoshingni ikki tig'ining avsofig'a,  
Vasf eta olmay tavaqufsiz qalam bo'ldi qalam.

Oh uyi Chin nofidin bo'lsa munosibdur midod,  
Ikki jodu ko'zlaring madhini aylarga raqam.

Yuzlaringdur misli oyina musaffo, chun anga  
Bir nazar qilsa kishi ko'nglida qolmas zangi g'am.

Chunki toza-toza gullar birla xurramdur hamon,  
Dahr aro andin namuna keldi gulzori Eram.

Kim Bayoniydek bo‘lub bu ishqning savdosig‘a,  
Tushsa ul bo‘lg‘usi majnunlikda olamg‘a alam.

\* \* \*

Labmidur bu yo Xizrning chashmai hayvonimu  
So‘zmu Adan bahrini yo turluk dur-u g‘altonimu.

Yuzdurmi bu, yo ravzai firdavsning navbar guli,  
Yo osmoni husnning ravshan mahi tobonimu.

Ko‘nglumni shod etdi mening aylab visoli va‘dasin,  
Yokim burung‘idek bu ham bir va‘dai yolg‘onimu.

Fazl ahlidin to‘lmish magar Xorazm mulki sarbasar  
Yo bu mamolik arsasi so‘z gavharining konimu.

Har yondin uzmay izini el keltirurlar qop-qanor,  
Bu asrda ash‘or, yo bilmon tariq samonimu.

Turfa bu durkim borchasi bir-biridin marg‘ubroq  
Islohin etkuchi va yo Xorazmning xoqonimu.

Toki bayon aylar aning madhin Bayoniy adl ila  
Yokim bu shah o‘z asrining shohi Anushirvonimu.

\* \* \*

Qushlardin o‘zni go‘yo aylar shumor qarg‘a,  
Parvoz urar havoda aylab favor qarg‘a.

Andin kim o‘zga qushlar bosmoqg‘a or etarlar,  
Zavq-u surur ila ar benanggu or qarg‘a.



Devor aro xiromon bo'lg'usi to'madin so'ng,  
Mastona na'ra tortar devonavor qarg'a.

Dehqonni mazraida diltang etar hamisha  
Uchg'usi bir kesakdin garchi hazor qarg'a.

Olam elin anga bu atvori etdi dushman,  
El toshig'a hadafdur shayton shior qarg'a.

Ey koshki yiroqlik sen birla o'rtamizda,  
Sharq ila g'arb bo'lsa, ey beviqor qarg'a.

Qushlarni vasfig'a chun til ochti der Bayoniy,  
Sarxush bo'lurg'a yetmay bo'lg'ay xumor qarg'a.

## MURABBA'

Maskanim xoki mazallatda tahayyur domidur,  
Qismatim anduhi furqat shiddati olomidur,  
Chunki bu ravshan kunim hijron qorong'u shomidur,  
Bir karam qil, ey shahi xo'bon, karam hangomidur.

Yo'linga menda qadam urmakg'a quvvat qolmadi,  
Himmatim boricha bo'ldi sarf-u himmat qolmadi  
Sabr qilmoq muncha bo'lg'ay emdi toqat qolmadi  
Bir karam qil, ey shahi xo'bon, karam hangomidur.

Ishqi xunxor asr-u zor-u, beqaror etmish meni,  
Ixtiyorimni olib beixtiyor etmish meni,  
Chun saning yo'lingda benomus-u or etmish meni,  
Bir karam qil, ey shahi xo'bon, karam hangomidur.

Qaysi atvorim sanga marg'ub oni bilmadim,  
Qaysi ishni ixtiyor et deding oni qilmadim,  
Qaysi g'am tig'idur oning birla bag'rim tilmadim,  
Bir karam qil, ey shahi xo'bon, karam hangomidur.

Ishqing o'ti o'rtatib qildi ko'ngul mulkin xarob,  
Bo'ldi ashkimdin ravon har yong'a bir daryoyi ob  
O'ldi chun hushimni shavqing jong'a soldi iztirob  
Bir karam qil, ey shahi xo'bon, karam hangomidur.

Yuz qo'yub har yon manga yuz qo'ymadi juz dard-u g'am  
Chorai holimni kimdin istadim ko'rdim sitam,  
Keldim oxir hazratingga aylab ummidi karam,  
Bir karam qil, ey shahi xo'bon, karam hangomidur.

Ko'r Bayoniyning nahofat ichra jismi nolini,  
Rangi ro'yidin aning fahm et bori ahvolini,  
Chunki o'tkardi g'am-u kulfatda mohi solini,  
Bir karam qil, ey shahi xo'bon, karam hangomidur.

## QIT'A

Gar xor esa har kim o'z elida,  
Qayg'udin ichida to'la qondur.  
Xor esang elingda turma zinhor,  
Mag'zing boshing ichra gar butundur.  
Har dam chekibon tuman mazallat,  
Kun dema hamul kuningni tundur.  
Tark et bu vatanni ko'rgil oni,  
Ud o'z vatanida bir o'tundur.

Yorab, ato ayla Bayoniyg'a hush,  
Bo'yla maqolotdin o'lsun xomush,  
Nechaki avval o'zi qilsun amal,  
So'ngra desa elga bo'lur bexalal,  
Omil emas ersa bu so'zga o'zi,  
Elga qachon qilg'ay asar bu so'zi.

## MUXAMMASLAR

Bo'lub toza sabz-u ashjorlar,  
Bo'lub loladin dasht-u ko'hsorlar,  
Qurulmishdurur gulga bozorlar,  
Bu mavsim g'animatdur, ey yorlar,  
Ne azhorlardur, ne azhorlar.

Tarovat topib o'zga rangda jahon,  
Erur zeb-u ziynatda rashki jinon,  
Nahrlar erur har tarafga ravon,  
Hamon har biri chashmai jovidon,  
Ne anhorlardur, ne anhorlar.

Guliston topib o'zgacha zeb-u zin,  
Nazohatda bo'lmish chu xulda barin,  
Chamanda ochilmish guli otashin,  
Rayohin-u nasrin-u ham yosumin,  
Ne gulzorlardur, ne gulzorlar.

Anodil shajarlarda dastonsaroy,  
Erur foxta nolasi dilraboy,  
Qilib qumrilar nolai dilkushoy,  
Ani ko'rgan ahli holig'a voy,  
Dilafkorlardur, dilafkorlar.

Ko'mung emdi g'am bahri girdobini,  
Yoping qayg'u anvoi avbobini,  
Muhayyo qiling ishrat asbobini,  
Oching bazmi aysh-u tarab bobini,  
Sazovorldur, sazovorlar.

Tuzub nag'maning ahli tanbur, rud,  
Daf-u, barbat-u, chang-u, qonun-u ud,  
Falakka yetishsun fig'oni surud,  
Topa olmag'anlar bu suhbatda sud,  
Ziyonkorlardur, ziyonkorlar.

Jahon ichra bo'lmang g'amin zinhor  
Erur umr bir necha kun mustaor,  
Tutub jomi man soqiyi gul uzor  
Ichib dilni xush aylagan hushyor,  
Ne hushyorlardur, ne hushyorlar.

Parivashlar aylab chamanga xirom,  
Meni ahd ila qildilar shod kom,  
Borib tutdilar chun chamanda maqom,  
Dedilar xayoling erur asr-u xom,  
Ne ayyorlardur, ne ayyorlar.

Nechun qadligim –qaddi shamshodidin,  
Ko'zum ashki chashmini jallodidin,  
Parishonlig'im zulfining yodidin,  
Muotablig'im arzim irodidin,  
Dil ozorlardur, dil ozorlar.

Asiri qad-u zulf-u xol aylagan,  
Qadimni bukub misli dol aylagan,  
Nahofatda jismimni nol aylagan,

Bu hol uzra majnun misol aylagan,  
Ne xunxorlardur, ne xunxorlar.

Erur do'stlar bok aro sarbaland,  
Bo'lub aysh-u ishrat bila bahramand,  
Bayoniyni g'am mahbasi ichra band,  
Qilib aylamishlar base mustamand,  
Ajab yorlardur, ajab yorlar.

## MUQIMIY ADABIY MEROSI

### Reja:

Muqimiyning adabiy merosi manbalari

Shoir asarlarining yetakchi g'oyalari.

2. Muqimiy hajviyoti. Satira va yumor.

*Muqimiyning adabiy merosi manbalari va shoir asarlarining yetakchi g'oyalari.* Milliy adabiyotimiz tarixida XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Qo'qon adabiy muhitidan yetishib chiqqan ijodkorlar merosi alohida o'rin tutadi. Bu adabiy muhitning zabardast namoyandasi Muhammad Aminxo'ja Muqimiy asarlari har doim o'zbek adabiyotining ma'naviy xazinasini boyitib turadi.

Mumtoz adabiyotimiz taraqqiyoti rivojiga katta hissa qo'shgan Muhammad Aminxo'ja Muqimiy asarlari "Devon" tartibida tuzilgan emas. Shunday bo'lsa-da, XX asr boshlarida toshbosma usulida "Devon" deb atalgan she'rlar majmuasi nashr qilingan<sup>72</sup>. Ammo bu to'rtala to'plam ham devon tuzish talablariga rioya etilmagan holda tartiblangan. Shuning uchun ham mazkur to'plamlarni "Devon" deb emas, balki she'rlar majmuasi sifatida qabul qilish mumkin.

Muqimiy asarlari turli qo'lyozma va toshbosma bayozlarda, san'atkorlarning yon daftarlarida, adabiyot havaskorlari kolleksii-

<sup>72</sup> Каримов Ф. Муқимий. Асарлар тўплами. - Т.: Фафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974.

yalarida, ayrim parcha qog'ozlarda turli kishilar qo'lida saqlanib kelindi. Ta'kidlash joizki, shoir asarlarini yig'ish va nashr etishda professor G'.Karimovning xizmatlari katta bo'ldi. U Muqimiy "Asarlar to'plami"ni jami to'rt marta (1958, 1960, 1973, 1974-yillarda) chop ettirdi.

Muqimiy adabiy merosi qo'lyozmalari yuzasidan A.Shokirov ilmiy izlanishlari natijasida shoir she'rlari dastxatlari haqida yangi ma'lumotlar qo'lga kiritildi. Istiqlol yillarida ham Muqimiy asarlari qo'lyozmalari ustida ilmiy izlanish olib borildi. Ayniqsa, shoir asarlarining eng so'nggi nashri<sup>73</sup>ga kiritilmagan ayrim she'rlar keng jamoatchilik e'tiboriga havola etildi. Jumladan, adabiyotshunos A.Madaminovning xizmati bilan 1997-yili "Yangi bayoz" to'plami chop etildi. Adabiyotshunoslardan A.Turdialiyev 2010-yilda shoirning "Bog' aro", E.Ochilov 2009-yili "Ko'nglum sandadur" nomli to'plamlarini nashr ettirdi. Muqimiyning 7521, 1325, 9309 ashyo raqamlari bilan saqlanayotgan qo'lyozma bayozlari haqida adabiyotshunos olimlar o'z vaqtida fikr bildirganlar.

Jumladan, professor G'.Karimov 7521-raqamli bayoz xususida so'z yuritib, to'plamda 212 ta she'riy asar bo'lib, shundan 199 tasi Muqimiyniki ekanligini ta'kidlaydi. Olim bu to'plamni shoirning dastxat bayozlari sirasiga qo'shmagan.<sup>74</sup> A.Shokirov esa to'plamdagi she'rlar hajmini 212 ta deb 192 tasi Muqimiyga tegishli ekanligini qayd etadi.

Mazkur bayoz XIX asr oxirlarida ko'chirila boshlangan. Shoir o'zining turli qo'lyozmalarda tarqoq holda bo'lgan asarlarini jamlab, yaxlit bir majmua holiga keltirishni maqsad qilgan bo'lsa-da, biroq bu ish tugallanmay qolgan. Ijodkorning yana ko'plab she'rlarining unga kirmay qolishi, qolaversa, bayozning oxirida anchagini bo'sh varaqlar qolib ketgani bu fikrni tasdiqlaydi. To'plamda Fur-

---

<sup>73</sup> Каримов Ф. Муқимий. Асарлар тўплами. - Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974.

<sup>74</sup> Каримов Ф. Муқимий ижодий меросининг манбалари. Муқимий. Асарлар. Т.: 1960, II том, 159-бет.

qat, Zavqiy, Muhyi va Muhayyir gʻazallari ham uchraydi. Ular oʻz mazmuni, vazni, qofiyasi, radifi bilan Muqimiyning ayrim gʻazallari bilan deyarli bir xil.

Shoir asarlarining yetakchi gʻoyalari.

Muqimiyning bizgacha yetib kelgan ijodiy merosini 10 ming misra atrofida taxmin qiladilar. Ular, asosan, lirika va hajviyotdan iborat. Shoirning lirik merosi ishqiy, falsafiy, ijtimoiy mavzudadir.

Muqimiy tabiatan hozirjavob kishi edi. Koʻplab zamondoshlari singari oʻzbek va tojik tilida baravar yoza olardi. Koʻpgina sheʼrlari oʻzining yozilish tarixiga ega. Maʼlum munosabat bilan yozilgan sheʼrlari orasida Toshkent noibi vafotiga bagʻishlangan (“Tarixi favti noibi Toshkandiy”) besh baytli tojikcha taʼrix-marsiyasi bor. “Noibi Toshkandiy” 1892-yildagi Toshkent qoʻzgʻolonining tashkilotchilaridan va faol ishtirokchilaridan biri Inʼomxoʻja boʻladi. Turkiston harbiy okrug sudi uni 1892-yil 10-dekabrda Irkutsk guberniyasiga surgun qilgan edi. Biroq u kasalmandligi tufayli shu yerda qoldiriladi. Qamoqni shu yerda oʻtaydi. 1897-yilning 3-fevralida shu yerda vafot etadi.

Taʼrix-marsiyada shoirning rus siyosatiga qarshi bosh koʻtargan qahramonga mehr-muhabbati ochiq ifodalanadi. “Garchi hibsdan gʻurbatdan qon yigʻlasa-da, oqibat shahid boʻldi. Uning vafoti kuni aziz-avom, katta-kichik butun Hoʻqand xalqi motam tutdi”, - deyiladi marsiyada.

Muqimiy Inʼomxoʻja mashaqqatlariga oʻzini hamdard tutadi. Shoir fikricha, Inʼomxoʻja oʻlgan emas, u shahiddir. U hayotga shunchaki kelib ketgan emas, juda katta ish qilgan. Shu sababli, u el yurtning mehriga, muhabbatiga Musharraf boʻlgan. Shuning uchun ham uning oʻlimiga butun Hoʻqand aza tutdi.

Muqimiyning juda koʻp gʻazallari uning tirikligidayoq qoʻshiq qilib kuylangan. Uning sheʼrlari koʻproq xonandalar orqali yoyilgan. Juda koʻp taniqli sanʼatkorlar oʻz hayotini Muqimiy ijodi bilan bogʻlaganlar. Shoir sheʼrlarida Mamajon makay, Nizomjon, Farzincha, Ismoil naychi ismlari uchrab qoladi. Ularga bagʻish-

langan baytlar, she'rlar ham bor. Bular o'sha davrdagi mashhur san'atkorlarning ismlari, laqablari. Muqimiyning ular bilan bunday yaqin aloqasi bejiz emas. Shoir g'azallari musiqiy, ohangdor edi, xaridori ko'p edi. Bu she'rlarning mavzusi aksariyat an'anaviy, yor haqida. Uning husni, ya'ni qoshi, ko'zi, yuzi, sochi, qaddi-qomati ta'rifiga bag'ishlangan.

Oshiq shoir visoldan quvonadi, hijrondan iztirob chekadi. Lekin har qanday holda ham yorning husni davlatiga rivoj tilaydi. Uning mehr va shafqatidan umidvor. Ammo u yor qanchalik go'zal bo'lsa, shunchalik bevafo, jafokor. Shu sababli, shoir she'rlarida quvonchdan hasrat ko'p.

Tiyg'ing mening qonimdadur, zulfing giribonimdadur,  
Yuz ming alam jonimdadur, man muftalo qayda boray?!

**Muqimiy hajviyoti. Satira va yumor.** Muqimiy ko'plab hajviy she'rlar ham yozdi. XIX asr oxiridagi tarixiy sharoitda tomir otgan takabbur, poraxo'r tanobchilarning, tovlamachi yulg'ichlarning esda qoladigan obrazlarini yaratdi. U o'z she'rlaridan birini "Tanobchilar" deb atadi. Tanobchi – yer o'Ichovchi degani. Erta bahorda dehqon yerga ekinni ekib bo'lgach, maxsus kishilar chiqib uni o'Ichaganlar va shunga qarab soliq belgilangan. Bir tanob – gektarning oltidan birini tashkil qilgan. Muqimiy shulardan ikkitasini qalamga oladi. She'r ulardan zulm ko'rgan bir dehqonning o'ziga xos "arznoma"sidir. Muallif shunday hikoya qiladi:

Bo'ldi taajjub qiziq hangomalar,  
Arz etayin emdi yozib nomalar.

So'ng gap o'n ikki oyda bir keladigan tanob voqeasiga va tanobchilarga ko'chadi. Ular: Sulton Alixo'ja va Hakimjon. Ular bir-birlari bilan g'oyat inoq. Ikki amaldorning gapi bir yerdan chiqmog'i lozim. Ular qaysi qishloqqa borsalar, elni yig'ib, o'zlarini ziyoli, anbiyo-yu ziyolilar zotidan qilib ko'rsatadilar. So'ng bu ham yetmaganday do'q-po'pisaga o'tadilar. Xullas, pora olmaguncha qo'ymaydilar. Ham "ellig-u yuzni" oladilar, ham tanobla-



rini “du chandon” (ikki marta) oshirib ketadilar. Voqea shunday yakunlanadi:

Aqcha qo‘lida ikki-uch mo‘ysafid,  
Derki: “Biz nazringiz-u, bizlar-murid”  
Zulm bilan ellig-u yuzni olur,  
Boz tanobini du chandon solur.

Shoir shunday xulosa chiqaradi:

Tag‘i bular yaxshi-yu bizlar yamon,  
El tamizidin hazr et, alamon.

Saylov — adabiyotimiz uchun yangi mavzu. Chor hukumati Turkistonda saylovni joriy etdi. Yuzboshi, mingboshi, qozi saylanadigan bo‘ldi. Lekin bu saylov poraxo‘rlikka yo‘l ochdi. Badavlat kishilarning pul sochish musobaqasiga aylanib ketdi. Muqimiyning “Saylov” she‘ri shu haqda.

“To‘yi Iqonbachcha” da bir to‘y hangomasi tasvirlangan. Toshkentdagi bir boyning Iqondagi gumashta(xizmatchi)si to‘y qilmoqchi. Hammayoqqa ovoza tarqatgan: unday qilaman, bunday qilaman!.. Nogoh Toshkentdan “xo‘jayin” “sizga to‘y qilishni kim qo‘yibdi”, degan mazmunda sim qoqadi. “Tuynugingdan agarda chiqsa tutun, Munda ber dasmoyalarni butun”, — deya tanbeh beradi. Imoga mahtal gumashta va uning xotini xursandchiliklarini zo‘rg‘a yashiradilar. Yeng uchida to‘y o‘tadi. “Shiravorning o‘ziga ikki yuz so‘m bo‘lurmi?!” deb kerilib yurgan gumashta, tuzni ham “cho‘t”ga urganda, o‘ttiz uch tangalik to‘y qiladi<sup>75</sup>.

Muqimiyning bir qator hajviy she‘rlari borki, ular aniq, tayinli kishilar haqida. Masalan, “Hajvi Viktorboy”, “Hajvi Viktor”, “Voqelai Viktor” she‘rlari Viktor Dimitrovich Ahmatov haqida. U Qo‘qondagi aka-uka Kamenskiylarning savdo idorasida ish boshqaruvchi bo‘lgan. 1891-yili Moskvada arzon mol keltirib beraman deb bir to‘da sodda o‘zbeklarning pulini olib bedarak ketgan. Bu gap o‘z davrida butun Farg‘ona vodiysiga yoyilib, shov-shuv bo‘lgan.

<sup>75</sup> Qosimov B. Milliy uyg‘onish. —Ma’naviyati. T.: 2002.

Muqimiy hajviyalarining ko'pchiligi mumtoz she'riyatimizning masnaviy janrida yozilgan. Masalan, "Tanobchilar", "To'yi Iqonbachcha", "Moskovchi boy ta'rifida", "Voqeayi Viktor" kabi. "Saylov", "Dar shikoyati Laxtin", "Voqeai ko'r Ashurboy hoji" g'azal yo'lida qofiyalangan. "Hajvi Viktor", "Hajvi Viktorboy" muxammasda yozilgan.

Muqimiy satirik asarlariga mavzuni real hayotdan, o'zi guvoh bo'lgan voqealardan, jiddiy o'zgarishlar yuz berayotgan davr ruhidan oldi. U ana shu hayotiy ma'lumotlarni satirik tahlil etish, salbiy holatlarga munosabatni belgilash, ayniqsa, satirik mahoratni oshirishda o'tmish an'analardan, Navoiy, Mashrab, Turdi, Gulxaniy, Maxmur kabi shoirlarning ijodidan ta'sirlandi, bahramand bo'ldi. O'tmish satirik an'analarning shoir tomonidan qabul etilib, o'z zamonasi ruhida rivojlantirilganini isbotlovchi dalillar ko'plab topiladi. Masalan, Muqimiy ilk bor Alisher Navoiy boshlab bergan, keyinchalik esa Mashrab, Turdi, Maxmurlar davom ettirgan g'azal janrida satira yaratish tajribasini o'zlashtiradi, o'zi ham qator kuchli satirik g'azallar yozadi. Satirik muxammaslar to'g'risida ham shuni aytish mumkin. Biz uning dastlabki namunalarini mohir hajvchi Turdi Farog'iy ijodida uchratamiz.

Muqimiy esa bu an'analarni davom ettirib o'z davrining ko'pgina illatlarini kuchli satira orqali fosh etuvchi muxammaslarni yaratadi. Bugina emas, Muqimiy o'tmish shoirlar ijodidagi satiradan ijtimoiy hayot va tuzumdagi nuqsonlarni, shaxslar tabiati va faoliyatidagi salbiy belgilarni qoralash va sharmanda etish usullaridan ham, mavjud qabohat va razolatni ro'y-rost ko'rsatishdagi izchillik, qat'iylik va nafratli munosabatdan ham, satirik obrazlarning butun borlig'ini yaqqolroq va ishonchliroq ko'rsatuvchi hayotiy holatni kashf etish mahoratidan ham, obyektga lo'nda, ammo kuchli haqoratlovchi tavsif berish san'atidan ham o'rgandi. Ba'zan bu o'rganish ayrim asarlarda shu darajada ravshan ko'rinadiki, uni qayd etish uchun dalillarni taqqoslashning o'zi yetarli bo'ladi. Masalan, Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidagi shohning

zo‘ravon, zulmkor amaldorlarining qishloqdagi faoliyatini tasvirlovchi epizod bilan Muqimiyning “Tanobchilar” satirasidagi qishloqqa chiqqan chor amaldorlari faoliyatini ifodalovchi misralar ana shunday namunalardan biridir. Har ikki shoir epizodlari qiyoslanganda mavzuning o‘xshashligi, obyektlarga munosabatning, satirik ruhning umumiyliigi, hatto holat va fosh etuvchi detallarining biri ikkinchisiga juda yaqinligi yuzaga chiqadi. Muqimiy o‘zining o‘ta zamonaviy va to‘la original “Tanobchilar” satirasidagi kuchli epizodni yaratishda, shubhasiz, ustoz Navoiyning ta’sirida bo‘lgan. Navoiyning satirik mahoratidan ijodiy o‘rganib, shoir o‘z davri materiallarini satirik tahlil etadi, o‘ziga zamondosh amaldorlarning zo‘ravonligi va zulmkorligini fosh qilib, ijtimoiy tuzumdagi adolatsizlikni hayotiy misollarda haqqoniy ko‘rsatadi.

Muqimiyning o‘tmish satiradan ta’sirlanganligini isbotlovchi yana bir misol uning “Hapalak” qishlog‘i haqidagi Maxmur g‘azaliga taxmis bog‘lashida ko‘rinadi. Bir qator o‘tkir satiralar muallifi Maxmur o‘zining bu g‘azalida Umarxon davridagi mehnatkash xalqning ayanchli ahvoli, son-sanoqsiz soliqlar, o‘lka, qishloq, shaharlarni vayronaga aylantirganini Hapalak misolida juda jonli tasvirlagan edi. Bu g‘azal keyingi davrlarda ham o‘zining zamonaviylik ahamiyatini yo‘qotmadi. Chunki, Muqimiy davrida Maxmur yashab ijod etgan davrdan xalq ommasini yashash sharoitining yaxshilanishi ma’nosida zarracha ham o‘zgarish bo‘lmadi, aksincha, xalqning turmushi ikki yoqlama zulm ostida yanada og‘irlashdi. Shuning uchun ham Muqimiyning xuddi shu satirik g‘azalga murojaat etishi tasodifiy emas: shoir Maxmur asari o‘z davrining ham holatini realistik tasvirlaydi, deb hisoblaydi va ayni zamonda, har baytga ulangan o‘z misralari bilan salafining g‘azalini yangi hayotiy dalillar bilan boyitib, mazmunini chuqurlashtiradi, satirik fosh etish ruhini kuchaytiradi. Natijada mazmun, maqsad shakl, intilish va g‘oya jihatidan bir butun, mukammal va aytish kerakki, endilikda Muqimiy qalamiga mansub yangi satirik muxammas maydonga keldi. Satirik g‘azallarga taxmislar to‘g‘risi-

da soʻz borar ekan, satiraning oʻziga xos xususiyatidan kelib chiqadigan bir muhim holatga alohida urgʻu berish zarur koʻrinadi. Gap shundaki, satirik gʻazalda (umuman, barcha satirik asarlarda boʻlganidek) shoirning gʻoyaviy pozitsiyasi, voqea-hodisalarga munosabati aytaylik, ishqiy-lirik gʻazaldagiga nisbatan aniqroq yuzaga chiqadi, unda shoir “men”ining bahosi, dunyoqarashi, hukmi boʻrtib koʻrinib turadi. Shunday ekan, satirik gʻazalga taxmis bogʻlaydigan ikkinchi bir shoir, avvalo va birinchi navbatda, gʻazal muallifining gʻoyaviy yoʻnalishi, bahosi, asardan chiqarayotgan hukmiga toʻla-toʻkis qoʻshilishi lozim, uni birlamchi asos sifatida qabul qilishi shart. Aks holda, toʻla maʼnodagi (gʻazalga har jihatdan hamohang) taxmisning yuzaga kelishi mumkin emas.

Muqimiyning taxmisidan chiqadigan birinchi xulosa shuki, u Maxmur gʻazalining ham gʻoyaviy yoʻnalishi va uni ifodalash usullari bilan, ham detallarni tanlash yoʻli va butun gʻazalga berilgan satirik ruh bilan batamom kelishgan va uni boʻljak taxmisning asosi, tayanch nuqtasi sifatida qabul qilgan. Har jihatdan Maxmur gʻazali bilan birikib-chatishib ketgan misralarning yaratilishi ana shundan dalolat beradi. Fikrimizning dalili sifatida quyidagi misolni keltiramiz:

Ajiriq ildizini mayda kelilarda ellik tuyub,  
Qaynatib, kunda ichib, derlar sumalak.

By baytga, gʻazalning boshqa misralari kabi, Maxmur juda katta mazmuni ifodalash vazifasini yuklagan. Shoir “qishloq ahli nihoyatda qashshoq, ayanchli hayot kechiradi; uning yeyishga noni, ichishga oshi yoʻq; dehqonlar och-yalangʻoch, xor-zor edi” mazmunini favqulodda mahorat bilan kichik bir detalda hayotiy va ishonarli ifodalay olgan. Oʻsha ayblovchi mazmun “ajiriq ildizini qaynatib yeyishga” mahkum etilishning oʻzida butun salmogʻi bilan keskin va alohida taʼkidlash kerakki, taʼsirchan aksini topa olgan. Dehqonlarning “kundalik” yemishlari shu ekan, kitobxon ularning turmush sharoitlari haqida aniq mantiqiy xulosaga kela oladi. Katta ayblovchi, fosh etuvchi mazmuni kichik, ammo juda

xarakterli detallarda kitobxonlarga yetkazish san'atidan Maxmur butun g'azal davomida foydalanadi, natijada yaxlit misralar ham ramziy ruh egallaydi. Aytaylik, shoirning "tovug'i ignachi-yu, o'rdagu g'ozu – kapalak" misrasini so'zma-so'z tushunish, shubhasiz, xato bo'ladi. Yuqorida keltirganimizdek, ushbu misrada ham, qishloqning xaroba va vayronazorga aylanganiga aniq ishora etilmoqda. Bu misra ham – dehqonlarning og'ir moddiy turmushini hayotiy detallarda yaqqol ko'rsatuvchi dalil sifatida o'qiladi.

Muqimiy Maxmur g'azaliga taxmis bog'lar ekan, unga shakl tomondangina yondashmadi, – u g'azal mag'zidagi ana shu qoralovchi, fosh etuvchi ruhni qayd etdi, asos sifatida qabul qildi. Natijada shoir "ulagan" misralar Maxmur misralari bilan mantiqiy aloqaga kirishib uzviy birlikni tashkil etdi, yagona mavzuda yaxlit g'oya, yaxlit mazmuni ifodalovchi muxammas bandlariga aylandi. Diqqatga sazovor joyi shundaki, Muqimiy misralari ham xuddi Maxmurniki kabi, ko'p o'rinda chuqur mazmuni ramziy iboralar da ifodalab keladi. Aytaylik, qishloqning "erkak-ayol" aholisining "issiqda kuyub yantoq o'tin chopishlari", "zog'ora nonini topsa" ("agar topsa'!) "qand o'rnida ardoqlab yeyishlari", "jazi yo'q qovoq sho'rvani suyub ichishlari" xuddi "ajiriq ildizini qaynatib" iste'mol qilishlari haqida misradagidek, umumocharchilik va nochorlik holatini real tasvirlab keladi:

Chopishur yantog' o'tun mard-u zan issig'da kuyub,  
Yer zog'ora nonini topsa otin qand qo'yub,  
Jazi yo'q sho'rva kadu yeydigan oshida suyub,  
Ajiriq ildizini mayda kelilarda tuyub,  
Qaynatib, kunda ichib, otini derlar sumalak.

Bu besh misra birgalikda, taxmisning boshqa bandlari kabi, o'tmish davri qishlog'ining, uning mehnatkash dehqonlarining qorong'u hayoti lavhasini yorqin gavdalantiradi, "vayrona, teshik kapa, olachuq, katalaklar"dangina iborat bo'lgan, suvsizlikdan cho'l-u biyobonga aylangan qishloqlarning tipik manzarasini ba-diyy bo'yoqlarda ishonchli chizib beradi.

Muqimiy bunday ayanchli holatga, xuddi Maxmur kabi, betaraf, loqayd qaramaydi. Shunday mavzuning g'azal (endilikda muxammas) uchun tanlanishining o'zidayoq yuzaga chiqqan mualliflar tutumi – o'lkaning vayrona, xarobazorga aylanishidan qayg'urish, achinish ohangi, qishloq mehnatkashlariga hamdardlik va ayni zamonda, shunday holatdan norozilik g'oyalari g'azal (taxmis) ruhi-ga singib ketgan:

Ko'chti xalqi yopinib ko'hna, uvoda to'nini,  
Charxdin o'tkarishib oh-u fig'on-u unini,  
Solmasun dushmana ham boshig'a kelgan kunini,  
Kecha nogoh eshitib shuhrati tillo pulini,  
Hapalak qo'rqishidin uchdi misoli kapalak.

Muqimiyning bu taxmisdagi katta yutug'i shundaki, u Maxmur g'azalini o'z davri nuqtayi nazaridan to'ldirib, g'oyaviy chuqurlashtirgan, badiiy-tasviriy vositalariga har jihatdan muvofiq misralar yaratishga muvaffaq bo'lib, mantiqiy izchillikka erishadi.

Maxmur g'azalining birinchi baytida hukmdorga murojaat etiladi. Bunda u eng yuksak unvonlar bilan ataladi. Muqimiyning shu matlaga qo'shgan uch misrasiga nazar tashlansa, ularning xuddi shu ruh, shu usul bilan yaratilganligini, ba'zan esa kesatiqning yanada keskinroq xarakter kasb etganligini qayd etish mumkin. Muqimiy taxmisidagi hukmdorning "odilligi" haqidagi, "arra"ning zulmidan bog'-u "chakalak"larning omonligi to'g'risidagi "ijobiy" misralarning chin ma'nosi salbiy bo'lib, Maxmur bayti ohangida o'qiladi:

Ko'rdi sandek shohi odilni na ins-u na malak,  
Arraning zulmidin emin hama bog'-u chakalak,  
Yangi oy ko'ziga xasmingni oturg'a kamalak,  
Ey jahondori zafar, kavkabayi davri falak  
Eshiting qissayi qishlog'i xarobi Hapalak!

Biz Muqimiyning Mahmur g'azaliga taxmis bog'lashi misolida o'tmish adiblar ijodidagi satirik an'analardan bahramand bo'lib, ulardan ijodiy ta'sirlanganligini ko'rib o'tdik. Bunda eng muhim belgisi shundaki, Muqimiy salafлари merosidan o'rganar ekan, ma-

salaga ijodiy yondashadi, o‘z davri, sharoiti materiallariga asoslanadi. Shuning uchun ham, masalan, Maxmur g‘azaliga bog‘langan taxmis Muqimiyning eng kuchli asarlaridan biri hisoblanib, XIX asr ikkinch yarmi – XX asr boshlaridagi o‘lkamiz hayotini, qishloq dehqonlarining og‘ir turmushini, vayronagarchilik va xarobazorlikni yorqin bo‘yoqlarda ishonarli tasvirlaydi. Qisqasi, Muqimiy lirika sohasida bo‘lganidek, satirada ham o‘tmish adabiyotimiz namoyandalarining ilg‘or an‘analari ta‘sirida bo‘ldi, ularni boyitdi, rivojlantirdi. Ammo, Muqimiy merosidagi kuchli satirik yo‘nalishni ana shu ta‘sir bilangina izohlash noto‘g‘ri bo‘ladi. Satira Muqimiy ijodida shoir dunyoqarashi, ideali bilan adolatsiz sharoit o‘rtasidagi jiddiy ziddiyatning mevasi sifatida yuzaga keldi. Xuddi shu jihatdan ham shoirning satirik merosi alohida ahamiyat kasb etadi – u o‘z davrining ilg‘or qarashlarini ifodaladi hamda xalq manfaatlarini pozitsiyasidan juda izchil va yuksak badiiylik bilan tanqidiy tahlil etdi.

### **Savol va topshiriqlar:**

Muqimiy ijodini o‘rganish qachondan boshlanadi?

Istiqlol davri muqimiyshunosligi haqida gapiring?

Shoir qaysi janrlarda ijod qilgan?

Muqimiy ijodining hajmi qancha misrani tashkil etadi?

Muqimiy she‘rlaridan kuylagan o‘z davrining taniqli san‘atkorlari kimlar?

Muqimiyning “Tanobchilar” hajviyasida nima haqida gap ketadi?

Yuzboshi, mingboshi, qozi saylovining pul sochish musobaqasiga aylanib ketishi haqidagi voqealar uning qaysi hajviyasida o‘z aksini topgan?

Muqimiyning qaysi hajviyalari masnaviy yo‘lida yozilgan?

Muxammas yo‘lida yozilgan hajviyalarini sanab bering.

Muqimiyshunoslik maktabiga asos solgan olim kim?

G‘.Karimovning muqimiyshunoslik sohasidagi birinchi maqolasi qanday nom ostida nashr etilgan?

## FURQAT VA MILLIY UYG‘ONISH DAVRI O‘ZBEK ADABIYOTI

### Reja:

Furqat — serqirra iste’dod sohibi. Shoir adabiy merosi.

Furqatning nasriy merosi.

Furqat — armon va ayriliq shoiri.

Shoir she’riyatida mazmuniy yangilanishlar.

*Furqat — serqirra iste’dod sohibi. Shoir adabiy merosi.* Furqat shoir va adib, adabiyotshunos va mutarjim, muarrix va elshunos sifatida o‘zidan boy meros qoldirgan, xattotlik va jurnalistik faoliyati bilan milliy ma’naviyat rivojiga ulkan hissa qo‘shgan, zamonasining mashhur tabib-hakimlaridan biri sifatida el dardiga malham bo‘lgan serqirra iste’dod sohibi. Shoir lirik merosi, ayni kezdagi ma’lumotlarga ko‘ra mumtoz she’riyatimizning o‘n ikki janriga oid bo‘lib, qariyb o‘n ikki ming misrani tashkil etadi. “Ahvolot” hamda “Qavoidi Chin va umuroti siyosiy” asarlari XX asr boshlari o‘zbek nasrining noyob namunalaridandir. Adabiyotshunoslikka doir “Ilmi she’rning qoidayi avzonining bayoni” asarida o‘zbek mumtoz adabiyotida eng ko‘p qo‘llangan vazn haqida ma’lumot berilgan.

“Gapning tavsifi”, “Aza tavsifi”, “To‘y tavsifi” kabi etnografik asarlarida xalqimiz urf-udumlarining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shoirning o‘zi nazmda “Hammomi xayol” nomli risola yozgani, she’rlarini yig‘ib, devon tuzgani, fors tilidan “Chor darvesh” asarini tarjima qilgani to‘g‘risida xabar beradi. Afsuski, mazkur asarlar hanuzgacha topilgan emas. Bundan tashqari Furqat birinchi o‘zbek jurnalisti bo‘lgan. O‘zbek matbuotchiligi endigina shakllanayotgan bir zamonda aytilgan jurnalistning kasb odobiga doir mana bu fikrlari bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotgan emas. “Gazet muallifig‘a kerakkim, – deb yozgan edi ijodkor, – in-



sofpesha va rostandesha bo'lg'ay. Noloyiq va nomunosib so'zlarni gazetga solmag'ay va yozg'on kalomidin gazet o'qug'uvchilarg'ay naf' va foyda hosil bo'lg'ay. Agar bir hikoyat yozsa ham aning zaminida bir foydalik mazmuni bo'lg'ay. Xorijiya va doxiliya ahvolotidin yozsa, adl va insof yuzidin rostliq birla yozg'aykim, e'tibor va istihsong'ay loyiq bo'lsun".<sup>76</sup>

Furqatning xattotlik mahorati, bu boradagi samarali faoliyati ham alohida o'rganishga loyiq. Shoir "Ahvolot"da o'zining yetti yoshga to'lgan davri haqida hikoya qilar ekan, shunday yozadi: "...xat mashqini o'zimg'ay lozim ko'rub, ertadin qiyomg'acha kitob o'qub, andin namozi asrga tegru mashqi xat qilur erdim"<sup>77</sup>. O'n yoshga to'lganida o'z "...savodi takmili uchun" Muhammad Olim ismli ustozining "xat ilmida noqis"ligi sabab "Mullo Qambar Ali nom bir xushnavis kishida digar bora ta'lim olib",<sup>78</sup> husnixat borasidagi ilmini mukammallashtiradi. Natijada xattotlikda kamolga erishadi. O'zbekiston Markaziy Davlat arxivida, mamlakatimizdagi turli qo'lyozmalar fondlarida, shaxsiy arxivlarda saqlanayotgan dastxatlari uning xattotlik mahorati nechog'liq yuksak bo'lgani dalilidir. Furqat tabobat bilan ham jiddiy shug'ullangan. Shoirning Yorkentda yozilgan g'azalidan olingan quyidagi bayt ham ushbu fikrni quvvatlaydi:

Hayf, besh-olti tanga deb, umrim o'tar do'kon ochib,  
Dori yasab havonchada kunda taqir-tuqur qilib,<sup>79</sup>

Hatto bu davrda hakim unvoni Furqatning shaxsiy muhrida ham aks etgan. Jumladan, uning Yorkentdan 1905-yil 10-iyulda yo'llagan dastxat maktubiga "Hakim Zokirjon hoji" bitigi bilan muhr bosilgan".<sup>80</sup> Yorkentda zamonasining mashhur shoiri Tajalli bilan

<sup>76</sup> "Turkiston viloyatining gazet". 1905-yil 6-aprel. 14-son.

<sup>77</sup> O'sha manba. 1891 yil 12 mart. 10-o'g'il.

<sup>78</sup> O'sha manba.

<sup>79</sup> Iqtibos g'azalning Farg'ona viloyatining G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot muzeyida saqlanayotgan dastxat nusxasidan olindi.

<sup>80</sup> O'zbekiston MDA, fond Ne 1009, 1-ro'yxat, 115-ish, 104-bet.

tanishadi va yaqindan do‘stlashadi. Tabib sifatida ham shuhrat qozongan Tajalli Muhyi bilan muntazam xat yozishib turgan. Shunday maktublardan birining hoshiyasiga: “Bu xat (ya’ni Muhyining xati – N.J.) “Zubdat ul-hukamo” deb shuhrat chiqargon xo‘qandlik Muhammad Zokirjon Furqat vositasi bilan bizga tegdi. Tajalli”<sup>81</sup>, deb yozib qo‘yilgan. Furqat aniq fanlar bilan shug‘ullangan. “Qavoidi Chin va umuroti siyosiy” asarida anosiri arba’a (o‘t, havo, suv va tuproq)ning fizik xususiyatlari va tibbiyotning ular bilan bog‘liq jihatlariga oid qimmatli mulohazalar bayon qilingani buning isbotidir. Bundan tashqari, Yorkent viloyati xalq komitetidan “Gulxan” jurnali tahririyatiga 1958-yil 18-avgustda kelgan maktubda Furqatning tabobatdan tashqari ilmi nujum (astronomiya) bilan ham shug‘ullangani ta’kidlanadi<sup>82</sup>. Sharqiy Turkistonda chiqadigan “Qashqar gazetasi”ning 1957-yil 11-sentabr sonidagi “Mashhur o‘zbek xalq shoiri Furqatning jasadi yutkap dafn qilindi” sarlavhali maqolada shoirning tarix, fizika, kimyo va astronomiya fanlari bilan shug‘ullangani xususida ma’lumot beriladi.<sup>83</sup>

***Furqatning nasriy merosi.*** O‘zbek mumtoz adabiyotining ulkan vakili, atoqli shoir Zokirjon Furqat o‘zining betakror lirik she’rlari bilan adabiyotimizni boyitdi. Uning she’rlari o‘z davrida ham, undan keyin ham mashhur bo‘lgan va Furqat kuchli, iste’dodli lirik shoir sifatida e’tirof etilgan. Ayni paytda u nasriy asarlar ham yozgan. To‘g‘ri, shoirning nasriy merosi uncha katta emas, lekin u Furqat ijodida ham, o‘zbek nasri va uning rivojida ham muayyan ahamiyatga ega. Furqat nasrining qimmatini va ahamiyatini haqida to‘liq tasavvur hosil qilish uchun uni o‘zbek nasri taraqqiyoti kontekstida ko‘rib chiqish lozim. Gap shundaki, mumtoz adabiyotimizda nazm va nasrning o‘rni va roli turlicha bo‘lgan. Bizda an’anaviy

---

<sup>81</sup> Ўзбекистон ФА Алишер Навоий номидаги Давлат Адабиёт музейи Фурқат фонди, Инв. 4-сон.

<sup>82</sup> Бу ҳақида қаранг: Ёрқентдан хат. Фурқат ва Муқимий ҳақида мақолалар. - Тошкент: Ўздавнашр, 1958. 150 бет

<sup>83</sup> Қаранг: “Қашқар газети”, 1957 йил 1 сентябрь.

ravishda she'riyat yetakchilik qilib kelgan, nasrning rivoji hamma vaqt nazmga qaraganda sust bo'lgan. Alisher Navoiyga qadar adabiyotimizda sanoqli nasriy asarlar bor edi. Navoiy bu bo'shliqni to'ldirdi va o'zbek adabiyotini qator nasriy asarlar bilan boyitdi. XVI asr bu borada nisbatan samarali bo'ldi. "Boburnoma" yaratildi, Xojaning "Gulzor", "Miftoh ul-adl" asarlari dunyoga keldi. Xususan, "Boburnoma"ning yaratilishi o'zbek nasri tarixida muhim voqea bo'ldi va adabiyotimizni dunyo miqyosiga olib chiqdi, o'zbek adabiyotida nasrning mavqeyini ko'tardi. Lekin keyingi asrlarda yana eski izga tushib olindi va she'riyatning adabiyotdagi yakka hokimligi misli ko'rilmagan darajada kuchaydi. Bu hol, xususan, adabiyotimiz tarixida nisbatan jonlanish, ko'tarilish davri bo'lgan XIX asr adabiyotida ham yaqqol ko'zga tashlandi. Mazkur asrning birinchi yarmida Amiriy davri adabiy muhitini, qanchadan-qancha ijodkorlar yetishib chiqqanini hammamiz yaxshi bilamiz. Lekin "Zarbulmasal" muallifi Gulxaniyni istisno qilganda, ularning barchasi she'riy ijod sohasida faoliyat ko'rsatdi. XIX asrning ikkinchi yarmida Muqimiy boshliq adabiy harakatda ham shu holni ko'ramiz. Muqimiy, Zavqiy, Nisbat, Muhayyir va boshqa ijodkorlar, asosan, lirik she'rlar yaratdilar. She'riyatning yakka hokimligi nasrni, hatto u an'anaviy tarzda katta o'rin tutib kelgan janrlardan ham siqib chiqara boshladi. Masalan, ilgari maktublar, asosan, nasrda yozilgan, "Munshaot"lar tuzilgan bo'lsa, bu davrga kelib ularni ham ko'proq she'riy shaklda yozish tamoyili yuzaga keldi. Ana shunday sharoitda Furqatning o'z ijodida nasrga ham murojaat qilgani, nasrda hasbi hol (avtobiografik asar), publitsistik maqolalar, risolalar (garchi ularning barchasi kichik, mo'jaz asarlar bo'lsa-da) yozgani katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu bilan shoir, bir tomondan, o'zbek nasri rivojiga, publitsistikamiz taraqqiyotiga, adabiyotshunoslik, etnografiya ilmlariga hissa qo'shdi. Furqatning bizga ma'lum nasriy merosi quyidagi asarlardan iborat:

I. "Xo'qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoloti. O'zi yozg'oni" nomli avtobiografik-memuar asar. Bu asarni turli olim-

lar turlicha ataganlar: “Furqatnoma”, “Xotira”, “Avtobiografiya”, “Esdaliklar” “Sarguzashtnoma”.

II. “Turkiston viloyati gazetisi”da bosilgan publitsistik maqolalar.

III. Risolalar:

1. “To‘y tavsifi”.

2. “Gap ta‘rifida”.

3. “Aza tavsifi”.

IV. “Ilmi she‘rning qoidayi avzoni”.

V. “Qavoidi Chin va umuroti siyosiy”.

Yuqorida tilga olingan asarlarning barchasi mazmuni va sohasi-dan qat‘iy nazar, o‘sha davr o‘zbek nasrining, publitsistikasining, tilining namunalari sifatida muayyan ahamiyatga molik. Lekin ular orasida “Xo‘qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoloti. O‘zi yozg‘oni” nomli hasbi hol asari ayri-cha bir qimmatga ega. Birinchidan, u memuar-avtobiografik janr namunasi, ikkinchidan, shoir hayoti va faoliyati to‘g‘risida ma‘lumot beruvchi manba, uchinchi-dan, shoir yashagan davr, undagi ijtimoiy va adabiy hayotni o‘zida aks ettirgan asar o‘laroq ahamiyatlidir. Eng muhimi, Furqat mana shu kichkina asarida o‘zining shaxs hamda ijodkor sifatida shakllanish jarayonini, o‘z ongi va dunyoqarashida yuz bergan o‘zgarish va evrilishlarni tasvirlab bera olgan, binobarin, asar adibning ijodiy evolyutsiyasini muayyan darajada aks ettiradi. Asar marka-zida muallif shaxsi turadi. Shu bilan birga, uning ko‘plab zamon-doshlarining qiyofalari ham o‘z aksini topgan. Ana shu tasvirlarda, shuningdek, muallifning o‘zi bilan bog‘liq voqealar, uning ichki kechinmalari o‘z ifodasini topgan sahifalarda muallifning nasrda-gi mahorati namoyon bo‘ladi, xususan, shoirning bolalik xotiralari aks etgan qismlarda jonli, hayotiy manzaralar mavjudligini ko‘rish mumkin. Uning maktabga borishi bilan bog‘liq voqealar tasviri ana shulardan biridir.

Yetti yoshli Zokirjon ota-onasi uni maktabga berish haqida maslahat qilayotganliklarini eshitib qoladi va g‘amgin bo‘lib yura-di, maktabga borishni istamaydi. Bir kuni otasi uni maktabga olib

borishini aytadi va non solingan barkashni dasturxonga o‘rab, uning qo‘liga tutqazadi. Bola otasidan oldin ko‘chaga chiqib, dasturxonni tashlab qochib qoladi. Kun bo‘yi boshqa mahallalarda o‘ynab yuradi va kechqurun sekin uyiga kirib keladi. Lekin ota-onasi niyatlari-dan qaytmaydilar. Otasi uni keyingi haftada maktabga olib boradi. Bu safar u qochib ketmasligi uchun o‘g‘lining qo‘lidan mahkam ushlab olgan edi. O‘zining o‘sha paytdagi holatini muallif qatlg hukm qilingan va o‘ldirish uchun olib ketilayotgan odamning ho-latiga o‘xshatadi va shunday yozadi: “Men yo‘lda yig‘lab borur erdim. Ul hol menga go‘yoki vojib ul-qatl kishini o‘ldurmoqg‘a olib borgan kabi saxt ko‘runur erdi”<sup>84</sup>. Oradan sal o‘tmay, keyin-gi sahifalarda biz bolani butunlay boshqacha kayfiyat va qiyofa-da ko‘ramiz. O‘qishga, maktabga nafrat bilan qarovchi bola endi yo‘q, u endi bilimga chanqoq, dars tayyorlashni yaxshi ko‘radigan, mutolaadan zavq oladigan o‘quvchiga aylangan: Chun andak za-monda Qur‘oni sharifni xatm qilib, “Chor kitob ibtido qildim... va xat mashqini o‘zumga lozim ko‘rub, ertadin qiyomg‘acha kitob o‘qub, andin namozi asrga tegru mashqi xat qilur erdim”<sup>85</sup>. Faqat o‘zini, o‘z kechinmalarini tasvirlashda emas, o‘z atrofidagi boshqa kishilarning qiyofalarini gavdalandirishda ham Furqat sun‘iylikdan qochadi. Biz bu o‘rinlarda primitiv usullarni, jumladan, qiyofalarn-ing bir xilda tasvirlanishini ko‘rmaymiz.

Shu ma‘noda Furqat tariximizda nodir bir hodisadir. Furqat nas-riy merosining tarkibiy qismi bo‘lgan publitsistik asarlar haqida so‘z ketganda bir masalaga ham to‘xtalib o‘tish joiz. Tadqiqotch-ilar mazkur asarlarning o‘zbek publitsistikasining dastlabki na-munalari sifatidagi ahamiyatini qayd etar ekanlar, ularni xabar, maqola deb ataganlar. Bu o‘rinda mazkur maqolalarga xos bir ji-hat ularning e‘tiboridan chetda qolgan: maqolalarning ko‘pchiligi maktub (asosan, muharrir nomiga) tarzida yozilgan, binobarin, ular janr nuqtayi nazaridan ham o‘ziga xoslikka ega.

<sup>84</sup> Фурқатнома, 132 бет.

<sup>85</sup> Ўша асар, 134 бет.

*Furqat – armon va ayriliq shoiri.* Qadim Sharq she'riyatining ruh va haqiqat olamiga e'tibor qaratilsa, vasl va visol ishtiyoqi, ayriliq va hijron azobi unda yerdan ko'kka qadar yuksalgani, ya'ni eng buyuk armon Olloh diydoriga yetishish, eng so'ngsiz judolik Ollohdan yiroqlik ekani ravshanlashadi. Shunga qaramasdan, ona vatandan, qondosh va jondosh eldan ajralish firoq va judolikdan ham og'ir bo'lishiga Olloh taoloning o'zi bandasini iqror aylab, o'zi uni sabrga undagan. Chunki bu hijron holati yonib-kuyib so'nish, samandarday yana tirilib, fig'on-u faryod chekishni zuhurlantiradi. "Hijron qafasida" "jon qushi" bo'g'ilib ketgan shoh va shoir Bobur Mirzo yozadi:

Ko'pdin berikim yor-u diyorum yo'qtur,  
Bir lahza-yu bir nafas qarorim yo'qtur.  
Keldim bu sori o'z ixtiyorim birla,  
Lekin borurimda ixtiyorim yo'qtur.

Chorasizlikka chora, ixtiyorsizlikka ixtiyor o'laroq ko'nikish odamni aql bovar qilmas g'ussa va qiynoq chohiga qulatadi. Bunday ahvolga mahkum bo'lgan ijodkorning adabiy shaxsiyati ham azob va hasrat olovida yonadi. Qo'qon farzandi Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat shulardan biri edi. Furqatning she'rga qiziqishi ancha erta boshlangan. "Chun tab'imda she'rdin asar ko'rub, – deydi shoir, – hatto bir-ikki g'azal manzurlari o'lub, taxallusimdin birmuncha so'z arog'a tushti. Furqat iboratikim, ma'nisi judolig'dir, xosiyat boisidin marg'ub ko'runmasmish..." Badiiy ijodga endi qadam tashlayotgan ijodkor uchun mutolaaning ta'siri ham, ahamiyati ham katta bo'lishini Furqat tajribasi ham to'la tasdiqlaydi. U tarjimon holidan bahs yuritgan asarida Atorning "Mantiq ut-tayr" dostoni, Xoja Hofiz devonini qiziqish ila o'qiganini ta'kidlab, yana: "abulmaoniy Mirzo Abdulqodir Bedil devoni g'azaliyotiga dil bog'lanib... Bedil dilbandi bo'ldim", – deydi. Furqat adabiy shaxsiyati va she'riyatiga kuchli ta'sir o'tkazgan ustozlarning ustodi, albatta, Alisher Navoiy edi. "Chun umrum shohidi, – deydi u, – to'qquz pardalarda arqasidin chehra ko'rguz-

di, Amir Alisherning turkiy devonlarikim Navoiy laqabdur, zabonim qushi ul xirmondan donachin o'ldi..." Abdurahmon Jomiy, Muhammad Fuzuliy, So'fi Olloyor – bular ham Fuqatning sevimli salafлари, xayol musohiblari edi. Furqatning ma'nan ilgariashi va shoirlik sir-larini o'zlashtirishni u mansub adabiy muhit va ijodiy jarayondan ajratish mumkin emas. Mana bu so'zlar shu nuqtayi nazardan e'ti-borga molikdir: "... Xo'qand viloyatidagi fozil va rasota'b kishilar birla ittihad aylab, alarning suhbatidin ko'p bahralar topdim va asr shuarolarikim, chunonchi, Mavlono Muhyi va Mavlono Muqimiy va Mavlono Zavqiy va Mavlono Nisbatdurlar, hamisha majlis bunyod aylab, zodayi tab'larimizdin mushoira qilur erduk va bir g'azalda tatabbu' ko'rguzub, bir o'z bo'ynig'a solib va ba'zisini boshini yer-ga qilib, oyog'idin osib zarb qilur edi va mazmun har nav' ifoda topar erdi". Jamiyat va turmushdan topmagan ma'naviy tenglik va erkinlikni ijod ahli ana shunaqa yig'in, davra hamda gurunglardan topishgan. Bu esa did va saviyani charxlagan. Bunday qaralganda, shoir hissiyot va taassurot kishisi. Tuyg'u va taassurot imkoni unda qancha kengaysa, ijodida yangilanish ham o'shancha ortadi. Buni Furqatning safar va sayohat mavzuidagi she'rlari ham to'la tas-diqalaydi. Dunyo kezish, ayniqsa, Turkiya, Yunoniston, Bulg'oriya, Misr, Arabiston va Hindiston mamlakatlaridagi sayohatlar shoirning dunyoqarashi, hayotning oq-u qorasi, baland-u pastini farqlashiga alohida ta'sir o'tkazgan. U she'riy maktublaridan birida:

Yer yuzida ko'rmadim Bo'mbay kabi shahri azim,  
Garchi kezdin Misr ila Istanbul-u Bulg'orlar, –deydi.

Qaysi o'lka yo shaharda bo'lmasin, shoir kindik qoni tomgan yurti, qadrdon do'st va aqrabolarni orziqib xotirlaydi. Xotirlab vatanidan madad tilaydi. Taqdir taqozosi va davr o'yinlari bois Yorkentga muqim o'r-nashgach, u adashish bilan ajralish, unutish bilan ko'nikish oralig'idagi bir qayg'u, chek-chegarasi ko'rinmas armon og'ushida kun kechiradi. Shoir o'zini bo'stonidan ajragan bulbul, oshyonidan judo bo'lgan "murg'i vahshiy"dan ham battar ahvolda tasavvur qiladi:

Kishi holimni bilmas – mehribonidin adashganman,  
Vatan ovaradurmen, do‘stonidin adashganman,  
Vatansiz benavodurmen, makonidin adashganman,  
G‘aribi ko‘yi g‘urbat xonumonidin adashganman,  
Va yo bir murg‘i vahshiy oshyonidin adashganman.

Shoirning ma‘naviy uyg‘onishi hayot qiyinchiliklari-yu, turmush tashvishlariga taslim bo‘lmay fikran ilgarilashi, Dard darajasi va iztirob miqyosiga bevosita daxldordir. Shoh Mashrab bejiz “Kimning dardi yo‘q, aning imoni yo‘q”, – demagan. Furqatning hayot va ijod yo‘lini yoritgan iztirob nuri esa erk hissiyoti va hurlikka sidq-u sadoqat edi. Mahzun yurakda Oллоh ravnaq bag‘ishlaydigan bu noyob tuyg‘u turli ohanglarda” uning o‘nlab she‘rlarida tasvirlangan. Mana, u bir g‘azalida nima deydi:

Biz istig‘no eli, qichqirmag‘an ma‘voga bormasmiz,  
Agarchandiki xirmon aylasa, dunyoga bormasmiz...

Biz ellar, faqr elimiz, parcha nonga sabr aylarmiz,  
G‘araz dunyo uchun Iskandar-u Doroga bormasmiz.

Ushbu so‘zlar erishilgan ruhiy erkinlik muhofazasiga bag‘ishlangan durdona kalimalardir. Ularni chin shoirning axloq va e‘tiqod dasturi, deyish joiz. Yigirmanchi asr o‘zbek adabiyotining asosiy bir tolesizligi mana shunday hurriyat, ma‘naviy-axloqiy qanoat va ijodiy g‘ururdan judo bo‘lganligidir. Bu ayanchli ahvolning tarixi esa jiddiy o‘ylashga loyiqdir. Furqat Qo‘qondan Toshkentga kelganida o‘ttizdan qirqa qarab endi qadam tashlagan yigit bo‘lgan. Shoir kishining kuch-quvvati bilan birga hissiyot va ehtirosi ham bu yoshda jo‘sh urishi muqarrar. Tasavvufiy hayot va nafs tarbiyasi to‘g‘risida Furqat ma‘lum bir tasavvurga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, nafs-u havoni mag‘lub aylash uchun biror murshid dargohida ranj-u riyozat chekmagan edi.

Badiiy ijoddagi har qanday buzilish, tanazzul va yuzsizlik mana shunday boshlanishini chuqur fahmlagan shoirlarimizdan biri ham Furqatdir. Uning mashhur “Sayding qo‘yaber, sayyodini mohiyatan



ozodlik gimni, “Uch xarobotiy” deb nomlangan tarje’band-musaddasini hurriyat qo’shig’i, deyilsa g’alat bo’lmaydi. Ustod Maqsud Shayxzoda ushbu she’rni Furqat lirikasining “shoh asari” deyishga loyiq, deb baholagandi. So’fiyona mazmundagi asarlarda tatbiq qilinadigan so’z, ibora va istilohlar anchagina. Biroq ular irfoniy maqsadga xizmat etadi. Shoir “uch qalandarmiz, qalandarxonada hamxonamiz” yoki “xonaqoh kunjig’a borib toat ayladuk”, deganda ham botiniy hurlikni sharaflydi. Bu, xususan, “uch navoiymiz” deb boshlanadigan oltilikda ochiq-oydin anglashiladi:

Uch navoiymiz, kelinglar, azmi gulshan aylali,  
Andalibga qo’shulib, ul yerni maskan aylali,  
Kuydurub gul shox-u yafrog’ini gulxan aylali,  
Chiltanini na etarmiz, o’zni chortan aylali,  
Yor bizni(ng) yorimiz, jonon bizing jononimiz,  
Ushbu davron birla o’tsak, yo’q erur armonimiz.

Umuman olganda, musaddasda “uch alamkash” “uch birodar”, “uch musofir”, “uch adoyi”, “uch g’aribiy”, “uch vafoiy”, “uch balokash” nuqtayi nazari va kayfiyati asosida erksevarlik g’oyasi hech bir shoironikiga o’xshamaydigan usulda juda chiroyli tasvir lab berilgan. Darveshlik, faqirlik va qalandarlikni yoqlagan holda Furqat rindlikni, ya’ni rind ma’naviyati va erkinlik imkoniyatini ulardan yuqori qo’ygan. Haqiqiy san’atkorlik – dardli, armonli yurakning bir parchasini go’yo uzib olib suvratlantirish yoki ezgin ruh holi va manzaralarini so’z bilan chizib berishdir.

***Shoir she’riyatida mazmuniy yangilanishlar.*** Turkiy adabiyot nazariyotchisi Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziyning fikricha: “...majmuyi shuaro istilohinda she’rning aqsomi ulkim, mo’tabar dur, o’n nav’ kelibtur: qasida, g’azal, qit’a, ruboiy, masnaviy, tarji’, musammat, mustazod, mutavval, fard”.<sup>86</sup> Olim nima uchundir bu sanoqqa turkiy adabiyotning xos janri bo’lgan tuyuqni qo’shmagani. Ta’kidlash joizki, Furqat “she’r aqsomining ushbu mo’tabar

<sup>86</sup> Шайх Ахмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. - Тошкент: Хази́на, 1996. 32 бет.

o‘n nav‘i‘ning, mutavvalni istisno qilganda, barchasida qalam tebratgan. Bu birinchidan. Ikkinchidan esa she‘riyatimizning mazmun jihatdan yangilanishi Furqat ijodidan boshlangan. Shoir nafis tuyg‘ularga ohorli badiiy libos kiydirishga asoslangan mumtoz nazmiy an‘anani davom ettirish barobarida Vatan va millat hayotidagi yangiliklarni, dardni, orzu-armonlarni she‘rga ko‘chirdi. Masalan, shayx Ahmad Taroziy munojotning mohiyatini “Tengri huzurinda tazarru” ekanida deb biladi. Mumtoz adabiyotimizning buyuk namoyandalari munojot orqali o‘z kechinmalari misolida yuksak insoniy tuyg‘ularni badiiy talqin etgan bo‘lsa, Furqat bu ruhdagi she‘rlarida istibdod iskanjasida qolgan Vatan va millat dardini cho‘ng iztirob bilan kuyladi. “Munojoti musaddas” asaridagi mana bu satrlar buning isbotidir:

Zulmatni girdbodi tegdi, quyunda qolduk,  
To‘foni hayrat, eyki, g‘arqi jununda qolduk,  
G‘aflat ila o‘tub umr, kulgu-o‘yunda qolduk,  
Kuffor bandi ichra sonsiz tugunda qolduk,  
Rahm aylag‘il, Xudoyo, bechora, xastalarga,  
Ranjur-u zor-u mahzun, ko‘ngli shikastalarga.

Furqat mustamlaka siyosatining mohiyatini “Zulmat girdbodi, quyun, to‘foni hayrat, g‘arqi junun” kabi istioralar, “Kuffor bandi ichra sonsiz tugunda qolduk” obrazli tasviri vositasida butunlay fosh etadi. Zero, bu istibdod siyosati millat hayotining barcha jabhalarini birday asoratga olgani, milliy istiqlolga eltadigan barcha yo‘llarning batamom to‘silgani bugun hech kimga sir emas. Shoirning “Bo‘ldi” radifli muxammasida quyidagilarni o‘qiymiz:

Yumub ko‘zni, qadamni mardlar sori adam qo‘ydi,  
Vafosiz dahr alami jonig‘a toki alam qo‘ydi,  
Ajal farzandi odamni jahon mulkida kam qo‘ydi,  
Ming-u uch yuz birinchig‘a sana tokim qadam qo‘ydi,  
Hamani emdi ko‘z tutgoni bir sohibqiron bo‘ldi.

Darhaqiqat, mustamlakachilar ona yurtimizga bostirib kirishi bilanoq millatning guli bo‘lgan ziyolilarni qatag‘on girdobiga tortdi. “Ming-u uch yuz birinchig‘a sana tokim qadam qo‘ydi”. Hijriy

1301-yil, milodiy 1883–1884-yillarga to‘g‘ri keladi. Demak, rus bosqinining ayni avj pallasi haqida gap ketyapti. Bu, o‘z navbatida, muxammas yozilgan sanani ham bildiradi. Ko‘rinib turibdiki, Furqat she‘riyatida ozodlikka, milliy istiqbolga intilish tuyg‘usi chuqur dard, betakror badiiyat bilan ifodalangan. Furqat Toshkentda yashar ekan, rus maktab-maorif tizimini ko‘rib hayratlandi. O‘zimizniki bilan taqqoslab, taraqqiyotdan nechog‘liq orqada qolganimizni angladi. Telefon, telegraf, gazeta, vistavka singari hodisalarning millat hayotiga kirib kelishini istadi. Bu haqidagi orzularini she‘rga soldi. “Jahon basti kushodi” — bu yorug‘ olamdagi barcha mushkulotlarni yechish yo‘li ilm-ma‘rifatda deb bildi. Furqat 1891-yilning sentabridan 1892-yilning 24-fevraligacha Turkiya, Yunoniston va Bolgariyada, 1892-yilning 24-fevralidan avgustgacha Arab mamlakatlarida, 1892-yil avgustidan 1893-yil sentabriga qadar Hindistonda, 1893-yil sentabridan umrining oxiriga qadar Yorkentda yashadi. Haj safari taassurotlari asosida adabiyotimiz tarixida eng mukammal hisoblangan “Hajnoma” asarini yozdi. Vatandan yiroqda yashar ekan, 1904-yilgi rus-yapon urushida sharmandalarcha mag‘lub bo‘lgan Rossiyaning ahvolini:

Bu so‘zning ramzini dono bilur, bas,

Nechuk otashga toqat aylagay xas, —

deya ta‘riflab, birovlarining yurtini bosib olish niyatida borgan rus askarini yapon xalqining bosqinchilarga qarshi g‘azab otashi oldida bamisoli xasga qiyos etadi. Xas otashga toqat qilolmay, bir lahzada kuyib kul bo‘lgani kabi rus askarlari vatanparvar yapon xalqi tomonidan tor-mor qilindi. Ushbu satrlar tagmazmunida ayni shu haqiqat ifoda etilgan. Vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbat va unga qaytishning ilojisizligi shoirning g‘urbatdagi she‘riyatida bosh yo‘nalishni tashkil etadi. Mana bu baytda ham shunga ishora qilingan:

Par-u bolim to‘kuldi, maskanim oxir qafas bo‘ldi,  
Muhabbat yo‘lida, Furqat, Vatandin ayrilib qoldim”.<sup>87</sup>

---

87 Зокиржон Фурқат. Асарлар мажмуаси (араб имлосида). Икки жилдлик. Илк жилд. — Тошкент: Қўлёзмалар институти, 1991. 141-бет

Hazrat Navoiyning “Mezon ul-avzon” asarida: “...ajam shuarosi vaznlarida ko‘rulmaydurgan, oz she‘r voqi bo‘lgan”, deya ta‘riflangan komili musammani solim (mutafoilun mutafoilun mutafoilun mutafoilun) vaznida ham g‘azallar bitgani Furqatning aruz nazariyasini chuqur bilishi barobarida ulug‘ salafлари an‘anasini munosib davom ettirganiga dalil bo‘la oladi. Furqatgacha aruzning ushbu bahrida Navoiy, Munis va Ogahiy she‘r yozgan”.<sup>88</sup> Shayx Ahmad Taroziy<sup>89</sup> va Bobur<sup>90</sup> ham aruzning komil bahri xususida ma‘lumot berib, mazkur vaznga o‘z she‘rlaridan misollar keltirgan. Demak, turkiy tilda Navoiygacha faqat Ahmad Taroziy bu vaznda she‘r yozgan bo‘lsa, Navoiydan keyin ushbu an‘ana nisbatan ancha kengaygan. Umuman, Furqatning mumtoz she‘riyatimizni mazmunan yangilash, uning eng yaxshi an‘analarini munosib davom ettirish borasidagi ijodiy faoliyati kengroq miqyosda o‘rganilishi zarur. Shoirning poetik mahorati, badiiy nasr rivojiga qo‘shgan hissasi, ilmiy va etnografik asarlarining qimmatini singari masalalarni yanada teranroq tadqiq qilish adabiyotshunoslikning galdagi vazifalaridandir.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Furqatning she‘riy va nasriy maktublari haqida ma‘lumot bering.
2. Furqatning Farg‘ona va Toshkent davri faoliyati haqida ma‘lumot bering.
3. Furqatning tasavvufiy mavzuda yozilgan she‘rlariga misol keltiring?
4. Furqat qachon Toshkentga keldi?

---

<sup>88</sup> Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, Тўртинчи том. – Тошкент: Фан, 1969. 247-бет; Мунис. Сайланма. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980. 133-бет; Огаҳий. Таъвиз ул-ошиқин. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1960. 339-бет

<sup>89</sup> Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. – Тошкент: Хази́на, 1996. 200-бет.

<sup>90</sup> Бобур. Мухтасар. – Тошкент: Фан, 1971. 80-бет

5. Furqatning “Begim” radifli she’rida nima tasvirlanadi?
6. Furqatning avtobiografik asari qanday nomlanadi?
7. Furqatning “Muxammas Muhammad Xudoyorxon tilidan” asari to’la holda qaysi jurnalda nashr etilgan?
8. Furqatning qaysi masnaviydari “Turkiston viloyatining gazetasi”da chop etildi?
9. Furqat 1891-yilda qaysi shaharlarga sayohat qildi?
10. Sankt-Peterburgda Rusiya Arxeologiya jamiyati Sharq bo’limi Axboroti VII jildida Furqatning qaysi asari nashr etildi?

## IS’HOQXON TO’RA IBRAT HAYOTI VA ADABIY MEROSINING O’RGANILISHI

### **Reja:**

Is’hoqxon To’ra Ibrat — ma’rifatparvar shoir, zabardast tilshunos, Tarjimayi holi.

Ibratning ma’rifatparvarlik faoliyati.

Ibratning ijodiy faoliyati.

Ibrat — tarixnavis olim.

Shoir ijodida ta’lim-tarbiyaning o’rni.

“Lug’ati sitta alsina” asari haqida.

*Is’hoqxon To’ra (1862—1937) — ma’rifatparvar shoir, zabardast tilshunos. Tarjimayi holi.* Bu zamin ulg’aytirgan yirik alloma, mutafakkir, shoir-u adiblarning jahon tamadduniga qo’shgan hissasini gapirib ado qilolmaymiz. Birgina, Namanganning o’zi qanchadan qancha ulug’ zotlar — Maxdumi A’zam, Mavlono Lutfullo Chustiy, Boborahim Mashrab, Fazliy Namangoniy, Nodim Namangoniy, Muhammadsharif So’fizoda, Is’hoqxon Ibrat, Chustiy domla, Usmon Nosir, Zafar Diyorga beshik bo’lgan. Ularning barchasi elni ma’rifatga yetaklagan.

Is’hoqxon To’ra Ibrat 1862-yilda Namangan yaqinidagi

To'raqo'rg'on qishlog'ida dunyoga kelgan. Onasi Huribibi maktabdor bo'lgan, uning maktabida qishloq qizlari o'qish, yozish, husnixatdan ta'lim olishgan. Ibratning ham ilk savodi onasining qo'lida chiqdi. Shu bois, bir umr o'z asarlarida volidayi muhtaramasini birinchi ustoz sifatida ehtirom bilan eslab o'tadi.

Ibratni XIX asr boshlarida Muhammad Siddiq Tunqator madrasasiga berishadi. Madrasa tahsili yillarida u Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Nodim, Haziniylar bilan yaqin muloqotda bo'ladi. Sharq-u g'arb olimlari asarlarini mutolaa qiladi. Rus va o'zbek tillarida chop etilgan "Turkiston viloyatining gazetasi" hamda Ismoilbek Gaspiralinig "Tarjimon" gazetasi bilan muntazam tanishib boradi. U madrasani tugatgach, o'z qishlog'ida maktab ochadi. Maktab yangicha ta'lim asosida faoliyat yuritgani uchun mahalliy amaldorlar qarshiligiga uchrab, tezda yopiladi.

Ibrat domla qayerda bo'lmasin, o'sha yerlik olim-u ulamolar bilan tanishadi. "Har bir zavvor va ahli fazl kishini ko'rsam, kayfiyat va ta'limot maollarini andin so'radim", – deb yozadi keyinchalik bu haqda o'z esdaliklarida.

Jahongashta olim safar davomida sharq va g'arb mamlakatlariidagi ilm-fan, ilg'or texnika yutuqlaridan bahramand bo'lib, ularni xalqimizga ham ilinadi. Uning yangicha o'quv uslubiga ega maktab, kutubxona, bosmaxonalar tashkil etgani yuqoridagi fikrimizni isbotlaydi. Sayohatlar, ilm-u hunar o'rganishga bo'lgan g'ayrat-shijoat Is'hoqxon To'ra Ibratni zamonasining eng peshqadam ma'rifatparvar shoiri, olimi, ilg'or maorifchisi, publitsisti bo'lib yetishishiga sabab bo'ldi.

Ibrat domla tarixchi olim sifatida "Tarixi Farg'ona", "Tarixi madaniyat", "Mezon ul-zamon" asarlarini yaratdi. Bu asarlarni yaratishdan oldin sharq-u g'arb tarixnavislari asarlarini sinchiklab o'rgandi. E'tiborli jihati, u haqqoniylik matlabi bilan yozdi. Muarrix tarixiy voqealarning faqat hikoyachisiga aylanib qolmasdan har bir hodisaga o'z munosabatini bildiradi. Shuningdek, oldin yozilgan tarix kitoblaridagi bir yoqlamachilik, asossiz maqtov yoxud

tanqidlarga nisbatan qarashlarini ifoda etdi. Olimning o'z so'zlari bilan aytadigan bo'lsak, "Tarixi Farg'ona" asari "izhori hunar yoki musanniflar qatoriga kirmak" uchun emas, balki "o'z zamoni bilan o'tgan zamoni tarozu qilib, vaznini bilsun uchun" yozganligini qayd etdi. Tarixiy asarlarga bunday munosabatda bo'lish xalq hayotini haqqoniy aks etishiga mezon bo'lib xizmat qiladi. O'quvchi "Tarixi Farg'ona" asari orqali Nodira, Muhammad Alixon, Fazliy Namangoniy, Gulxaniy, Maxmur, Hoziq kabi qator tarixiy shaxslar hamda ular bilan bog'liq voqealardan ham boxabar bo'ladi. Ibrat geograf olim sifatida Farg'ona vodiysining geografik tavsifnomasini ham beradi. Vodiyning tog'lari, daryolari, hayvonot va nabotot olami, iqlimi, tabiati, yerlik aholi, ularning kasb-u korlari – hunarmandchilik, bog'dorchilik, savdo-sotiq ishlari xususida batafsil hikoya qilingan. Shuningdek, muarrix joy nomlari bilan bog'liq aniq ma'lumotlar ham berib o'tadiki, bu ham o'quvchi e'tiborini o'ziga jalb etadi.

Tilshunoslik sohasida faoliyat yuritish, lug'at tuzish ishlari juda murakkab. U kishidan katta mehnat, bilim va tajribani talab etadi. Is'hoqxon to'ra Ibratning "Lug'ati sitta al-sina" ("Olti tilli lug'at") hamda "Jome' ul-xutut" ("Yozuvlar majmuasi") asarlari ana shunday mashaqqatlarga qilingan sabr-u toqat mevasidir. "Lug'ati sitta al-sina" – o'zbekcha, arabcha, forsha, turkcha, hindcha, ruscha so'zlarni o'z ichiga olgan. Bu kitob sharq va g'arb tillarini mukammal bilgan olimdan munosib tuhfa deyish mumkin. Is'hoqxon To'ra Ibratning lug'ati jonli tilda qo'llaniladigan faol so'zlardan tarkib topgani sabab, farzandlarini yangi maktabga bergan kishilar uchun g'oyat muhim qo'llanma bo'lgan. Shu bois, u nashr etilishidan avval qo'lyozma tarzida ko'chirilib, el orasiga tarqalgan. Ana shundan keyin tilshunos uni nashr etishga harakat qila boshlagan.

Misir fir'avnlariidan biri o'g'liga shunday mazmunda maktub qoldirgan ekan: "O'g'lim, temirchilar og'ir mehnat ostida kun kechiradilar. Kosalari oqarmaydi. Etikdo'zlar etik tikib, ro'shno-lik ko'rmay o'tib ketadilar. Tosh yo'nuvchilar tinmay ishlasalar

ham, kambag'allikdan boshlari chiqmaydi. Shuning uchun sen xat yozishni o'rgan, savodli bo'l, xat yozishni bilgan odam baxtli bo'ladi". Xat-savod chiqarish o'sha davrda ham, bugun ham dolzarb. Piktografik yozuvlardan so'nggi davr yozuvlariga qadar bo'lgan jarayon, tarix barcha uchun qiziqarli mavzu. "Jome' ul-xutut" ("Yozuvlar majmuasi") asari esa yozuvlar tarixiga bag'ishlangan bebaho risoladir.

***Ibratning ma'rifatparvarlik faoliyat.*** Ibrat domla 1908-yil Orenburgdan litografik jihozlar to'plamini olib kelib, "Matbaayi Is'hoqiya" bosmaxonasiga asos soldi. Farg'ona vodiysi matbaachiligining ilk korxonasi bo'lmish bosmaxonada tashabbuskorning asarlari, darsliklaridan tashqari gazetalar chop etish yo'lga qo'yildi. Ibrat domla davrning eng ilg'or publitsisti ham bo'lgan. Uning maqolalari, she'rlarining asosiy qismi "Turkiston viloyati gazetisi" sahifalarida e'lon qilingan. Shuningdek, jurnalist sifatida u "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona" nashrlarida o'z ijodi bilan muntazam qatnashib turdi.

Ibrat domlaning yana bir ulug' xizmati u yangi uslublarda saboq berishga asoslangan maktab ochdi. Unda shu yerlik bolalar bepul ta'lim oldilar. O'z uyida ochilgan ushbu maktab parta, stol-stul, doska, globus kabilar bilan jihozlangan. U maktabda bir haftalik dars jadvali joriy etgan. Darslik sifatida "Ustodi avval", "Adibi avval", "Muallim us-soniy" darslik-qo'llanmalar hamda o'zining "San'ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy", "Lug'ati sitta al-sina" asarlaridan foydalandi. Ulug' ma'rifatparvar kutubxona tashkil etib, uni "Kutubxonayi Is'hoqiya" deb nomladi. Ushbu ziyo maskani maktab o'quvchilari bilan bir qatorda, vodiy kitobxonlarining sevimli dargohiga aylandi.

Is'hoqxon To'ra Ibrat o'z she'rlarini jamladi va uni "Devoni Ibrat" deb atadi. Uning "Ko'rgoni keldim sog'inib", "Xush keldingiz", "Qalaysizlar", "Chaman ichra", "Ado qilasiz", "Gazeta xususida", "Qarz", "Turkiston ahliga xitob" kabi manzumalari mavzu



ko‘lami, badiiy jihatdan mukammalligi bilan alohida e‘tiborga mo-  
lik. “Gazeta xususida” she‘rida shunday misralar bor:

Gazet ko‘rmagan, bexabar xalqlar

Misli o‘lgandur va yo uxlagan.

Bugun zamon shiddat bilan rivojlanmoqda. Kishilarning ax-  
borotlarga bo‘lgan ehtiyoji borgan sari ortib bormoqda. Shu ma‘no-  
da, gazet so‘zini internet degan gap bilan ham bog‘lash mumkin.  
Mavzuga ana shu jihatdan yondashsak, bu misralar bugunimiz  
uchun ham ahamiyatli. Shoirning bunday ma‘rifatparvarlik ruhida  
yozilgan asarlari ko‘p. Ulug‘ ma‘rifatparvar shoir, olim, pedagog,  
publitsist, sayohatchi, bir so‘z bilan aytsak, qomusiy bilimlar sohi-  
bi bo‘lgan alloma Is‘hoqxon Ibrat butun hayot va faoliyatini zah-  
matkash, mehnatkash xalqiga bag‘ishladi. Mustaqillik orzusi bilan  
yashadi. Bu elni, yurtni ozod va obod ko‘rish istagi uning har bir  
asarida aks etdi. Biroq umrining so‘nggi yillarida 75 yoshni qoral-  
agan kekxa donishmandni “xalq dushmani” sifatida hibsga olishdi.  
Qamoqdagi jismoniy va ruhiy azoblar bu ulug‘ zotning dunyoni  
tark etishiga sabab bo‘ldi. Prezidentimiz Namangan viloyatiga  
tashrif buyurgan chog‘ida u zotning shaxsiyatiga alohida e‘tibor  
qaratgani, bu yerda maxsus Ibrat maktabi ochish zarurligi va bu  
maktabga nafaqat viloyat, balki mamlakatimizning barcha hudud-  
laridan eng iqtidorli yoshlarni o‘qishga jalb qilish kerakligini  
ta‘kidlagani bejiz emas. Shoir, noshir, muarrix, muallim, publitsist,  
lug‘atshunos, elshunos, tabiatshunos va, eng avvalo, millatparvar  
inson Is‘hoqxon To‘ra Ibratning hayot va ijod yo‘li yillar o‘tgan  
sari xalqimizga ibrat maktabi bo‘lib qolaveradi.

Ibratning shoir sifatida ham ko‘plab she‘rlar yaratgani, hatto  
devon tartib berganligi haqida ma‘lumotlar bor, lekin devon bi-  
zgacha yetib kelmagan. Faqat o‘sha davr matbuotida e‘lon qilingan  
she‘rlarigina saqlanib qolgan. Ibratning mazkur she‘rlari, asosan,  
tarbiyaviy, ma‘rifiy, axloqiy, didaktik mazmunda. Jumladan, u bir  
she‘rida:

Senga bu olam g'animatdur,  
Barcha ashyosi ne'matdur, –

deya o'zining hayotga, jamiyatga, tiriklikka bo'lgan munosabatini anglatadi.

Ibratning milliy kutubxona, kitobxonlik ishlarining ilk tashkilotchisi va targ'ibotchisi sifatidagi xizmatlari ham beqiyosdir. U asos solgan “Kutubxonayi Is'hoqiya” fondi bu jihatdan ancha boy bo'lib, kitob berish va olish ma'lum tartib-qoida asosida yo'lga qo'yilgan edi.

Ezgu va xayrli ishlari tufayli xalq hurmatini qozonib, qozilik darajasiga ko'tarilgan. Ibratning ilm-fan, madaniyat, maktab-maorif sohasidagi jonbozligi ayrim g'alamis mutaassiblarning g'ayrli munosabatlari tufayli ko'p to'siqlarga uchradi. 1937-yilga kelib esa uning barcha faoliyatiga chek qo'yildi, kitoblari yoqib yuborildi. O'zi esa yovuz kuch – Stalin qatag'oni qurboniga aylandi. Shu'la zulmat qoshida mahv etildi. Faqat istiqlol davriga kelib adibning muborak nomi va benazir ijodi asl qadr-qimmatini topdi<sup>91</sup>.

**Ibratning ijodiy faoliyati.** Is'hoqxon To'ra serqirra ijodkor sifatida “Lug'ati sitta al-sina” (“Olti tilli lug'at”), “Jome' ul-xutut” (“Xatlar majmuyi”, 1912-yil), “Tarixi Farg'ona” (1916), “Tarixi madaniyat”, “Mezon uz-zamon” (Zamon tarozusi), “San'ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy” kabi o'ndan ortiq tilshunoslikka oid, ilmiy-tarixiy hamda ma'rifiy asarlar muallifidir. Shuningdek, Ibrat nazm bobida ham sermahsul ijod qildi. Ibrat she'rlarini va boshqa asarlarini uch tilda (o'zbek, fors, arab) yozgan. Muhsiniy uni “sohibi devon” deb sifatlaydi. Lekin devon hozirgacha topilgan emas. Umid qilamizki, o'zbek adabiyoti kelajakda yana bir nodir devon bilan boyiydi. Uning e'lon qilingan she'rlari vaqtli matbuot sahifalarida, turli to'plamlarda talaygina. Shoirning o'g'li Abbosxon

---

91 Is'hoqxon to'ra Ibrat. Istiqlol qahramonlari. Tanlangan asarlar. –T.: Ma'naviyat 2005 yil.

1910-yilda tuzgan bayozga otasining 17 ta she'rini kiritgan<sup>92</sup>.

Esimizda, zarbulmasalday gap bor: bir rus generali XIX asrda degan ekanki, yerli xalq bizning tamaki va aroqni ichishga o'rgan-gach, Turkistonni bemalol bo'ysundirish mumkin. Ibrat esa bu og'ularga mukkasidan ketayotganlarni ko'rib, "Bo'lubdur" radiffi g'azalida nazmiy taassuf bildiradi.

Alhol muhtasib yo'q, bir-ikki qilsa ul do'q,  
Ichkuga xalq rog'ib, doyim fiyon bo'lubdur.  
Ushbu zamon onlar, topdi rivoj yamonlar,  
Yo'q emdi nuktadonlar, qanday zamon bo'lubdur?  
Har yerda oshkora fohish ishi-la lu'bat,  
Nosih muhtasiblar basta dahon bo'lubdur.  
Boy ila kambag'al yo'q, yo'q zanlarini farqi,  
Barcha libosi hafrang, bir nogahon bo'lubdur.  
Xalq o'ldi emdi tartib, ro'molga burnin artib,  
Moshina aylamasdan, kiymas chofon bo'lubdur.  
Mahbubi naxshixonlar, ko'zi qaro juvonlar  
Gastinsalarda yurib, sarfi ziyon bo'lubdur.  
Manzuma soli tarix, bu daxri inqilobi,  
Ming ikki yuz to'qson ikki bayon bo'lubdur.  
Ibrat, bu yerda turma, bunlar bila o'lturma,  
Bu xalqi fe'li-huyi senga ayon bo'lubdur.

Ibratning zamonga hamnafas shoirligini she'rlarining sarlavhasi-dan ham anglamoq oson: "Tarixi traktur", "Tarixi chopxona", "Is-lohi millat", "Tarixi vagon", "Qarz", "Ariza", "Shikoyati zamona", "Qoziyi qotil".

Erk g'oyasini tarannum etishda, ma'rifatparvarlik g'oyalari-ni targ'ib qilishda, ijtimoiy muhitga xalqchillik va kuzatuvchan-lik bilan qarashda, mustamlaka zulmi tufayli kuchaygan illatlarni qoralashda Ibrat o'z zamondoshlari Muqimiy, Furqat va Zavqiy-

---

<sup>92</sup> "O'zbek adiblari" (Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 2016) kitobidan

larga hamfikir, maslahatdosh edi. Shuning uchun ham Ibrat ijodida ma'rifatparvarlik va hajv uyg'unlashgani yaqqol seziladi. Aslida bu ikki yo'nalish orasida mutlaqo ziddiyat yo'q, aksincha, ularning biri boshqasini to'ldirib turadi. Aniqroq aytganda, Ibratdagi bu xususiyat yagona ezgu maqsadga ikki tomonlama yondoshuv, xolos. Negaki, yomonlikni inkor qilishning o'zi ezgulikning tasdig'ini anglatadi yoki yaxshilikni madh etish jaholatni qoralashdir<sup>93</sup>.

Is'hoqxon To'ra Ibrat "Olti tilli lug'at"ga fors, arab, o'zbek, hind va ruscha so'zlarni joylashtirgan bo'lsa, "Xatlar majmuasi"da qadimiy finikiya, yahudiy, suryoniy, yunon, slavyan, sanskrit, lotin, arman, gruzin va yana boshqa bir qator yozuvlar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi va ilmiy xulosalar chiqaradi. "Lug'ati sitta al-sina" – 53 bet, "Jome' ul-xutut" esa–132 sahifa hajmida kitobat qilingan. Ibrat til o'rganuvchilarga qulay bo'lishi uchun lug'at kitobini ikki qismga ajratadi<sup>94</sup>.

Ibratning o'sha paytda "Turkiston viloyatining gazetisi"da bosilgan "Eski maktablar xususida" (1907), "Namanganda mahalliy lavozimlarga o'tkazilgan saylovlar xususida" (1910-yil 21-mart), "Farg'ona viloyatidagi ko'hna shahar – Axsikent tarixi" (1913-yil 23-iyun), "To'raqo'rg'ondan maktub" (1914-yil 2-mart), "Toshkent safaridagi ma'lumotlarim" (1914-yil aprel) kabi maqolalari "ziyo.uz.com" saytiga joylashtirilganki, ularning har biri bittadan tarix. Chunonchi, "Открытие Коканд – Наманганской железной дороги" ("Turkiston viloyatining gazetisi"dagi qat'iy qoidaga ko'ra, sarlavhalar ruscha yozilgan) "Qo'qon – Namangan temir yo'lining ochilishi" maqolasi ham bag'oyat qimmatli tarixiy manba ekanligi bilan ahamiyatli: "Ushbu 7-iyulda Namangan otash aroba yo'li bitib, oni ochilganligig'a shukrona bayrami bo'lubdur... o'shal asnoda fotograflar va ham alohida chaqirilgan kinomotograf o'shal

<sup>93</sup> "O'zbek adiblari" (Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 2016) kitobidan

<sup>94</sup> Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. (Дарслик) Т. Маънавийт, 2004.

yerda hozir bo‘lub, tasvirlarini olib turibdur. Ul poyezd Chust istansiyasig‘a rasmi yurishda yurub borib, andin keyin Sirdaryog‘a ko‘p xarajatlar bilan bino qilgan yog‘och ko‘frikdin o‘tub, ... Namangan‘a kelgandin keyin istansag‘a nihoyatda ko‘p sardiylar yig‘ilib, atrof din, qishloqlardin umrida otash arobani ko‘rmagan odamlar kelib, ul otash arobani birinchi marotaba ko‘rub hayron qolib, poyezd kelayotgan vaqtda oq sallalik odamlar adadi nihoyatda ko‘b – 25000–30000 ga yetibdur”. Maqola gazetaning 1912-yil 15-iyul sonida chop etilgan. Demak, Namangan temir yo‘li 1912-yil 7-iyulda ishga tushirilganki, buning manbasi juda ishonchli va u jurnalist Ibrat qalamiga mansubdir. Ba‘zi manbalarda Namangan temir yo‘li ishga tushirilgan sana–1906-yil deb yanglish ko‘rsatilgan, u holda Ibrat 1907-yilning kuzida litografik mashinani poyezdda Orenburgdan Qo‘qongacha olib kelgach, bu yog‘iga dastgohni ot-arava va tuyalarga ortib mashaqqat chekmasdi.

*Ibrat — tarixnavis olim sifatida.* Is‘hoqxon Ibrat o‘zining tugallanmay qolgan asari – “Zamon tarozusi”da o‘sha paytdagi salbiy o‘zgarishlarning xalq ruhiyatiga ta’siri va millatni yemirayotgan illatlar xususida kuyunib yozadi. Asarni to‘qqiz mezonga bo‘lib, ularda bir-biridan muhim masalalarga to‘xtaladi<sup>□</sup>. Masalan, adib ikkinchi mezonda odamlarni guruhbozlikka berilmasdan, birlashib yashashga chaqiradi. Bu to‘g‘rida marhum va mashhur shoirimiz Muhammad Yusuf ham: “O‘zbekni o‘ldirar mahalliychilik”, deya nazmiy taassuf bildirgandi. Tabiiyki, millatning guli bo‘lgan o‘tkir qalam sohiblari bu kabi nuqsonlarga befarq bo‘lishmagan.

Sudxo‘rlik ham jamiyat rivojiga g‘ov bo‘ladiki, bu to‘g‘rida uchinchi mezonda gap boradi. Ibratning zamondoshi Sadridin Ayniy (1878–1954)ning “Sudxo‘rning o‘limi” asari ham ayni shu masalaga bag‘ishlanganki, o‘sha paytda xalq bu illatdan nechog‘li zada bo‘lganini anglash qiyin emas. Oltinchi mezon bid’atning zarari haqida. Bid’atga berilgan bandaga boylik buyurmaydi. Chunki, bid’at dabdababozlik va isrofgarchilikning otasidir. Ibrat bunday behuda sarf-xarajatlardan naf yo‘qligini quyidagicha talqin

qiladi: “Va ham jam’iyati nikoh to’yida bular qiladurg’on isroflari bir kishi o’g’lini taalluq qildurmoq bo’lganda, fотиha to’y degan bir katta to’y bo’ladur... Holi bulki, shul fотihaga besh yuz sarf bo’lsa, nikoh to’y kuni, albatta, ikki ming sarf bo’lur. Bu sarflarni(ng) o’g’liga va qiziga biron tiyin naf’i yo’q, o’rtadagi kishilar yeydur, ichadur, kiyadur. ...Sif-sidirg’a balosi qalmoqdan qolgan odat. Mana bu balolar ustimizda og’ir bir yukdur. Buni ko’tarub, maqsadga yetish bisyor qiyindur”.

Buni qarangi, marosimlarni kamchiqim qilib o’tkazish bugun davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan. Bu asar ana shu jihatlari bilan ayni zamonda ham o’z ahamiyatini yo’qotgani yo’q. Ibratning uyida maxfiy g’aladon bo’lib, 1937-yil 14-mart tunidagi tintuvda uning siri ochilmagan va Is’hoqxon To’ra qalamiga mansub bir qator bitiklar, jumladan, “Tarixi Farg’ona” asarining qo’lyozmasi ham NKVD changaliga tushmagan. Ibrat qizi Zarifaxonga tayinlagan ekanki:

– O’sha qog’ozlarni atlas ko’ylagingday asragin. Bu gapni bizga Ibratning nabirasi Jamilaxon Nizomova (Zarifaxonning qizi) aytib berdi. Zarifaxon arabiy yozuvdagi “Farg’ona tarixi”ni avval lotin, keyin kirill yozuviga ko’chirgan.

“Tarixi Farg’ona” asari avvalida “Ammo ba’d, bu bandayi Xudo va ummati Mustafо alkan ul-lisoni, notavon, a’no Qozi Is’hoqxon sokini qal’ayi Xon, a’no To’raqo’rg’on min muzofoti Farg’ona va az iqlimi Turkiston, bu tariqa ayon va bu tarzda bayon qilur...” jumlasini o’qiyimizki, demak, Ibrat bu asarni qozilik davrida (u 27 yil To’raqo’rg’on qozisi bo’lgan) yozgan. Bu tarixiy asarda asosan o’zbek davlatchiligi rivojining oqsagan bosqichi, ya’ni xonliklarning tanazzulga yuz tutishi, rus bosqinchiligi kulfatlari keng tasvirlanadi.

Tarix shunday: Namangan shahri va atrofi 1875-yil oktabr oyida Chor Rossiyasi tomonidan istilo qilingan. Bosqinchilarning o’ta shafqatsizligi “Tarixi Farg’ona”da ro’y-rost ko’rsatilgan. Ibratning yozishicha, To’raqo’rg’onga kirgan rus soldatlari qochganlarni

ham, qocholmay qolganlarni ham otavergan. Yoki Golovachev boshliq askarlar Namangan shahrida bir kun qatl qilgan, xatto masjid va xonaqohdagilarni ham qirib tashlashgan. Is'hoqxon Ibrat xalqimiz boshiga tushgan o'sha kunlarning jonli shohidi edi. U o'z ko'zi bilan ko'rganlarini shunday yozadi: "Muallifi kitob ul vaqtda o'n besh yoshimda xat-u savodim chiqqan talaba edim, birdan qoch-qoch bo'lub, har kim o'z holig'a ovora bo'lub, qiblagohimiz o'z hollarig'a bo'lub, qayon ketdilar, bilmaduk. Bizlar o'z mahallamizdagi xotunlar va bolalar ilan qochib bir bog'da yotduk, to shomg'acha bu to'p-u miltiq ovozi o'qlar boshimizdan ovoz birla o'tub turgani vahmida hech yerga chiqolmay, bog'da edik, "Kechasi sizlarni bir kishi chaqirdi" dedilar. "Kim ekan?" deb bog'dan chiqsam, qiblagohimizdan kelgan odam ekan. Ul kishi Mullakudning (Namangan tumanidagi qishloq) da ekanlar. Borub, bolalar asir bo'ldimu yoki otilib o'ldimu, eson-omon ko'rmak muyassar bo'lsa edi, deb Yusufxo'ja va Muhammad Zohid degan kishilarni yuborgan ekanlar. Alar bizlarni olub, kecha ilan jo'naduk. Bu muhoraba Botur To'ra askar yiqqandan bo'lg'on edi, o'zlari qochib ketib, To'raqo'rg'on fuqarosini badnom qildilar. Munda eski sipohlardan bir necha adadlari ancha-muncha yetushub, Muhammad Muso bezanjir degan kishi bosh bo'lub, nodon kishilar har yerdan o'q chiqarub, To'raqo'rg'onni ham ikki kun otuv qildilar. Oxirulamr... ertasi jum'a kuni yurt kattalari maslahat qilib, musolaha so'ramoqg'a... borganlarida Glovacho'b qattiq siyosat qilib, so'zlashibdu-rlar. Aytibdurki: "Nimaga ertaroq chiqmadinglar yoki tezroq kelmadinglar, muncha odam o'lmas edi... Rusiya katta podshohdur, sizlar urusholmaysizlar, yaxshi turub fuqarolik qilsalaringiz, sizlarni boy qiladur, agar janjal qilsalaring mana shunga o'xshagan otuv qiladur...

Valhosil, o'sha otuvdan so'ng Namangan tinchidi. O'shal vaqt kuz vaqti hijriy 1293-inchi, 94-inchisida edi, qavs chillasi bo'lsa kerak. Namangan tamom Rusiya davlatiga o'tdi. Bu ishlariki, ya'ni behuda fasod ishlar sabab o'z ahlimizni beilm va befikrligidan bo'ldi".

“Tarixi Farg‘ona” Qo‘qon xonligi haqidagi asarlar orasida xolisligi bilan mo‘tabar, kitobxon qalbiga ham shu jihatdan yaqindir. Negaki, 1991-yilgacha yaratilgan tarix darsliklarida yagona xulosa hukmron. Ya‘ni, bizdagi bir-ikkita xon-u xoqondan o‘zga hamma podsholar ilmsiz, johil, zolim, muttasil fuqarosining qonini ichgan va ezilgan xalq esa yil o‘n ikki oy qo‘zg‘olon bilan band bo‘lgan. Ayting-chi, u holda milliy davlatlarimizni kim boshqargan, tarix va taraqqiyot charxini kim aylantirgan? Buyuk o‘tmishimiz faqat zulm, qon va isyondan iborat bo‘lsa, o‘zbekning buyuk tamadduni osmondan tushganmi? Lyudoviklar, Pyotrlar, Yelizavetalar, hatto Yekaterinalar buyuk bo‘lganda, nega endi bizning hukmdorlar qip-qizil ahmoq deb sifatlanishi kerak?

“Tarixi Farg‘ona”da Ibrat go‘yo ana shunday savollarga javob beradi, yuqoridagi biryuqlama qarashlar poydevoriga zarba uradi. Va muallif alohida aytmasa-da, uqmoq mumkinki, hukmdor ham xom sut emgan bir banda va tabiiyki, yanglishadi-da. Binobarin, Ibrat qaysi bir xonni haqqoniy tanqid qilarkan, ayni chog‘da uning ijobiy ishlarini ham unutmaydi: “Bu Farg‘ona va Turkiston xonlaridan ikki kishi fuqaro va din-u millat uchun harakat etgan edi. Biri bu amirlashkar va biri marhumiy Mallaxon. To‘plar quydurub, miltiqlar yasab, korxonalar qilib, to‘plar uzrasiga kumushlar bila yozuvlar yozub, yaxshi diqqat etkan edi”. Shuning uchun ham bu asar nafaqat Qo‘qon xonligi, balki, O‘rta Osiyo xalqlari tarixini yoritishda muhim va ishonchli manba ekanligi bilan o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda. Kutubxona, kitobxonlik ishlarining ilk tashkilotchisi va targ‘ibotchisi sifatida ham xizmatlari beqiyosdir. U asos solgan “Kutubxonai Is‘hoqiya” fondi bu jihatdan ancha boy bo‘lib, unda kitob berish va olish ma‘lum tartib-qoidaga moslashgan edi. 1937-yilga kelib uning barcha faoliyatiga chek qo‘yildi, kitoblari yoqib, yo‘q qilib yuborildi. O‘zi esa qatag‘onga uchradi.

***Shoir ijodida ta‘lim-tarbiyaning o‘rni.*** Is‘hoqxon Ibratning hayot yo‘li, ilmiy faoliyati, uning millat ravnaqi yo‘lidagi jonkuyarligi chin insonga xos fazilatlaridir. Uning adabiy va tarixiy merosini



milliy qadriyatlarining tiklanish jarayoniga joriy etish, keng om-maga, ayniqsa, hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni yetuk qilib tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Ibrat yoshlarni ma'naviy dunyoqarashini o'stirishda kitob o'qishga, bilimli bo'lishga chaqi-radi, u xalq kelajagini ma'rifatda deb biladi. Uning otashin chaqiriqlari quyidagi misralarida yaqqol namoyon bo'ladi:

O'qingiz, ilmi hikmat sizga, bu ish katta Ibratdur,  
Agar ilm o'rganursiz barcha ishda sizga nusratdur.  
Agar ilm o'lmasa, nodon umri barcha kulfatdur,  
Bu ashyon jadidi mubaddini asli hikmatdur,  
Ajbib bir foyizi arzoqi insoniy vagon keldi.

(Ibrat yoshlarni bilim olish, yurt ravnaqi uchun hissa qo'shish, jamiyatning barcha sohalarida faol bo'lishga undaydi. Muhimi, Ibrat barcha kulfatlarning debochasi ilmsizlikdir, yangi islohotlar-dan hikmat olish kerakligini ta'kidlaydi.)

Is'hoqhon Ibrat 1887-yilda chet el safariga – onasini Makkaga olib borishga otlanadi. Ahamiyatlisi, Is'hoqhon Ibratning onasini Makkaga olib borishi uning axloqiy qarashlaridagi yetuk tarbiya-ga ega ekanligidan dalolat beradi. Islom dinidagi yetuk qadriyat hisoblangan, ota-onaga hurmat ma'rifatparvar hayotida o'z aksini topgan. Bu esa hozirgi davr ijtimoiy hayotidagi ko'zga tashlan-adigan muammolardan biridir. Bu o'rinda ham uning hayoti bu-gungi kun uchun axloq namunasi. Safar davomida Is'hoqhon Ibrat chet el xalqlari madaniyati, tarixi, ilm-fani yutuqlari bilan yaqindan tanishadi. Uning serqirra ijodkor sifatida, ayniqsa, olti tilda yaratilgan asari "Lug'ati sitta al-sina" o'sha davrda barcha jadid maktablari uchun chet tillarni o'rganishda muhim qo'llanma vazifasini bajargan. Lekin Turkistonda joriy etilgan qattiq senzura oqibatida asarning bosmadan chiqishi ancha kechikadi. Arxivda Ibratning N.Ostroumov nomiga yozilgan ikki maktubi saqlanadi. Jumladan: "1900-yilda 26-fevralda. Hurmatli Ostroumov huzurlar-iga savolnoma: Ushbu barobarinda siz ulug' martabadan o'tunib so'raymanki, 1898-yilda sizdan iltimos qilib edim, o'z tasniflar-

imdan olti til uzra “Sittayi al-sina” degan slovar kitobni bosma qilmoq uchun. Marhamat qilib ikki juz yuboring, ko‘rmoq uchun, degan ekansiz...boz bo‘lak maslahat qilsak, deb iltimos qiluvchi Is‘hoqhon to‘radurman”.

Ibratning chet tillarni o‘rganish yo‘lidagi sa’y-harakatlari tahsinga sazovordir. Hozirgi davrda O‘zbekiston jahon integratsiyasiga kirib borar ekan, chet tillarni o‘rganish qanchalik muhim ekanligini anglab yetdik. Vaholanki, bobomiz kelajak hayotni mazkur jihatlarni bir asr avval anglab yetgan edi. Ibratning ma’rifatparvarlik g‘oyalari asosida nafaqat xalq, balki butun millat taraqqiyotida ma’naviyat va bilimning ahamiyati naqadar beqiyos ekanligi yotadi. Ayrim jihatlarga e’tibor qaratsak, Is‘hoqhon Ibrat islom dinining ijtimoiy hayotdagi o‘rniga o‘z asarlarida ko‘proq urg‘u beradi. Aynan uning “Mezon uz-zamon” asarida ma’naviy qadriyatlarning mustahkamlashdagi asosiy mezonlar sanab o‘tilgan. Asarning muqaddima qismida Ibrat zamondoshlari bo‘lgan kishilarga – shayxlar, din peshvolari, olimlar, boylar, hokimlar va butun islom ahlini mol-dunyoga hirs qo‘yishdan tiyilishga chaqiradi. Allohning boylikka, kibrga ruju qo‘ygan bandalarini nafaqat islom dinida balki, boshqa dinlarda ham jazolashi aytib o‘tilgan. Asarda Ibrat Qur‘on oyatlaridan foydalanib odamlarni yaxshilikka, ezgulikka boshqarib yomonlikdan qaytarishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Darhaqiqat, Is‘hoqxon Ibrat yashab, amalga oshirgan ishlari o‘sha davr uchun ham bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Is‘hoqxon Ibrat jadidchilik harakatining yirik vakillaridan biri, matbaachi, publitsist, tarixchi, tilshunos va yana ko‘plab sohalarda faoliyat olib borganligini o‘ziyoq bizda milliy faxr tuyg‘usini uyg‘otadi. Ta’kidlab o‘tishimiz joizki, Ibrat yashagan tahlikali davrda millat ravnaqi deya yashashning o‘ziyoq ma’rifatparvarning insoniy matonatidan dalolat beradi. Ayniqsa, uning jamiyat ijtimoiy muhitining ko‘pgina sohalarida rivojlanish uchun faqat o‘qish va bilim olish kerak, – degan fikrlari yoshlarga bir

chaqiriqdir. Is'hoqxon Ibratning chet davlatlarga safar qilishi uning dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Is'hoqxon Ibrat publistikasining asosiy yo'nalishi – ma'rifatparvarlik g'oyalari tarannum etish edi. Shu bilan birga uning maqolalarida jadidchilik islohotlarining jamiyat hayotidagi ahamiyati ochib bergan. Ibrat maqolalari Chor Rossiyasining Turkistonni ruslashtirish va mustamlaka tuzumini yanada mustahkamlash maqsadida joriy etilgan bir qancha matbuot nashrlarida chop etila boshladi. Qattiq nazorat (senzura) davrida bu kabi jadidchilik ruhidagi g'oyalarni targ'ib etishni o'zi katta jasorat edi. Jumladan, Ibratning “Turkiston viloyatining gazetisi”da bosilib chiqqan “To'raqo'rg'ondan maktub” maqolasida shunday deyiladi: “...Bul qarzdorliklar mulk va obro'larimizni to'kmakka sabab bo'lgan beilm, behisob, befikr va madaniyatsizliklarimiz, beparvoligimiz va erinchoqligimizdir... Hech kimda xalq'ga nasihat yo'q bo'lsa ham qulog'iga olmaylar. Yoshlar bo'lsa, kukli ila yaradurlar. Qarilar ahli ayolini betartibda, axloqsiz qilib o'stirgan. Uylangandim so'ng rosxud otasidan yeydur. Otasi biror kun kamroq rosxud bersa, oni o'ldurmakda. “O'zidan chiqqan balog'a qayga borsin davoga”. Bu mubtalolik, jaholat tartibsiz bo'lib, so'kub katta qilib, yoshlikda ko'chada yong'oq, oshuq, ondin kattaroq bo'lganda gapxonada safsata, askiya degan behuda so'z urushmoq, so'kushmoqni ta'lim oladur. Bu af'oli badlarni, bu maraz dardni dorusi ilmdur”.

Is'hoqxon Ibrat xalq ma'naviyatining illatlarini, yoshlar tarbiyasining kamchiliklarida ota-onalarining rolini e'tirof etadi. Yoshlikda bolaga bilim berish o'rniga uning ma'naviyatini zaharlovchi illatlar tomon yetaklash jaholatga yetaklash bilan barobardir. Shu o'rinda ma'rifatparvar bugungi kunda ham jamiyat rivojiga g'ov bo'luvchi ko'pgina illatlarga qarshi kurashda bilimni, o'qishni yagona yechim sifatida ko'rsatadi.

*“Lug'ati sitta al-sina” asari haqida.* Rus tili bilan bir qatorida o'nga yaqin sharq va g'arb tillarini ancha mukammal bilgan Is'hoqxon Ibrat bu muhim masalada o'z xalqiga yordam qo'lini

choʻzdi. U olti tildagi: arabcha, forscha, hindcha, turkcha, sarcha va ruscha soʻzlarni oʻz ichiga olgan “Lugʻati sittayi al-sina” (“Olti tilli lugʻat”) nomli lugʻat kitobini yaratdi. Isʻhoqxon Toʻra mazkur asarni yaratar ekan, birinchi galda rus tiliga qiziquvchilarni koʻzda tutgan. Bu hol kitobning birinchi betidayoq koʻzga tashlanadi. Muallif ruscha yozuv tizimini bilmaydiganlarga ham qulay boʻlishi uchun rus soʻzlarini ham arab yozuvida beradi. Maʼlumki, rus va Yevropa soʻzlarini arab yozuvida ifodalash ancha murakkab boʻlsa-da, Ibrat bu ishni muvaffaqiyatli amalga oshiradi.

Kitob qoʻlyozma holidayoq qoʻldan qoʻlga oʻtib, nashr etilmasdanoq ziyolilar undan foydalanishga, koʻchirib olishga muvaffaq boʻlganlar. Rus tilini oʻrganish istagidagi oʻzbek ziyolilari, “usuli savtiya” maktabi oʻqituvchilari va oʻquvchilari bu asarning yaratilishidan xursand boʻldilar, koʻp nusxalarda chop etilishini sabrsizlik bilan kutdilar. Kitob bilan qoʻlyozmaligidayoq tanishgan shaxsning quyidagi soʻzlari ham buni tasdiqlaydi: “Ushbu ovoni xayriyanishonda Namangan uyezdiga tobeʼ Toʻraqoʻrgʻon qozisi janob Isʻhoqxon Toʻra oʻz taʼblaridan chiqarib, “Lugʻati sittati al-sina” degan olti lugʻatlik kitob tasnif qilib, bosmaxonaga yuboribdurlar.

Mazkur olti lugʻat: arabiy, forsiy, turkiy, sarti, hindiy va ruscha kitobni alhol iboralarini durust va tasʻhihlab koʻrub turubdurimiz. Albatta, oning bosilmogʻiga ijozat berilib, nechand nusxalar bosilib chiqsa kerak. Lekin aksar ibora va lugʻatlari tasʻhih va tagʻyir boʻlindi. Xususan, rusiya lugʻatlarini musulmoniya huruflari ilan yozmoq xoʻb qiyin va dushvor uchun ul ruscha yozilgʻon iboralarini koʻproq tagʻyir berildi va mazkur “Sittayi al-sina” degan janob qozining ixtiro qilgan lugʻat kitoblari, garchand kichik boʻlsa ham, bizning Turkiston viloyatimizda sartiylardan shuncha til bilib, bul tariqa kitob va lugʻat tasnif qilgan odam yoʻq edi. Binobarin, ul janob qozining bosma uchun yuborgan va tasnif aylagan lugʻat kitoblarini koʻrub, bosma qilmoqqa ijozat berilsa kerak, deb umid aylab gazetaga yozduk. Ul lugʻatlarni koʻb koʻrib oʻqidim. Aning uchun bu soʻzni men toʻqidim”.

Olimning ushbu asari XIX asrning 90-yillari o'rtalaridayoq, muallifning chet el safaridan qaytib kelishi bilan tugatilgan bo'lsa-da, lekin mahalliy mualliflar asarlarining ta'qib ostiga olinishi, chor mustamlakachilari tomonidan Turkistonda o'rnatilgan qattiq nazorat tufayli asar ancha kechikib – 1901-yili bosmadan chiqdi.

Buni o'sha davrda chor Rossiyasining Turkistondagi matbuot noziri vazifasini bajaruvchi N.P. Ostroumovning shaxsiy arxivida saqlanuvchi hujjatlar isbotlaydi. Arxivda Is'hoqxon Ibrat N.Ostroumovga lug'atni bosmadan chiqarishda yordam berishini iltimos qilib, murojaat etadi va uning taklifiga muvofiq kitobning ikki juz'ini yuboradi. Lekin asarni ancha vaqtgacha nashr qilish yoki nashr qilmaslik haqida hech qanday javob ololmaydi. Is'hoqxon To'ra Ibrat 1900-yilning 26-fevralida ikkinchi marta rus va o'zbek tillarida xat bilan murojaat etishga majbur bo' ladi.

Ma'lumki, Chor hukumati o'lka xalqlarining madaniy-siyosiy rivojlanishidan, milliy uyg'onishdan, ayniqsa, yerli aholining mutaraqqiy millatlar bilan muloqotda bo'lishidan qo'rqqar, shu boisdan ham o'sha davr uchun taraqqiyot kaliti hisoblangan rus tilini o'rganishga qattiq qarshilik qilar edi. Shuning uchun ham Is'hoqxon Ibratning mazkur asari bir necha yil chorizm senzurasidan o'ta olmadi. Bu ishda asosiy rolni Chor Rossiyasining Turkistondagi matbuot noziri N.Ostroumov o'ynadi.

“Lug'ati sitta al-sina” bir necha yillik sarguzashtlardan so'ng 1901-yildagi Toshkentdagi V.I. Ilin bosmaxonasida nashrdan chiqdi. Is'hoqxon To'ra ushbu asarni yaratishda ancha vaqt ilmiy ish olib bordi, chet ellarda bo'lib, material to'pladi. Asar kichik muqaddima bilan boshlanadi. Unda muallif mazkur asarni yaratish uchun bir necha yil material to'plagani, keyingi avlodlarga “bir nishon” qoldirish maqsadida kitob keltirgani, asarning tuzilishi, tartibi haqida gapiradi:

“...sayohat etdugum vaqtlarida Afg'oniston, Hindiston va For-siston shaharlari sayohatida...bir lison safar ahlina yuz oltun baro-barida ishladiki, biza mushohada bo'lib, lisonlar tahsiliga ko'shish

edub va ham dahr ahlina bir nishon qoldirmak fikri-la bir necha muddati madid bu kitob tadvinina justujo' edub, bo'yla bir kitob suratinda xalqg'a namudor etdim va ham olti lisondan murakkab o'ldug'i uchun, "Lug'ati sittati al-sina" tasmiya edub, ikki jild ila tartib etdum".

Lug'at olti tillik, ancha murakkab, o'zbekcha so'zlarning qarshisida arabcha, forscha, turkcha, hindcha va ruscha tarjimalari beriladi. U mingdan ortiq so'zni o'z ichiga olib, 53 betdan iborat, ikki qismdan tashkil topgan. Birinchi qism – alifbo tartibida tuzilib, har qaysi harfga alohida kichik-kichik bobchalar ajratilgan. Bu qismda fe'llarning noaniq va kelasi zamon shakllari avval forscha, keyin arabcha, turkcha, sarta, hindcha va ruscha tarjimalari beriladi. Is'hoqxon Ibrat mazkur asariga material to'plar ekan, jonli tilda ko'p qo'llanadigan eng faol so'zlarni kiritishga alohida e'tibor berdi. Unda iste'moldan chiqib ketayotgan arxaik so'zlarni deyarli uchratmaymiz, lug'atni keng xalq ommasiga tushunarli bo'lgan arab yozuvida yaratdi.

Ma'lumki, Is'hoqxon Ibratga qadar ham ruscha-o'zbekcha, o'zbekcha-ruscha lug'atlar yaratilgan. Masalan, V.P.Nalivkin va uning rafiqasi M.Nalivkinaning "Russkosartovskiy slovar", "Sartovsko-russkiy slovar" asarlari shular jumlasidandir. Lekin bu asarlardan kitobxonlar – rus tilini o'rganishga qiziquvchilar unumli foydalana olmadilar. Chunki bu kitoblar rus yozuvida yaratilgan bo'lib, o'zbek tilini o'rganuvchi ruslar va ruscha savodi bo'lgan sanoqli o'zbeklar uchun mo'ljallangan edi. Shuning uchun ham bu asarlar rus tilini o'rganuvchi o'zbeklar ehtiyojini qondira olmadi.

Is'hoqxonning mazkur asarini arab yozuvida yaratishi sababini shuning bilan izohlash mumkin. Mana shu muhim, nihoyatda murakkab masalaga o'zbek ma'rifatparvarlari orasida birinchi bo'lib, u qo'l urdi va zamondoshlari talabini birmuncha qondirishga muvaffaq bo'ldi. Shu nuqtayi nazardan, lug'at muallifi zamondoshlaridan birining: "...Bizning Turkiston viloyatida sartiylardan shuncha til bilib, bul tariqa kitob va lug'at tasnif qilgan odam

yo‘q edi”, – degan so‘zlari zaminida katta mazmun yotar edi.

### **Savol va topshiriqlar:**

Shoir va maorifchi Ibrohim Davron Is‘hoqxon Ibratni qanday ta‘riflaydi?

Is‘hoqxon Ibrat qachon va qayerda tug‘ilgan?

Is‘hoqxon Ibrat “Turkiston viloyatining gazetasi”, Ismoilbek Gaspiralining “Tarjimon” gazetasi bilan qachon tanishadi?

Is‘hoqxon Ibrat onasini Makkaga olib borish uchun qilgan sayohatlari haqida qaysi asarlarida to‘xtalib o‘tgan?

Is‘hoqxon Ibratning Namanganda ochgan kutubxonasi qanday atalgan?

Is‘hoqxon Ibrat qaysi tillarda erkin ijod qila olgan?

“Ilmi Ibrat” nomi bilan atalgan to‘plami qachon nashr qilingan?

Shoirning “Sahar vaqti chaman ichra” g‘azali qanday mavzuda yaratilgan?

Is‘hoqxon Ibratning ijtimoiy-siyosiy mavzuda yaratilgan qaysi she‘rlarini bilasiz?

Is‘hoqxon Ibrat ijodida yetakchi g‘oya nima edi?

## **TURKISTONDA MATBUOTNING SHAKLLANISHI**

### **Reja:**

Turkistondagi ilk matbuot nashrlari haqida.

Milliy taraqqiyparvarlarning matbuot taraqqiyotidagi o‘rni.

Ismoil Obidiy – milliy matbuotimiz asoschisi.

*Turkistondagi ilk matbuot nashrlari haqida.* Hozirgi zamonaviy gazetalarga yaqin bo‘lgan bosma gazetalar XVII asrda Yevropada bosib chiqarila boshlagan. XVIII asrning boshlarida esa Rossiyada gazeta chop etila boshlagan bir davrda Yevropa davlatlari matbuot sohasida ancha ilgariylan. Masalan, faqat Londonning o‘zida bir

vaqtda 10 tadan 20 tagacha gazeta va jurnallar chiqib turgan. Turkistonda esa matbuot Yevropa va Osiyodagi ko'pchilik davlatlarga qaraganda ancha kech vujudga kelgan.

Turkistonning madaniy markazlaridan biri bo'lgan Toshkent shahrida o'lkaning to'ng'ich gazetasi "Туркестанские ведомости" 1870-yil 28-aprelda chiqa boshlagan edi. Ushbu gazeta Rossiya guberniya vedomostlariga tenglashtirilgan bo'lib, unga amaldorlar obuna bo'lishi majburiy edi. Turkiston general-gubernatorligi bu gazeta orqali o'z g'oyalarini tarqatishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsa-da, amalda matbuot o'lkani har tomonlama o'rganib hamda rus aholini Turkiston hayoti bilan tanishtirish, ularga madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy xabarlar berish borasida alohida ahamiyat kasb etgan edi.

Turkistondagi birinchi o'zbek tilidagi gazeta "Turkiston viloyatining gazetisi" 1870–1883-yilgacha "Туркестанские ведомости" gazetasiga "Ilova" tarzida chiqarilar edi. Bu gazeta bir oyda 4 marta – 2 marta o'zbek tilida va 2 marta qirg'iz tilida chiqa boshladi. 1883-yil 30-yanvardan 500 nusxada alohida gazeta sifatida chop etila boshladi. 1888-yilga kelib gazeta 600 nusxadagina bosilib, uning asosiy qismi majburiy obunachilarga aylantirilgan mahalliy amaldorlarga jo'natilgan. 1910-yilda gazeta 1850 nusxada chop etilgan. "Turkiston viloyatining gazetisi"ning muharriri N.Ostroumov gazetaning o'quvchilari kamligini milliy tildagi dastlabki gazeta bo'lganligi va mahalliy aholi uchun pulga gazeta sotib olib o'qish yangilik ekanligi bilan izohlagan edi. Aslida esa Turkiston aholisi ziyolilari orasida Ismoil Gasprinskiy muharrirligida chiqqan "Tarjimon" gazetasi mashhurroq bo'lgan o'sha davrning o'zidayoq "Turkiston viloyatining gazetisi" xalq orasida katta obro'ga ega emasligi sabablarini ochishga ma'lum ma'noda harakat qilingan.

Turkiston general-gubernatorligi ma'muriyati Turkistonning uch viloyati harbiy gubernatorlariga bu haqda o'z fikr-mulohazalarini yuborishni so'ragan edi. O'z navbatida ular tomonidan ushbu gazeta kam o'qilishining bir necha sabablari ko'rsatilgan. Eng



asosiylaridan biri – gazetada rasmiy buyruq va farmoyishlarning bosilishi juda ko‘p joy olganligi, undan tashqari gazetaning rasmiy bo‘lmagan bo‘limida berilayotgan ma’lumotlar quruq hamda hayotdan uzilgan holda berilganligi, shuningdek, arabcha va forscha so‘zlar hamda atamalar haddan tashqari ko‘p ishlatilishi uni o‘qishda qiyinchilik tug‘dirishida, deb ko‘rsatilgan edi. Mazkur gazetaning moliyaviy ahvoli ancha og‘ir bo‘lib, ayniqsa, 1912-yilning oxiri–1913-yillarda mablag‘ yetishmasligidan gazetaning yopilish xavfi ham bor edi. Faqat Toshkentda mahalliy tilda xususiy gazetalar chiqarishga harakat qilinayotganligi, bu esa hukumatga qarshi kayfiyatlar tarqalishiga olib kelishini hisobga olgan Turkiston general-gubernatorligi “Turkiston viloyatining gazetasi”ni moliyaviy tomondan qo‘llab turishga uringan edi. Hatto, 1913-yilning 5-yanvarida Turkiston general-gubernatori harbiy vazirga xat yozib, ushbu gazetani bosib chiqarishga mablag‘ so‘ragan, so‘ralgan mablag‘ning yarmini berish to‘g‘risida 1915-yilning noyabrida harbiy vazir buyruq bergan edi. Lekin “Turkiston viloyatining gazetasi” Rossiyaning boshqa joylarida, ya’ni Gelsingfros, Qozon, Qashg‘ar, Boqchasaroy, Moskva, Omsk, Peterburg shaharlarida ham oz bo‘lsa-da o‘quvchilariga ega edi. Ushbu gazeta sahifalarida Turkistonda boshqa milliy gazeta yo‘qligi tufayli Is’hoqxon Ibrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Mirmuhsin Shermuhamedov va shu kabi taraqqiyparvarlar madaniy-ma’rifiy mavzudagi maqolalari bilan qatnashib, mahalliy aholining dunyoviy ilmlarga, fan va texnika, boshqa xalqlarning ilg‘or madaniy va adabiy merosiga qiziqishini kuchaytirganlar.

Turkiston matbuoti tarixida bu ikki gazeta uzoq muddat davomida uzluksiz chiqib turishining asosiy sababi – Turkiston general-gubernatorligining rasmiy matbuot nashri bo‘lgani va hukumat mablag‘i hisobiga chiqarilgani edi. Dastlabki matbuot nashrlari sifatida bu gazetalar Turkistonda davriy matbuotning shakllanishi va rivojlanishi uchun sharoit hozirlagan edi.

XIX asrning 90-yillariga kelib Turkistonda matbuot sohasida

burilish yuz berdi. Bu davrda o'lkada rus tilidagi dastlabki xususiy gazetalar paydo bo'la boshladi. Dastlab Samarqandda, keyin Toshkentda 1890–1907-yillarda chop etilgan “Okraina” va 1898-1907-yillarda Toshkentda chop etilgan “Russkiy Turkestan” gazetolari shular jumlasidandir. Mazkur gazeta faoliyatida N.Likoshin, N.Xanikov va A.Divayevlar faol ishtirok etishgan. Bu gazetalar universal bo'lib, uning sahifalarida o'lkaning tarixi, geografiyasi, iqtisodiy hayoti va madaniy-ma'rifiy masalalari muntazam yoritib borilgan. 1904-yilda “Ташкентский листок” gazetasi chop etila boshlagan edi, unda telegrammalar, e'lonlar va mahalliy xronikalar ham berib borilgan. Ushbu gazeta 1906-yildan “Ташкентский курьер”, 1908-yildan esa “Туркестанский курьер” nomi ostida chiqqan.

XX asr boshida Turkistondagi rus siyosiy matbuoti qatoridan sotsial-demokratik nashrlar ham joy ola boshlagan edi. 1905–1907-yillarda Turkiston sotsial-demokratlarining bolsheviklar oqimiga mansub namoyandalari ba'zi gazetalarni, xususan, “Русский Туркестан” gazetasini egallab, undan o'z g'oyalarini tarqatishda foydalangan edilar. Birinchi rus inqilobi mag'lubiyatga uchraganidan so'ng 1917-yil fevraligacha Turkistonda bitta soni chiqqan “Ташкентский рабочий” gazetasidan tashqari bironta ham bolshevistik yo'nalishdagi gazeta nashr etilmagan.

***Milliy taraqqiyparvarlarning matbuot taraqqiyotidagi o'rni.***  
XX asr boshlarida Toshkentda milliy taraqqiyparvar kuchlar bir qancha gazetalar chiqarishga muvaffaq bo'lganligi o'lka ijtimoiy hayotida muhim voqea bo'lgan. 1905–1907-yillardagi inqilobdan vahimaga tushgan hukumat matbuot sohasida ham yon berishga majbur bo'lgan. Gazetaning xalq ijtimoiy-siyosiy ongini oshirishdagi rolini tushungan jadid taraqqiyparvarlari milliy gazetalar chiqarishga muvaffaq bo'lishgan. Bunday gazetalarning ko'pchiligi, avvalo, Toshkent shahrida chop etilgan. Milliy taraqqiyparvar kuchlar chiqargan gazetalar “Taraqqiy” (1906-y.), “Xurshid” (1906-y.), “Shuhrat” (1907-y.), “Osiyo” (1908-y.) hukumat to-

monidan qattiq ta'qib ostiga olinib, gazetaning har bir sonlaridagi maqolalar tarjima qilinib kuzatib borilgan. Hukumat gazetasi bo'lgan "Turkiston viloyatining gazetasi" sahifalarida ushbu gazetalar qattiq tanqid ostiga olingan. Bu milliy gazetalar juda qisqa vaqt nashr qilingan va hukumatga qarshi yo'nalishlari uchun to'xtatib qo'yilgan. Jadid taraqqiyparvarlari tashkil etgan milliy gazetalarda millatni jaholatdan qutqarish va uning taraqqiy topishiga erishish masalalari diqqat markazida bo'lgan. Ular milliy ongini o'stirishga o'z hissalarini qo'shganlar.

Qattiq siquvga olingan milliy taraqqiyparvar kuchlar uzoq vaqt matbuotga ega bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lgan edilar. Bu haqda milliy taraqqiyparvarlardan biri Rauf Muzaffarzoda shunday deb yozgan: "Bizda "Taraqqiy"dan so'ng ko'pgina gazetalar chiqib, oz fursatda yana yopilib qoldi. Agar o'sha paytda chiqib, so'ng yopilgan jaridalarni yig'sak, juda katta jarida mozori hosil bo'ladi". Lekin jadidlar muntazam ravishda bu yo'lda harakat qilgan edilar. Natijada XX asrning 10-yillarida Turkistonning qator shaharlarida, jumladan, Toshkent shahrida ham milliy matbuotni yo'lga qo'yishga muvaffaq bo'lingan. 1914–1915-yillarda Ubaydulla Xo'ja Asadullaxo'jayev muharrirligida "Sadoyi Turkiston" gazetasi chop etildi. Uning ustidan ham hukumat tomonidan qattiq nazorat o'rnatilgan. Gazetaning asosiy maqsadi Turkistonni ma'rifat, taraqqiyot yo'liga boshlash edi.

Bu vazifani amalga oshirishda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Tavallo, Saidnosir Mirjalilov, Hamza Hakimzoda, Xolid Said, Abdulhamid Sulaymon, Mo'minjon Muhammadjonov, Abdulla Erg'oziyev, Nushiravon Yovushev, Siddiqiy, Lutfulla Olimiy, Mulla Said Ahmad Vasliy, Fuzayl Jonboyev, Muhammadjon (mudarris), Badriddin A'lami, Hoji Muin, Sh.Rahimiy kabi millat fidoiylari muharrirga yaqindan yordam berdilar. Lekin gazeta iqtisodiy tomondan og'ir ahvolga tushib qoldi. Kundalik nashr sifatida paydo bo'lgan "Sadoyi Turkiston" haftada bir marta chiqq boshladi va umuman yopilish xavfi paydo bo'ldi. Shunda

gazeta millatparvar boylarga murojaat qilib, birgina tatar xalqi 30 ta jarida nashr etayotgan vaqtda 10 million turkistonliklar uchtagina jaridani chiqarishni davom ettira olmasligi taraqqiyotdan orqada qolishning asosiy sabablaridan biri ekanligini ta'kidlab, "boylar pul bilan, muharrirlar qalam bilan, aholi o'qishi bilan yordam etsalar", – deb xalqqa murojaat qilgan.

Turkiston taraqqiyparvarlaridan Mahmudxo'ja Behbudiy ham ushbu gazetani chiqarishni davom ettirish uchun millat jonkuyarlari moddiy va ma'naviy tomondan yordam berishlarini, chunki dunyoda 10 million aholiga ega bo'lgan davlatlar minglab matbuot nashrlariga ega ekanligini ta'kidlab, milliy taraqqiyparvar kuchlarini mushtariy yig'ishga yordam berishga chorlagan edi. Ammo milliy taraqqiyparvarlarning sa'y-harakatlariga qaramay, 1915-yil 10-aprelda mablag' yetishmaganidan "Sadoyi Turkiston" gazetasining 66-soni chiqarilib, to'xtatib qo'yildi. Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, keyinchalik Ubaydulla Xo'jayev gazetani yana chiqarishga uringan, lekin hukumatdan rasmiy ruxsat ololmagan hamda 1917-yilning boshida Petrogradga davlat dumasining musulmonlar fraksiyasiga arz qilish niyatida bo'lgan.

*Ismoil Obidiy – o'zbek matbuoti asoschisi.* Jahonda gazetaning vujudga kelish jarayoni ham insoniyatning axborot almashuviga bo'lgan zaruriyatidan kelib chiqqan edi. Shuningdek, hukmron kuchlar gazetadan jamiyatga ta'sir ko'rsatish, o'z g'oyalarini singdirish yo'lida va jamiyat a'zolarining qarashlarini bilish uchun foydalanganlar. "Taraqqiy" ehtiyoj, zarurat bois dunyoga kelgandi. Shu bois ham qisqa fursat ichida haqiqiy ma'noda qo'lma-qo'l bo'lib ketdi. Ayniqsa, gazetadagi deputatlarning ish jarayonidagi sustkashlik, madrasalarning qoloqligi, zamonaviy ta'lim-tarbiyadan uzoqlashib ketganligi kabi dolzarb mavzularda maqolalar berilishi chor mustamlakachilarini cho'chitib qo'ydi.

Bu nashr o'z faoliyatini atigi ikki oy-u bir hafta davom ettirgan bo'lsa-da, shu vaqt ichida ziyolilar e'tiborini qozonib, hukumat va aqidaparast ulamolar, tanqidni jini suymaydigan kishilar quvg'ini-

ga uchradi. Natijada to'rt marta sudga berilib, mol-mulki musodara etildi. U o'zbek matbuotiga asos solgan Ismoil Obidiyning "Taraqqiy" gazetasi edi.

Turkistonda dastlabki matbuot nashri chor Rusiyasi bosqinchilarning rus tilida chop etiladigan "Туркестанские ведомости" gazetasi bo'lib, u 1870-yilning 28-aprelidan 1917-yilning 15-dekabrigacha bo'lgan faoliyati davrida, asosan, mustamlakachilar siyosati va mafkurasini targ'ib qilgan. Aynan o'zbek va qirg'iz tillarida chop etilgan "Turkiston viloyatining gazetasi" ham "Туркестанские ведомости"ning o'zbekcha nusxasi bo'lib, farqi mustamlakachilarga xizmat qilayotgan mahalliy ijodkorlar tomonidan tayyorlanib, nashr etilayotganida edi. Zero, targ'ib-u tashviq ham mustamlakachilar mafkurasi bo'yicha bo'lib, "ведомости" dan o'zbekcha chiqayotganligi bilan ajralib turardi.

Cho'lpon ta'biri bilan aytganda, "Turkiston viloyatining gazetasi" istilo etilgan generallar tarafidan nashr etilgan, ruslig'ning shavkat va saltanatini ko'hna madrasalarning tumtaroq tili ila osmonlarga chiqargan bir gazeta edi".

Avloniy esa "...bu gazeta – Turkiston o'zbeklari uchun birinchi gazeta bo'lg'oni kabi yerlik xalqni razolat, safolatga boshlag'on tarixiy bir qora guruh gazeta. Bu maorif madaniyatiga dushmon bo'lg'oni hamda tabiiy el orasig'a bid'at, xurofot tarqatishqa bor kuchi bilan kirishgan va bu yo'lda bir qancha muvaffaqiyatlarga uchrag'on edi", – deya jadidlar nuqtayi nazaridan "Turkiston viloyatining gazetasi"ga baho bergandi.

Shunday vaziyatda bor haqiqatni yozadigan, milliy kayfiyatni ifodalaydigan sof o'zbekcha nashrga ehtiyoj tug'ilyotgan edi. Zero, bu paytga kelib, Behbudiy, Avloniy, Cho'lpon, So'fizoda va yana ko'plab qalamkashlar matbuot maydonida qad rostlab turar, ularning "Turkiston viloyati gazetasi"ga yozganlari missioner Ostroumov tomonidan "qaychilanib" chiqarilar, ba'zi paytlarda esa chop ham

etilmasdi. Bularning barini ko‘rib, sezib yurgan va o‘zbek xalqi qarashlarini ifodalaydigan milliy gazetaga ehtiyoj tug‘ilganini anglagan Ismoil Obidiy 1906-yil 27-iyundan “Taraqqiy” nomli milliy o‘zbekcha gazetaga asos soldi. Gazeta Toshkentdagi V.Ilinning xususiy bosmaxonasida bosilib, O‘rta Osiyoga tarqatilgan.

Abdulla Avloniyning 1924-yil 24-iyundagi “**Turkiston**” gazetasida yozgan maqolasiga ko‘ra, “gazeta muharriri Ismoil Obidiyga Taraqqiy ismi berildi. Hozirgacha xalq Ismoil Obidiyning ismini Taraqqiy deb yuritadir. Bu gazeta elning eng suyub o‘qiydurg‘on bir gazetasi bo‘la oldi. Bu gazeta o‘sha zamon musulmon gazetolari ichida eng so‘li bo‘lib, hukumat va uning ma‘murlarig‘a qarshi hujum ochdi. Bu gazeta yerlik yosh yozuvchilarg‘a sahifasidan keng o‘rin berdi. Istibdod hukumatining favqulodda saqlash qo‘li bilan bu gazeta o‘ldirildi. Xalq oziqsiz qolib, uzoq vaqt jimjitlik hukm surdi”.

“**Taraqqiy**”ning garchi 21-soni nashrdan chiqqan bo‘lsa-da, ularda Behbudiy, Munavvarqori, Mulla Said Ahmad qizi Nozimaxonim, So‘fizoda, Shokir Muxtoriy, Bahrombek Davlatboyev kabilarning milliy ruhdagi xalqchil maqolalari chop etilib, o‘quvchilar hurmatini qozondi. Ro‘y berayotgan voqea-hodisalarni haqqoniy yozgani, chorizm siyosatini tanqid qilgani, jadidlarga qarshi bo‘lgan konservatizm qarashdagi qadimgi ulamolar qilmishlarini sharmanda qilgani sababli ham gazeta to‘rt marta sudga berilib, oxiri chor hukumati tomonidan uni nashr etish taqiqlab qo‘yildi.

Ha, ”Taraqqiy” ehtiyoj, zarurat bois dunyoga kelgandi. Shu bois ham qisqa fursat ichida haqiqiy ma‘noda qo‘lma-qo‘l bo‘lib ketdi. Ayniqsa, gazetada dumadagi deputatlarning ish jarayonidagi sustkashlik, madrasalarning qoloqligi, zamonaviy ta‘lim-tarbiyadan uzoqlashib ketganligi kabi dolzarb mavzularda maqolalar berilishi chor mustamlakachilarini cho‘chitib qo‘ydi. Ba‘zi mutaassiblar va

“Turkiston viloyatining gazetasi” kabi mustamlakachilar mafkurasini ifodalovchi muxbirlar “Taraqqiy”ni obro‘sizlantirish yo‘lidan bordilar. Xususan, gazeta muharriri Ismoil Obidiy haqida, “muharrirning asli ismi ma’lum emas, imzosi “Sayyid Ismoil” esa-da, o‘zi “Sayyid” bo‘lmasa kerak”, deb qochiriqlar qildi va shu xildagi g‘iybatlar bilan “Taraqqiy”ni to‘xtatishga harakat qildilar.

“Taraqqiy” muharriri sayyidmi, emasmi, muhim emas, yozganlari muhimroq, shunga qarash kerak”, – deya baho berib o‘tgan, ahvol yaxshilanishiga umid qilgandi. Afsuski, bunday mutaassibona qarashlar, mustamlakachilarning tazyiqi natijasida gazeta yopiladi. Ziyo Saidning yozishiga ko‘ra, “Taraqqiy” qora guruh ulamolari bilan qattiq tortishib, ularning xalq orasida obro‘larini tushirishga harakat qildi. Ora-sira hukumatga ham tegib turdi. Mazkur “gunohlari” uchun 20-nomeriga yetganda, chor hukumati tomonidan musodara etilib, muharriri qamoqqa olindi”.

Garchi shunday bo‘lsa-da, Ismoil Obidiyning “Taraqqiy” gazetasini birinchi o‘zbek milliy matbuot nashri sifatida tarixda qoldi.

### **Savol va topshiriqlar:**

Turkistonga matbuotning kirib kelishi qaysi davrga to‘g‘ri keladi?

Turkistonda paydo bo‘lgan gazetalarni ketma-ketlikda sanab bering.

Ismoil Obidiy qanday gazeta chiqargan, ilk o‘zbek matbuotchisi sifatidagi xizmatlarini so‘zlab bering?

“Taraqqiy” gazetasida eng dolzarb muammolar yoritilgan maqolalarga misol keltiring.

Behbudiy qanday gazetaga asos solgan?

Abdulla Avloniyning matbuotchilikdagi o‘rni haqida so‘zlang.

“Tarjimon” gazetasi qay zarurat sababli yaratildi?

## ISMOIL GASPIRALI VA TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI

### **Reja:**

Ismoil Gaspirali Turkiston jadidlarining ma'naviy rahnamosi.  
Ismoil Gasprinskiyning adabiy merosi.  
Ismoil Gasprinskiy va "Tarjimon".

### *Ismoil Gaspirali Turkiston jadidlarining ma'naviy rahnamosi.*

Ismoil Gasprinskiyning Turkistonga uning turli soha va yo'nalishdagi, ayniqsa, ta'lim, til, yer masalasidagi muammolarga munosabati ko'lamini uning "Tarjimon"da e'lon qilgan o'zining yoki boshqa ziyolilarning maqola va xabarlaridan ko'rish mumkin. O'z navbatida Gasprinskiyga Turkiston o'lkasi rus, mahalliy ma'muriyati, ziyolilari munosabati ham turlicha ko'rinishlarda aks etadi. Turkiston jadidlarining Ismoil Gasprinskiyga bo'lgan munosabati, uning fikr va g'oyalariga nisbatan qarashlari Turkistondagi boshqa tabaqa vakillaridan keskin farq qiladi. Samarqandlik taraqqiyparvarlarning yetakchisi bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiydan tortib barcha Turkiston jadidlari Ismoil Gasprinskiyni o'ziga ustoz deb bildi. Ularning aksariyati Gasprinskiy bilan shaxsan ko'rishmagan bo'lsa-da, uning faoliyati, fikrlari bilan bevosita "Tarjimon" gazetasi orqali juda yaxshi tanish edilar. Ularning deyarli barchalari 1905-yilga qadar dunyo ahvoli, musulmonlar hayotiga oid xabarlar bilan ko'proq aynan ana shu gazeta orqali tanishdilar. Adabiyotshunos B.Karimov ta'kidiga ko'ra, "XX asr boshlarida vujudga kelgan yangi o'zbek adabiyotining bir avlodi shu gazetani o'qib ulg'aydi, fikri ochildi, millatni tanidi, erkni qo'msadi". Gasprinskiyga nisbatan islom dunyosi uchun yangi "mujaddid" yoki davr uchun "mujaddidi fikr" kabi epitetlarning qo'llanilishi hamda uning umumturkiy til borasidagi qarashlarining amaliy jihatdan Turkistonda joriy etilishi bilan bog'liq muammolar, ziyolilarning mas-



ala bilan bog'liq fikrlari va qarashlari juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jihatdan olib qaralganda, Gasprinskiyning Turkistondagi izdoshlari uni tom ma'noda dinni yangilovchi "mujaddid" sifatida baholashga urindilar. Yana shuni ta'kidlash o'rinliki, Gasprinskiy "millat" tushunchasiga ta'rif berar ekan, u diniy istilohning mazmunini biroz kengaytirdi va millat bo'lish uchun faqatgina din birligi kifoya qilmasligi, uning bilan bir qatorda til birligi ham turishi kerak degan xulosaga keldi. Bu g'oyani targ'ibi uchun esa Gasprinskiy gazeta maqolalari bilan bir qatorda adabiy asarlardan keng foydalandi. Bu jihatdan ham u turkistonlik jadidlarga o'rnak bo'ldi. Gasprinskiy asarlarining bosh qahramoni Mulla Abbas Toshkandiy – Faransaviy islohotchilik g'oyalarini yetkazishda juda katta muhim rol o'ynadi .

Turkistonlik jadidlarning barchalari, qozoq ma'rifatparvarlaridan tashqari, rus tarbiyasini olmay, milliy muhitda yetishdi. Ular yangi fikrlarni Ozarbayjon Turkiya, Eron va tatar nashriyotidan, eng ko'p, yuqorida aytilganidek, Ismoil Gasprinskiyning "Tarjimon"idan oldilar. Turkistonlik jadidlarning Gasprinskiyga bo'lgan munosabati uning hayotligida hech bir manbada ochiq ko'zga tashlanmaydi. Ularning barchalari Ismoil Gasprinskiy vafoti munosabati bilan nashriyotda unga nisbatan o'z munosabatlarini izhor etdilar. Turkistonlik ziyolilar orasida faqat shoir Kamiygina Gasprinskiy hayotligi vaqtida unga atab madhiya yozdi. Bu 1898-yili bo'lgan edi. Kamiy o'z she'rini "Tarjimon" idorasiga yuboradi va unda nashr etishni so'radi. Lekin Gasprinskiy "birodar, juda go'zal she'r bilan bizni va "Tarjimon"ni madh etibsiz. Tashakkur. Muhabbatnomangizni saqlaymiz, lekin gazetada nashr qilish qo'limizdan kelmaydi. Chunki agar madhga loyiq bo'lgan bo'lsakda o'z-o'zimizni madh etadigan darajada jasoratimiz yo'q", – deb javob berdi. Oradan 16 yil o'tib Kamiy ushbu she'rini Behbudiyning "Oyina"sida nashr qildi. Kamiy "Tarjimon"ni eng maqbul, barcha narsadan xabar beruvchi bir maktab misoli desa, noshirini tili o'tkir, fasih, aqlli kabi so'zlar bilan ta'riflaydi. Gasprinskiyning

vafoti munosabati bilan yozgan marsiyasida esa, unga nisbatan haqiqatgo'y, ustodi zamon, musulmonlar tayanchi, din-u millatga panoj kabi epitetlarni qo'llaydi.

XIX asrning oxiriga kelib "mujaddid" atamasi an'anaviy shar'iy ma'noda emas, lug'aviy ma'nosida qo'llana boshlaganini kuzatish mumkin. Bu davrda "mujaddid" atamasi asl diniy yangilanish emas, balki unga turtki beruvchi omillarni amalga oshiruvchilarga nisbatan ishlatildi. Bu omil musulmon davlatini va xalqini rivojlanish yo'liga burish, zamonaviy ilm-fan, sanoat, aloqa vositalarini qo'llash, bir so'z bilan aytganda, musulmon davlatida dunyoviy islohotlarni amalga oshirishdan iborat edi. Gasprinskiy ham "mujaddid" atamasini ayni shu ma'noda Eron shohi Nasriddinga<sup>95</sup> nisbatan qo'llaydi. Uni davr musulmon hukmdorlari orasida eng bilimdoni va ma'lumotlisi, deb hisoblaydi.

***Ismoil Gasprinskiyning adabiy merosi.*** Qrim tatar ma'rifatchisi, jadidchilik harakatining asoschilaridan biri Ismoil Gasprinskiyning adabiy asarlari jamoatga hali u qadar yaxshi tanish emas. U g'oya va fikr odami bo'libgina qolmay, ayni zamonda roman va hikoyachi, adabiyotning nazariy muammolari va tanqidchilik sohasida ham samarali faoliyat olib borgan adabiyotchi hamdir.<sup>96</sup>

Gasprinskiy "Tarjimon" gazetasidagi faoliyati davomida bir qancha adabiy taxalluslardan foydalandi. U eng ko'p foydalangan taxalluslaridan biri Mulla Abbos Faransaviydir. Gasprinskiy ushbu

---

<sup>95</sup> Nasridдиншоҳ (1831-1896) - Эрондаги Қожар сулоласининг 4-хукмдори. 1848-1896 йиллар давомида мамлакатни бошқарган. Батафсил маълумот учун қаранг: The ensiklopedia of islom, New Edition, С.Э.Вosworth at al., vol.7. Leyden and London, 1993, pp.1003-1005.

<sup>96</sup> Исмоил Гаспринскийнинг адабий танқидга оид туркум мақолалари профессор Явуз Акпнар томонидан жамланиб, биринчи марта 1988 йили (Турк Дили ве Эдебияти Арасурмалан Дергиси. ИХ, с., Иннир. 1988, с. 87-115) эълон қилинган. 2001 йили эса Исмоил Гаспринский ижоди ва фаолиятига бағишланган интернетдаги сайтда [www-ismailgaspali.org](http://www-ismailgaspali.org). қайта эълон қилинди.

imzo ostida bir qator roman va hikoyalarni eʼlon qildi. Ular: “Farangiston maktublari”, “Doru-r-rohat musulmonlari”, “Sudan maktublari”, “Xotinlar oʻlkasi”, “Mulla Abbos ila tasodif uchrashuv — Gul Bobo ziyorati” va boshqalar. Gasprinskiy adabiy asarlarining bosh qahramoni toshkentlik Mulla Abbos ismli bir yigit. Sayohatga chiqmasidan oldin 22 yoshda boʻlgan Mulla Abbos otasi vafotidan keyin merosxoʻr sifatida katta boylikka ega boʻldi. Mulla Abbosning butun fikrlari uning ana shunday harakatlari tahlilidan kelib chiqadi. Adabiyotdagi makon koʻchirish usulidan mahorat bilan foydalangan Gasprinskiy Yevropada, Andaluz xalifaligida boʻlib oʻtgan voqealar orqali musulmon olami ahvoli, bosqinchilar siyosatlarini fosh qilishga harakat qiladi. Professor Ingeborg Baldauf “Doru-r-rohat musulmonlari” asarini tahlil qilar ekan, Gasprinskiy tasvirlagan sirli oʻlkani “utopik ideal yurt, geografik xaritadan tashqarida, ajralgan, barchaga nomaʼlum bir makonda joylashgan” deydi. U oʻz tahlilida davom etib, nima uchun muallif bunday yoʻl tutganligini quyidagicha sharhlaydi: “Asar qahramoni u yerga oʻz ixtiyorisiz borib qoladi. Kema halokati tufayli baʼzida asar qahramonlari nomaʼlum xayoliy orolga tushib qolishlari ham mumkin. Biz bu kabi rivoyatlarni hali dunyo yaxshi tadqiq etilmagan, shunday orollar borligiga odamlarni bemalol ishontirish mumkin boʻlgan davrlardan bilamiz. Ammo XIX asr oxiriga kelib jahon xaritasida oq dogʻlar deyarli koʻrinmay qoldi. Aynan shu holat Gasprinskiyning biror-bir nomaʼlum geografik orolni emas, balki bir utopik makon tanlab, uni real dunyodan tashqarida ekanligini boshqa bir vosita, yaʼni uyqu orqali tasvirlashiga sabab boʻlgan. Mulla Abbosning oʻngimi-tushimi ekanligi aniq, axir u Al-Hamroda uxlab qolgan edi. Tush esa utopiyaning sevimli adabiy libosi”. (Baldauf, 2012: 113-114) Mulla Abbos siymosi tafsilotli, maroqli va nozik suratda ishlanganini qayd etmoq kerak. Muallif uni tasvirlashda bosh qahramonga xos boʻlgan bir qator tabiiy chizgilar orqali uni turli holatlarga solib, ziyoli insonga xos xarakter nuqtalarini yanada oydinlashtirib beradi.

***Ismoil Gasprinskiy va "Tarjimon"***. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ichki Rossiya, qo'shni Afg'oniston, Eron, Hindiston, Turkiya kabi davlatlarda ancha rivoj topgan va ma'lum ma'noda g'oyaviy zaminiga ega bo'lgan islohotchilik harakati XX asr boshlarida Turkistonga kirib keldi. Bu jihatdan turkistonlik jadidlarning ma'naviy rahnamosi, yo'lboshchisi hamda "panohi" sifatida yaqqol Ismoil Gasprinskiy ko'zga tashlanadi. Uning "Tarjimon"i Turkistonda o'zini ziyoli hisoblagan barchaga ham fikr, ham amaliy yo'riqnoma vazifasini bajardi. Uning o'zi esa turkistonlik izdoshlar nazdida har asr boshida Alloh tomonidan dinni yangilash, unga toza jon bag'ishlash maqsadida yuboradigan "mujaddid"i, musulmonlarning "panohi", ziyolilarning "qiblagohi" sifatida qaralgani Gasprinskiyning o'z davri uchun yirik fenomen bo'lganidan dalolat bergan, degan xulosa chiqarishga asos bo'la oladi. Gasprinskiyning "millat" esa, o'z tushunchasi navbatida, tagzaminida diniy istiloh, din mazmunining birligi bilan bir qatorda til va ish birligi ham anglatishini nazarda tutgan. Bu ma'lum bir hududda istiqomat quluvchi xalq va elatlarni bir millat deb qabul qilinishi kerakligini o'z navbatida ifodalaydi. Hatto 1930-yillar adabiyotida ham til birligi, ish birligi g'oyasi batamom yo'qolmadi. Buning yorqin misoli sifatida Cho'lpon ijodini ko'rsatish mumkin. Ismoil Gasprinskiyning vafoti o'sha davr xoh rus, xoh mahalliy amaldor, ziyolining unga bo'lgan haqiqiy munosabatini ko'rsatib berdi.

Gasprinskiyning "Doru-r-rohat musulmonlari" asari o'zining mazmun-mohiyati bilan XX asr boshlarida rivoj olgan jadidchilik harakatining tub negizini ochib beradi. Ma'rifatparvarlarning diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlarni egallashga chaqiriqlari ushbu asrning asosiy g'oyasini tashkil etish bilan bir qatorda turli hayotiy voqea, ichki kechinma va xayoliy tasavvurlar orqali ushbu chaqiriqni yanada yorqinroq aks ettiradi. Mulla Abbos siymosida johillik bilan ilm, ma'rifat bilan jaholat kurashi va bu kurashda aql doim g'olib keladi .

Ustoz adib o‘z davrida Nobel mukofotiga nomzodi ko‘rsatilgan, mukofot berilmagan bo‘lsa-da, unga loyiq ulug‘ ma‘rifatparvar sifatida qadrlangan edi. Oradan yarim asr o‘tib, mana, bugunda uning bilimga, taraqqiyga chorlovchi “Tilda, fikrda, ishda birlik” shiori yana xalqlarni birlikda, hamkorlikda yashashga yo‘naltirmoqda, asarlari barcha turkiy tillarda, shuningdek, rus, ukrain, arab, ingliz, olmon, yapon kabi jahonning barcha nufuzli tillarida bosilmoqda. Ya‘ni Insonning o‘zidan keyin so‘zi, shoni yashamoqda. Zotan bu – eng katta mukofotdir. O‘zi ta‘kidlaganidek, Chin devoridan Oqdengizgacha cho‘zilgan o‘lkalarda o‘sha davrda ellik millionli turkiylar, endilikda ikki yuz ellik milliondan ortiqdir, Ismoilbek ular bilan, ya‘ni biz bilan birga yashamoqda.

Savol va topshiriqlar:

Ismoil Gaspirali ijodi qachondan boshlab haqqoniy o‘rganila boshlandi?

Ismoil Gaspirali bilan bog‘liq tadqiqotlar olib borgan olimlar to‘g‘risida ayting. “Tarjimon” gazetasi chop etilishining sabablari va gazetaning 25 yillik yubileyi qachon nishonlangan?

Ismoil Gaspirali “Rusiya musulmonligi” asarida qanday mavzuni ilgari surgan?

“Tarjimon” gazetasida bosilib chiqqan “Til va mas‘uliyat” maqolasida nima haqida so‘z yuritiladi?

Ismoil Gaspirali qachon Turkistonga safar qilgan va bundan ko‘zlangan maqsadi nima edi?

Gasprinskiy qanday badiiy asarlar muallifi edi?

“Doru-r-rohat musulmonlari” asarida Ismoil Gaspirali qanday mavzuni ko‘tarib chiqqan edi?

Ismoilbekning qaysi asari avtobiografik xususiyatga ega edi?

“Ovro‘pa madaniyatiga betarafona nazar” risolasida milliy uyg‘onish masalasi xususida so‘z yuritar ekan, nimalarga asosiy e‘tiborni qaratishni aytgan edi?

10. “Turkiston ulamosi” kitobi qachon chop etilgan va undan qanday boblar o‘rin olgan?

## SIDQIY VA SO‘FIZODA IJODI

### **Reja:**

Sidqiy tarjimai holi.

Shoir ijodiy merosi.

So‘fizoda hayot yo‘li.

Shoir ijodiy merosi, ma‘rifatparvarlik faoliyati.

So‘fizoda hayotining so‘nggi kunlari.

***Sidqiy tarjimai holi.*** Sidqiy (1884-1934) iste‘dodli shoir edi. U she‘r yozishdan tashqari, xattotlik ilmi bilan ham shug‘ullangan va bu borada ancha mohir bo‘lgan. Ilm olish niyatida Toshkent, Farg‘ona singari shaharlarga borib madrasalarda o‘qigan. U aruz ilmi, arab tili grammatikasi va sintaksisiga doir bilimlarni ham o‘rgangan.

Adabiyotga oshiqona she‘rlar, ishqiy g‘azallar bilan kirib kelgan shoir o‘z hayoti davomida ko‘plab asarlar yozdi. Ammo shoir g‘azallarining salmoqli qismini hajviyot va ijtimoiy-siyosiy mazmundagi she‘rlar tashkil qilgan. Hajviy asarlarida poraxo‘r qozilar, ta‘magir, tovlamachi amaldorlar, riyokor shaxslar, bir so‘z bilan aytganda, zamonasining chirkin insonlari haqida so‘z yuritgan bo‘lsa, ijtimoiy-siyosiy mavzudagi asarlarida esa davrning muhim voqealari, Birinchi jahon urushi, mustamlakachilik siyosati natijasida o‘zbek xalqining ruhan va jismonan ezilishi singari voqealarni ro‘y-rost bayon etgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib Sidqiy Xondayliqiy asarlarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga mansub asarlarida hajviy yo‘l bilan zamona ahlidan arz qilish, ikkinchi guruhda esa butun insoniyatga xavf tug‘dirayotgan kulfatlar, imperialistik davlatlar tomonidan dunyoni qayta bo‘lib olish shiori ostida sodir etilgan qirg‘inbarot urushlar, mustamlaka siyosatining chidab bo‘lmas xunrezliklari aks ettirilgan.

***Shoir ijodiy merosi.*** Sidqiy - serqirra, sermahsul ijodkor. Arab,

fors tillarini yaxshi bilgan shoir tarjima bilan ham jiddiy shug'ulangan. "Ming bir kecha" ni, Sa'diy Sheroziyning "Bo'ston"ini o'nlab hikoya va latifalarni tarjima qilgan. Shoir poetik merosining salmoqli qismini hajviyot va ijtimoiy-siyosiy she'rlar tashkil qiladi.

Mardikorlik voqealariga bag'ishlab "Rabotchilar namoyishi" (1917) asarini yaratdi. "Rangimiz siniq, holimiz zabun, bo'ldi g'am bila qadimiz duto", "hamma elni toqati toq" bo'lganidan, "el uyiga g'am seli" to'kilganidan so'z ochgan edi. Unda ona diyori-dan yulib olingan mardikorlarning yurt, el, yor hajridagi iztiroblari, nihoyasiz sog'inch hissi bor edi.

1917-yil Fevral inqilobidan keyin jahon jamoatchiligining, turkistonlik taraqqiyparvar musulmonlarning qattiq talabi bilan mardikorlar o'z yurtlariga qayta boshladilar. Sidqiy 1917-yil 19-martda bosilib chiqqan "Rabotchilar kelishi"

asarini shu voqeaga bag'ishladi. Shoir ularni "rahbarim", "nekaxtarim" (baxt yulduzim) deb tilga oladi.

"Toza hurriyat" kitobida (u 1917-yil 24-martda bosilgan) Nikolayning taxtdan ag'darilishini chin dildan, baland ruh bilan olqishlaydi. Lekin, ayni paytda, hali kelmaganini angelaydi, poetik sintaksisda "Bo'ldi!" emas, "Bo'lsun!"ni "Bo'lg'ay"ni tanlaydi:

Bo'lg'ay ne ajab bo'lsa bu kunlar aro hosil,

Har maqsad-u har matla bu har kom-u har a'mol,-

deb, "bukunlar"ning "maqsad va matlab" ga yo'l ochishiga umid qiladi.

1916-1917 yillarda yozilib, tezkorlik bilan bosilib chiqqan bu asarlar xalqimiz milliy ongidagi o'zgarishlarni kuzatishda, mustaqillik va uning uchun kurash g'oyasining adabiyotga kirib kelishi tadrijini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan, Sidqiyning 1917-yil martida juda qisqa muddatga yozilib, juda tez bosilib chiqqan "Rusiya inqilobi" dostoni mavzu va maqsadiga ko'ra adabiyotimiz tarixining diqqatga sazovor hodisalaridan biri.

U Rusiya inqilobiy voqealarini keng epik planda tasvirlovchi das-  
tlabki asar.

XX asr boshi o‘zbek adabiyoti, xususan, Sidqiy va uning maz-  
kur dostoni bunga ochiq dalil. Asar nihoyatda muhim bo‘lganligi  
uchun u haqda to‘xtalamiz.

Fevral inqilobi xalqimiz uchun mustabidlikdan mustaqillikka  
tomon keskin burilish edi. Fevraldagi inqilobiy voqealar tasvi-  
ri, asosan, birinchi bobda berilgan. Hajman bir muncha salmoqli  
bo‘lgan bu bob to‘g‘ridan-to‘g‘ri 23-fevraldan-inqilobning birinchi  
kunidan boshlangan. Shoir uni “banogoh qo‘zg‘oldi“ deb xabar  
beradi. Voqealar asarda kunma-kun beriladi. 23-fevraldagi xaloy-  
iqning “mojaro”sini Sidqiy mamlakatni larzaga keltirgan ochlik,  
vayronagarchilikdan ko‘radi. Insoniy qadrini talab qilib chiqqan  
gunohsiz kishilarning o‘qqa tutilishi, to‘kilgan behisob qonlar  
shoirda g‘amgin kayfiyat uyg‘otadi:

Falak uzra yuzlandi sonsiz suron,  
Der edingiz yiqildim agar osmon.  
Bo‘lib nechaning ro‘zgori qaro,  
Ajal ilkida bo‘ldi umri ado.

Keyingi voqealar “Tavrichiski nom o‘rda qopusinda” bo‘lib  
o‘tadi.

“Maqbul qurbonlar” bobida shoir Rusiya ozodlik kurashi tar-  
ixiga nazar tashlaydi. Bu kurashning uzoqdan boshlanganiga va  
u hamma zamonlarda shiddatli to‘qnashuvlar, hayot – mamot jan-  
glari asosida bo‘lganligiga alohida e‘tibor beradi.

Hurriyat olinmadi qurbonsizin,  
Ki tarixlarning so‘zidur chunun, –

deb yozadi shoir.

“Rusiya inqilobi” ning “Rastupin ila maxlu’(sobiq) podsho  
xonimi ” bobi 2 satrli bo‘lib, bu bobda podsho saroyining ichki  
tomoni – parda orqasidagi ishlar asosiy obyekt qilib olinadi. Shoir



fikricha, chor tuzumi ich-ichida zil ketgan, chirib bo'lgan edi.

Sidqiy Fevral inqilobini quchoq ochib qarshi olsa-da, uning natijalari ko'pincha shoirni qanoatlantiravermaydi. Asarda uning orzulari bilan mavjud sharoit, ideal va hayot o'rtasida tez-tez ko'zga tashlanib turadigan zidliklarni payqash qiyin emas. Shoir Fevral inqilobi o'zgarishlarning boshlanishi ekanligini ta'kidlab turgan-dek bo'ladi. Masalan, u asarning dastlabki boblaridayoq qilinishi kerak bo'lgan ishlar haqida shunday yozgan edi:

Taraqqiy yo'linda qiling jon fido,  
Ki bo'lsun bu kun jumla hojat ravo.  
Oching ko'zni g'aflatdin, ey musulmon,  
Ki, yotmang kasofat, adolat bilan.  
Imom-u muallim, ziyoli bori,  
Kerak boqsalar ushbu ishlar sori...  
Muningdek zamonda huquq istashing,  
Huquq istamoqg'a tuzuk qatnashing.

Buning uchun shoir "bir tan", "bir jon" bo'lib, "huquq istash" ga, mustaqillikni qo'lga olishga chorlaydi. Bu borada qizg'in ish olib borayotgan "Sho'royi islomiya" jamiyatiga alohida bob bag'ishlaydi.

Sidqiy nasriy asarlar ham yozdi. "Tazkirai Imom A'zam", "Sad irshodi mulla Sidqiy Xondayliqiy", "Mezoni shariat", "Zarbulmasali Sidqiy" an'anaviy nasrda yozilgan. Shuningdek, u "Hikoyayi latifa", "Bahrom va malika Gulandom", "Karimo tarjimasini", "Ming bir kecha", "Ajoyib ul-mahluqot", "O'g'ri va qozi" kabi bir qator nasriy asarlarni tarjima qildi.

*So'fizoda hayoti yo'li.* Muhammadsharif So'fizoda haqidagi ma'lumotlarda, uning tug'ilgan yili bilan bog'liq turli ma'lumotlar mavjud. Yozuvchi Sobir Mirvaliyev o'zining "O'zbek adiblari" kitobida: "Muhammadsharif So'fizoda 1869-yilning 29-yanvarida Namangan viloyatining Chust tumanida hunarmand-kosib oilasida tug'ilgan. Otasi Egamberdi pichoqchilik, charx tortish ishlari bilan mashg'ul bo'lgan. Onasi Zaynab xola xohishiga ko'ra u qo'shni-

si Manzura otindan xat-savod o'rganadi. Eski maktab o'qiydi. U Hofiz, Bedil, Alisher Navoiy, Muqimiy, Furqat kabi shoirlar ijodini chuqur o'zlashtirib, she'rilar mashq qila boshlaydi. Turkistonda chiqadigan "Turkiston viloyatining gazetisi" kabi Qozon, Orenburg va Boqchasaroyda nashr etiladigan ro'znoma va oynomalar bilan qiziqadi. Boku va Tiflisdagi chop etilgan ozar tilidagi asarlarni mutolaa qiladi".

So'fizoda haqida turli risola va maqolalar yozilgan va ularda turli ma'lumotlar mavjud, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" haftaligining 1993-yil 23-iyul sonidagi chop etilgan Ahmad Muhammad Ubaydning "So'fizoda qachon tug'ilgan?" sarlavhali maqolasi bilan adabiyotshunoslar va jamoatchilikka o'ylantiradigan savol bilan murojaat qildi. Maqola muallifi Namangan viloyat arxivida 173 raqami ostida saqlanib kelinayotgan, So'fizodaning Chust shahar "Ishtirokiy" firqasi a'ziligiga nomzod bo'lish uchun tayyorlagan hujjatlarini topganligi bois shunday maqola yozgan, deya xulosaga kelamiz. O'sha topilgan hujjatlar orasida So'fizodaning o'z qo'li bilan yozgan tarjimayi holi topilgan va unda quyidagicha ma'lumot yozilgan:

"Men 1880-yilda Chust shahridagi ko'nychig'arlik jamoasida tug'ilganman. Otam yersiz kambag'al sinfidan edi. Ahvolim g'oyatda tuban bo'lib, otamdan 15 yoshimda ayrilgandim. Mening bilan validam va bir ukam qoldi. U vaqtlarda men daladan o'tin tashib kelib, sotib va mardikorlik qilib ishlab, kun kechirib kelar edim. 1912-yilda qo'shchilik qilganman. Eski hukumatga otam ham, o'zim ham xizmat qilganman. Chunki kambag'al bo'lganimiz uchun u paytlarda bizlarga ish yo'q edi.

O'qishim darajasiga kelsak, eski maktabni bitirganimdan keyin uch oylik kursda yangi ruhdagi o'qishda o'qiganman. 1921-yilda Chust shahrida o'z tushuncham va o'z xohishim bilan firqaga kirganman va shu yillarda Chustda partiya tashkilotchisi bo'lib ishladim, bir firqadan ikkinchi firqaga o'tganim yo'q va o'tish niyatida ham emasman. Chust firqa tashkilotida rahbar bo'lib, 1921-yilda

vaqf bo'limida ham ishladim. Hech qanday hukm bilan yoki boshqa ishlar to'g'risidan qamalgan emasman. Ammo istibdod davrida yangi usul maktabida o'qitganim uchun qamalgan edim.<sup>97</sup>

Fevral inqilobidan keyin 1917-yildan xalqni oqartuv to'g'risida gazeta va boshqa joylarda inqilobiy ruhda har xil she'rlar yozib turdim, shuningdek, firqa, vaqf idoralarida ishladim. Agarda hozirda sho'rolar hukumati tarafidan har qanday bir ezgu xizmat bo'lsa bo'lsin, qilishga tayyorman, deb tarjimayi holni yozuvchi Chust shahar firqa kandidati So'fizoda".

Mazkur hujjatlar majmuasida, bu tarjimayi holdan tashqari, anketa (savol varaqasi) ham bo'lib, unda quyidagilar yozilgan:

"So'fizoda 1880-yilda kambag'al dehqon oilasida tug'ilgan, ma'lumoti o'rta, asosiy kasbi o'qituvchilik, qilib turgan vazifasi va ishi shoirlik bo'lib, oilasi 8 jondan iborat"<sup>98</sup>.

Bu tarjimayi hol So'fizoda tomonidan 1921-yilda u "Chust shahar "Ishtirokiyun" firqasi a'ziligiga nomzod" bo'lib kirmoqchi bo'lganida yozilgan. Shunda tarjimayi holdagi ma'lumotlarga ko'ra, u 41–42 yoshda, fanda qabul qilingan sana bilan hisoblanganda u 53 yoshda bo'ladi, degan ma'lumotlar mavjud.

"Maorif va o'qituvchi" jurnalida chop qilingan tarjimayi holida 1870-yilda, "Chust haqiqati" gazetasida esa 1869-yil deb berilgan. T.Rasulov tomonidan 1869-yil So'fizodaning tug'ilgan yili sifatida qayd etilgan. Sababi barcha namanganlik mualliflarning risola va maqolalarida aynan shu sana shoirning tug'ilgan yili sifatida qayd etilgan. Shu asosda 1989-yilda ilk bor So'fizoda tavalludining 120 yilligi nishonlangan.

Taniqli pedagog va adabiyotshunos Po'latjon Qayumovning "Tazkirayi Qayumiy" asarida So'fizodaning 1937-yilda Namanganda hibsga olingani va Toshkentga yuborilgani, o'sha yili Tosh-

<sup>97</sup> Мирвалиев С. Ўзбек адиблари. Ўзбекистон Фанлар Академиясининг "Фан" нашриёти. – Тошкент 1993.

<sup>98</sup> Муҳаммадшариф Сўфизода. Давр силсилалари шоир тақдирида. Наим Каримов. – Тошкент "Muharrir" нашриёти 2012. 8-9 бет

kentda bir do'stining uyida 57 yoshida vafot etganligi to'g'risida ma'lumot keltirilgan. Asar 1953–1960-yillarda yozilgan. Bu ma'lumotga ko'ra shoir 1880-yilda tug'ilgan, deya taxmin qilinadi.

So'fizodaning qatag'on etish to'g'risidagi hujjatlardagi ma'lumotlarga ko'ra, uning millati tojik, tug'ilgan joyini chustlik va 60 yosh deb qayd etiladi. So'fizodaning 1893–1898-yillarda Qo'qonda ta'lim olgan, degan ma'lumot bor. Boshqa manbada esa So'fizodaning qo'shnisidan olgan ta'limidan so'ng, Sa'dulloxon a'lamda tahsil ko'rgani yoziladi. Sa'dulloxon a'lam Muhammadsharifga arab va fors tilidan saboq bergan. Adabiyotshunos To'loqin Rasulov o'zining So'fizoda haqidagi adabiy portretida shoirning 91 yoshli opasi Darvesh kampir haqida ma'lumot bergan. Opasi So'fizoda haqida hikoya qilgan. Uning hikoyasiga ko'ra, ukasi xat-savodni oldinroq chiqargan va ko'p narsani bilgan. Shuning uchun ustoziga unga darsni topshirib chiqib ketganda shoir paytdan foydalanib, o'zining she'rlarini bolalarga o'qib bergan. Bir she'rini bolalar bilan xo'r bo'lib aytayotgan paytda ustoziga kelib qolgan va shoirni kaltaklab maktabdan haydagan. Sababi she'rda eski feodal urf-odatlar va shariat peshvolarining nomaqbul qiliqlari ochib tashlangan edi. Otasi bundan keyin o'g'lini Qo'qonga olib borgan. U yerda Muqimiy, Furqat, Muhyi singari shoirlar bilan tanishadi.

Muqimiy So'fizoda bilan tanishib, uning hajviy iste'dodiga yuqori baho beradi. U So'fizodaning hajviy she'rlari bilan tanishgandan so'ng, shoirga "Vahshiy" taxallusini taklif qiladi. Sababi, So'fizoda she'rlarida hajviy usulda kamchiliklarni ayovsiz tarzda ochib tashlaydi

So'fizodaning "Ayting bu so'zim...", "Dakaning", "Bedanang", "Burgalar", "O'pay", "G'uboru dard-u alam..." nomli she'rlari ham Qo'qonda yozilgan. Shokir Sulaymonning "Shoir Tohir So'fizodaning qisqacha tarjimayi holi" nomli maqolasida 1904–1905-yillarda So'fizodani Turkiyaga borgani va u yerda "Sarvati funun", "Ma'lumot" adabiy jurnallarida she'rlarini chop ettirgani qayd etiladi. Bu xususida ham turlicha ma'lumotlar bor. Boshqa manbadagi ma'lumotlar

motlarga ko'ra, 1904–1905-yillarda So'fizoda Turkiyadan qaytib kelgan va "usuli jadid" maktabini ochgan. O'zi muallimlik qilgan maktabda o'qitish uslubi ham boshqacha bo'lgan. Ya'ni yangicha usulda dars o'tgan. Darslarda "Alifbe", "Ustozi avval", "Ustozi oniy" kitoblaridan foydalangan. So'fizoda ota-onalardan yig'ilgan pullarga o'quvchilar uchun kiyim-bosh olgan. O'quvchilar bundan xursand bo'lib, "domlamning hadyasi" deb maqtanib kiyishgan. Darslar ham qiziqarli va yangiliklarga boy tarzda bo'lgan. O'quvchilarda zerikish holati bo'lmagan. Maktabda o'g'il bolalar bilan bir qatorda qiz bolalar ham ta'lim olishgan. Ta'lim berish barobarida o'quvchilarni mehnat bilan tarbiyalagan. Yer ochib, ko'chatlar ektirgan. Ko'chatlar orasiga esa bug'doy ektirgan va yetishtirilgan donni yetimxona talabalariga berilishi haqida aytgan. Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, Chustda Buvano (Bibi ona) arig'ini hashar yo'li bilan kavlashda ham faol ishtirok etgan. Lekin bunday ishlarga qarshi chiquvchilar ham bo'lib, So'fizodani yomon otlig' qilishga harakat qilishdi. Yetilishiga oz vaqt qolgan nihollar va bug'doyzorlar ba'zi dushmanlar tomonidan buzib tashlangan.

1917-yil chor hokimiyati davrida mirshab bo'lib ishlagan Dadaboyevlar hashar yo'li bilan ochilgan ariqni ko'mdirib yuborishgan. Unga rahbarlik qilgan So'fizoda esa qamoqqa olingan. Uning maktabida Asqarjon Ahmedov, Ibrohimjon Sodiqov, Kamol Kalonov, Abdulla Ergash, Sanjar Ergash, Ashirmat Hamdamov va Umarjon Qodirxonov singari talabalar ta'lim olgan. Ushbu talabalar So'fizoda ishlarini davom ettirishgan. So'fizoda chustlik ulamlarning qarshiligiga uchraganidan so'ng, Buxoroga, keyin Xorazmga boradi. Undan so'ng Afg'onistonga borganligi to'g'risida ma'lumot beriladi.

***Shoir ijodiy merosii, ma'rifatparvarlik faoliyati.*** Muhammadsharif So'fizoda haqida ko'plab shoir va yozuvchilar, adabiyotshunoslar maqola va risolalar yozgan hamda adabiy portret yarat-

ishgan. To'liqin Rasulov, Shokir Sulaymon, Husaynixon Orifiy, Muhammadjon Norxo'jayev, Miyonbuzrik Solihov, Alixon Xalilbekov, yozuvchi Jonrid Abdullaxonov, akademik Naim Karimov, professor Begali Qosimov shular jumlasidandir.

1909-yilda "Turkiston viloyatining gazetisi"da So'fizoda qalamiga mansub bir necha xabar, maqola va she'rlar chop etilgan. Shu mazmundagi xabar va maqolalarning biri rus tilida "Тисмо в редакцию" ("Tahririyatga xat") deb nomlangan va u gazetaning 20-sentabr sonida bosilgan. Xatning ostiga o'zining ism familiyasini va ayni damda Samarqandda turgan joyini yozadi. Bu ma'lumotga ko'ra u yerda taraqqiyparvar Mahmudxo'ja Behbudiy bilan tanishgan, degan ma'lumot taxmin qilinadi.

1922-yil 22-oktabrda "Turkiston viloyatining gazetisi"da So'fizodaning "Ifon vazifayi shukrona" ("Shukronalik vazifasini ado etish") nomli maqolasi chop etiladi. Maqolada Mahmudxo'ja Behbudiy boshchiligida tashkil etilgan yig'ilishda u ham qatnashganligi va Behbudiyning nutqi haqida ma'lumot berilgan.

Xiva tarixida 1910-yilda Feruzdan keyin taxtga o'tirgan Asfandi-yorxon "zolim xon" sifatida tarixda qolgan. So'fizoda Asfandi-yorxonaga bag'ishlab, she'r yozadi va she'r 1911-yilda "Sho'ro" jurnalida chiqadi. O'sha yili shoirning yana bir ma'rifatparvarlik g'oyasi aks etgan "Xonimlar isminda" deb nomlangan she'ri ham jurnalda chop etiladi. So'fizoda 1914-yilda maktab ochganda o'quvchilarga dunyoviy ta'lim berish bilan birga diniy ta'limga ham e'tibor qiladi. U, avvalo, onalar ma'rifatli bo'lishi kerak, degan fikrni ilgari surgan. Onalarga murojaat qilib, she'r ham yozadi:

Muncha yomon sho'rladi peshonalar,

Qizlarimiz joriyayi xonalar,

Siz edingiz jonlara jononalar,

Qadringizi bilmadi debonalar.

Qumri bilan bulbul-u bedonalar,

Yaxshi o‘qur, siz ham o‘qing, onalar...

Lekin o‘sha davrda dunyoviy ta‘lim olinishini yoqlamagan diniy ulamolar So‘fizodaga qarshi chiqib, Chustdan haydab yuborganidan so‘ng, “Turkiston viloyatining gazetisi”da bu haqda xabarlar chiqadi. So‘fizodaning yozgan musaddasi chop etiladi. “Turkiston viloyatining gazetisi” ning 1914-yil 1-yanvar sonida “Chust boyonlarining gapxonada bir-birlariga maqtanishlari” nomli she‘ri bosib chiqiladi. 1911–1914-yillarda So‘fizoda Afg‘onistonga nashr etiladigan yagona gazeta “Siroj ul-axbor” (“Xabarlar chirog‘i”)ga daryi tilda yozilgan maqola va she‘rlarini ham yuborib turgan. Keyinroq esa 1915-yilning kuz oylarida “Tarkibbandi musaddas” nomli she‘rini ham nashr etishga beradi. So‘fizoda nafaqat “Turkiston viloyatining gazetisi”da, balki “Sadoyi Turkiston”, “Oyna”, “Sho‘ro” jurnallarida ham she‘r, maqolalarini nashr ettirgan, degan ma‘lumotlar ham mavjud. 1916-yilda So‘fizoda Kobulga taklif etilgani va u yerda “Siroj ul-axbor” da “Adabiyot” deb nomlangan she‘rini chiqaradi. 1916-yilning mart oyida esa “Amalga oshmaydigan bir umidvorlik haqida” nomli publitsistik maqolasi chop etiladi. Bu maqolasi orqali unga “o‘tkir publitsist” deya baho berilgan.

So‘fizoda Afg‘onistonda yaxshi hurmat va e‘tiborda bo‘lgan. U hatto Afg‘oniston maorif nozirining o‘rinbosari lavozimida xizmat qilgan va “Afg‘oniston ma‘murlari qatori”da ham o‘z o‘rniga ega shaxs bo‘ladi. Afg‘on-sovet munosabatlari o‘rnatilgan davrda So‘fizoda Abdulla Avloniy bilan uchrashgan va ular o‘rtasida samimiy suhbat bo‘lgan. Avloniy unga turkistonlik tarjimon deb ta‘rif bergan. Negaki, o‘sha paytda So‘fizoda konsullikda tarjimon vazifasini bajargan edi.

1925-yilda “Mushtum” jurnalining 2-sonida So‘fizodaning “Xurjun” she‘ri, 1934-yilda esa “Ochildi-ketdi” nomli hajviy she‘ri chop etilgan. “Ochildi-ketdi” nomli hajviy she‘ri Namangandagi

12-maktabda nopok kimsalar ishlari va o'sha ishlar natijasida maktabning xarob holga kelganini ochib tashlaydi.

1925-yil 27-fevralda O'zbekiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasi hay'atining qarori bilan Hamza Hakimzodaga "O'zbekiston xalq yozuvchisi", So'fizodaga esa o'zbek xalq qo'shiqlarining to'plovchisi va shoir sifatidagi ijodiy faoliyatini e'tiborga olinib "O'zbekiston xalq shoiri" unvoni beriladi. So'fizoda hayot yo'li va ijodini o'rganish natijasida uning 1935-yillardagi hayoti va ijod bilan bog'liq ma'lumotlar kam. U haqida Abdulla Qodiriyning o'g'li Habibulla Qodiriy "Otam haqida" kitobida So'fizodaning ular uyiga mehmon sifatida kelganligi haqida ma'lumot bergan. Kelishiga sabab So'fizoda tavalludining 61 yilligi munosabati bilan yubiley o'tkazilishi sabab qilib keltirilgan. 1930–1936-yillar orasida So'fizoda G'afur G'ulom, Partaviy, Rafiq Mo'min, Toji Rahmon kabi shoirlar bilan birgalikda bo'lgan va ijod qilgan. So'fizoda umrining oxirgi paytida yozgan "Baxtsiz millat sadosi" nomli dostoni borligi haqida ma'lumotlar mavjud, lekin ushbu dostonning saqlanib qolganligi yoki saqlanmaganligi noma'lum.

***So'fizoda hayotining so'nggi kunlari.*** 1937-yildagi qatag'on siyosati So'fizodani ham chetlab o'tmagan. O'sha paytda adabiyot, san'at va ma'rifat vakillari qamoqqa olinib, bedarak yo'qolayotgan davr edi. So'fizoda ijodi bilan shug'ullanib kelgan Alixon Halilbekov o'zining "Namangan adabiy gulshani" asarida So'fizodaning so'nggi kunlari haqida ma'lumot bergan. Undagi ma'lumotlar ko'ra So'fizoda 1937-yil 5-mayda kasalligi sababli shifoxonaga yotqiziladi. Uning kasalligiga sabab, Chustdagi do'stlarining qamoqqa olinishi edi. Uni so'rab uyiga odamlar kelishadi. Uyda tintuv o'tkaziladi. Kasalxonadaligi aytilgandan so'ng o'sha yerning o'zida qamoqqa olinadi. Ayoli Zeboxonni esa "Xalq dushmanining xotiniga maktabda o'rin yo'q" deb ishdan haydashadi. Qamoqxonada ham u she'rlar aytib odamlar ruhiyatini ko'tarishga harakat



qilgan. So‘fizoda bilan turmada 5 kun birga bo‘lgan mahbus Mamajon Gayupov So‘fizodaning ko‘rinishiga ta‘rif beradi. Xonalariga ikki kishini otuvga hukm qilinganligi haqida aytib olib chiqib ketishadi. Uch kun o‘tgandan so‘ng, ularning kiyimlari turmaga olib kelib tashlanadi. Ma‘lum bo‘lishicha olib chiqib ketilganlar otilgan ekanligini aytadi.

So‘fizodaning qamoqqa olinishida ham turli qiyinchiliklar bo‘lgan. O‘zining tarjimaiy holini yozganda ham unga turli ayblovlar qo‘yishga harakat qilingan. Turli savol-javoblar o‘tkazilgan. Xorijiy safarlarga borishi haqidagi so‘rovlar shu jumladan.

“Xullas, 1937-yil 25-iyulda Musin ismli iblis qo‘li bilan tuzilgan “Aybnoma” asosida o‘sha yilning 17-avgust kuni O‘zSSR NKVD qoshida tuzilgan “uchlik” Muhammadsharif So‘fizoda, Mulla Ergash Shomansurov, Abdulhafiz Abdujabborov, Obid Rizayev va boshqalarga oliy jazo berish haqida qaror qiladi. So‘fizoda ustidan chiqarilgan hukm 1937-yil 15-sentabrda ijro etiladi. So‘fizodaning birodarlari esa undan 21 kun avval, 26-avgustda otib tashlanadi.

### **Savol va topshiriqlar:**

Sidqiy ijodi qaysi davrda xolis o‘rganila boshlangan?

Sidqiy qanday taxalluslar bilan ijod qilgan?

So‘fizoda she‘riyati haqida gapiring.

Sidqiy to‘g‘risida qaysi manbalarda ma‘lumotlar uchraydi?

So‘fizoda ijodi bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borgan adabiyotshunoslar kimlar?

Sidqiyning 20 dan ortiq nomdagi bosma va qo‘lyozma kitoblari qayerda saqlanadi?

So‘fizoda tug‘ilgan yili haqida qanday noaniqliklar bor?

So‘fizoda hayotining so‘nggi yillari qanday kechdi?

Sidqiyning nasriy asarlarini sanang.

Sidqiy “Navbahor” nomli to‘plamini qachon e‘lon qilgan?

## ABDURAUUF FITRAT

### Reja:

1. Fitratning badiiy asarlari.
2. Abdurauf Fitratning ilmiy merosi.
2. Fitrat - siyosatdon.
3. Fitrat hayotining soʻnggi damlari.

**Fitratning badiiy asarlari.** Fitrat qalamiga mansub “Sayha” ilk sheʼriy toʻplami boʻlib, mutaxassislarning aytishicha, 1909-yilda Istanbulda bosilgan. “Sayha” “Farhang”da “bong, faryodi dahshatangiz, naʼra” deb izohlangan. Undagi sheʼrlar Vatan haqida edi<sup>99</sup>.

1917-yilda Fitrat oʻzi muharrirlik qilgan “Hurriyat” gazetasida “Yurt qaygʻusi” nomi bilan bir turkum sheʼrlar eʼlon qildi. Diqqatga sazovor joyi shundaki, ularning aksariyati sochma sheʼrlar, Fitrat oʻzi aytmoqchi, mansuralar. Bunday tajriba adabiyotimizda ilk bor Hamza tomonidan qilingani maʼlum. Masalan, u “Yurt qaygʻusi”ga kirgan sheʼrlarining birinchisi “Hurriyat”ning 1917-yil 28-iyul, oxirgisi 29-dekabr sonida eʼlon qilingan. Shulardan oxirgisi aruz vaznida. Qolganlarida, tabiiyki, vazn yoʻq.

Sheʼrlar ruknining sarlavhasidan koʻrinib turganidek, yurt Vatan qaygʻusiga bagʻishlangan.

“Bir oʻzbek yigitining tilidan” mansurasida Vatan bosh-oyogʻi yalang, tanasida adadsiz qamchi izlari, koʻksidagi yaralaridan qon tomayotgan holsiz, darmonsiz ayol sifatida ifodalanadi. Bu timsol, bu xayol “oʻzbek yigiti”ni tushida ham, oʻngida ham taʼqib etadi. Oʻzbek yigiti “gʻamli ona”-“muqaddas Turon” hayoli bilan muroqabaga kirishadi.

“Temur oldinda” sheʼrida “Ezilgan boshi, qisilgan vijdoni, kuygan qoni, oʻrtangan joni uchun” ulugʻ hoqoni sagʻanasidan “davo izlab” boradi, uning ruhidan madad soʻraydi. Buyuk bo-

<sup>99</sup> Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. (Дарслик) Т. Маънавият, 2004. 235-бет.

bosi “Turonning eski sharaf va ulug‘ligini qaytarmasdan burun ayog‘larida o‘tirmaslik”ka uning “dunyoga sig‘magan g‘ayrati”ol-dida “ont” ichdi...

Shoirning o‘n uch she‘ri 1922 yida nashr etilgan “O‘zbek yosh shoirlari” to‘plamiga kiritilgan. Ularning bir qismi (“Kim deyyay seni?”, “Bir oz kul”, “Achchig‘lanma degan eding”, “Ishqimning tarixi”, “Nega bo‘yla?”) — ishqiy mazmunda.

Fitrat Toshkentda yashagan yillari “O‘g‘uzxon”, “Chin sevish”, “Hind ixtilochilari” kabi asarlarni yaratdi. Chamasi, Turkiston muxtoriyatining fojeali tugatilishi munosabati bilan yozilgan va adibning so‘ngsiz iztiroblarini ifoda etgan bir pardalik “Temur sag‘anasi” asari ham shu davrda maydonga kelgan. Afsuski, uning to‘la nusxasi yo‘q. Turli munosabat bilan ko‘chirib olingan parchalarigina saqlanib qolgan. “O‘g‘uzxon”, mutaxassislar fikri-cha, bosilgan emas. Uning ustiga, taqdiri noma‘lum. “Chin se-vish”(1920), “Hind ixtilolchilari”(1923) Hindiston xalqlarining ozodlik, mustaqillik uchun olib borgan kurashlari haqida. Shunga ko‘ra, bu asarlar o‘z davri uchun benihoya dolzarb edi<sup>100</sup>.

Fitrat “Abulfayzxon”, “Shaytonning tangriga isyoni”, “Arslon” kabi qator dramatik asarlar ham yaratdi. “Abulfayzxon”adabiy-otimizda tarixiy mavzuda yozilgan birinchi drama edi.

Fitrat dramaturg sifatida katta shuhrat qozongan. U barcha zamondoshlari tomonidan bu borada yakdillik bilan e‘tirof etil-gan. Mutxassislarning aniqlashicha,u o‘ndan ortiq dramatik asar yozgan. Bular “Begijon”(besh pardalik fojia,1916), ”Mavludu sharif”, “Abo Muslim”(1916), “Temur sag‘anasi”(1918), ”O‘g‘uz-xon”(1919), “Qon”(1920), “Chin sevish”(1920), “Hind ixtilochi-lari”(1921), “Abulfayzxon”(1923), “Shaytonning tangriga isyoni”, “Arslon”(1926), “Vose qo‘zg‘oloni”(1927), “Ro‘zalar”(1930)dir. Bulardan dastlabki oltitasi bizgacha yetib kelmagan.

Fitrat ijodiy merosining muhim qismini uning nasriy asarlari va

---

<sup>100</sup> Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. (Дарслик) Т. Маънавият, 2004. 242-бет.

publitsistikasi tashkil qiladi. U o'z hayoti davomida yuzlab jangovar maqolalar, o'nlab ijtimoiy keskir risolalar, hikoyalar yaratdi. Birgina Turkiston matbuoti emas, Afg'oniston, Hindiston, Turkiya, Kavkaz, Volgabo'yi matbuotida faol ishtirok etdi. Uning ilk risolalari ("Munozara", "Bayonoti sayyohi hindi", "Oila", "Rahbari najot" kabi) fors tilida yozilgan. Bularning hammasi hozirda o'zbekchalashtirilib, nashr qilingan va ko'tarib chiqqan mavzu-masalasiga ko'ra deyarli har biri voqea sifatida qabul qilingan edi

Fitrat o'nlab hikoyalar yozdi. Ular orasida "Qiyomat" (1923) katta shuhrat topdi, qayta-qayta nashr qilindi, biroq aksariyat holalarda sho'ro mafkurasiga moslab talqin etildi

**Abdurauf Fitratning ilmiy merosi.** Fitratning Toshkentdagi eng yirik xizmatlaridan biri "Chig'atoy gurungi" jamiyatini tashkil etishi bo'ldi. Jamiyat 3 yil (1918-1920) yashadi, lekin o'zbek tili va adabiyotigina emas, umuman o'zbek madaniyatining shakillanish va taraqqiyot tarixini yangi zamonaviy ilm asosida o'rganishni boshlab berdi. Qayum Ramazon, Shorasul Zunnun, Elbek, Shokirjon Rahimiy, G'ulom Zafariy, Mirmulla Shermuhammedov, G'oz Yunus, Cho'lpon, Botu, Sanjar Siddiq, Mannon Ramz, Mannon Uyg'ur jamiyatning faol a'zolari edilar. Fitratning Sh. Rahimiy va Q. Ramazon bilan mualliflikda yozgan "Ona tili" (1918) darsligi, "Cho'zg'ilar" ("Unlilar") imlosi haqidagi Q. Ramazon bilan hamkorlikda yozgan "Bitim yo'llari" (1919) o'quv qo'llanmasi, "Insoniyat haqida Navoiyning fikri" (1919) risolasi shu davrda maydonga kelgandir. Qiyosan olganda jamiyat til masalalariga alohida e'tibor bergani ko'zga tashlanadi. Jamiyat qoshida "Imlo to'dasi" ning tashkil topishi bejiz emas edi.

Ilmiy faoliyatga jiddiy berilgan Fitrat Bedil ilmiy-ommabop ocherkini "O'zbek tili qoidalari to'g'risida" bir tajriba: "Sarf" (1-kitob), "Nahv" (2-kitob), "Sarfi zaboni tojik" singari darslik-qo'llanmalarni e'lon qiladi. Birin-ketin uning "Eng eski turkiy adabiyot namunalari", "O'zbek adabiyoti namunalari", "Sharq shaxmati", "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi", "Fors shoiri

Umar Xayyom” singari ilmiy asarlari dunyoga keldi.

U o‘zbek adabiyotining manba-mansha‘larini aniqlab berdi, tarixiy taraqqiyotini yoritdi. Adabiy oqimlar, maktablar, ularning vakillarini o‘rgandi. Davrida shuhrati olamga yoyilib, zamonlar o‘tishi bilan tarix qatlarida unutilib qolgan o‘nlab shoirlarning merosini izlab topdi, qayta kashf etdi. Afrosiyob-Alp Er To‘nga marsiyasidan Yassaviygacha, Yusuf Xos Hojibdan Turdi, Mashrab, Umarxongacha, zamondoshlari Elbek-u Cho‘lpongacha yozdi. Yangi o‘zbek adabiyotshunosligi ilmining tamal toshini qo‘ydi. “Adabiyot qoidalari”(1926) va so‘ngroq yozgan “Aruz haqida” (1936) kitoblari bilan buyuk Navoiylar yuksak bosqichga olib chiqqan o‘zbek adabiy-estetik tafakkurini yangi davr tushunchalari bilan boyitdi, davom ettirdi va adabiyot nazariyasi bo‘yicha ham zamonasining yetakchi mutaxassisi sifatida e‘tibor va e‘tirof qozondi.

**Fitrat siyosatdon.** XX asrda ham Markaziy Osiyodagi arzon xomashyo va ishchi kuchidan foydalanish uchun bosqinchilarning terror tegirmoni tinimsiz ishlab turishi kerak edi. Bu tegirmon ozodlik va ilmga intilgan odamlar qoni bilan yurib turgan. 30-yillarda otilgan o‘qlar jadidchilik harakatining yorqin vakili Abdurauf Fitratni ham chetlab o‘tmadi. “Otishga hukm qilinishidan oldin unga shunday ayblovlar qo‘yilgandiki, ularni bajarishga bir odamning umri kamlik qiladi”, – deydi Fitratning mahbuslik anketasi bilan tanishgan tarix fanlari doktori Dilnoza Jamolova.

Buxorodagi Mir Arab madrasasida o‘qigan Fitrat shu yerdan islohotchilik harakatlariga qo‘shiladi. Buxorodagi bilimli yoshlar qatori “Tarbiyayi atfol” jamiyati ko‘magi bilan Istanbulga o‘qishga jo‘naydi. Fitrat Turkiyadan islomchilik, turkchilik, usmonchilik g‘oyalari bilan to‘yinib, Buxoroga qaytadi va jadid maktablarini ochadi. 1917-yildagi inqiloblar natijasida Oq podsho ag‘darilgach, Buxoroda ham islohotlar boshlanadi. Jadidlar amirdan islohotlar o‘tkazishni talab qilib, namoyishlarga chiqadilar. Dilnoza Jamolovanning aytishicha, Fitrat “Yosh buxoroliklar” harakatining mafku-

rachisi va g'oyaviy rahbarlaridan biri bo'lgan. Harakatning Fitrat boshchiligidagi so'l qanoti islohotlar uchun bo'lgan namoyishlarda qatnashgan. Amir qo'shinlari namoyishni bostirgach, jadidlarning bir guruhi Samarqandga jo'naydi. Jadidlar orasida bo'lgan Fitrat Samarqandda butun Turkiston jadidlarining asosiy nashri bo'lgan "Hurriyat" gazetasida muharrirlik qiladi.

Rossiya imperiyasi hududiga olib kirish taqiqlangan asar "Munozara" – Fitratning eng mashhur asarlaridan. Asar Istanbulda chop etilgan va u Rossiya imperiyasi hududiga olib kirish taqiqlangan kitoblar qatorida bo'lgan. "Asarga taqiq Buxoro amiri tomonidan emas, rus hukumati tomonidan qo'yilgan. Peterburgda xorijda nashr etilgan asarlar va ularning maxsus ro'yxati bo'lgan", – deydi Zaynobiddin Abdurashidov. "Munozara"ning Buxoroga olib kirilishi samarqandlik Abduqodir Shakuriy ismli maktabdor bilan bog'liqligi aytiladi. "Shu kishi, – deydi Abdurashidov, – Istanbulga borganda, choponining ichki tarafiga kitobni yashirib, 10–15 dona olib keladi. Va Hoji Muin tomonidan forschadan o'zbekchaga tarjima qilinadi". "Uyalmaysizlarmi, har kuni nasroniylar otash aroba, o't-kema va telegraf simlari kabi ming tur hunarlar zohir qilmoqdalar, bizning sanoatimiz sayr aravacha va sopol oftobalar bilan chetlanmoqda. Tfu, bu qadar qaro kunimizga, eshig-u devordan ham xijolat chekmog'imiz lozim". ("Munozara" qissasidan parcha)

1920-yilda Buxoro va Xivada tuzilgan hukumat qo'g'irchoq edi. Buni yaxshi tushungan Fitrat Fayzulla Xo'jayev bilan Buxoroda haqiqiy, mustaqil hukumat tuzish umididan aslo voz kechmadi. Fitrat nozir, nozirlar sho'rosi raisi o'rinbosari sifatida maorif, matbuot, madaniyat sohasida katta ishlar qildi, degan so'zlarni aytgandi fitratshunos Begali Qosimov. 1921-yilda turk tilini davlat tili deb e'lon qilish, yozuvni isloh qilish, tilni soflashtirish masalalarida Fitrat tuzgan "Chig'atoy gurungi" tashkiloti tashabbuskorlik qilgan.

"Fitrat "Sarf" va "Nahv" kitoblarida juda ko'p til terminlarini taklif qilgan. Ammo negadir ularning ko'pchiligidan bugun foy-

dalanmaymiz. Agar Fitrat va Behbudiy taklif etgan usullar bilan qisman ishlasak ham, tilimizning rivoji, bugungi kundagi holatidan olib chiqishga katta turtki beradi”, – deydi Abdurashidov. “Hozirda 40 million ingliz 400 million hindiy va afrikaliklar ustidan hukmdor. Chin hukumati 400 million aholisi bilan yaponning hiyla-nayrangi o‘chog‘iga aylangan. 60 million olmonlar 2 zaif davlat Avstriya va Turkiyani yonlariga olib, aholisi 750 millionga teng keladigan 7 davlat bilan urush qilyapti. Kishining nazdida ajib va g‘aroyib ko‘rinadigan bu voqealar tarbiya ta‘siridandir, zero bolalarning tarbiyasi bu farzandni jismonan, fikran va axloqan tarbiya qilib, kamolga yetkazishdir.

Biz turkistonliklar farzandlarimizni eshak va qo‘ylarimizdan kamroq tarbiyalaymiz. Kimning uyida moli bo‘lsa, tekshirsa ko‘radiki, yil davomida uning mollaridan bittasi ham kasal bo‘lmagan. Ammo farzandi hech bo‘lmasa, 3 marta xastalikka chalingan”. (“Oila” asaridan parcha)

***Fitrat hayotining so‘nggi damlari.*** 1937-yil 24-aprel kechasi Toshkentning Guliston mahallasidagi 116-uyning darvozasi bema-hal taqillaydi. Bunday yo‘qlovning xosiyatsizligini uy egasi yaxshi anglardi. O‘sha kecha, Dilnoza Jamolovaga ko‘ra, Fitrat O‘zbekiston prokurorining ruxsati bilan Davlat xavfsizligi boshqarmasi 4-bo‘limining boshlig‘i Davlat xavfsizligi leytenanti Og‘abekov tomonidan hibsga olinadi. Unga quyidagi ayblar qo‘yiladi.

1. “Aksilinqilobiy millatchilik tashkiloti “Milliy ittihad”ning a‘zosi.

2. “Cho‘bonzoda bosh Ozarbayjondagi aksilinqilobiy millatchilik tashkiloti bilan Sovet Sharqi respublikalarini Sovet Ittifoqidan ajratib, burjua Turon davlatini barpo qilish maqsadida birlashgan O‘zbekistondagi aksilinqilobiy tashkilotning rahbarlaridan biri”.

3. “Yosh adabiy xodimlarni aksilinqilobiy millatchilik tashkilotiga jalb qilgan, ularni aksilinqilobiy millatchilik ruhida tarbiyalagan”.

4. “Aksilinqilobiy millatchilik ruhidagi asarlar, poemalar yozgan”.

“Fitratning tergov jarayonlari bilan bog‘liq hujjatlar DXX arxivida 4269-hujjat ostida saqlanadi. Bu hujjat Begali Qosimov, Tarix instituti bosh ilmiy xodimi Qahramon Rajabov tomonidan o‘rganilgan.

Fitratga qo‘yilgan ayblovlarni bir shaxs jismonan bajarib ulgurmaydi. Masalan, maslakdoshlariga qarshi ko‘rsatmalar bergan, otib o‘ldirilgan BXSРning 11 nafar rahbarlari haqida ham go‘yoki Fitrat ma‘lumot bergandek unga imzo qo‘ydirib olinadi”, – deydi fitratshunos Jamolova. 1938-yildan boshlab Fitratni tergov qilish yana boshlanadi. Endi u Angliya va Germaniya bilan hamkorlik qilib, Turkiston mintaqasida sovetlar hokimiyatini tugatish uchun ulardan yordam so‘raganlikda ayblanadi. “Vaholanki, – deydi Jamolova, – bu paytda Fitrat siyosatdan ancha uzoqlashgan, ilmiy tadqiqot muassasasida faoliyat olib borayotgandi”.

Stalin vafotidan keyin, 50-yillar o‘rtalarida ziyolilarni oqlash harakati boshlanganda, Fitratning rafiqasi Hikmatoy opa murojaati bilan DXX hujjatlari qayta tekshiriladi. Dilnoza Jamolovanning aytishicha, o‘shanda bir qiziq hujjatga duch kelinadi. Unda 1938-yil oktabrda Fitrat qamoq jazosiga hukm qilingani, jazo muddatini o‘tayotgan paytda–1944-yil 3-noyabrda qamoqda kasallikda chalinib vafot etgan, degan ma‘lumot taqdim etiladi. O‘sha paytda Hikmatoy bunday noaniqlik sababini bilish uchun hukumatga qayta murojaat qiladi va shunday javob oladi: “1937–1938-yillarda juda ko‘p kishilar qirg‘in qilindi. Va biz bularni 1945-yilgacha jazolash haqidagi hujjatlarni sochib tashlashga majbur bo‘ldik”.

“30-yillarda Toshkentning Bo‘zsuv kanali yonidagi jarlikda ko‘plab millat oydinlari otib o‘ldirilganini, u yerda olib borilgan qazishlar jarayonida mingdan ziyod ziyolilarning suyak qoldiqlari topilganini ham isbotlaydi. O‘zbekiston SSR hukumatining o‘n



minglab milliy kadrlari qatag'on qilinmaganda O'zbekistonning ozodlikka erishishi 50 yil oldin amalga oshgan bo'lardi", – deydi fitratshunos olim.

Hamma farzandlar ham umrini xalqining baxt-saodatiga bag'ishlayvermaydi. Vatanparvarlik – vatanni tamasiz sevishdir. Fitrat Turkistonini shunday sevdi, ardoqladi. Juda qattiq qarshiliklarga uchrashiga qaramay, oxirgi nafasigacha Vatanini bosqinchi kishanlaridan ozod holda ko'rishni istadi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Kim O'rta Osiyo jadidchilik harakatining mashhur vakillaridan, yangi o'zbek adabiyoti asoschilaridan, tan olingan dramaturg, nosir, shoir va zabardast olim edi?

2. "Munozara" qanday asar?

3. Fitratning "Chin sevish", "Hind ixtilolchilari", "Abo Muslim" dramalari qachon sahnaga qo'yilgan?

4. "O'zbek yosh shoirlari" to'plami qaysi shoirlar she'rlaridan tashkil topgan edi? 5. 1924-yilda Fitratning qaysi dramasi Moskvada chop qilindi?

6. Fitrat hayoti va ijodining yangicha talqini qachondan ko'zga tashlana boshladi? 7. 1988-yil 3-iyunda "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida qaysi taniqli adabiyotshunos olimlarning "Madaniyatimizning ikki siymosi" maqolasi e'lon qilindi?

8. Fitratning dastlabki she'riy to'plami qaysi, mutaxassislar ma'lumot berishicha, mazkur to'plam qachon, qayerda bosilgan?

9. Fitratning shu davrlarda yaratilgan va XX asr boshi o'zbek publitsistikasining, dramachiligining nodir namunalaridan bo'lib qolgan asarlarini sanang.

10. Fitratning qaysi she'rida "Ezilgan boshi, qisilgan vijdoni, kuygan qoni, o'rtangan joni uchun" ulug' xoqoni sag'anasidan "davo izlab" boradi, uning ruhidan madad so'raydi?

## HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY

### Reja:

Hamza hayoti va faoliyati.

Shoirning adabiy merosi. Uning o'zbek adabiyoti va madaniyatiga qo'shgan hissasi.

Mustaqillik yillarida shoir ijodining o'rganilishi.

Hamza Hakimzoda – dramaturg.

*Hamza hayoti va faoliyati.* Hamza Hakimzoda Niyoziy 1889-yil 6-mart kuni Farg'ona viloyatiga qarashli Avval qishlog'ida tug'ilib, 1929-yil 18-martda Shohimardonda halok bo'ldi. Yoshligi tabibchilik bilan shug'ullanuvchi otasining xon saroyiga taklif qilinishi munosabati bilan Qo'qon shahrida o'tdi. Bu shaharda yashayotgan rus bolalari bilan do'stlashdi, rus tilini o'rgandi. Ular orasidan bir rus qizni sevib, unga uylandi. Garchi, qizni otasining yordami bilan islom diniga o'tkazib, shariat qoidalariga ko'ra nikoh o'qitib uylangan bo'lsa-da, din peshvolarining qahr-g'azabiga uchradi. Oxiri o'zini oqlash uchun haj safariga o'tlanib, Makk va Madinani ziyorat qilib keldi (1912-yil). Ammo shunda ham uni tinch qo'ymadilar. Jamiyatda, hayotda yuz berayotgan yangiliklarni kuylagani, zamondoshlarini ilm-ma'rifatga chorlab, yangi usul maktablari ochgani, gazeta-jurnallar nashr qilib, xalqni o'z haq-huquqini anglashga, o'zini millat sifatida tanib, tili, tarixi, dinini asrashga, erk va ozodlikka, savodli bo'lishga da'vat etgani uchun tag'in qarshilikka uchradi (1913–1918-yillar). Biroq bu qarshiliklarga qaramay, qayerda, qanday vaziyatda bo'lmasin, ilm-ma'rifat nuri bilan xalqining ko'zini ochishga harakat qilaverdi. Bolalar uchun Toshkent, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan, Farg'ona, Xiva, Xo'jayli shaharlarida yangi usul maktablari, internatlar ochdi, kattalarni savodli qilish niyatida o'quv mashg'ulotlari tashkil etdi. Bu borada Hamza XX asr boshlaridayoq Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Ibrat va So'fizodalar qato-

rida taniqli ma'rifatparvar, iste'dodli ijodkor sifatida tilga tushdi. Jadidchilik harakati va adabiyotining tom ma'nodagi ulkan vakili bo'lib yetishdi.

Shoir bor-yo'g'i qirq yil yashadi. Ammo shu qisqa umrining yarmidan ko'pini xalqiga, millatiga, o'z shaxsiga, sha'niga, oilasiga, ijodiga qilingan turli bo'hton-u ig'volarga qarshi haqiqatni tiklash uchun kurashga sarfladi. Akademik S.Mamajonov qayd etganidek, Hamza butun ijodda "zo'r berib haqiqat yo'lini qidirib" o'tdi. Olimning yozishicha, Hamzaning "butun she'riyati, badiiy ijodi yuksak ideal bilan – ozodlik g'oyasi bilan sug'orilgan edi". Chindan ham adabiyotga "Haqiqat kimda?" (1908-yilda yaratgan romani nazarda tutilyapti –Y.S.) degan savol bilan kirib kelgan ijodkor to o'lgunicha shu savoliga javob izladi, ammo unga javob topolmay yarim yo'lda halok bo'ldi.

Hamzaning ijtimoiy faolligini ko'rgan hukumat uni yanada rag'batlantirish, o'z "odami" qilib olish niyatida mamlakatda birinchi bo'lib unga "O'zbekiston xalq yozuvchisi" unvonini berdi, bir umrlik pensiya tayinladi (O'zbekiston Markaziy ijroiya qo'mitasining 1926-yil 27-fevraldagi qarori). Bundan ruhlangan shoir yanada astoydil ishga kirishdi. O'zini yanada xavfli jabhalarga urdi. Hukumatning ishonchini oqlash niyatida Shohimardonga keldi. Mening himoyachim sho'ro hukumati deb o'zini o'qqa, chopiqqa urdi va jazosini ham oldi, fitna qurboni bo'ldi. Albatta, uning ishlari ham osonlikcha bitavermagan. Uning hayotidagi qiyinchiliklari O'lmasboyev singari rahbarlarga yo'llangan. Bular orasida, ayniqsa, O'lmasboyev nomiga yuborgan xatida (1928-yil 5-fevral) "uyimda bir siqim un, bir qabza o'tin, egnimda na oilam, na bolam uchun bir to'n yo'q. Izillashib pul so'rasak, bizga teskari qaraydilar. Mana shunday voqealar o'n yillardan beri ming qabat bo'lib" ketganini yozadiki, beixtiyor uning ahvoliga achinib ketasiz. Hamzaning turmushi shu darajada og'irlashib ketadiki, qo'qonlik birodari Qori Yusuf Homidiyga yozgan xatida "Yozuvchi bo'lmay va dunyoga kelmay ham o'lay" deya afsuslanadi.

Farg‘ona okrugi firqa qo‘mitasiga yozgan arizasida esa (1927-yil 5-sentabr) “hozirda ko‘rgan kunlarimni itlar ko‘rmasdir. Kecha xalq shoiri ismini olib, to bu kun o‘z pulimga bir joy egasi bo‘la olmay ko‘chada qolishim O‘zbekistonning obro‘sigga ta’sir etmasligini tushunib, uning uchun men toqat qila olmayman” deb yozadi. Shu yili 2-sentabrda “Qizil O‘zbekiston jumhuriyatining hay‘at anjumani sho‘basiga” yo‘llagan arizasida sho‘ro hay‘atidan “siniq gavdalarimizni ko‘tarish, qarshimizdagi ichki va tashqi qora kuchlar oldida yuzimizni yorug‘” qilasiz deb o‘tinib so‘raydi va so‘nggida quyidagi to‘rtlikni ilova qiladi:

Bizda yo‘g‘ garchi kutganingiz,  
Bigizni(ng) ishini tiyr (o‘q) qilmas.  
Biz elni dedik, faqir bo‘lduk,  
El bizni desa, haqir qilmas.

Faqat maktublaridagina emas, publitsistik maqolalari, badiiy asarlarida ham Hamza Hakimzoda sho‘ro siyosatiga munosabatini bildirib o‘tadi. Avvalo, shuni ta’kidlash joizki, ijodkor dastlab asarlariga sarlavha tanlashda hukumatga munosabatini bildirishga intilgandek tuyiladi. Jumladan, “Loshmon fojiasi”, “Farg‘ona fojiasi” deb atalgan dramatik trilogiya va tetralogiyalari sarlavhasida ana shunday ishorani sezish mumkin. Masalan, Loshmon joy ma’nosini emas, balki “losh – o‘lik tana, murda, jonsiz tana” ma’nolarini anglangan.

Xalq o‘rtasidagi obro‘si, notiqligi, kirishimlili, dadilligi, ommani orqasidan ergashtira olish qobiliyatidan o‘z vaqtida unumli foydalanib, suvini siqib olgan hukumat Hamza Hakimzodani va fotidan keyin butunlay unutdi. Chunki mafkura sohasida undan-da muhimroq tadbirlar amalga oshirilishini kutib turardi: eng avvalo, adabiyot va san’atni tozalash, uni partiyaning dastyoriga aylantirish zarur edi. Buning uchun o‘z siyosatiga qarshi chiqayotgan “eski” yozuvchilarni yo‘qotish, yangilarini o‘z izmiga solish kerak edi. Bu tadbir juda tez va shafqatsizlik bilan amalga oshirildi. Ammo hukumat razm solib qarasa, barcha adiblar yangi sotsialistik tu-

zumning “dushmani” sifatida yo‘q qilinibdi. Ish shunday davom etaversa, xalqning sotsializmga nisbatan “muhabbati”ni oshiradigan adabiyot vakili qolmaydi. Shunday bir jonsiz figurani topish, uni ideal darajaga ko‘tarish lozimki, toki hamma ijodkorlar u “asos solgan yo‘l”dan borsinlar. Buning uchun oz bo‘lsa ham sho‘ro hukumatiga sidqidildan xizmat qilgan biron-bir ijodkorni topib, “qizil rang”ga bo‘yash shart edi. Fitrat, Qodiriy, Cho‘lpon otib tashlangan, ularning nomini qayta tilga olib bo‘lmasdi. Behbudiyni amir o‘ldirgan degan tamg‘a yopishtirildi, uning nomidan foydalansa bo‘ladi, lekin u muxtoriyat uchun tinimsiz kurashgan, chet eldan yordam so‘rashni niyat qilgan. Boz ustiga publitsistik maqolalari ham millatparvarlik, isyonkorlik ruhida yozilgan. Xo‘sh, kimni bayroq qilib ko‘tarsak bo‘ladi, degan savolga javob izlay boshladi komfirqa mafkurachilari. Shoshma, Shohimardon shayxlari tomonidan “toshbo‘ron” qilib o‘ldirilgan Hamza-chi? Juda munosib nomzod bo‘ladi-da! Uning o‘ldirilishidan ko‘zlangan maqsadga erishildi: minglab dindorlar qamoqqa olindi, qolganlari ta‘qib ostida pisib yuribdi. Hamza nomi har qancha qizil rangga bo‘yalsa arziydi, degan xulosaga kelindi. Shundan so‘ng ... Boshlandi!

***Shoirning adabiy merosi. Uning o‘zbek adabiyoti va madaniyatiga qo‘shgan hissasi.*** U xalqini ma‘rifatli qilish yo‘lida ham amaliy, ham ijodiy faoliyat ko‘rsatdi. Hamza Hakimzoda o‘zbek adabiyotining barcha janrlarida sermahsul ijod qilgan san‘atkordir. 10–11 yoshidan she‘r yoza boshlagan Hamza 25 yoshida “Devoni Nihoniy” kitobini nashr ettirdi. Devonga uning 15 yil ichida yozgan 177 ta she‘ri kiritilgan. Ulardan 150 tasi g‘azal, qolgani turli janrlarga oid lirik asarlardir. Ilk devonidayoq Hamza zullisonayn ijodkor sifatida namoyon bo‘ldi. Devondagi 165 ta she‘r o‘zbek, 10 tasi tojik tilida, 2 ta she‘r esa shir-u shakar shaklida o‘zbekcha-ruscha so‘zlar aralashtirib yozilgan. Shakl va mazmundagi bunday yangiliklar, shubhasiz, shoirning chindan ham XX asr o‘zbek adabiyoti

taraqqiyotiga katta hissa qo'shganini ko'rsatadi. Ayni chog'da u o'zbek xalq og'zaki ijodi, boy mumtoz adabiyotimizning barhayot ildizlaridan bahramand bo'lib, an'analarga qat'iy amal qilgan holda zamonga mos yangiliklar ham kashf etdi.

Yirik san'atkor Hamza Hakimzodaning o'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga qo'shgan hissasi, o'rni va rolini ixcham tarzda quyidagicha baholash mumkin:

Hamza Hakimzodaning adabiy merosi XX asr o'zbek adabiyotining rivojlanishi va boyishida muhim ahamiyat kasb etadi. U haqli ravishda yangi tipdagi o'zbek adabiyotining asoschilaridan biri bo'lib qoladi. Hamza Hakimzoda jadidchilik harakatining faol vakillaridan biri bo'lib, xalqini ma'rifatli qilish yo'lida ham ijodiy, ham amaliy, ham ijtimoiy faoliyat ko'rsatdi. Yangi usul maktablari ochish bilan zamondoshlari Behbudiy, Avloniy, Munavvarqori singari "O'qish kitobi", "Qiroat kitobi", "Yengil adabiyot" deb nomlangan darsliklar yaratdi va o'z hisobidan nashr ettirdi. Hamza Hakimzoda novator shoir sifatida Fitrat, Cho'lponlar qatorida o'zbek she'riyatining shaklan va mazmunan yangilanishiga chindan ham katta hissa qo'shdi. Shoirning 7 bo'limdan iborat "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar" nomli majmuasi hamda aruz vazni qoliplarini yorib chiqishga intilgani, ko'plab she'rlari barmoq, hatto erkin ("Yer islohoti", "Majlisdan keyingi kuzatishda", "Qutlug' bo'lsin!") vaznlarda, sərbast usulida yozilgani, o'zbek realistik nasrini boshlab bergani uning novatorligini ko'rsatuvchi g'oyat muhim dalillardir. Roman atamasini birinchi bo'lib iste'molga olib kirgan ham, shu nomdagi asarni birinchi bo'lib yozgan ham (garchi janr talablariga to'la javob bera olmasa-da) Hamza Hakimzoda Niyoziydir. Uning 1926-yilda o'z qo'li bilan yozgan tarjimai holida qayd etilishicha, 1908-yilda Namanganda yashab ishlab yurganida "bir "Haqiqat kimda?" ismli havosiz operalik roman yozgan edim, o'g'irlatdim, bu kunki, topilmaydir". Shu dalilning

o‘zi uni yana bir bor yuksaklik bosqichiga ko‘tara oladi; O‘zbek dramaturgiyasining dunyoga kelishi, janrlarining ko‘payishi va rivojlanishida Hamza Hakimzodaning roli, shak-shubhasiz, beqiyosdir. Garchi dramaning ilk namunasi Behbudiy tomonidan yozilgan bo‘lsa ham bu adabiy turning barcha janrlarida yetuk asarlar yaratish uning zimmasiga tushdi. Yana shunisi ham muhimki, u o‘zbek adabiyotida birinchi bo‘lib dramatik trilogiya (“Loshmon fojiasi”, 1916–1919-yil.), dramatik tetralogiya (“Farg‘ona fojiasi”, 1918–1920-yil.), she‘riy asarini adabiyotimiz xazinasiga olib kirdi. Bu faktlar o‘zbek dramaturgiyasining tom ma‘nodagi asoschisi Hamza Hakimzoda Niyoziy bo‘lganini yana bir bor tasdiqlaydi. Millatning ko‘zini ochish, o‘zligini anglatishning eng samarali yo‘li – xalqqa bor haqiqatni ochiq aytish deb bilgan ma‘rifatparvar shoir o‘z tashabbusi bilan gazeta va jurnallar chiqarib, ularda achchiq gaplarni ochiq yozdi. Shu bois u muharrirlik qilgan “Kengash”, “Hurriyat” singari mutbuot nashrlari dadilligi, oshkora tanqidiy ruhi uchun 3–6 oy ichidayoq yopib qo‘yilgan. Shoirning “Shundoq qolurmu?”, “Yasha, Sho‘ro!” she‘rlari ko‘p yillar mobaynida uning inqilob kuychisi sifatida ulug‘lanishiga muhim dalil bo‘lib keldi. Garchi birinchi she‘ri 1917-yil fevral inqilobidan keyin uning istibdodiga qarshi yozilgan, degan fikrlar aytilsa ham, 1919-yilda nashr etilgan “Atirgul” majmuasiga kiritilishi shoirning g‘oyaviy niyati sal boshqacharoq bo‘lganini ko‘rsatadi. Uning fevral inqilobidan keyin bosilgan “Safsargul” to‘plamiga kiritilmagani sababi, nazarimizda, bu she‘r hukumat tomonidan yo‘q qilingan Turkiston muxtoriyati munosabati bilan yozilganligidir. Chunki unda “Qafasdan bo‘shalgan qush” Turkiston yana qafasga “Qaytib o‘zini solmas”ligi, mustaqillik uchun kurash davom ettirilishiga ishora qilinayotgandek tuyuladi. “Yasha, Sho‘ro!” she‘ri esa aslida “Yasha, Turon!” bo‘lganini adabiyotshunoslar I.Sulton, S.Mamajonov, A.Hayitmetov tomonidan aniq dalillar bilan isbot-

lab berildi. Boz ustiga har qanday hushyor o'quvchi she'rning birinchi va ikkinchi satrlari qofiyasiga e'tibor bersa, uning "Yasha, Sho'ro" emas, aynan "Yasha, Turon!" bo'lganiga ishonch hosil qiladi (Turon-zamon).

Hamzashunos olim L.Qayumovning yozishicha, "Umrining oxirida hazin edi". Bu hazinlik sabablari Hamzaning ayrim maktublarida ham anglashiladi. Shoir o'zining noma'lum shaxsga yo'llagan maktublaridan birida (ismini maxfiy tutishi va "sen" deb murojaat qilishiga qaraganda u yaqin do'sti bo'lsa kerak) "oldimda bo'ladurg'on hujumlarni ko'zda tutib", "ig'vogarlar uyushib hamon mahkamalarda izg'ishib yurishgani"dan "Nima qilaman, hamma tomonim qorong'u" deya hadiksiraydi. Shuning oqibati bo'lsa kerak, 1927-yil 18-sentabrda yozilgan to'rtliklaridan birida:

Bul jahon bahrida xilqatdin xabar olg'il, ko'ngil,

Shoiri mahzun tabiatdin xabar olg'il, ko'ngul.

Xum samoviy telbalik ilhomina cho'mg'on xayol,

Zavqig'a tekkan haqiqatdin xabar olg'il, ko'ngul,

deb yozgan edi. Hatto bu to'rtlikning ostiga

"Har muyulishdan xo'mrayib chiqqan kishiga ko'ndalang,

Bu Hakimzoda o'tar dunyodan Nihone darak" degan qo'shimcha bayt ham kiritib qo'yadi.

Hamza Hakimzoda ayrim manbalar va unga bag'ishlangan filmlarda ko'rsatilganidek, davrining yirik ma'rifatparvari Munavvarqori Abdurashidxonov bilan mutlaqo teskari munosabatda bo'lmagan. Aksincha, maktublarida Munavvarqoriga "hazrat, ustoz" deya chuqur hurmat bilan murojaat qiladi, undan maslahat so'raydi, dardini aytadi.

**Mustaqillik yillarida shoir ijodining o'rganilishi.** Keyingi yillarda Hamza Hakimzoda halokatining tafsilotlari to'g'risida ham yangi ma'lumotlar topildi va e'lon qilindi. Mustaqillik sharofati bilan 70 yil mobaynida sir tutilgan sud materiallarini o'rganish nati-



jasida uning shayxlar tomonidan toshbo‘ron qilinmagani aniqlandi. Farg‘onalik huquqshunos M.Sheraliev “ancha yillardan buyon Shohimardonda yashab, u yerdagi keksalar bilan suhbatlashuvlar, ayrim arxiv hujjatlari bilan tanishish jarayonida Hamza Hakimzoda halokatining sabablarini ochishga, bu sirli o‘lim yuzasidagi pardani ko‘tarishga” muvaffaq bo‘ldi. Uning yozishicha, “Hamzani ikki kishi – Bolta o‘g‘ri bilan Yodgor o‘g‘ri o‘ldirgan. Qotillikka maishiy asosda kelib chiqqan to‘qnashuv sabab bo‘lgan”. Bundan Sho‘ro hukumati ustalik bilan foydalanib, dinni ta‘qiqlash, ruhoniy ulamolarni yo‘q qilish, xalqni qo‘rqitib olish maqsadida foydalanган. Qatag‘onga asos ham yetarli edi.

Hamza shu fojiali davrning dastlabki qurbonlaridan biri bo‘ldi. U adabiy iste‘dodi endigina olmos qirralari bilan tovlana boshlagan bir vaqtda halok etildi. Lekin Hamza qisqa umr ko‘rganiga qaramay, yangi o‘zbek adabiyotining barcha turlarida ijod qilib, shunday asarlarni yaratdiki, bu asarlarning katta va asosiy qismi yangi o‘zbek adabiyotining shakllanishi hamda rivojlanishida muhim ahamiyatga molik.

Naim Karimovning ta‘kidlashicha, Hamza o‘z hayoti va ijodi davomida murakkab davrning qanday egri-bugri va past-baland so‘qmoqlarini bosib o‘tgan bo‘lmasin, uning adabiy merosida shunday asarlar borki, ularsiz yangi o‘zbek adabiyotini tasavvur etish aslo mumkin emas. Uzoq vaqt xalq va jamiyat tomonidan e‘zozlanib kelgan Hamza kutilmaganda, mustaqillik davrida unutila boshlandi. Uning nomi metro bekati, teatr, ko‘cha va maktablardan olib tashlandi. Asarlari nashr etilmay qoldi.

Afsuski, O‘zbekistonda so‘nggi 100 yil ichida Hamzaga munosabat bir necha marta o‘zgardi. Sovet hokimiyati yillarida ham, mustaqillik davrida ham ayrim maddohlar va mafkurachilar shoirning nomi va ishlaridan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanib, uni avvaldan tayyorlangan ma‘lum bir qolipga solishdi. O‘zbek adabiyotiga jadid shoiri sifatida kirib kelgan, keyinchalik kommunistik mafkurani

o'z ixtiyori bilan qabul qilgan, biroq milliy shoir sifatida xalq qalbida va adabiyot tarixida abadiy qolgan Hamza Hakimzoda Niyoziy faoliyati ba'zan ilohiylashtirildi, ba'zan esa unutildi. Davr maddohlari goh Hamzani ulug'lab ko'klarga ko'tarishsa, tuzumlar o'zgargandan keyin aynan yana ularning o'zi buyuk shoirni tuproqqa qorishtirdi.

**Hamza Hakimzoda Niyoziy – dramaturg.** Ma'lumki, o'zbek dramaturgiyasining ilk namunasi mashhur jadid, ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919) qalamiga mansub “Padarkush” dramasi. 1911-yilda yozilib, 1913-yilda Samarqandda nashr etilgan bu drama 1914-yilda sahnalashtirilib, xalqqa namoyish etilgach, juda katta shuhrat qozondi. Bu asardan ta'sirlangan Abdulla Qodiriy “Baxtsiz kuyov” dramasi yaratdi. H.H.Niyoziyning ilk dramatik asarlari ham ayni shu davrda “Padarkush” dramasi ta'sirida vujudga keldi. U 1914–1916-yillarda “O'ch” (1914), “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” (1915), “Ilm hidoyati”, “Ochlik qurbonlari” (1916), “Muxtoriyat yoki avtonomiya” (1917) kabi kichik sahna asarlarini yaratdi.

Hamza sovet davrida “Kim to'g'ri”, “Tuhmatchilar jazosi”, “Boy ila xizmatchi”, “Ishchilar hayotidan” (1918), “Loshmon fojiasi” (1916-1918), “Farg'ona fojiasi” (1918-1920), “Qizil qon ichida yosh go'daklar”, “Mahbus to'raning holi” (1919) singari pyesalarini yozgan. Ammo bu asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelmagan. H.H.Niyoziy keyinchalik targ'ibot va tashviqot yo'nalishida “Pastki Sho'rolar saylovi munosabati ila yozilgan cho'pchaklar”, “Buring'i saylovlar” (1926), “Jahon solnomasining eng oxirgi kunlari” (1927), kabi pyesalarini ham yaratdi. Ayni shu davrda H.H.Niyoziy o'zbek dramaturgiyasining mumtoz namunalaridan bo'lgan “Maysaraning ishi” komediyasi hamda “Paranji sirlaridan bir lavha yoki yallachilar ishi” dramasi ham yozgan. Agar adibning ilk dramalari bo'lgan “Zaharli hayot”da melodrama va sintimentalizm unsurlari mavjud bo'lsa, keyinroq yozilgan “Tuhmatchilar jazosi”, “Boy ila xizmatchi”, “Paranji sirlaridan bir lavha” pyesalarida re-

alizm kuchli ekanligini ko‘rish mumkin. XX asrning 20–30-yillari davomida H.H.Niyoziyning “Zaharli hayot”, “Boy ila xizmatchi”, “Maysaraning ishi”, “Paranji sirlari” (“Xolisxon”), “Burungi saylovlar” kabi dramatik asarlari O‘zbekistonning ko‘plab teatrlarida bir necha martadan sahnalashtirilib, tomoshabinlarga taqdim etilgan.

1989-yili Hamza Hakimzoda Niyoziy tavalludining 100 yilligi munosabati bilan adibning 5 tomlik “To‘la asarlar to‘plami” nashr etildi. Uning pyesalari mazkur nashrning 3–4-tomlariga kiritilgan. Ularning soni 20 tadir. Albatta, ularning ichida hammasi bir xil emas. Ba‘zi pyesalar ayrim kichik lavhalar shaklida bo‘lsa, ayrimlari esa bir necha pardadan iborat yirik dramatik asarlardir.

H.H.Niyoziyning bizgacha yetib kelgan ilk pyesalaridan biri, “O‘ch” bo‘lib, u uch ko‘rinishidan iborat. Ushbu pyesada chorizm mustamlakasi davridagi mustamlakachi ma’murlar hamda mahalliy amaldorlarning xalqni nodonlikda saqlash uchun olib borgan xatti-harakatlari va ularning jabr-zulmiga qarshi jadidchilik kayfiyatidagi ayrim ziyolilarning kurashi qisqa lavhalarda bayon etilgan. Asardagi Hokim, Noib, Boy, Mingboshi singari obrazlar orqali o‘sha davrdagi xalqqa ikki taraflama zulm qiluvchilar qiyofasini, Haydarqul timsohida esa bu jabr-zulmga qarshi kurashuvchi jadid-ziyolilarni bir misolini ko‘rish mumkin. Hamzaning “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” asari fojiasi (tragediya) bo‘lib, 1915-yilda yozilgan va 1916-yilda toshbosma usulda chop etilgan. Bu asar haqida o‘zbek teatr tarixchisi Miyon Buzruk Solihov shunday deb yozgan: “Bu pyesa Hakimzodaning pyesa janri ustida bergan eng oldingi asaridir: uning soddaligi va yuzakiroq chiqqan shu boshlang‘ich asar bo‘lishidan ilgari kelgan holdir, chunki Hakimzodaning so‘nggi asarlari bu pyesaga qaraganda san‘at jihatidan ustun turadurlar”.

Hamzaning “Muxtoriyat yoki avtonomiya” pyesasi 1917-yilda yozilgan. Yozuvchining o‘zi izoh berganidek, bu pyesa “Turkistonda hurriyat bo‘luvi munosabati ila yoshlar va ulamolar orasida

ixtilof o'laroq ulamolarning ayrilib ketuvlari" va Turkiston muxtoriyatini tashkil etish g'oyasining paydo bo'lishi munosabati bilan yaratilgan. Hamzaning sovet davrida eng ko'p shuhrat topgan asari, bu "Boy ila xizmatchi" pyesasidir. Bu asarning yozilish sanasi haqida har xil taxminlar bor. Ba'zi adabiyotshunoslari (masalan, Sotti Husayn) uni oktabr inqilobidan ilgari yozilgan, inqilobdan keyin qayta ishlangan desalar, boshqalar (masalan, Yusuf Sul'tonov) bu drama 1918-yilda yozilgan deb hisoblaydi.

Xulosa qilib aytganda, Hamza Hakimzoda Niyoziyning dramatik asarlari bu janrning taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatadi va rang-barang obrazlar, bilan uni boyitdi. Ularning ayrimlarini bugungi kunda ham sahnalashtirish o'zbek tomoshabinlari uchun haqiqiy san'at namunasi qanday bo'lishini ko'rsatib beradi.

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. XX asr boshlarida sodir bo'lgan muhim ijtimoiy-siyosiy hodisalar Hamza hayoti va uning ijodiy faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatdi?

2. Hamzaning she'r va maqolalari qaysi gazeta va jurnallarda bosilgan?

3. Hamzaning 1910-yilda Toshkent shahrida amaliy faoliyati qanday kechdi?

4. Hamza ochgan usuli jadid maktablari qaysilar?

5. Yangi maktablar uchun Hamza qanday darsliklarni yaratdi?

6. Hamza ijodiga sovet davrida qanday munosabatda bo'lishgan?

7. Mustaqillik yillarida shoir ijodini kimlar o'rganishgan?

8. Hamzaning sirli o'limi bo'yicha ma'lumotlar to'plang.

9. "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar" she'riy to'plamida aks etadigan yetakchi g'oya qanday va qaysi she'riy to'plamlarni o'z ichiga oladi?

10. Hamzaning dramaturgiyaga qo'shgan hissasi qanday?

11. Dramaturg sifatida qanday dramalar yozgan?

12. Roman janrining rivojida Hamzaning roli qanday?

# ABDULLA QODIRIY IJODINING O‘ZBEK VA JAHON ADABIYOTSHUNOSLIGIDA O‘RGANILISHI

## **Reja:**

XX asrning 20–30-yillarida Abdulla Qodiriy ijodining o‘rganilishi.

Sotti Husayn Abdulla Qodiriy ijodi haqida.

O‘zbek adabiyotshunosligida qodiriyshunoslik tadriji.

Mustaqillik yillarida Abdulla Qodiriy ijodining o‘rganilishi.

Abdulla Qodiriy ijodining xorijda tadqiq qilinishi.

*XX asrning 20–30-yillarida Abdulla Qodiriy ijodining o‘rganilishi.* 20-yillarning murakkab ma’naviy muhitida shakllangan zamonaviy adabiyotshunoslik va adabiy tanqidchilik matbuotda ko‘zga ko‘rina boshlagan yosh ijodkorlarga, shuningdek, alohida nashrdan chiqqan badiiy asarlarga e’tibor berdi. Abdulla Qodiriy toifasidagi 20–30-yillarning murakkab ma’naviy muhitida qalam tebratgan yozuvchilarni ham shaxs, ham ijodkor sifatida goh u, goh bu qirg‘oqqa uloqtirmasdan, fikrni jamlab, eng muhimi, barcha asarlarini jiddiy o‘rganish lozim. Chunki ularing milliy ma’naviyatimiz xazinasiga qo‘shgan ulushlari katta. Abdulla Qodiriy ijodini 30-yillarda M.Sheverdin, Sotti Husayn, Miyon Buzruk kabi adabiyotshunoslar biryoqlama talqin qildilar.

Jumladan, yuksak iste’dod sohibi Abdulla Qodiriy haqida dastlab Mixail Sheverdin chiqdi. Uning 1928-yili yozilgan “Birinchi o‘zbek romani” maqolasida jiddiy ilmiy talqindan ko‘ra ijtimoiy-siyosiy yondashuv va maslahat ohangi kuchli edi. Qanday bo‘lmasin romanni zamonaviy siyosatga moslash, bepoyon badiiy dengizini tor bir ko‘lmakka aylantirishga urinishi seziladi. Bundan ko‘rinadiki, adabiyot siyosat bilan harakat qilgan, bu holat esa, talqinchilarga asarni dastlab zamonaviy siyosat talablariga javob beradimi

yo yo‘qmi mana shu jihati muhimdir. 20–30-yillarda ma‘lum bir adibning ijodini talqin etuvchi maqolalarni ham, alohida olingan badiiy asar yoki lirik to‘plamga tegishli taqriz xarakteridagi chiqishlar, bahs-munozara va umumtavsifiy maqolalarni ham uchratish mumkin. Ular jiddiy tekshirilsa, adabiy jarayon holati, nisbatan erkin ijodiy muhit va beg‘araz dastlabki talqinlar holati namoyon bo‘ladi.

“Abdulla Qodiriyning ijodiy yo‘li” risolasiga qadar va undan keyin ham uzoq yillar hech kim Qodiriyning san‘atkorligini Oybek darajasida nozik his etmagan, teran ochib bera olgan emas. Oybek bu risolasida, ulug‘ adib romanlaridagi bosh qahramonlar tasviri, talqini xususida ayrim tanqidiy mulohazalar bildirgani holda, yondosh personajlar ifodasiga juda yuksak baho beradi. Chunonchi, “O‘tkan kunlar”dagi O‘zbekoyimni eng jonli, realistik chiziqlar bilan ko‘rsatilgan shaxs deb ataydi. “Mehrobdan chayon”dagi Solih maxdum obrazini ta‘riflab “asardagi hamma personajlar orasida eng jonli, eng yorqin, eng tipik figura” deb yozadi. Nihoyat, “Obid ketmon”ga kelganda undagi Xatib domla bilan mulla Muhsin adibning mana bunday tahsiniga sazovor bo‘ladilar: “Domlalarining obrazini chizishga yozuvchi – san‘atkor. Domlalarining yurish-turishi, so‘zlari, fikr yuritishi, xalqni aldash va hokazo butun sifatleri o‘quvchining ko‘z oldida jonlanadi. Asarda domlarni yozuvchi yetaklamaydi, ular o‘z so‘zlarini tiqmaydi, ular o‘zlaricha so‘zlaydilar...” deya ijobiy fikrlar bildiradi. Abdurahmon Sa‘diy “Oktabr o‘zgarishi va o‘zbek adabiyoti” maqolasida: “Julqunboy ko‘pdan yozib keladilar, bunda hajvga iste‘dod va bu to‘g‘rida uning qalamiga quvvat yaxshi ko‘riladir”, – deb yozadi. Shu kabi mulohazalar Ali Ismoilzodaning “Adabiyot g‘avg‘osi”, Ne‘mat Hakimning “O‘zbek adabiyotida tanqid va adabiy muhokamalar” kabi maqolalarida ham kuzatiladi.

Badiiy asarni biryoqlama talqin etuvchi madaniyatimiz, adabiyotimiz tarixidagi vulgar-sotsiologizm asosini sinfiylik va sinfiy kurash mezoni tashkil qiladi. Badiiy asarni yozuvchi idealiga

teskari tushunish va yozuvchi shaxsiyatini qoralash maqsadida tushuntirish germinenvtika qonuniyatlariga mutlaqo begonadir. Zero, 30-yillar munaqqidlari uchun xolis ilmiy talqindan ko'ra siyosiy qarorlar muhimroq va asosiy mezon edi. 20-yillarning oxiri va 30-yillardagi bu holat badiiy adabiyot ustidan yuritilgan siyosat, so'z erkinligining bo'g'ilishi, nafis adabiyotning partiya qarorlarini targ'ib-tashviq etadigan mafkuraviy qurolga aylantirish jarayoni bilan izohlanadi.

**Sotti Husayn Abdulla Qodiriy ijodi haqida.** S.Husayn Abdulla Qodiriy ijodini tahlil qilish jarayonida bir muncha shuhrat qozondi. Bu munaqqid Abdulla Qodiriy asarlarining, asosan, asar tiliga, ijodiy metod masalalariga, badiiy tasvirga tegishli o'rinlari hamda asar qahramonlarining ruhiy holatlarini talqin qilishga bel bog'laydi. S.Husayn Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar"ini, asosan, sinfiy nuqtayi nazardan ijtimoiy talqin etish niyatida qo'liga qalam oladi. Kitobning kirishida shunga urg'u berdi. Qolaversa, bu munaqqid "O'tkan kunlar" romanining yaratilishini adabiy ta'sir natijasi, deya dalillashga intiladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, "O'tkan kunlar"ning adabiy ta'sir natijasi to'g'risidagi masala keyingi davr olimlari tomonidan o'rganildi, "maxsus maqolalar" yozildi. Biroq, bu maqolalarda mazkur masalalar batafsil va to'la-to'kis tekshirilmadi. S.Husaynning fikrlaridan o'sha davrda adabiyotshunoslik, adabiy tanqidchilik, tahlil va talqin masalalarida o'ta siyosiylasha borganini sezish qiyin emas. Shuning uchun ham S.Husayn paytini topdi deguncha, Abdulla Qodiriyga qarshi o'zining "jiddiy sinfiy nuqtayi nazarini", adibni to'g'ri yo'lga solishga bo'lgan harakatlari himoya qilib chiqadi. S.Husayn asosiy fikrlarini "Qo'lyozma", "Didaktik ta'lim", "Qarama-qarshi solishtirish", "Til tasviri", "Asl fikrning jilovi", "Jo'rji Zaydon – Abdulla Qodiriy", "Roman ham haqiqat", "Qodiriy yashagan davr va roman", "Romantizm maktabining ijtimoiy asosi qanday?" kabi o'n uch bob, bir kirish va ikki qismli xulosaga ajratib bayon etgan. Shuningdek, S.Husaynning kitobiga Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" ham "O'tkan kun-

lar” tanqidi ustida ba’zi izohlar”i va bunga javoban yana S.Husayn yozgan “O’tkan kunlar (Abdulla Qodiriyning “Izohlari” munosabati bilan)” degan maqolasi ham ilova etilgan. Munaqqid sal kam olti bosma taboqdan iborat kitobida roman janriga, yozuvchining tasvirlash usuliga, romanning ayrim obrazlari va tiliga, adabiy ta’sir masalalariga, tarixiy voqelik va uning badiiy talqini kabi qator masalalarga qisman bo’lsa-da to’xtaladi.

***O‘zbek adabiyotshunosligida qodiriyshunoslik tadriji.*** XX asr o‘zbek adabiyotshunosligida Abdulla Qodiriy hayoti va ijodiga doir talqin manbalari muhim o‘rin tutadi. Qodiriyshunoslikning asosiy negizini tashkil etadigan taqriz, ilmiy maqola, bahsli maqola va risolalar, ijobiy va salbiy fikrlar 20–30-yillardayoq maydonga keldi. Bu yillarda Abdulla Qodiriy ijodiga Sotti Husayn, M.Buzruk, A.Sa’diy, V.Mahmud, M.Sheverdin kabi munaqqidlar va adabiyotshunoslar o‘zlarining maqolalari, adib ijodiga doir bir necha kitoblarida o‘z fikr-mulohazalarini bildirganliklarini tahlil qildik. Qodiriyshunoslikning birinchi bosqichi bo‘lgan 20–30-yillar adabiyotshunosligida S.Husayn va M.Buzruklar Abdulla Qodiriy ijodiga ba’zan xolis, ba’zan esa g‘ayriilmiy vulgar-sotsiologik holatlar bo‘yicha fikrlar bildirishdi. Bu davr talqinlarida matndan uzoqlashish, badiiy asarga tayyor qoliplar bilan yondashish, ijodkorni ayblash va unga siyosiy yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatish, garchi ba’zan badiiy haqiqat teran his etilsa-da, ijod erksizligi tufayli uni matnga nomuvofiq tushuntirish, ko‘pincha fikr-mulohazalarni hukmron mafkuraviy ta’limotlardan olingan iqtiboslar asosida bayon qilish, har bir adabiy-ilmiy tushunchani sinfiylik bilan bog‘lash holatlari ko‘zga tashlanganligini ko‘ramiz.

Ta’kidlash joizki, bundan vulgar-sotsiologik ruhdagi talqin egalari ba’zan tasvirdagi zamon va makon kontrakti, obrazlar konfliktiv, tarixiy roman mohiyati, badiiy asar tili, adabiy ta’sir, muayyan obraz nafosati kabi masalalarni ham o‘rtaga qo‘ydilar. Qodiriyshunoslikning ikkinchi bosqichi bo‘lgan 60–70-yillar adabiyotshunosligida esa Abdulla Qodiriy ijodiga bo‘lgan qarashlar



bir muncha yumshaganligini ko'ramiz. Bu yillarda A.Aliyev, I. Sultonov, M.Qo'shjonovdek adabiyotshunoslarimiz o'z qarashlarini adib holiga bag'ishlab yozgan kitoblarida bayon etishdi. Abdulla Qodiriy haqida 60–70-yillarda bildirilgan fikrlar 20–30-yillarda bildirilgan fikrlardan tubdan farq qiladi. Shunisi muhimki, 20–30-yillarda Abdulla Qodiriy ijodiga salbiy fikr bildirgan bir qator munaqqidlar 60–70-yillarga kelib o'z qarashlarini ijobiy tomonga bura boshladilar. Bu hodisa Abdulla Qodiriy ijodi adolatli o'rganila boshlanganidan dalolat beradi. Shu bois, garchi Cho'lpon va Fitratlarning nomlari turli nojoiz, bayonnoma tamg'alardan xalos ettirgan bo'lsa-da, asarlari taqiqlanganicha qoldi.

Abdulla Qodiriy masalasida esa vaziyat bir oz boshqacha kechdi. Adib xalqqa, ommaga, hayotga qaytdi. Asarlari qayta nashr etildi. Ammo, 60–70-yillardagi barcha nashrlarda adib romanlaridagi "qaltis" nuqtalar tahrir qilindi. Zotan, matnga bunday zarar yetkazish uning talqiniga ta'sir etishi tabiiydir. Abdulla Qodiriy ijodi bu davrda ham ko'pincha mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzumga moslab talqin qilindi. Adibni sotsialistik jamiyat xizmatkori ekanligiga, ba'zan uni asrab-avaylash uchun ataylab urg'u kuchaytirilishini tadqiqotchilar tahlilida o'rgandik. Adabiyot va san'at ustidagi mustabid tuzumning siyosiy hukmronligi san'atkor-ijodkorlar asarlari estetik mohiyatining to'liq namoyon bo'lishiga yo'l qo'ymadi. Abdulla Qodiriy ijodi juda ko'p nazariy fikr-mulohazalar uchun manba bo'ldi. Ayniqsa, uning romanlari mazkur yirik janr xususida o'zbekona fikrlash, romanga xos tafakkur ko'lamlarini chamalash uchun imkon berdi. Shuningdek, 70-yillar adabiy-ilmiiy jarayonidagi ijodiy metodga oid shiddatli bahslari ham qodiriyshunoslik doirasida kechdi. Muhim bir mulohaza shuki, nazariy-falsafiy dunyoqarashi farqli olimlar aniq bir badiiy asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini, hatto ijodiy metodini turlicha talqin etishlari hech ajablanarli emas. XX asr o'zbek adabiyotshunosligidagi talqinlar 80-yillar oxiri va 90-yillarda maydonga keldi. Bu davrda chinakam san'at asarining turlicha bir-birini takrorlamaydigan talqinlari ham

ko'zga tashlanadi. Istiqlol yillariga kelib esa, Abdulla Qodiriy ijodiga bo'lgan e'tibor yuqorida keltirilgan davrlarga nisbatan haqqoniy baholandi. O'zbek adabiyotshunoslaridan U.Normatov, A.Rasulov, M.Qarshiboy, A.Rahimov, Y.Shonazarov, X.Lutfiddinovlar adib ijodiga, asarlariga alohida to'xtalib, fikrlarini aniq dalillar bilan isbotladilar. Zero, har bir talqinchi o'z estetik didi, nazariy bilimlari, tayanch dunyoqarashiga tayanib biror adib to'g'risida fikr yuritmog'i darkor.

### ***Mustaqillik yillarida Abdulla Qodiriy ijodining o'rganilishi.***

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar mamlakatimizning istiqlol davri taraqqiyoti, milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi, ilm-fanimizning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mustaqillik yillariga kelib Abdulla Qodiriy haqiqiy qadrini topdi. Mustaqil mamlakatimiz Prezidentining "O'zbek xalqining ma'naviy va ma'rifatini, milliy qadriyatlari va ongini yuksaltirish yo'lida u zotning qilgan xizmati beqiyosdir... U faqat o'zbeklarning emas, balki Turkiston xalqlarining ham sevimli adibi, ozodlik va istiqlol kuychisidir", – degan bahosiga sazovor bo'ldi. Safdoshlari Cho'lpon, Fitratlar qatori Mustaqillik ordeni bilan taqdirlandi. Istiqlol davri hayotimizdagi yangilanishlarga keng yo'l ochib berdi. Bu borada hukumatimiz tomonidan katta ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbek adabiyoti tarixida o'chmas iz qoldirgan adiblarimizning asarlarini ilmiy nuqtayi nazardan o'rganish adabiyotshunoslik uchun shakllanish va rivojlanish omili hisoblanadi. Shu ma'noda qodiriyshunoslik o'zining yangi maydoni va bosqichiga kirar ekan, tabiiyki, aytilajak ayrim yangi fikrlarni, avvalo, mavjud manbalarga munosabatdan keltirib chiqarishi kerak edi. Adabiyotshunoslik sohasida qatag'onga uchragan ijodkorlar merosi qayta baholana boshladi. Ma'lumki, XX asr o'zbek romanchiligini Abdulla Qodiriy ijodisiz tasavvur qilish mumkin emas. Bu siymo nafaqat birinchi o'zbek romanining muallifi, qolaversa, o'zbek adabiyoti bo'stonidagi eng go'zal va boqiy bir asarning egasi hamdir.

O'zbek adabiyotshunosligida Abdulla Qodiriy ijodiga bir qancha munaqqidlar, olimlar va yozuvchilar o'z qarashlarini maqolalarida, qolaversa, Abdulla Qodiriyning ijodiga bag'ishlangan kitoblarida ifodalashgan.

Istiqlol yillarida U.Normatov "Qodiriy bog'i", "O'tkan kunlar hayrati", Murtazo Qarshiboy "Bir ishq, ham chin bir ishq", Yusufali Shonazarov "Mumtoz tasvirning yuksak badiiyati" hamda Xadicha Lutfiddinova "Lolalar ichidagi gul", "Gullarning ra'nosi" kabi maqola va risolalarida adib asarlariga, qahramonlariga yangicha munosabat bildirib kelmoqdalar. Keyingi yillarda o'zbek adabiyotshunosligida epik talqinning ayrim namunalarini qodiriyshunoslik tarixida kuzatish mumkin. Qolaversa, yangicha munosabatlar, mavjud voqelikka, bosib o'tilgan tarixga qarashlar tubdan o'zgarib bormoqda.

O'zbek adabiyotshunosligi Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini, uning go'zal romanlariga munosabat tarixini yana bir bor idrok etish, qayta baholash, qayta talqin qilishga kirishdi. 80-yillar ikkinchi yarmi 90-yillarning birinchi yarmi oralig'i qodiriyshunoslikdagi tub burilish davri bo'ldi. Adib tavalludining 95 yilligi oldidan, 95 yilligiga, 100 yilligi oldidan va 100 yilligiga bag'ishlab yozilgan maqolalar, ilmiy majmualar hamda risolalar maydonga keldi. Eng muhimi, qachonlardir Abdulla Qodiriyning dilbar romanlarini o'qib turib, undagi milliy pafoslar ruhlangan, ammo barcha his-ehitrosolari dilining tub-tubida saqlangan olim-u ulamlarning, shoir-u shuarolarning bahri-dili ochildi. Ta'qib, tahdid va tahlikadan omonlikda qalam tebratish imkoniyati paydo bo'lgan muhitda ulug' adibimizga daxldor quvonch va surur, g'am va tashvish afsus ila nadomat barcha-barchasi to'kib solindi. Erkin Vohidov bu holga quyidagicha ta'rif bergan: "Bir avlod umri davomida Abdulla Qodiriy taqiqlandi va tahqirlandi. Bu insonga qarshi, insoniyatga qarshi, xalqlarning ma'naviy mulki bo'lgan tarixi, madaniyati va iftixor tuyg'usiga qarshi, til, odati, dini, ixlos e'tiqodiga qarshi qilingan buyuk jinoyatning bir ko'rinishi edi..."

Bunday e'tiroflar, haqiqat tantanasi ba'zan she'riy yo'sinda ifoda etildi:

“Azaliy haq gapni yashirmoq nechun,  
Zavol yo'q eng asl iste'dod uchun.  
Agarda koinot tegirmon bo'lib.  
Olamni yanchsa ham, qolgay u butun”.

Haqiqatdan ham, voqelikning badiiy talqinini ilmiy tilga ko'chirishda, tushunish, tushuntirish va his etishda matn mohiyatidan uzoqlashish anglashilmovchilikni yuzaga keltiradi. “Mehrobdan chayon”ning yozilganiga oltin yil to'lgan mahalda “Romanning mashaqqatli yo'li” nomli maqolasi bilan chiqish qilgan A.Rasulov matn va talqin orasidagi ziddiyatlarni, xatolik va anglashilmovchiliklarni faktlar asosida ko'rsatdi. Qodiriyshunoslikdagi tadqiqotlarga, darslik kitoblarga murojaat etdi. Xususan, ijodiy metod va roman mohiyati yuzasidan o'rinli fikrlarni bildirdi. Maqolada “Mehrobdan chayon” qahramonlarini iloji boricha yangicha talqin qilishga intilish seziladi. “Mehrobdan chayon” romanining matnida serma'nolilik, ramzni, ishorani, jozibani namoyon etish kayfiyati seziladi. Bu bir qadam ilgarilash, degan gap. Ammo maqola matnida ehtiyotkorlik va ilgarigi nazariy asoslarning ta'siri ham onda-sonda sezilib qoladi. Oradan besh yil o'tib, olim yana “Mehrobdan chayon” romaniga murojaat etadi. “Taqdirar tayini” deya nomlangan bu maqola “Romanning mashaqqatli yo'li” negizida yozilgan, boyitilgan, muhimi, asarga “yangi rakursdan boqish yangilangan konsepsiyadan yondashish” (A.Rasulov ta'biri) jarayonida yuqorida keltirilgan bir qator jumlar tahrir qilingan.

U.Normatov “O'tkan kunlar”ning yangicha talqini sotsial muhitni yangicha kuzatsa, adabiyotshunos Murtazo Qarshiboyev roman negizida “bir ishq, ham chin bir ishq”ni ko'radi. “Ishq – ababiy ehtiyoj, ababiy mavzu”ligini ta'kidlagan M.Qarshiboyev “O'tkan kunlar”da ishqiy iztiroblar teran tasvir etilganini dalillarga asoslanib bir-bir tushuntiradi. Roman ichidan yashil ip bo'lib o'tadigan asosiy syujet voqeasi Otabek va Kumushning ishq. Kompozitsi-

ya ham shu asosga qurilgan. Bu ikki pokiza qalb orasida paydo bo'lgan muhabbatni M.Qarshiboyev ilohiy ishqqa yaqinlashtirib qo'yadi va ba'zan fikri isboti uchun ham islom dinidan ilmiy asoslar keltiradi. Xulosani esa, "Xuddi shunday, "O'tkan kunlar" ham bir ishq, ham chin bir ishq haqidagi g'ussali romandir", degan so'zlar bilan yakunlaydi. Ayni bir adabiy-estetik voqelikning, aniqrog'i, badiiy obrazning nisbatan ikki xil talqiniga yana bir misol keltiramiz. "Mehrobdan chayon" romanidagi Solih maxdum obrazi yangicha baholanayotgan, "yangicha ijtimoiy-iqtisodiy konsepsiya"lar ilgari surilayotgan sharoitda bahs obyektiga aylandi. Adabiyotshunos Azim Rahimov "Solih maxdumda nima gunoh?" nomli maqolasida ko'proq Solih maxdumdan fazilat izlaydi. Uning ilgarigi talqinlariga nisbatan yangilangan, samimiyatga yaqin talqinini berishni istaydi. Solih maxdumni bunday "reabilitatsiya qilish" adabiyotshunos Murtazo Qarshiboyga ma'qul kelmaydi va "Solih maxdum farishtami?" degan maqola bilan chiqadi. Adabiyotshunoslik o'zining "muhim tayanch nuqtasi konsepsiyasi"ni yo'qotganligini ta'kidlagan muallif o'z qarashlarida yangicha talqin etishda o'zi uchun islom dini asoslarini ilmiy konsepsiya darajasiga ko'tarib oladi. Shu bois, onaga yaxshilik qilish haqidagi, "Hayo – iymondandur", "Tangri nazdida bandalarning eng yaxshisi ahli-ayoliga foydasi ko'p tegadigan kishidir", "Bir gunoh ishni ko'rsalaring, qo'llaring bilan qarshi bo'linglar. Qo'llaring bilan qarshi bo'lolmasalaring, tillaring bilan qarshi bo'linglar. Mabodo, tillaring bilan qarshi bo'lolmasalaring, dillaring bilan qarshi bo'lib turinglar. Ammo bu iymonlarning zaifligidan dalolat beradi" kabi hadislar asosida o'z qarashlarini isbotlashga urinadi. A.Rahimov Solih maxdumni iloji boricha ziyoli, fazilatli qilib talqin etishga intilsa, M.Qarshiboyev ko'proq ikkinchi qirg'oqqa o'zini uradi. Ba'zan islom shariatida juda katta gunoh bo'lib taqaladigan, Abdulla Qodiriyning o'zi qo'llashda andisha qilgan ayrim ta'birlarni Solih maxdumga nisbatan shafqatsizlarcha ishlatib yuboradi.

Bahodir Karim Abdulla Qodiriyning ijodini istiqloq yillarida

o'rgana boshladi. Munaqqid Abdulla Qodiriy romanlaridagi adabiy zamon va makon tushunchalariga, roman g'oyasiga, tasvir va ta'sir doiralarga, talqin tayanchi va mohiyatiga, adibning hajv san'atidan xabardorligiga oldingi munaqqidlardan farqli xolisona baho beradi. Uning "Qodiriy qadri", "Abdulla Qodiriy", "Abdulla Qodiriy fenomeni" kabi kitoblarida yuqorida keltirilgan jihatlar o'z isbotini topgan.

Bahodir Karim Abdulla Qodiriy ijodini tahlil qilar ekan, eng avvalo, Abdulla Qodiriy romanlarining umrboqiylik asoslari, adib shaxsiyati, dunyoqarashining shakllanishi kabi fikrlarini yuqori baholaydi. "Biz ko'p hollarda "O'tkan kunlar"ni mutolaa qilganda, nima uchun Otabek Marg'ilondan uylandi, nega ikki marta uylandi, nima sabadan Kumush o'ldi, Zaynab jinni bo'ldi, degan savollarni xayoldan o'tkazamiz. Aslida roman jiddiy kuzatilsa, adib o'rni-o'rni bilan barcha jumboqlari taqdir hukmiga bog'lab o'tganligi yaqqol ko'rinadi.

Abdulla Qodiriy yaratgan asarlar, o'zining yuksak darajada hayotiy ahamiyat kasb etishi bilan birga, bir-biridan go'zal tasvirlarni o'zida mujassamlashtirgani va asosiysi, umrboqiyliги bilan nazardan chetda qolmay kelayotganidadir. Abdulla Qodiriy asarlari shu kungacha bir necha bosqichlari talqin qilindi. Bu talqinlarda adib ijodining ilk namunalari hisoblanuvchi hajviy asarlariga, she'rlariga hamda bir-biridan go'zal romanlariga, gohida zamon nuqtayi nazaridan qaraldi, gohida esa ochiq fikrlar bildirildi.

**Abdulla Qodiriy ijodining xorijda tadqiq qilinishi.** Abdulla Qodiriy siymosi ham muhojirotdagi turkiy millat vakillari, shuningdek, G'arb va Amerika olimlarining nazaridan chetda turmadi. 1929–1939-yillar oralig'ida Mustafo Cho'qay o'g'li rahbarligida Parij shahrida "Yosh Turkiston" nomli jurnal nashr etilgan. Unda barcha jadidlarga jiddiy e'tibor qaratilganidek, ba'zi maqolalarda Julqunboyga ham munosabat bildirildi.

Azimzoda quyidagicha yozaveradi: "Abdulla Qodiriy bo'lshaviklar uchun xizmat qilib turadir. Uning "Mehrobdan chayon"

degan kitobi milliy roman emasdir. Bu asarda burung‘i xonlarning ayblari xayoliy va mubolag‘ali bir suratda tasvir etilib, eski an‘analar xalfalar nazarinda tadbiiq etiladir; millat va milliyat tuyg‘usi alayhinda bo‘lg‘on bu ro‘mon bo‘lshaviklar manfaati uchun nashr etilmishdir...

Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” kabi yana “O‘tkan kunlar” degan romani bor. Bu asarda bo‘lshaviklarga pak maqbuldir”.

Azimzoda fikricha, Abdulla Qodiriy o‘sha romanlarini biryoqlama yozgan, o‘sha yillarda uning “qalami kunlik ozuqqa” sotilgan emish. Adib o‘z romanlarida o‘tgan kunlarimizni qora bo‘yoqlarda bergan, faqat yomonlagan. Holbuki, eski zamonlarda qadim Turkistonda ulug‘ binolar, naqsh, ipak san‘ati, yog‘och, mis va temir o‘ymakorliklari, toshko‘mir va qog‘oz sanoati rivojlangan bo‘lgan. Abdulla Qodiriy o‘tmish xususida roman yozar ekan, “bularni ko‘rmasmish va unga otasida so‘ylamamishdir”.

Badiiy asar bilan real tarixiy asarning farqiga bormaydigan muallif fikrlari shunday va hatto, bir o‘rinda: “O‘tkan kunlarimizni yaxshi bilmasdan u haqda romanlar yozishga jasorat etish buyuk xiyonatdir”, degan iddaoni yozadi. Ehtimol, Azimzoda Turkistonning o‘tmishini ulug‘lashi, uning buyukligini ovoza qilish lozimligini ta‘kidlashi bilan vatanparvarlik, millatparvarlik qilayotgandir. Ammo uning badiiy voqelikka yondashuvi matndan uzoq. Chunki maqolasida roman voqea-hodisalari yoki muayyan obrazlar tahlili yo‘q. Go‘yo unga kimdir Abdulla Qodiriy o‘sha romanlarida o‘tmishni qoralagan degan gapni yetkazib qo‘ygan-u, u romanlarni o‘qimasdanoq, o‘sha “qora o‘tmish”ni “oqlash”ga tushib ketgan ko‘rinadi. Har holda maqoladagi yetakchi umumpafos shunday taassurot beradi.

Nazarimda, bu o‘rinda Azimzoda fikrlarining inkori uchun uzundan-uzoq dalillar keltirish shart emas. Chunki “O‘tkan kun-

lar” va “Mehrobdan chayon”ning o‘zbek millati ma’naviyatiga, badiiy-estetik tafakkurining yuksalishiga bergan ta’siri Abdulla Qodiriy millat va vatan uchun qanday xizmat etganini ko‘rsatadi.

Adib oqlangandan keyin, albatta, uning asarlari nashr qilina boshlandi. Biroq “O‘tkan kunlar”ning 1958-yildagi nashri ilgari nashrlardan farqli edi. B.Hayit roman matnlarini qiyoslab, ba’zi o‘rinlar tushirib qoldirilganini, ayrim jumlar tahrir etilganini ta’kidlaydi. Jumladan, roman oxirida Otabekning “o‘ris bilan to‘qnashma”da shahid bo‘lganligi iborasi “chor askarlari bilan to‘qnashish”da birikmasiga o‘zgartirilganligini misol qilib keltiradi.

Albatta, B.Hayit maqolasida Abdulla Qodiriy ijodining favqulodda yangi, kutilmagan talqinlari sezilmaydi. Biroq unda “millatlar turmasi”da aytish va yozish mumkin bo‘lmagan ayrim gaplar bor. Aynan adabiy siyosat e’tiboridan talqindagi farqni bilish qiyin emas. Tabiiyki, kommunistik jamiyat sari intilayotgan tuzumga nisbatan bunday shak-shubhalar uning muxolifatdagi juftliklari tomonidan so‘z bo‘roni ila qarshilanishi shart edi. Adabiyot maydonidagi hukmron siyosatning talabi shunday edi.

Zotan, xorijda ushbu masalalarga o‘z munosabatini bayon etgan olimlardan biri Edvard Olvort edi. Uning “O‘zbek adabiy siyosati” nomli kitobi bor. Olim unda jadid adabiyotiga jiddiy e’tibor qaratadi va umuman to‘g‘ri qarashlarni ham ilgari suradi. Mafkuraviy-siyosiy adabiyotshunoslik namunasi bo‘lgan “O‘zbek adabiy siyosati” kitobida Abdulla Qodiriy nomi bir necha o‘rinda, ya’ni Behbudiyning “Padarkush”iga taqlidan “Baxtsiz kuyov” dramasi-ni yozganligi, garchi Abdulla Qodiriy birinchi o‘zbek romannavisi bo‘lsa-da, diqqat-e’tibordan chetda qolib kelganligi, 1956-yilgi N.Muhiddinovning Abdulla Qodiriy siyomosiga alohida e’tibor berganligi kabi masalalar tilga olinadi.



Bu fikr-mulohazalar sho'ro adabiyotshunosligidan biroz farq etar edi, ammo Abdulla Qodiriyning muayyan asari maxsus talqin qilinmaydi va adabiyotshunoslikning bunday o'zak masalasi bu tip olimlar zimmasiga tushmas ham edi. E.Olvortning kitobidagi fikrlari bilan ham sovet olimlari hisob-kitob qilishga majbur bo'ldilar. Biroq shuni alohida ta'kidlash joizki, agar xorij olimlari tomonidan yozilgan ilmiy maqolalar sovet adabiy siyosatiga mos kelsa, albatta, inobatga olinar va yuksak e'tirof ramzi o'laroq maqolalarda undan iqtiboslar keltiriladi.

Ma'lumki, 1968-yili Germaniya Demokratik Respublikasi poytaxti Berlinda "O'tkan kunlar", "Die Liebenden von Tashkent", ya'ni "Toshkentlik sevimlilar" nomi ostida rus tili orqali olmonchaga o'girilib nashr qilinadi. Unga olmon adabiyotshunosi Niota Tun so'ngso'z yozgan. Bu adabiyotshunosning fikr-mulohazalari xorijdagi "burjua ideolog"lari qarashlaridan farqli o'laroq qodiriyshunoslikdagi sho'rocha talqinlarga yaqin keladi. Adibning iste'dodini, badiiy tafakkur ravnaqiga qo'shgan qissasini alohida ta'kidlagan N.Tun siyosiy tushunchalar iskanjasidan tashqari chiqmaydi va yozadi: "1924–1925-yillarda Abdulla Qodiriy Moskvada o'qiydi, bu yerda o'sha vaqtda qizg'in munozara obyekti bo'lgan yosh rus sovet adabiyotidagi turli masalalar bilan yaqindan tanishadi. Moskvada olgan bilim va tajribasi uning ona diyori O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga, mafkuraviy va estetik masalalarni qayta o'ylab ko'rishga, shu bilan bog'liq savollarga javob qidirishga yordam beradi". "Abdulla Qodiriy o'zining romanini Oktabr revolyutsiyasi tajribalaridan kelib chiqib yozdi. U o'z xalqining asrlar bo'yi ezilishida aybdor bo'lgan ijtimoiy kuchlardan nafratlanadi".

Abdulla Qodiriy ijodining xorijda o'rganilishini yaxshi tekshirgan adabiyotshunos olim Xayrulla Ismatulla Eden Nabi dissertatsiyasidagi kamchilikni quyidagicha ko'rsatadi: "Bu ishning bo'sh tomoni: ishda muallif har ikki adabiyot (o'zbek va tojik)

uchun muhim sanalgan katta bir davrni, oʻnlab adiblar ijodini 240 sahifada yoritishga uringan. Natijada bu dissertatsiya qisqacha berilgan obzorlar majmuasiga oʻxshab qolgan”. Xayrulla Ismatulla oʻzining “Abdulla Qodiriy abadiyati” nomli maqolasida ancha maʼlumotlar bergan edi. Jumladan, E.Nabi va uning ishi xususida ham, yuqoridagi mulohaza ham shu maqoladan iqtibos.

Amerikada Abdulla Qodiriy ijodini “The Relationship of Abdulla Qodiriy’s Historical Novels to the Earlier Uzbek Literary Traditions» (University of Washington 1980), yaʼni “Abdulla Qodiriy tarixiy romanlarining ilk oʻzbek adabiy anʼanalariga aloqasi” (Washington universiteti, 1980) mavzusida tekshirib, doktorlik dissertatsiyasi yozgan Xristafor Maykel Murfi adib romanlariga “struktural adabiyotshunoslik uslubi bilan” yondashadi. 209 bet hajmli bu dissertatsiya “Kirish” va “Xulosa” bilan birga yetti bobdan tarkib topgan. Shuningdek, X.Murfi “Oʻtkan kunlar”dagi konflikt masalalariga, obrazlar uchun tanlangan ismlar va ularning talqiniga, romanda aks etgan tarixiy voqealarga, xarakter va personajlarga, “Mehrobdan chayon” romani syujet voqealari, qahramonlariga eʼtibor beradi. Olim fikricha, Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon”da ham “Oʻtkan kunlar” romanidagi kabi ramziy maʼnoli ism tanlashga jiddiy qaragan.

Tadqiqotchi Qodiriy romanlarining tili yangi va ayni chogʻda, oʻzbek adabiyoti tarixida mavjud hikoya qilish anʼanalariga yaqin turadi deydi. Fikr isboti uchun “Mahbub ul-qulub” va “Boburnoma” qiyoslanadi. Xalqning soʻzlashuv tiliga yaqinligi, baʼzan xalq dostonlari tiliga xos xususiyatlar mavjudligini koʻrsatadi.

Oʻtgan asrning 90-yillarida olmon olimlari Abdulla Qodiriy ijodiga jiddiy qaradilar. Maxsus adabiy lugʻatlarda Abdulla Qodiriy hayoti, ijodi xususida maʼlumot berdilar. Rudolf Radler muharrirligi ostida bir necha yil davomida nashr etib kelingan koʻp tomlik “Kipplers Neues Literatur Lexisop”ining 1990-yilda bosilgan 9-tomida “Aʼdulla Kadyri. Otgan kiplag” degan ikki betlik maqola shular jumlasidandir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, G'arb olimlari, umuman, xorijlik o'zbekshunoslarning 90-yillarda yozgan ilmiy ishlari 60–70-yillardagiga nisbatan chuqurroq. Mafkuraviy-siyosiy talqinlarga qaraganda qiyosiy-ma'rifiy talqinlar ko'proq ko'zga tashlanadi.

Qodiriyshunoslik tarixidagi bu omillar, birinchidan, o'zbek adabiyoti, xususan, Abdulla Qodiriy ijodini dunyo adabiy jamoatchiligiga keng tanishtiradi; ikkinchidan, nafaqat mumtoz o'zbek adabiyoti durdonalari, balki XX asrning iste'dodli adiblarining ham jahonning mashhur ijodkorlari qatorida o'z munosib o'rinlari borligini bildiradi. Bunday haqiqatni boshqalarga yanada teran anglatish uchun o'zbek adabiyoti namunalari keng miqyosda dunyoga chiqishi va o'zbek ziyolisi bu sohada chinakam fidoyi bo'lishi lozim.

### Savol va topshiriqlar

1. Abdulla Qodiriy ijodini o'rganish qachondan boshlandi?
2. Sotti Husaynning Abdulla Qodiriy ijodiga munosabati qanday bo'lgan?
3. "Yangi masjid va maktab" nomli ilk maqolasi "Abdulla Qodiriy" nomi ostida qachon va qaysi gazetada e'lon qilingan?
4. "Padarkush" dramasi ta'sirida yaratilgan Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov" dramasi tavsif bering.
5. 1923–1926-yillarda "Mushtum" jurnalida e'lon qilingan Abdulla Qodiriyning hajviyalari haqida gapiring.
6. Abdulla Qodiriy hayoti haqidagi ma'lumotlarni kimning asari orqali bilishimiz mumkin?
7. O'zbek romanchiligini boshlab bergan Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari haqida gapiring.
8. "Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li" asari kimning qalamiga mansub?
9. Abdulla Qodiriyning "Obid ketmon" qissasida nima haqida so'z boradi?

## CHO'LPON

### Reja:

Cho'lpon hayot yo'li.

Cho'lponning adabiy-tanqidiy qarashlari.

XX asr 90-yillarida Cho'lpon ijodining o'rganilishi.

Cho'lpon she'riyati obrazlari haqida ba'zi mulohazalar.

“Kecha va kunduz” – birinchi roman-dilogiya.

*Cho'lpon hayot yo'li.* XX asr o'zbek adabiyotining eng zabardast, yorqin ijodkorlaridan biri Cho'lpon hisoblanadi. U adabiy turning deyarli barchasida faollik ko'rsatgan. She'r, hikoya, roman, drama, tanqid, tarjima — hammasida ijod etdi. «Cho'lpon» taxallusi bilan shuhrat topgan Abdulhamid Sulaymon 1897-yilda Andijon shahrining Qatorterak mahallasida dunyoga keldi. Otasi Sulaymon Mulla Muhammadyunus o'g'li (1874—1929) bazzoz edi. Ma'lumotlarga qaraganda, Sulaymon bazzoz zamonasining ko'zi ochiq ziyolilaridan bo'lib, «Rasvo» taxallusi bilan she'rlar yozgan, hatto devon tartib qilgan<sup>101</sup>. Abdulhamid dastlab eski maktabda, so'ng Andijon, Toshkent madrasalarida o'qiydi. Shuningdek, Andijondagi rus-tuzem maktabida ham tahsil olgan. Yoshlikdan gazeta-jurnal bilan tanishib borgan. Bo'lajak shoirning shoir bo'lib yetishishida asosiy voqealardan biri uning Zaki Validiy (1890-1970) bilan tanishuvi bo'ldi. 1912-yilda Zaki Validiyning «Turk va tatar tarixi» degan kitobi bosiladi. 15 yashar yosh bo'lajak ijodkor ham bu kitobni o'qib chiqadi. Ilxomlanib uning muallifiga minnatdorchilik maktubini yozadi. MXX arxivi hujjatlaridan ham uning Abdu-rauf Fitratga alohida ixlosi borligi ma'lum bo'ladi. Jumladan, u Fitratni 1913-yildan g'oyibona tanigan. Ilk bor Samarqandda

<sup>101</sup> Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. (Дарслик) Т. Маънавият, 2004. 274-бет.

Fitrat muharrirlik qilgan «Hurriyat» tahririyatida uchrashganlar. 1919-yildan butun faoliyatlari hamkorlikda, hamfikrlikda kechgan. Xullas, Cho‘lponning matbuotdagi dastlabki she‘r va maqolalari 1914-yildan ko‘rinadi. «Sadoyi Turkiston» gazetasi 1914-yil 14-aprel sonida «15 yashar Abdulhamid afandi»ning «Turkistonli qardoshlarimizga» she‘rini mushtariylariga havola etar ekan, o‘quvchilarni «yoshgina qalbi ila yorug‘lik va ilm-maorif yo‘liga boshlagan»idan mamnunligini yashirmagan va uning kelajagiga katta umid bildirgan edi.

Mutaxassislarning aniqlashlaricha, «Sadoyi Turkiston»ning 1914-yil 29-aprel sonida chop etilgan «Qurboni jaholat» hikoyasi Cho‘lponning birinchi nasriy asaridir. Dastlabki asarlari «Abdulhamid Sulaymon», «Abdulhamid Sulaymoniy» imzolari bilan bosildi. So‘ngroq «Qalandar», «Mirzaqalandar» va nihoyat, «Cho‘lpon» taxalluslari bilan chiqdi. Tariximizga Cho‘lpon nomi bilan kirdi<sup>102</sup>.

Cho‘lpon 1919-yilda Toshkentda Fitrat bilan birgalikda «Chig‘atoy gurungi»da faoliyat olib borgan. 1920-yilning avgustida Bokuda bo‘lib o‘tgan Sharq xalqlari qurultoyida ishtirok etadi.

Adibning 1927- yilda o‘zbek ziyolilarining qurultoyiga yozgan arizasidan shu yillari TurkRosTAda, «Ishtirokiyun», «Qizil bayroq», «Turkiston», «Buxoro axbori» gazetalarida mas‘ul lavozimlarda ishlagani ma‘lum bo‘ladi. Taxmin qilish mumkinki, u Buxoroda Fitrat hukumat tarkibida ishlab turgan 1920-1923-yillarda xizmat qilgan. Ziyo Saiduning bir muddat 1920-1922-yillarda chiqib turgan «Buxoro axbori»da mas‘ul muharrir bo‘lganini qayd etadi. Zaki Validiy xotiralari ham uning 1921-1922-yillarda Buxoroda yashaganini tasdiqlaydi.

1922-yilda Toshkentda chop etilgan «O‘zbek yosh shoirlari» she‘riy to‘plami(antologiyasi)da uning 14 she‘ri bosilib chiqadi. Shu yili «Uyg‘onish» nomi bilan uning birinchi she‘riy to‘plami

<sup>102</sup> Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. (Дарслик) Т. Маънавият, 2004. 275-бет.

e'lon qilinadi. 1923-yilning boshlarida esa ikkinchi she'riy to'plami «Buloqlar» nashrdan chiqadi.

Ozod Sharafiddinov Cho'lponning 1924-yilda Moskvada Maorif uyi qoshidagi yosh o'zbek artistlarining mahoratini oshirish uchun tashkil qilingan dramatik studiyaning adabiy emakdoshi va rahbarlaridan biri bo'lganini ma'lum qiladi. Zaki Validiy «...so'ng zamonlarda Moskvada adabiyot va san'at instituti yoxud akademiyasida ham tahsil olgan», deydi, har ikki ma'lumot mohiyatan bir-biriga yaqin. 1926-yilda uchinchi she'riy to'plami «Tong sirlari» va «Yorqinoy» pyesasi chop etildi. Bu davrga kelib u zamonasining eng mashhur shoiri bo'lib tanildi.

Shu tariqa 1927-yil kirib keldi. Davrning birinchi milliy shoiri Cho'lpon ziyolilar qurultoyidan haydab chiqarildi. Dastlab she'rlari «g'oyasiz» deyish bilan cheklanilgan bo'lsa, endi ularni «zararli», muallifni esa, ochiqdan-ochiq «dushman» deya boshladilar. Shoir qand kasaliga muhtalo bo'ldi. Botu qamaldi. Munavvarqori otildi... Arxiv hujjatlaridan ma'lum bo'lishicha, 1931-yilda Cho'lpon Fayzulla Xo'jayev tomonidan Moskvaga jo'natib yuboriladi va tadbirkor rahbar shu yo'l bilan shoirni bir muddat saqlab qoladi. Cho'lpon 1932—1934-yillarda Moskvada yashadi. SSSR Markaziy Ijroiya Komiteti apparatida tarjimon bo'lib ishladi. Badiiy tarjima bilan ham shug'ullandi. Shekspirning «Hamlet», Karlo Goddining «Malikayi Turondot» asarlarini tarjima qildi. «Kecha va kunduz» romanini yozdi.

U Toshkentga 1935-yilda qaytib keldi. Shoir atrofidagi gap-so'zlar, tahqir va ta'qib hamon davom etardi. U mash'um 1937-yilga qadar, bor-yo'g'i 2 yil oralig'ida «Kecha va kunduz» romanini hamda «Soz» she'riy to'plamini nashrdan chiqardi. «Jo'r» she'riy to'plamini bosmaga topshirdi. Gorkiyning «Ona» romanini, «Yegor Bulichev» pyesasini, Pushkinning 25 she'ri va «Dubrovskiy», «Boris Godunov» asarlarini, Lohutiyning «Yevropa safari»ni tar-

jima qildi.

Cho'lpon 1937-yilning kuzida qamoqqa olinib, 1938-yil 4-oktabrda otib tashlanadi.

***Cho'lponning adabiy-tanqidiy qarashlari.*** Haqiqiy tal'ant sohibi Abdulhamid Cho'lpon ijodning deyarli barcha sohalarida barakali qalam tebratgan. U ham shoir, ham nosir, ham dramaturg, ham tarjimon, ham publitsist bo'lish bilan birga, barkamol munaqqid, mohir adabiyotshunos, o'ziga xos tarzda fikrlaydigan san'atshunos ham bo'lgan.

Uning badiiy asarlari xalq ma'naviyatini shakllantirishda qancha muhim rol o'ynagan bo'lsa, adabiy-tanqidiy maqolalari ham shunchalik katta qimmatga ega. Ammo istibdod zamonida Cho'lpon ijodini o'rganish u yoqda tursin, nomini tilga olish taqiqlangani uchun keng jamoatchilikkina emas, hatto adabiyotshunos mutaxassislar ham Cho'lpon ijodining bu qirrasini to'g'risida g'oyat mavhum va tumanli tasavvurga ega edilar. Faqat so'nggi yillardagina Sh.Turdiyev, N.Karimov, B.Do'stqorayev, M.Olimov, U.Dolimov, Z.Eshonova, D.Quronov, U.Sultonov kabi adabiyotshunoslarning harakati bilan Cho'lponning inqilobdan oldin va keyin chop etilgan, hozir esa topilishi amri mahol bo'lib qolgan, jurnallar va gazetalarda sochilib yotgan adabiy-tanqidiy asarlari ilmiy muomalaga kira boshladi. Cho'lponshunos N.Yo'ldoshev esa Cho'lpon hayoti va ijodiga doir bibliografiya e'lon qilib, unda birinchi marta Cho'lpon maqolalarining ro'yxatini berdi. Bibliografiyada ko'rsatilishicha, shoirning 1914–1937-yillar mobaynida chop etilgan adabiy-tanqidiy maqolalari hozircha 63 ta ekan. Izlanishlar davom ettirilsa, bu raqamning ko'payishi turgan gap.

Maqolalar bilan tanishish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, Cho'lpon o'zini professional munaqqid yoki muayyan akademik qoidalar asosida ish yurituvchi adabiyotshunos olim deb

hisoblagan emas. Cho'lon estetika bobida, san'at nazariyasida yangi sahifa ochgan emas, jahon san'atini va san'atshunosligini batamom yangi yo'llarga burib yuboradigan tugal ta'limot ham yaratmagan. Shunga qaramay, yangi o'zbek adabiyoti tarixini Cho'lonning adabiy-tanqidiy faoliyatisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Yangi o'zbek adabiyotini shakllantirishda, 20–30-yillardagi g'oyat murakkab ijodiy kurashlar muhitida unda izchil realistlik uslubning ustivorligini ta'minlashda Cho'lonning adabiy-tanqidiy qarashlarining ahamiyatini kamsitish mumkin emas. Cho'lon mu-naqqid sifatida, birinchi navbatda, adabiyot va san'atning amaliy masalalari bilan shug'ullangan, yanada aniqroq aytganda, ma'naviy uyg'onish va madaniy rivojlanish asosida adabiy jarayon davomida ko'ndalang bo'lgan dolzarb muammolarga javob topishga intilgan, shu tarzda adabiyotni o'z davrining ilg'or g'oyalari bilan boyitishga, Sharq va G'arbning bebaho tajribasini yangi o'zbek adabiyotiga olib kirishga harakat qilgan.

Cho'lon adabiy-tanqidiy merosining ahamiyati faqat shu bilan cheklanmaydi. Yuqorida aytganimizdek, Cho'lon tanqidiy faoliyati bilan estetika sohasida yangi bir ta'limot yaratishni maqsad qilib qo'ymagan bo'lsa-da, uning maqolalarini ichki yaxlitlikdan mahrum, har xil yillarda, har xil munosabatlar bilan yozilib, har xil narsalar to'g'risida bahs yurituvchi parokanda asarlar yig'nog'idan iborat, deb qarash mumkin emas. Aksincha, har bir maqolaning yugurik misralari ortidan Cho'lonning o'zi qarab turganday bo'ladi. Har bir maqolada Cho'lon shaxsiyatining aniq muhri borki, xuddi shu narsa ularni bir yaxlit holga keltirib turadi. Cho'lonning adabiy-tanqidiy merosi bu ulug' adib shaxsiyatining turli qirralarini, madaniy saviyasini, e'tiqodi va dunyoqarashini o'rganishda, ijtimoiy hayotning muhim jihatlariga uning munosabatini aniqlashda, ijodiy biografiyasining ba'zi nuqtalarini to'laroq yoritishda ham g'oyat ahamiyatlidir. Biz bu merosni muayyan tartibda o'rganish



natijasida Cho'lponning g'oyaviy-estetik evolyutsiyasi qanday kechgani haqida tasavvurga ega bo'lamiz, hatto "ijtimoiy tuzum va iste'dod" degan muammoni qo'yib, sovet voqeligi Cho'lponning san'atkor sifatida o'sishiga qanday salbiy ta'sir etganini, bir san'atkor taqdiri misolida totalitar tuzumning chinakam iste'dodga qanchalik dushman ekanini to'laroq tasavvur etishimiz mumkin.

Cho'lponning birinchi tanqidiy asari "Adabiyot nadur?" degan maqola bo'lib, "Sadoyi Turkiston" gazetasida 1914-yil 4-iyun kuni e'lon qilingan. Bu maqola, umuman, Cho'lponning matbuot yuzini ko'rgan ilk asarlaridan biridir. Cho'lpon uni 16 yoshida yozgan. Maqola shaklan juda ixcham bo'lsa-da, mazmunan g'oyat teran. Undagi fikrlar va mulohazalar shu qadar pishiqlik, 16 yashar o'smirning shunchalik tiyraklik bilan qalam tebratganiga qoyil qolmay ilojingiz yo'q. Faqat favqulodda iqtidorga ega odamgina 16 yoshida tafakkurning bunchalik yuqori pog'onalariga ko'tarilishi mumkin. Sarlavhaning o'zidanoq ayon ko'rinib turibdiki, maqola juda muhim masalaga bag'ishlangan. Adabiyot adabiyot bo'lgandan beri Sharqda ham, G'arbda ham ne-ne buyuk iste'dod sohiblari "Adabiyot, san'at nadur? Uning kimga keragi bor? San'atkor kim? U jamiyat oldida burchdormi? Burchdor bo'lsa, bu burch nimalardan iborat? Burchdorlik bilan ijod erkinligi o'zaro qanday chiqishadi?" kabi muammolarga ro'para kelishgan. Ko'rinib turibdiki, bular ijodning hayot-mamot masalalari, ijodkor ularni loaqal o'zi uchun hal qilmay turib, e'tiqod qilib olsa arziydigan estetik tamoyillarni aniqlamay turib samarali ijod qilolmaydi. Lekin shunga qaramay, hanz adabiyot va san'atning yetakchi xossalarini qamrab oladigan, hamma davrlar uchun baravar ma'qul bo'ladigan universal ta'rif, mukammal javob topilgani yo'q. Buyuk san'atkorlarning javoblarida ham masalaning ayrim jihatlarigina, adabiyot va san'atning ayrim xislatlari, ayrim fazilatlarigina ifodalanadi.

Yosh munaqqid "Adabiyot nadur?" maqolasida, birinchi

navbatda, adabiyotning ijtimoiy mohiyati to'g'risida fikr yuritadi. Uning fikricha, adabiyot millatni taraqqiy ettirish vositasi, uning ma'naviyatini ta'minlaydigan omil. Cho'lpon bu xulosaning chinligiga shu qadar ishonganki, maqolada hech qanday e'tirozga o'rin qoldirmaydigan tarzda "adabiyot yashasa — millat yashar" deya tasdiqlaydi:

"Ha, to'xtamasdan harakat qilib turg'on vujudimizga, tanimizga suv, havo naqadar zarur bo'lsa, maishat yo'lida har xil qora kirlar bilan kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa — millat yashar. Adabiyoti o'lmag'an va adabiyotining taraqqiyotiga cholishmagan va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ydan, fikrdan mahrum qolib sekin-sekin inqiroz bo'lur". Biri Turkistonda, biri Qozog'istonda turib, bir-biridan bexabar holda ikki muallif deyarli bir xil tarzda adabiyotning mohiyati, jamiyat hayotidagi, millat ravnaqidagi ahamiyati to'g'risida fikr yuritmoqda. Bunday mushtaraklik tasodif emas, albatta. Bu shu bilan izohlanadiki, XX asr boshlarida Turkistonda ham, Qozog'istonda ham ulug' Uyg'onish shabادلari esa boshlagan edi. Turkistonda shu kezlarda tarix maydoniga kirib kelgan, keyinchalik "jadidlar" deb nom olgan fikri ochiq, taraqqiyparvar ziyolilar bu uyg'onishni ta'minlagan asosiy kuch bo'ldi. Ular mustamlakachilik siyosati tufayli Turkiston zabun ahvolga tushib qolganini, xalq jaholat va nodonlik qo'ynida, erksizlik bo'yinturug'i ostida ikkiyoqlama zulm iskanjalari ostida qattiq ezilib yotganini chuqur angladilar va bunday hayotni o'zgartish, yangilash zarurligi haqidagi g'oyalarni olg'a surdilar. Ular xalqni ma'rifatli qilishni, saviyasini ko'tarib, oq-qorani taniydigan qilishni yangilanishning birlamchi sharti deb bildilar va shu olijanob niyatni amalga oshirish uchun fidoyilik bilan ishga kirishdilar. Ular har xil ta'qib va taqiqlarga qaramay, moddiy qiyinchiliklarni yengib maktablar ochdilar, darsliklar yaratdilar, gazetalar chiqardi-

lar, nashriyotlar ochib kitoblar chop etdilar, turli madaniy-ma'rifiy to'garaklar ochdilar... Xullas, qisqa muddat ichida jadidlar millatning sadoqatli va fidokor farzandlari sifatida tanildi.

**XX asr 90-yillarida Cho'lpon ijodining o'rganilishi.** Ma'lumki, o'tgan asrning 90-yillarida Cho'lpon ijodini xolis, adabiy-estetik mohiyatiga mos tarzda o'rganish jarayoni boshlandi. Bu jarayonda ko'pchilik qatnashdi. Ularga sardor sifatida, Cho'lpon ijodining yuzaga chiqishida jonbozlik ko'rsatgan olimlar ro'yxatining avvalida esa Ozod Sharafiddinov nomi turadi. Aslida olimning faoliyati mustabid sho'ro zamonida ham Cho'lpon ijodiga murojaatdan, she'riyati ruhidan ajralgan emas. Ayrim maqolalari, "Tirik satrlar" kitobi, shu bilan birga, norasmiy davralarda, talabalar auditoriyasida Cho'lpon she'rlarini yod aytganiga oid xotiralar fikrimizga dalildir.

Shu ma'noda Cho'lpon asarlari ommaga qayta taqdim qilinayotgan pallada Ozod Sharafiddinov taqdimso'z, so'zboshilar yozdi. Cho'lpon ijodini yangicha tamoyillar asosida o'rganish natijalari sifatida "Cho'lpon", "Cho'lponni anglash" kitoblari, "Adabiyot yashasa — millat yashar" tadqiqoti yuzaga keldi.

O'z vaqtida Ozod Sharafiddinov Cho'lponning lirik merosini, "favqulodda iste'dodga ega bo'lgan shoir" ruhiyatini, she'riyatining individual, poetik, publitsistik va ijtimoiy-estetik mohiyatini teran tushuntirdi. Jahon she'riyati namunalari bilan yonma-yon turadigan "Go'zal", "Binafsha", "Qalandar ishq" kabi qator she'rlariga xos badiiy san'atlarga, ritmiga, qofiyasi, vazn tizimiga e'tibor berdi. Ayni chog'da, Cho'lponning zamonga moslashgan she'rlari haqida ham xolis fikrlarni yozdi: "Haqiqiy she'riyatni oltinga qiyoslash mumkin bo'lsa, zamonasozlik bilan yozilgan she'rlarni usti zarhallangan, lekin asli oltin bo'lmagan narsaga tenglash mumkin. Afsuski, Cho'lponning 30-yillardagi ba'zi bir she'rlarida biz hayot haqiqatining susayishi bilan badiiyatning ham, she'riyatning

ham susayganini ko‘ramiz”. Ammo bunday o‘rinlarda “bir sapchib tushib, uning nomiga malomat toshlarini otishga shoshmaslik kerak”. Aksincha, shoir kayfiyati, holati, insonligini tushunish yo‘lidan borish lozimligini ta’kidlaydi olim.

Shoir “muhabbat osmonida go‘zal Cho‘lpon” bo‘lib porlab turgan 20-yillarda uning she‘rlariga nisbatan to‘g‘ri baho berilgan maqolalar ham bosilgan edi. Biroq O.Sharafiddinov bu maqolalarni tahlil qilarkan, shunday xulosaga keladi: “...bu taqrizlar har qancha xolisona yozilgan bo‘lmasin, ularning hammasidan ham yangi chiqqan shoirga nisbatan mehr va e‘tibor har qancha barq urib turmasin, ularni biz Cho‘lponni anglash yo‘lidagi biron-bir jiddiy yutuqlar deb atay olmaymiz. Ular juda yorlaqaganda Cho‘lpon yuksakligiga olib boruvchi ulkan zinaning birinchi pillapoyalari edi, xolos”. Darhaqiqat, olim ta’kidlaganidek, garchand bu maqolalarda Cho‘lponni “xalq shoiri emas, ziyolilar shoiri” degan tanqidlar yozilgan bo‘lsa ham, bu sifat siyosiy ayb sanalmas edi. Shoirdagi bir kayfiyat, o‘ziga xos bir xususiyat deb qaralardi.

Olim cho‘lponshunoslikdagi navbatdagi bosqich Aynning “O‘zbek yosh shoirlari. Cho‘lpon” maqolasi bilan boshlanganini uqtirib, uni batafsil tahlil etadi. Bu o‘rinda uning uslubidagi xolislik va kenglik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Chunonchi, “Ayn” — Olim Sharafiddinovning adabiyot maydonida tasodifiy odam emasligini, Alisher Navoiy ijodiga bag‘ishlab kitob yozgani, ko‘ngillilar qatorida urushga ketib, jangda vafot etganigacha yozadi. Tabiiyki, bunday faktlar ijodi tahlil qilinayotgan insonga nisbatan ehtirom alomati. Maqoladagi ayrim ijobiy fikrlarga to‘xtalgan Ozod Sharafiddinov adabiyotga “sinfiylik ko‘zoynagi”dan qaragan maqola muallifi bilan bahsga kirishadi, e‘tirozlarini bayon etadi. Bu bahs va e‘tiroz nafaqat Ayn, balki adabiyotni jonlantirgan, badiiy ijodni bir “qolip”ga solgan va ijodkorlar ustidan siyosiy hukmronlik qilgan o‘sha davrning mafkuraviy hayotiga ham to‘la taalluqlidir. Adabi-

yot bo‘stonini vayron etgan bu tamoyil ustida chuqurroq mulohaza yuritilsa, bir talay savollar paydo bo‘ladi: “Darhaqiqat, Pushkinni qaysi sinfning vakili desa bo‘ladi? Dehqonlar sinfidanmi? Dvo-ryanlar vakilimi? yoxud shaharda yashovchi hunarmand-kosiblar shoirimi? Alisher Navoiy-chi? U kimning vakili bo‘ladi? Hukmron ekspluatatorlar manfaatini ko‘zlaganmi? Yo boshqa biron sinf vakilimi? Ko‘rinib turibdiki, masalani bu tarzda qo‘yadigan bo‘lsak, adabiyotning mohiyatini buzuvchi, shoirni masxara qilishdan boshqa narsaga yaramaydigan xulosalar kelib chiqadi”. Ozod Sharafiddinov badiiy adabiyotga noto‘g‘ri, g‘ayriestetik, g‘ayriilm-iy yondashuv tamoyillari oxir-oqibat ijodkorni badnom qilishga, biryoqlamalikka va tuturuqsizlikka olib kelishini ta’kidlaydi.

Cho‘lpon otilgandan keyin ham, “ulug‘ millatlar otasi” o‘lgandan so‘ng ham shoir ijodiga munosabat deyarli o‘zgarmagan edi. Uning asarlari bosilmadi, nomi iste’dodli shoirlar qatorida tilga olinmadi. 50-yillardan Cho‘lpon asarlari qayta nashr etila boshlangan 90-yillargacha o‘tgan davr hodisalariga Ozod Sharafiddinovning o‘zi guvoh bo‘ldi. Mustabid tuzum davrida yozilgan “Yillar va yo‘llar” maqolasidagi fikrlar, domla muharrirligi ostida chop etilgan “Tirik satrlar” o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgani yo‘q. Professor U.Normatov xotirlashicha, “Muznoma” muqovasiga o‘rab sotilgan “Tirik satrlar” “vaqtida o‘zining tarixiy missiyasini a’lo darajada” bajargan edi. Bu xizmatlarni Cho‘lponga muhabbatli olimning, dovyurak noshirlarning kishanlangan hurlikni ozod etish yo‘lidagi ulkan jasorati sifatida baholash lozimdir.

Nazarimda, Ozod Sharafiddinov yuksak bir sodda uslubga erishgan, o‘quvchi tushunadigan tilda yozadigan, matnni o‘rinli-o‘rinsiz atamalar bilan “bezash”ni xush ko‘rmaydigan olimlar toifasidan edi. Agar olimning cho‘lponshunos sifatida yozgan asarlariga uslubiy nuqtayi nazardan qaralsa, jo‘shqin ehtiros, o‘quvchi bilan muloqot yoki unga murojaat, kirish so‘z va ta’kidlarni, ba’zan bay-

onida grammatik shaxs qo‘shimchalarining birlik-ko‘plik sonda almashib kelish hollarini ko‘rish mumkin. Masalan, matn ichidagi “Hoy, birodarlar! Nima qilayapsizlar?”, “Siz, birodar, ko‘p hovliqavermang...”, “Iye, shoshmang, axir...”, “Endi o‘zingiz tasavvur qiling...”, “Ko‘ryapsizmi...”, “Bir lahza o‘ylab ko‘raylik...”, “Shaxsan men...”, “Men qat’iy aminmanki...” kabi iboralardan o‘quvchi tuyqus sergak tortadi yoki ilmiy muhokamalardan toliqqan asab tolalari bir lahza orom oladi. Ayniqsa, maqolalari tilidagi “qorong‘i kechalarning tongi otmadi”, “to‘rga ilingan baliqday”, “quyosh charaqlab turgan osmonda to‘satdan momaqaldiraq gumbirlagandek bo‘ldi” kabi o‘xshatishlar, “eski hammom, eski tosligicha”, “bir balosi bo‘lmasa, shudgorda quyruq na qilur”, “behuda urinish belni sindirar”, “yetti uxlab tushiga kirmagan” kabi xalqona hikmatlar, frazeologik birliklar olimning maqolalarini o‘qishli qiladi, mazmun-mohiyatini bezaydi. Shuningdek, Ozod Sharafiddinovning asarlarida iste’dod tabiatiga, umumadabiyotga, san’atkor yoki munaqqidga tegishli “Haqiqat yo‘lida aytilgan otashin So‘z mangu yashaydi”, “Haqiqiy iste’dod egasi hech qachon jo‘ngina formulaga tushadigan yuzaki odam bo‘lmaydi”, “Bunaqa munaqqidlar yoxud “olimlar” nog‘orachining bachasiga o‘xshaydi – hali nog‘oroning tak-tumi eshitilmasdan, nog‘orachi cho‘pini qo‘liga olishi bilanoq muqom qilib, yo‘rg‘alay boshlaydi” kabi xotirada muhrlanib qoladigan quyma fikrlar ham talaygina.

Cho‘lpon she‘rlarida kishan bilan hurlik tazodi ko‘p uchraydi. Ozod Sharafiddinov cho‘lponshunoslar sardori sifatida Cho‘lpon ruhiyatini, murakkab davrning ziddiyatlarini, shoir qalbidagi hurlik istagini chuqur angladi, teran tushuntirdi. Cho‘lponshunoslikdagi bu jarayonlar, ya‘ni asarlarini tadqiq qilish, adabiy matnlarni qiyoslash, turli vaqqli matbuot nashrlaridan she‘rlarini izlab topish va, eng muhimi, kelajakda mukammal asarlar to‘plamini nashrga tayyorlash — Ozod Sharafiddinov boshlab bergan sharaffi ishlar davom etadi, albatta.

### *Cho'lpon she'riyati obrazlari haqida ba'zi mulohazalar.*

Ayniqsa, shoirning XX asr boshlarida yaratgan asarlarida poetik obrazlarning yangilanishi, ularning yangicha talqinlarda qo'llanishi ko'zga tashlanadi. Bu borada professor Dilmurod Quronovning "Biz Cho'lponni haqli ravishda yangicha ijodkor deb ataymiz... Ayni paytda hech bir ijodkor, hatto eng buyuk iste'dod sohiblari-da o'zini voyaga yetkazgan xalq madaniyati ta'siridan butkul uzilib ketolmaydi. Tabiiyki, Cho'lpon she'riyati ham quruq joyda yuzaga kelgani yo'q, mumtoz adabiyotimizning eng yaxshi an'analari unga asos bo'lib xizmat qildi. Buni, xususan, Cho'lpon she'riyatida "oshiq" va "yor" obrazlari talqinida ham kuzatamiz... degan fikrlari o'rinli<sup>103</sup>. An'anaviy poetik obrazlar: "oshiq", "ma'shuqa", "raqib", "do'st" shoir she'riyatida yangicha talqinlar: *birinchidan*, shoir e'tiqodi, iste'dodi tabiati va uning yangilikka intilish niyati bilan bog'liq holda; *ikkinchidan*, ijtimoiy hayot talablari va mavjud ziddiyatlarni yengishga harakat tarzida yuzaga chiqdi.

Mumtoz adabiyotda eng ko'p qo'llangan, Cho'lpon ham e'tibor qaratgan poetik obrazlardan biri *oshiq* bo'lib, bu obraz jadid she'riyatida keng miqyosda tadqiq etilgan. U "bulbul", "qul", "ko'ngil", "jon", "daraxt" kabi poetik timsollar bilan tanosubiy munosabatda keladi. U qaysi ko'rinish yoki timsol vositasida ifodalanmasin baribir "oshiq" timsoli orqali shoirning "men"i tasvirga olinadi:

*Keng dalada kiyik o'ynar,  
Kiyik ko'zin yigit o'ylar,  
Kiyik ko'zi ko'ngil tortar,  
Oshiq ko'rsa dardi ortar.*

Shoir istiora vositasida yorni "kiyik" timsoli orqali poetik idrok etadi, keng dalada o'ynayotgan kiyik, bu o'z yurtida emin-erkin yurgan ma'shuqadir. Kiyik ko'zli yor oshiq dilini tortadi va buni

<sup>103</sup> Quronov. D. "Yol esdaligi" da tagma'no qatlamiga doir // Sharq yulduzi 1998-yil 1-son. B. 162.

ko'rgan oshiqning dardi ortib, uning muhabbati yanada alangalana-  
di<sup>104</sup>. Shoirning xulosasiga ko'ra, Tangri sevgini yaratgan ekan, u bek,  
xonlarning o'rdalarida maskan tutishi, dushmanlar bilan yovlashi-  
shi uning "hunar"i emas. Mumtoz adabiyotdagi muhabbat mavzusi  
Cho'lpon she'riyatida erk timsolida o'zining yangicha talqinini to-  
padi. Ya'ni sevgi dala-yaylovlarga tarqalgan bo'lib, u erklilikni yo-  
qtiradi, shuning uchun ham kiyik timsoli va "yaylov" majozii keladi.

"Po'rtana" she'rida oshiq obrazi an'anaviydek tuyulsa-da, nozik  
didli, tez fahmli o'quvchi boshqa bir ma'noni ham topa oladi.

*Ko'piklar... u oppoq, sanoqsiz ko'piklar*

*Yulduzdek jimirlab turalar,*

*Ko'piklar... u kichik, chiroyli ko'piklar*

*Oshiqning ko'nglidan uralar...*

Bu yerdagi "oshiq" shoirning o'zi. Asarning o'tgan asrning  
20-yilida yozilganiga e'tibor beradigan bo'lsak, bolsheviklar to-  
monidan berilgan va'dalar asli puchligi, rus bosqinchilik siyosatini-  
ing boshqacha ko'rinishi ekanligini ziyolilarimiz keyinroq tushun-  
di. Bizningcha, ushbu she'r ham mana shunday idrokning bir na-  
munasidir. "Oppoq", "sanoqsiz" ko'piklar — millatimizga berilgan  
yolg'on va'dalardir. Achinarlisi shundaki, ular "oshiq"ning ko'ngli-  
dan urganligidir. Negaki, xalq hali o'zining holini idrok qila olish  
imkoniyatiga erishgan emas. Zamon va tuzum o'rtasidagi nomuta-  
nosiblik, xalqni zo'rlik bilan savodsizlik botqog'iga itarish natijasi  
o'laroq xalq o'zligidan judo bo'lgan. Shuning uchun ham "oshiq"  
obrazi orqali shoir siymosi namoyon bo'lib, u mustabid tuzum  
qarshisida zohiran ham botinan himoyasiz xalq holiga achinadi.  
Cho'lpon soddadil elning yangi bir qiyofasini, ishonuvchanligini  
yuqoridagi kabi yashirin ma'nolar orqali ochib berarkan, *po'rtana*  
timsoliga qo'shimcha ma'no yuklaydi. Endi *po'rtana* mum-  
toz she'riyatdagi an'anaviylikdan uzoqlashib, haqsizlikka qarshi

<sup>104</sup> Quronov. D. "Yol esdaligi" da tagma'no qatlamiga doir//Sharq yul-  
duzi 1998-yil 1-son.B. 158-b



isyonkor timsolga aylanadi. Natijada she'r o'ch olishga chorlovchi so'zlar bilan yakunlanadi: "Ko'p ezgan dushmandan, past jondan O'chni ol, o'chni ol, o'ch ol..."

Shoir she'riyatida "ma'shuqa" obrazi ham o'ziga xos tasvirga ega. "Ma'shuqa" obrazining "Tangri", "xalq", "ma'rifat", "malak", "xayol" shakllari mavjud. Bu shakllar bevosita ijtimoiy-ilohiy mazmuni ifodalashda shoirga qo'l keladi. Uning "O'zbekim" she'rida quyidagi lavha chizilgan:

*So'lqildab kelasan, o'zbekim,  
Ma'rifat otiga o'tlanib,  
Bir miri topgan boladay –  
Og'zingni irjaytib... suyunib.  
Dunyoda hamma xalq qiziqqan  
Gavhardek bebaho ot edi.  
Hurriyat bo'lganda sen kelding,  
Minayin semirgan otga deb,*

misralarida shoirning alamli kechinmalari o'z aksini topgan. Ma'rifat otiga o'tlanishga da'vat shoir ijodidagi ma'shuqa obrazini ifodalaydi. Ma'rifat o'z nomiga ko'ra Yaratgan bilan bog'liq. Ammo shoir bu o'rinda "ma'shuqa" obrazi orqali Ollohni emas, ijtimoiy o'zlikni yoqlaydi va unga intiladi.

*Xayol, xayol... Yolg'iz xayol go'zaldir,  
Haqiqatning ko'zlaridan qo'rqaman.  
Xayoldagi yulduzlarkim, amaldir,  
Olovimni alar uchun yoqaman.  
Go'zal xayol, kel, boshimda gul o'ynat,  
Manim istak-tilagimni erkalat!*

She'r mazmunidan bilish mumkinki, lirik qahramon ruhiyatida xayol poklik ramzi. U haqiqatga eltuvchi ko'prik – agar u toza dilda makon tutgan bo'lsa. Shuning uchun ham shoir xayol ummoniga g'arq bo'ladi. Shoir uchun xayol ijtimoiy hayot iztiroblaridan forig' bo'lish vositasi emas, ma'shuqaga yetishish uchun "os-

hiq”ning yagona yo’li. Aks holda shoir ongli bo’la turib, insonlar tilida so’zlashishga qodir bo’lmagan yaratilqlar bilan tillashmagan bo’lardir. U butun koinot mehvari bo’lmish – inson, ya’ni oshiq. Uning tilagi sof. Xayoli esa yorga yetishishga ko’mak beruvchi do’stir. Bu timsol (xayol) Umar Xayyom, Pahlavon Mahmud, Lutfiy singari ijodkorlarda ham ana shu mazmunda kelgan. Ammo mumtoz shoirlar ijodidagi xayol Cho’lponnikidan farqli. Bu shoirlarning yori biror shaxs yoki Yaratuvchi Haq bo’lsa, Cho’lponning yori haqiqat, istiqloq va erk. Shu bilan birga mustabid tuzum zug’umida o’rtanayotgan millat.

Ayni yo’nalishda Cho’lpon she’rlaridagi “ma’shuqa” obrazi talqinida uni vatanga mengzash, yor muhabbati orqali diyorga bo’lgan munosabatni ifodalashni professor Dilmurod Quronov shunday qayd etgan: “Mumtoz she’riyatimizda faol qo’llaniladigan mazkur ramzlarga Cho’lpon yangi ma’no yukladi: uning talqinida “yor” — yurt ozodligi-yu, “oshiq” — erkka tashna ko’ngil. Ya’ni, mutasavvif shoirlar intilgan ma’naviy estetik ideal Haq bo’lsa, Cho’lpon intilib yashagan ijtimoiy-estetik ideal yurt ozodligi bo’lib qoldi. Bundan anglashiladiki, Cho’lpon ijodiyotidagi ramzlar, asarlari qatidagi botiniy mazmun mumtoz she’riyatimizdan turtki olgan holda tushunilishi lozim. Zero, Cho’lpon tasavvuf she’riyatidan nafaqat quruq shaklni, ruhini-da o’zlashtirgandek”<sup>105</sup>.

Shoir “*Suygan choqlarda*” she’rida murojaat etgan an’anaviy poetik obrazlardan yana biri “*bulbul*” timsoli bo’lib, unga lirik qahramon qalb kechinmalari singdirilgan:

*Gunafshalar qulog’imga madhingni*  
*So’zlab-so’zlab charchadilar, bitmadi...*  
*Alamzada bulbul yig’lab, kechalar*  
*Alamingning so’ngin tamom etmadi.*

Mumtoz she’riyatdagi bulbul odatda, kechalar alamli yig’lasa ham, o’z dardini aytib, ya’ni gul ishqida oshiqligidan no-

<sup>105</sup> Quronov. D. “Yol esdaligi” da tagma’no qatlamiga doir//Sharq yulduzi 1998-yil 1-son.B. 162

lon yig'lar edi. Shoir bu o'rinda bulbul timsolining mumtoz she'riyatdagi vazifasini saqlab qolgan bo'lsa ham, biroq uning talqinidagi bulbul o'z dardini emas, shoir ma'shuqasining hikoyasini alamli so'ylab, bu hikoyani aytib tamom qila olmaydi. Shoir tasavvuridagi qismatni falsafiy ifodalashda "bulbul" timsolidan foydalangan:

*Ko'zingdagi hikoyaning mazmunin,  
Shoir bo'lsam, aytib-aytib yig'lardim.  
O'shal, eski jarohatli qalbinni,  
Satrlarning nashtari-la tilardim.*

Cho'lpon "eski jarohatli qalb" sifatida asrlar bo'yi ezilgan, mehnat bilan kun ko'rgan xalq dardini nazarda tutadi, natijada yor ko'zidagi hikoyaning "mazmuni" millat dardi ekani ma'lum bo'ladi. Millat holiga achinish bilan birga xalq qalbi jarohatli ekanini anglaydi. Shoir bu timsol orqali an'anaviy obraz "oshiq"ni tasvirlasa ham u faqatgina yor ishqida kuygan jafokor emas, balki millat va elning a'zosi sifatida u bilan darddosh bo'lgan insondir. Shuning uchun she'rning so'nggi bandida bulbulning musiqali ovozi faqat o'z sevgisini emas, balki dardli elning hasratini ifodalashga qaratiladi. Ko'ringanidek, Cho'lpon she'riyatida ko'hna adabiyotdagi yuzlab an'anaviy obrazlardan faqat ayrimlarigina ishtirok etgan bo'lsa ham ular mumtoz timsollarning aynan takrori bo'lib qolmadi, balki zamon talablari asosida yangilandi. Shuningdek, ba'zi an'anaviy timsollar mohiyatan mumtoz xususiyatlarni saqlab qolgan bo'lsa-da, ularni ichdan yangilashga, yangicha ma'no qatlamlarini ochishga xizmat qilganligi kuzatiladi.

**"Kecha va kunduz" - birinchi roman-dilogiya.** «Kecha va kunduz» romanidan parcha dastlab 1935-yilda «Sovet adabiyoti» jurnalida e'lon qilingan edi. 1936-yilda u alohida kitob bo'lib bosilib chiqdi. Asar, nomlanishidan ma'lum bo'lganidek, yaqin o'tmishni mavzu qilib olgan<sup>106</sup>.

<sup>106</sup> Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. (Дарслик) Т. Маънавият, 2004. 290-бет.

«Kecha va kunduz» mavzu va yoʻnalishiga koʻra Abdulla Qodiriy «Oʻtgan kunlar»ining davomidir. Asarda XX asr boshidagi Turkiston hayoti, turgʻunlik va tutqunlikda mudragan oʻlkadagi uygʻonish lavhalari qalamga olinadi. Romanning bosh gʻoyasi, asosan, maishiy turmush manzaralari, anʻanaviy kundoshlik mojarolari va yangi davrga xos boʻlgan xususiyatlar, chunonchi, “kapitalistik munosabatlar” va “burjua axloqi” deb atalgan, islomiy turmush tarzidan uzoq feʼl-odatlar tasviri yordamida ifodalanadi.

Zebi va uning fojiali taqdiri asarning markazida turadi. Zebi - 15 ga kirgan shaharlik kambagʻal bir qiz. Koʻzga yaqin, dutorni sayratadi, ashulasi eshitganni mahliyo qiladi. Otasi Razzoq soʻfi badqovoq, uning ustiga oʻlguday taqvodor, eshon bobosining gapidan bir qadam chiqmaydigan, johil bir kishi.

Onasi Qurvonbibi — mushtipar ayol. Asar Zebining bahor kunlaridan birida dugonasi Saltanat bilan qishloqqa oʻynab kelishga ketishi voqealaridan boshlanadi. Oydinkoʻldagi Xalfa eshonning kichik qizlari nomini oʻrtaga qoʻyib, bir amallab, otasidan ruxsat olib, qishloqqa borgan Zebi, oʻzi bilmagan holda, mingboshi Akbaralining tuzogʻiga tushib qoladi. Akbarali dong taratgan amaldorlardan, badavlat. Lekin xunuklikda ham, qoʻpollikda ham hech kim uning oldiga tusha olmaydi. Na savod bor, na ilm. Hamma ishni uning yordamchisi Miryoqub qiladi. U savlat, xolos. Uch xotini bor. Ulargacha ham uylangan — oʻlgan. Kattasining oti — Xadicha, oʻrtanchasi — Poshshaxon. Kenjasi — Sultonxon, 19 yoshda. Hamma kundoshlar kabi mingboshining katta xotinlari oʻzaro inoq. Ular uchun Sultonxondan katta dushman yoʻq. Zebixonning bu tomonlarga kelishi kundoshlar koʻnglidagi qora niyatning amalga oshishiga imkon beradi. Akbaralining birgina fazilati bor edi, ashulani yaxshi koʻrardi. Xullas, bir qator mojarolardan soʻng Zebini unga olib berishga muvaffaq boʻladilar. Qiz taqdirga tan beradi. Ikki katta kundosh shu tariqa oʻz nafsoniyatlarini qondirgan boʻladilar. Biroq koʻp oʻtmay, yangi dard — meros dardi boshlanadi. Mingboshining oʻgʻli yoʻq. Xadichadan koʻrgan

birgina Fazilat degan qizi bor, u - birovning omonati. Yosh xotin mingboshini o'ziga bog'lab olgan, meros egasi ham shu bo'ladi. Yo'lini qilish kerak. Mana shunday o'ylar Poshshaxonga tinchlik bermaydi, chunki u o'ynashiga davlat bilan borishi kerak. Nihoyat, u mash'um bir qarorga keladi. Payt poylab, Zebining duo solingan irim suvini to'kib, o'rniga zahar solib qo'yadi. Bu bilan u ham Zebidan, ham Sultonxondan qutulmoqchi edi. Chunki, ish bitganida, shubha unga emas, Sultonxonga tushardi. Lekin voqealar oqimi boshqacha kechdi. Choynak «suv»i Zebiga emas, mingboshiga nasib qildi va begunoh Zebi yetti yilga Sibirga surgun qilinadi. Asar Zebilar xonadonining fojiali yakuni bilan tugaydi<sup>107</sup>.

Romanda muhim o'rinni Miryoqub chizig'i tashkil qiladi Miryoqub — alohida bir tip. U g'oyat ephil, ishbilarmon. U aralashmasa, hech bir ish bitmaydi. Shuning uchun uni «Miryoqub epaqa» dey-dilar. U Akbarali mingboshining o'ng qo'li. U ozgina muddat yo'q bo'lsa, tamom, mingboshi nima qilarini bilmay qoladi. Aslida, uning savodi ham haminqadar, bilimi ham unchalik zo'r emas. Lekin ziyrak, murosamadorani o'rniga qo'yadigan, chinakam korchalon.

Romanda davr manzaralari haqqoniy va ta'sirchan tasvirlangan. Jadid — qadim bahslari, Birinchi Jahon urushi va mardikorlik voqealari, «Tarjimon», «Vaqt» gazetalari bilan bog'liq ma'lumotlar, Orenburgdagi mashhur «Husayniya» madrasasi tafsilotlari asar to'qimasiga mahorat bilan singdirib yuborilgan.

«Kecha va kunduz» o'zbek romanchiligi taraqqiyotida muhim voqea bo'ldi. U «O'tkan kunlar» boshlab bergan yo'lni muvaffaqiyat bilan davom ettirdi. Tariximizning g'oyat murakkab va ma'suliyatli bir davrini, milliy uyg'onish tariximiz manzaralarini haqqoniy yoritib berdi. Esda qoladigan bir qator obrazlar yaratib, o'zbek romanchiligini yangi, yuksak pog'onaga olib chiqdi.

---

<sup>107</sup> Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. (Дарслик) Т. Маънавият, 2004. 291-бет.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. "Cho'lponni anglash" asari haqida qisqacha gapiring.
2. Cho'lpon ijodiga sovet davrida munosabat qanday bo'lgan?
3. "O.Sharafiddinov – cho'lponshunos" mavzusida gapirib bering.
4. Cho'lponning tarjimonlik faoliyati haqida so'zlab bering?
5. Cho'lponning adabiy-tanqidiy mavzudagi maqolalaridan qaysilarini bilasiz?
6. 10-yillardagi hikoyalardan keskin ajralib turadigan hikoyalari qaysilar?
7. "Adabiyot nadur" maqolasida adabiyotga qanday ta'rif bergan?
8. Zaki Validiy Cho'lpon hayoti va ijodida qanday o'rin tutadi?
9. Nosir sifatidagi faoliyati haqida ma'lumot bering?
10. "Kecha va kunduz" romanining mavzu va g'oyasi qanday?

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvidagi ma'ruzasi// Xalq so'zi – 2017 yil, 4 avgust.

2. Абдирашидов Зайнабидин. Аннотированная библиография туркестанских материал газете “Таржуман” (1883– 1917).

3. Абдуллаев Ҳ. Хоразм адиблари. – Урганч: Хоразм, 1998. –70 б.

4. Абдуллаев Ҳ. Қадрият қатралари. – Урганч: Хоразм, 1996. – 90 б.

5. Абдуллаев Ҳ. Сўз сеҳри. – Тошкент: нашриётсиз, 2005. – 60 б.

6. Абдирашидов Зайнабидин. Исмаил Гаспринский и Туркестан в начале XX века: связи-отношения-влияние. Тошкент: Академнашр, 2011.

7. Абдулла Қодирий бадиий дунёси. Тошкент: Университет, 1994. 120 бет.

8. Абдусаматов Ҳ. Танқидми, тош отишми? Тошкент: Фан. 1992. 88 бет.

9. Аллиев А. Истиқлол ва адабий мерос. Тошкент: Ўзбекистон, 1997. 216 бет.

10. Arziqulov A. U. Interfaol usullar. Samarqand, 2003

11. Asad Asil . “Chaqmoqdek chaqnagan hayot”. “Sharq yulduzi”. 2014-4.

12. Айний. Шеърлар. // Садоий Туркистон, Буюк бобомиз-

нинг мусибатила паришон ўлан хотирдан бир нечапаришон Айний Садриддин. Намунаи адабиёти тожик. Москва, 1926.

13. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент, 2002. – 536 б.

14. Белинский В.Г. Сочинения. Т. 1. –М.: Изд-во АН, 1953. – 574 с.

15. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – М.: Наука, 1965. – 522 с.

16. Боқий Н. Қатлнома. Тошкент: Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1992. 208 бет.

17. Baldauf World. Ingeborg. // Die Welt Jadidism des Islams, in Central Asia within Vol. Reformism and Modernism in the Muslim New Ser ., 41, Issue 1, 2003. pp. 72–88.

18. Бахтияров Саъдиддин. Ташканддан мактуб (Таржумана махсус) // Таржимон, 1894.

19. Бегали Қосимов. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. –Тошкент. 2002. 324–342 бет.

20. Бехбудий Маҳмудхўжа. Вахдати лисон-дил бирлиги // Таржимон, 1906, 61-сон.

21. Чўлпон. Адабиёт надир. (Адабий-танкидий мақолалар, Чўлпон ҳақида хотиралар.) Тўпловчи ва изоҳ муаллифлари: Д.Куროнов, З.Эшонова, У.Султонов. Тошкент: Чўлпон, 1994, 35-37-бетлар.

22. Buhl Fr. Millet. In The Encyclopaedia of Islam, New Edition, ed. С.Е. Bosworth et al ., vol. 7. Leiden and London, 1993. pp. 61-64.

23. Gasprinskiy Ismoil. Farogʻat oʻlkasi. Toshkent, 1906.

24. Gʻasparinskiy Ismoilbeki. Musalmononi Dorurrohat. Dushanbe: Dilovar-DDMT, 2002.

25. Ибрат, Сиддикий-Ажзий, Сўфизода. Танланган асарлар. –Т.: Маънавият, 1999.



26. Is'hoqhon to'ra Ibrat .Mezon uz-zamon. –Т.: Ма'naviyat, 2005.
27. Is'hoqhon Ibrat. Tarixi madaniyat, O'z FA SHI qo'lyozmalar fondi, inv. №11616.
28. Is'hoqhon Ibrat yaratgan bog'. Risola, maqolalar, xotiralar, Ibrat asarlaridan namunalar. Namangan nashriyoti – 2018.
29. Is'hoqhon to'ra Ibrat. Istiqlol qahramonlari. Tanlangan asarlar. –Т.: Ма'naviyat, 2005.
30. Исмоил. Русия Туркистони // Таржимон, 1906 , Но.37.
31. Исмоил. Тошкандли шоир "Ками"я (идорадан жавоб) // Таржимон, 1898, Но.41.
32. Исмоил. Умумий лисони адаб // Таржимон, 1906. Но.37.
33. Жалолов А. XIX аср охири ва XX аср бошларидаги ўзбек адабиёти. – Тошкент: Фан, 1991. –154 б.
34. Жумаев Н. Мунис ғазалиёти. – Тошкент: Фан, 1991. –160 б.
35. Жумахўжа Н. Феруз — маданият ва санъат ҳомийси. – Тошкент: Фан, 1995. – 89 б.
36. Жумахўжа Н., Адизова И. Сўздин бақолироқ ёдгор йўқдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995.–153 б.
37. Жумахўжа Н. Сатрлар силсиласидаги сеҳр (Алишер Навоий ғазаллари асосида). – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 224 б.
38. Жумахўжа Н., Адизова И. Ўзбек адабиёти тарихи. Филология ва тилларни ўқитиш йўналиши бакалавриат босқичи учун дарслик. – Тошкент: Инновация – Зиё, 2020. – Б. 474-521
39. Жувонмардиев А. Ҳарф ва рақам. – Тошкент: Фан, 1971. –32 б.
40. Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л.: Наука, 1977. – 407 с.
41. Жомбоқиев Ҳ., Ҳасанов С. Хоразм — кўҳна маданият ўчоғи. – Тошкент: Фан, 1983. – 64 б.

42. Камий. Ҳақойиқ огоҳ, маориф дастгоҳ, устои замон, соҳиби “Таржумон” жаноби Исмоилбек ҳазратларининг руҳи пурфутуҳларина иттиҳоф // Садои Туркистон, 1914, Но.43.

43. Камий. Мўътабар “Таржимон” ва Исмоилбек Гаспринский жаноблари ҳаққинда // Ойина, 1914, Но. 17.

44. Karimov B. Ismoil Gasprinskiy va Cho'lpon.-Ismoil Gasprinskiy va Turkiston. Toshkent: Sharq, 2005.-B.53-58.

45. Жавҳарова Р. Сиддиқ Хондайлиқийнинг адабий мероси. Диссертация. – Т.: 1996.

46. Lazzerini Edward J. Beyond Renewal. The Jadid Response to Pressure for Change in the Modern Age. In Jo-Ann Gross (ed.), Muslims in Central Asia. Expressions of Identity and Change. Durham/London: Duke University Press, 1992, pp. 151-166. Lewis Bernard. The political language of Islam. Chicago/London, 1988 Lison masalasi // Tarjimon, 1905b, No.90.

47. Mir Sarvar. Ta'rixii irtiholi Mirzo Ismoilbek G'asprinskiy // Oyina, 1914, No.6. 19. Muallim Xatoyi. Ismoilbek hazratlari yodig'a // Oyina, ikkinchi yil, 1914, No.3.

48. Mujaddid-i Eron // Tarjimon, 1889, No.20.

49. Мирзаев И. Абдулла Қодирийнинг ижодий эволюцияси. – Тошкент: Фан, 1997. 150 бет.

50. Норматов У. Қодирий боғи . – Тошкент: Ёзувчи, 1995. 220 бет.

51. Норматов У. “Ўткан кунлар” хайрати. – Тошкент. Ўқитувчи, 1996. 80 бет.

52. Pek muhim maktub. Tarjimon, 1906, No.51

53. Қодирий А. Тошпўлат тажанг нима дейдир? Калвак маҳзумнинг хотира дафтарида. – Ташкент, 1993. 104 бет.

54. Қодирий А. Ўткан кунлар. Меҳробдан чаён. Рўмонлар. – Тошкент. Адабиёт ва санъат, 1994, 656 бет

55. Қодирий А. Тўла асарлар тўплами. Олти жилдлик. 1-жилд. – Тошкент. Фан, 1995. 296 бет.

56. Қосимов Б. Маслакдошлар, – Тошкент, Шарқ, 1994. 160 бет.

57. Қўшжонов М. Қодирий — эркисизлик қурбони. Тошкент. Фан, 1992. 96 бет.

58. Қўшжонов М. Ўзбекнинг ўзлиги. Тошкент. Халқ мероси, 1994. 136 бет

59. Рожий Фахриддин. Исмоилбек ҳазратларига // Ойна, 1914, No.49.

60. Sayyoh. Mukolamayi salotin // Tarcuman, 1906, No. 144, 145; 1907, No.3,7.

61. Sidqiy Xondayliqiy.Zarbulmasali Sidqiy.Inv.№7631. O‘zFA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi.

62. Sidqiy Xondayliqiy. Sad irshodi mullo Sidqiy. Inv. №762. Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi. Xondayliqiy. 1998. 3–32-bet.

63. Sidqiy Xondayliqiy. Navbahor. To‘plam. 1984.

64. Sidqiy Xondayliqiy. Tanlangan asarlar.1998.

65. Togan A. Zeki Velidi. Bugünkü türkili (Türkistan) ve yakin tarihi. Cilt I. Istanbul, 1942–1947.

66. Vadud Mahmud. Turk shoiri Ajziy // Inqilob, 1924, No. 11, 12.

67. Van Donzel E. Mudjaddid. In The Encyclopaedia of Islam, New Edition, ed. C.E. Bosworth et al ., vol. 7. Leiden and London, 1993. p. 290.

68. Vasliy. Ta’rixi rihlati janobi Mirzo Ismoilbek sohibi jaridayi "Tarjumon" rohmatallohi rohmatan vasi’atan va adxalahu-l-jinan. // Oйна, 1914, No.52.

69. Xoib Shamsiddingori. Marhum fozil-i nuktadon va fardu-i-zamon noshiri Tarjumoni ahvoli zamon Ismoilbek G‘asprinskiy

janoblarning ta'rix soli favtlari // Turkiston viloyatining gazetasi, 1914, No.80.

70. Храпченко М. Б. Горизонти художественного образа. М: 1984.

71. Шерматова, У. С. Чўлпон ижодида табиат эстетикаси. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 2002.338-6.

### **Internet saytlari**

1. [www.alishernavoiiy.uz](http://www.alishernavoiiy.uz)
2. [www.ziyo-net.uz](http://www.ziyo-net.uz)
3. [www.literature.uz](http://www.literature.uz)
4. [www.kutubxona.uz](http://www.kutubxona.uz)

## MUNDARIJA

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot.....	5
Xorazm adabiy muhiti va davrda adabiy-estetik qarashlar.....	23
Komil Xorazmiy faoliyati va adabiy merosi. Shoir lirikasining badiiy xususiyatlari .....	33
Shoh va shoir – Feruz adabiy merosi va Xorazm adabiy muhiti.....	64
Ahmad Tabibiy hayoti va faoliyati, adabiy merosi .....	94
Avaz O'tar va Xorazm adabiy muhiti. Shoirning ma'rifatparvarlik lirikasi.....	107
Muhammad Yusuf Bayoniyning hayoti va faoliyati. Xorazm adabiy muhitida shoir adabiy merosining o'rganilishi.....	122
Muqimiy adabiy merosi.....	140
Furqat va milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti.....	151
Is'hoqxon To'ra Ibrat hayoti va adabiy merosining o'rganilishi.....	164
Turkistonda matbuotning shakllanishi.....	182
Ismoil Gaspirali va Turkiston jadidchilik harakati .....	191
Sidqiy va So'fizoda ijodi.....	197
Abdurauf Fitrat.....	209
Hamza Hakimzoda Niyoziy.....	217
Abdulla Qodiriy ijodining o'zbek va jahon adabiyotshunosligida o'rganilishi.....	228
Cho'lpon.....	243
Foydalanilgan adabiyotlar.....	262

## СОДЕРЖАНИЕ

Общественно-политическая, культурная жизнь в Туркестане в конце XIX - начале XX веков.....	5
Хорезмская литературная среда и литературно-эстетические взгляды эпохи.....	23
Деятельность и литературное наследие Камиля Хорезми. Художес.....	33
Правитель и поэт Феруз и литературная среда Хорезма.....	64
Жизнь и творчество, литературное наследие Ахмада Табиби.....	94
Аваз Утар и литературная среда Хорезма. Просветительская лирика поэта.....	107
Жизнь и творчество Мухаммада Юсуфа Баяни. Изучение литературного наследия поэта в Хорезмской литературной среде.....	122
Литературное наследие Муками.....	140
Фуркат и узбекская литература периода национального возрождения.....	151
Изучение жизни и литературного наследия Исхакхана Туры Ибрат оглы.....	164
Развитие прессы в Туркестане.....	182
Исмаил Гаспринский и движение джадидов в Туркестане.....	191
Творчество Сидки и Суфизаде.....	197
Абдурауф Фитрат.....	209
Хамза Хакимзаде Ниязи.....	217

Изучение творчества Абдуллы Кадыри в узбекском и мировом литературоведении.....	228
Чулпан.....	243
Использованная литература.....	262

## TABLE OF CONTENTS


Socio-political, cultural life in Turkestan at the end of the XIX century - the beginning of the XX century.....	5
Literary environment of Khorezm and literary-aesthetic views in the period.....	23
Kamil Khorezmi's activity and literary heritage. Artistic features of the poet's lyrics .....	33
The king and the poet - the literary heritage of Feruz and the literary environment of Khorezm.....	64
Life and work of Ahmad Tabibi, literary heritage.....	94
Literary environment of Avaz Otar and Khorezm. Enlightenment lyrics of the poet.....	107
The life and work of Muhammad Yusuf Bayani. The study of the poet's literary heritage in the Khorezm literary environment.....	122
Permanent literary heritage.....	140
Furqat and Uzbek literature of the period of national renaissance.....	151
Study of the life and literary heritage of Ishaq Khan Torah Ibrat.....	164
The formation of the press in Turkestan.....	182
Ismail Gaspirali and the Turkestan Jadidist movement.....	191
The works of Sidqi and Sufizada.....	197
Abdurauf Fitrat.....	209
Hamza Hakimzada Niyazi.....	217
Study of Abdulla Qadiri's work in Uzbek and world literary studies.....	228
Cholpon.....	243
Used literature.....	262



**G'AYIPOV DILSHOD QADAMBAYEVICH**

## **O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI**

*(XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari)*



O'quv qo'llanma

Muharrir D.Ulug'murodov  
Musahhah H.Jumaboyeva  
Dizayner B.Haydarov

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan

3996-sonli

TASDIQNOMA berilgan.

Bosishga ruxsat berildi: 08.05.2023 й.

Bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$ . Ofset qog'oz.

«Times» garnituras.

Nashr tobog'i 17.18 Adadi 100 nusxa.

Original maket "FIRDAVS-SHOH" nashriyotida  
tayyorlandi. Toshkent sh, Harakat-3, 10-A uy.

Tel.: 90-372-85-17

ISBN 978-9943-9361-5-7



9 789943 936157